





21-64

SHAVKAT MIRZIYOYEV

**BUYUK  
KELAJAGIMIZNI  
MARD VA OLIJANOB  
XALQIMIZ BILAN  
BIRGA QURAMIZ**

TOSHKENT  
«O'ZBEKİSTON»  
2017

TeRDU ARM  
№ 395086

UO'K 323.(575.1)

KBK 66.3(50')

M 54

2016-yil 4-dekabrda mamlakatimiz hayotida muhim siyosiy voqeа – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘lib o‘tdi. Saylovda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 88,61 foiz ovoz olib, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan.

ISBN 978-9943-28-939-0



9 789943 289390

ISBN 978-9943-28-939-0

© «O‘ZBEKISTON» NMIU, 2017

**ZAMON BILAN HAMNAFAS DIYOR**  
**(ANDIJON VILOYATI SAYLOVCHILAR**  
**VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI**  
**NUTQ)**

the first time, I have seen a *Phalarope* in the nest.

It was a small nest, made of dry grass, and placed in a clump of tall grass.

The female was sitting on the nest, and the male was flying around it.

He was a small bird.

He had a black cap and a white neck.

He was a small bird.

He had a black cap and a white neck.

He was a small bird.

He had a black cap and a white neck.

He was a small bird.

He had a black cap and a white neck.

He was a small bird.

He had a black cap and a white neck.

He was a small bird.

He had a black cap and a white neck.

He was a small bird.

He had a black cap and a white neck.

He was a small bird.

He had a black cap and a white neck.

---

Assalomu alaykum, hurmatli yurtdoshlar!  
Muhtaram do'stlar!

Hammamiz uchun aziz va qadrli bo'lgan Birinchi Prezidentimiz, muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimovning vafoti barchamiz, butun xalqimiz uchun beqiyos og'ir judolik bo'ldi.

Sizlarga yaxshi ma'lum, Islom aka bizni har qanday og'ir vaziyatda ham tushkunlikka tushmasdan, ertangi kunga katta ishonch bilan qarashga va faqat oldinga intilib yashashga o'rgatgan edilar. U kishining «**Hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi**» degan chuqur ma'noli so'zлari bor edi. Buyuk ustozimizning ana shunday o'git va vasiyatlarini qalbimizga, yuragimizga joylab, u kishi boshlagan ishlarni oxiriga yetkazish, shu yo'lда bor kuch-g'ayratimni safarbar etishni shaxsan men o'zimning muqaddas burchim deb bilaman.

Mamlakatimizda shu yil 4-dekabrda bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashish uchun men aynan ana shu g'oyani o'zimga bosh maqsad qilib olganman. Shu ma'noda, bu saylov barchamiz, butun el-yurtimiz uchun O'zbekistonning bundan keyingi rivojlanishi qanday bo'ladi, mamlakatimiz qaysi yo'ldan boradi, farzandlarimiz, oilamiz, butun yurtimiz kelajagini qanday barpo etamiz, degan savollarga, hammamizni oddiy bir fuqaro, inson sifatida o'ylantiradigan

savollarga javob beradigan g‘oyat muhim siyosiy tadbirdir. Saylov jarayonlarida barchamizning avvalo dunyoqarashimiz, siyosiy va huquqiy madaniyatimiz, grajdanlik pozitsiyamiz yana bir bor namoyon bo‘ladi.

Albatta, bugun odamlar quruq so‘z, quruq va‘daga emas, balki har bir nomzodning aniq dasturiga, bu das-tur uning o‘z manfaatlari, el-u yurtimiz manfaatlariiga, hayotning real talablariga qanchalik to‘liq javob berishiga qarab ovoz beradi. O‘ylaymanki, doimo hayot, zamon bilan hamnafas bo‘lib, o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yib yashaydigan Andijon ahli buni yaxshi tushunadi.

Birinchi Prezidentimiz andijonliklarning ayni shunday fazilatlarini juda yuksak qadrlar edilar. U kishining «**Hamisha o‘z va‘dasida turadigan, hamma ishni reja bilan, puxta o‘ylab, joy-joyiga qo‘yadigan, mehnatkash Andijon xalqiga teng keladigan xalq o‘zi kamdan kam topiladi**», degan so‘zlarini men ko‘p eslayman. Bu shunchaki ta’rif emas, chuqur hayot haqiqatiga asoslangan yuksak baho, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Islom aka barcha hududlarimiz qatori Andijon zaminini ham buyuk muhabbat bilan sevar edi. Bunga hammamiz o‘nlab misollar keltirishimiz, bu haqda uzoq gapirishimiz mumkin. Masalan, Muhammadqodir Abdullayev 2000-yilda Sidney Olimpiadasida boks bo‘yicha champion bo‘lganida Islom Abdug‘aniyevich bundan juda faxrlanib, bu xabarni eshitgan zahoti bokschimiz nomiga tabrik telegrammasi yuborgan edi.

Andijonning yana bir fidoyi farzandi – O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning vafotidan so‘ng

uning oilasi, farzandlaridan xabardor bo‘lish, shoirning yubileyлari, xotira tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha shaxsan menga bergen topshiriqlarini yaxshi eslayman.

Bu yil Braziliyada bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiada o‘yinlarida birinchi bo‘lib ikkita andijonlik sportchimiz Hasanboy Do‘samatov va Ruslan Nurudinov oltin medalni qo‘lga kiritganida Islom aka «Mana, Andijon bu safar ham o‘zini ko‘rsatmoqda», deb g‘urur bilan aytgan edilar.

Bir so‘z bilan aytganda, hurmatli Yurtboshimiz yaxshi, xursandchilik kunlarda ham, tashvishli kunlarda ham doimo siz, Andijon ahli bilan birga edi. Buning tasdig‘i sifatida 2005-yilgi Andijon voqealari, 2010-yilgi O‘sh voqealari yuz bergen og‘ir vaziyatlarda Andijon ahlining Birinchi Prezidentimizga tayanib, qanday jasorat va matonat, insoniy fazilatlarini ko‘rsatganini eslash mumkin.

Haqiqatan ham, O‘sh voqealari yuz bergen o‘sha tahlikali paytda qo‘shni davlatdan 100 mingdan ortiq odam panoh so‘rab kelgani bugungidek hammamizning yodimizda.

Mana shuncha odamni, ayniqlsa, ayollar, yosh bolalar, keksalar va bemorlarni qabul qilish, ularni boshpana, oziq-ovqat, dori-darmon bilan ta’minlash, ko‘nglini ko‘tarish uchun sizlar bilan birgalikda qilgan ishlarimizni, qancha-qancha qiyinchiliklarni yengib o‘tganimizni shaxsan men juda yaxshi eslayman.

Mana shunday og‘ir sinov damlarida Andijon ahli, Farg‘ona vodiysi aholisi, butun xalqimiz mehr-oqibat va yuksak insonparvarlik namunasini ko‘rsatganini dunyo tan oldi, qoyil qoldi, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

Bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ham e'tirof etilgani hammamizga ma'lum.

Ming shukurki, endi ana shu kunlar ortda qoldi. Biz jahondagi barcha mamlakatlar, avvalo, yaqin qo'shnilarimiz bo'lgan Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqa davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va o'zaro do'stlik aloqalarini har tomonlama mustahkamlashni o'zimizning ustuvor vazifamiz deb bilamiz.

Biz qo'shnilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo'llini izchil davom ettiramiz. Takror aytaman, qo'shnilarimiz bilan raqobat emas, o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantiramiz. Qo'shnikimizning yutug'i – bu bizning ham yutug'imiz. Ularning tinch va farovon hayoti – butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi deb bilamiz.

Mana shu yo'lda yangi amaliy qadamlar qo'yayotganimiz, jumladan, qo'shni davlatlarning rahbarlari bilan olib borayotgan muzokaralarimiz buning amaliy tasdig'idir. Mana, yaqinda hammangiz guvoh bo'ldinglar, Qirg'izistondan kelgan mehmonlarning Andijon va Farg'ona viloyatlarida, bizning vakillarimizning esa O'sh viloyatida bo'lgani azaliy do'stlik aloqalarini mustahkamlashga munosib hissa bo'lib qo'shilishi shubhasiz.

Tarixga qarasak ham, bugungi kunga qarasak ham Andijon zaminidan ko'p sohalar bo'yicha qanday buyuk, fidoyi insonlar yetishib chiqqaniga amin bo'lamiz. Chunki millat, el-yurt taqdiri uchun kuyinish, milliy g'urur, or-nomus uchun bel bog'lab maydonga chiqish – Andijon ahliga xos azaliy odat. Mana, ulug'

ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburni olaylik. Bu buyuk zot o'n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o'zini o'tga ham, cho'qqa ham urdi, hech qanday dushmanidan ham, sinovdan ham qo'rwmadi. Qirq olti yillik umri davomida bir zum ham halovat bilmasdan o'tdi. O'z avlodlariga Vatanga bo'lgan buyuk muhabbatni, ezgu fazilatlarni meros qilib qoldirdi.

Yoki yana bir buyuk yurtdoshimiz Abdulhamid Cho'lponni olaylik. XX asr bosqlaridagi millatimiz taqdirini, uning boshiga tushgan fojialarni, ozodlik va erkinlik qadrini hech kim bu mumtoz shoirimiz kabi yuksak pardalarda kuylagan emas. El-yurt taqdiri uchun kuyinib, tinim bilmay yashaydigan ana shunday ajoyib insonlarning davomchilari bugun ham Andijon zaminida ko'plab topiladi.

Hammamiz yaxshi taniydigan, Bobur xalqaro fondining raisi, hurmatli Zokirjon aka Mashrabovni men ana shunday mard, vatanparvar inson deb bilaman. U kishining qilgan ishlari haqida to'liq gapirish, ma'lumot berish uchun o'zi alohida bir konferensiya tashkil etish kerak bo'ladi.

Zokirjon akaning sa'y-harakati bilan Andijonda Zahiriddin Muhammad Boburning ramziy qabri, yodgorlik majmuasi barpo etilgani, uning ijodiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilgani sizlarga yaxshi ma'lum.

Afg'onistonidagi qonli urush tufayli Alisher Navoiy bobomizning vayrona bo'lib yotgan qabr-maqbarasini tiklash va obod qilish maqsadida Bobur xalqaro fondi a'zolari mamlakatimizdagi tegishli tashkilotlar

ko‘magida o‘tgan yili Hirot shahrida ulkan ishlarni bajarib qaytganidan, o‘ylaymanki, sizlar albatta xabardorsiz.

Zokirjon Mashrabov, shu bilan birga, Mavlono Lutfiy va Behzod kabi ajdodlarimizning muqaddas qadamjolarini topish, obod qilish, ularning meros namunalarini yig‘ish, o‘rganish va targ‘ib etish ishlariga bosh-qosh bo‘lib kelmoqda. «**Savob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni har kun qilish kerak**» degan so‘zlarni o‘ziga shior qilib yashayotgan bu fidoyi insonga, kelinglar, hammamiz birgalikda yangi kuch-g‘ayrat, uzoq umr, sihat-salomatlik tilaylik.

Bunday samimiy so‘zlarni «O‘zbekiston Qahramoni» degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan, mireishkor fermerlar Sodiqjon Turdiyev va Siyosatxon Abdullayeva, mohir pedagoglar Shukurjon Mamatqulov va Kamoliddin G‘opirov, Asaka shahridagi avtomobil zavodi ishchisi Hasanboy Qosimov, viloyat «Nuroniy» jamg‘armasining raisi muhtaram Tavakkal Topivoldiyev kabi o‘z mehnati bilan el-yurtimizda obro‘-e’tibor topgan insonlar haqida ham aytish mumkin.

Andijon zamini o‘zbek madaniyati, adabiyoti va san’ati rivojiga beqiyos hissa qo‘sghan Vosit Sa’dulla, Olimjon Xoldor, Saida Zunnunova, Muhammad Ali, To‘lan Nizom, Qamchibek Kenja kabi shoir va yozuvchilari, Soyib Xo‘jayev, Fattohxon Mamadaliyev, Munojot Yo‘lchiyeva, Nuriddin Hamroqulov, Ozodbek Nazarbekov, aka-uka Vahobovlar, Hurriyat Isroi洛ova singari san’atkori bilan ma’lum-u mashhurdir.

Shu o‘rinda xalqimizning ardoqli san’atkori, O‘zbekiston xalq artisti Munojotxon Yo‘lchiyeva o‘z

timsolida nafaqat buyuk o‘zbek madaniyatini, balki o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan kamtarlik, mehr, ibo, nazokat, fidoyilik singari fazilatlarni butun dunyoga namoyon etib kelmoqda, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘silasiz. Eng muhim, bunday san’atkorlarning safi iste’dodli yoshlar hisobidan tobora kengayib borayotgani barchamizni xursand qiladi.

Aziz do‘stlar!

Hammamiz yaxshi bilamizki, Andijon viloyati mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida juda muhim, aytish mumkinki, strategik o‘rin tutadi. Bu zamin ko‘pgina sohalar bo‘yicha eng ilg‘or va salmoqli ulushga ega hududlarimizdan biri ekani haqida ko‘p misollar keltirish mumkin.

Ayniqsa, keyingi yillarda, butun mamlakatimiz kabi, Andijon viloyati ham yuqori sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Albatta, «o‘sish», «rivojlanish» deganda biz faqat raqamlarni, miqdor ko‘rsatkichlarni emas, balki ularning sifat ko‘rsatkichlariga aylanib, xalqimizning kundalik hayotiga, uning ro‘zg‘ori va dasturxoniga qanday ta’sir ko‘rsatayotganiga alohida e’tibor beramiz.

Yana bir muhim tomonini aytadigan bo‘lsak, viloyatda sanoat mahsulotining 95 foizdan ortig‘i avtomobilsozlik, yengil sanoat, kimyo, neft-kimyo, oziq-ovqat sanoati kabi zamonaviy tarmoqlarda ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi kunda viloyatda mavjud 140 ta qo‘shma korxonaning 72 tasi yoki yarmidan ko‘pi oxirgi 5 yil

mobaynida, ilgari bunday korxonalar bo‘lmagan tumanlarda tashkil etilgan bo‘lib, bu keyingi paytda yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirishga qaratilgan katta e’tibor natijasi, desak, xato bo‘lmaydi.

Bu haqda gapirganda, mamlakatimiz sanoatining faxri bo‘lgan Asaka shahridagi «O‘zbekiston – Jeneral motors» qo‘shma korxonasi haqida to‘xtalmasdan o‘tolmaymiz.

Hammamizga yaxshi ma’lum, zamonaviy yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan bu zavodga muhtaram Yurtboshimiz tomonlaridan asos solingan edi. Bu loyihaning o‘z vaqtida naqadar uzoqni ko‘zlab amalga oshirilganiga hammamiz deyarli har kuni ishonch hosil qilamiz. Har kuni ravon yo‘llar, obod ko‘chalarni to‘ldirib, millionlab odamlarni o‘z manziliga yetkazayotgan, har tomonlama qulay, zamonaviy avtomobilarni ko‘rganda, ulardan foydalanganda xalqimiz Birinchi Prezidentimizga rahmatlar aytadi, u kishini qayta-qayta duo qiladi.

Bu zavod ishga tushirilishi bilan mamlakatimizda butun bir yangi tarmoq – avtomobilsozlik sanoati paydo bo‘ldi, u bilan bog‘liq infratuzilmalar, xizmat sohalari shakllandı. Men o‘zim joylarda bo‘lganimda avtomobil sanoati uchun ehtiyoj qismlar tayyorlaydigan yoki shu sohada xizmat ko‘rsatadigan kichik korxonalarining ishi bilan doimo qiziqaman.

Ularning barchasida o‘zimizning yoshlarimiz, kollej va oliy o‘quv yurtlarimizni bitirib chiqayotgan bolalarimiz ishlamoqda. Yurtimizda avtomobilsozlik bo‘yicha yangi sulolalar yetishib chiqmoqda.

Hurmatli yurtdoshlar!

Azaldan tadbirkorlik fazilatlari bilan shuhrat topgan Andijon zaminida **kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi** ham jadal rivojlanmoqda.

Bu haqda gapirganda, keyingi besh yil davomida viloyatda 10 mingdan ziyod yangi kichik biznes subyekti tashkil etilib, ularning umumiyligi soni deyarli 2,5 barobar ko‘payganini qayd etish o‘rnildir. Eng muhim, mehnat bilan band aholining 84 foizi shu sohada faoliyat ko‘rsatib, daromad topmoqda va uning asosiy qismini tadbirkor yoshlar tashkil etmoqda.

Bu ko‘rsatkich yaxshi, albatta. Lekin biz kelgusi besh yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonini 3 barobar ko‘paytirish orqali aholi daromadlarini oshirishni muhim vazifa qilib qo‘ymoqdamiz.

**Qishloq xo‘jaligi** haqida gapiradigan bo‘lsak, andijonliklarning mirishkorligi, izlanuvchanligi, dehqonchilik ilmini chuqur egallagani hammaga ayon.

Mamlakatimiz ekin maydonlarining atigi 6 foizi Andijon viloyatiga to‘g‘ri kelishiga qaramasdan, yurtimizning paxta va g‘alla xirmonida viloyatning ulushi 8–9 foizni, meva-sabzavot yetishtirishda esa 11,5 foizni tashkil etishi har qanday odamni hayratga soladi.

Faqat ishning ko‘zini biladigan, har qarich yerning qadriga yetib, unga butun mehrini, borlig‘ini berib mehnat qiladigan insonlargina bunday yuqori natijalarga erishishga qodir bo‘ladi.

Albatta, viloyatda keyingi besh yilda 122 ming hektar sug‘oriladigan yerning meliorativ holati, 26

ming gektar yerni suv bilan ta'minlash sharoiti yax-shilangani ham yutuqlar omili bo'lmoqda. Shu davrda paxta maydonlari 8,2 ming gektarga yoki 8 foizga qisqartirilib, ko'proq daromad beradigan meva-sabzavot va poliz ekinlari maydonlari kengaytirilgani ham soha rivojida muhim rol o'ynamoqda.

Viloyatning mirishkor dehqon va fermerlari bu yil ham barcha qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha mo'l hosil yetishtirib, uni o'z vaqtida, yuqori sifat bilan yig'ib-terib oldilar.

Fursatdan foydalanib, viloyatning mirishkor dehqon va fermerlarini, barcha dala mehnatkashlarini erishgan ulkan yutuqlari bilan chin qalbimdan tabrik-lab, barchangizga chuqur minnatdorlik bildirishni o'z burchim deb bilaman. Hech qachon kam bo'l mang, umringizdan, mehnatingizdan baraka topping, azizlarim!

Shu o'rinda muhim bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ma'lumki, Andijon viloyati yerdan va ayniqsa, tomorqa xo'jaligidan unumli foydalanish bo'yicha noyob, boy tajribaga ega. Sizlarning mana shunday omilkorligingiz, har qarich yerdan mo'l hosil undirish borasidagi tajribangizni chuqur o'rganib, butun mamlakatimiz miqyosida keng ommalashtirish, **Andijon tomorqachilik maktabining** ilg'or yutuqlarini joriy etish bo'yicha birgalikda harakat qilsak, sizlar nima deysizlar?

Muhtaram do'stlar!

Bugungi kunda Andijon viloyatida 3 million kishi yoki mamlakatimiz aholisining 9,3 foizi istiqomat qilmoqda.

Bu yerda bir kvadrat kilometrga o‘rtacha 676 kishi to‘g‘ri keladi. Bu – mazkur viloyat aholi zichligi bo‘yicha nafaqat Markaziy Osiyoda, balki dunyoda ham yuqori o‘rinlarda turadi, deganidir.

Tabiiyki, ijtimoiy sohadagi islohotlarni amalga oshirishda Andijon viloyatiga xos ana shunday demografik xususiyatlarni har tomonlama hisobga olish talab etiladi. Shu ma’noda, Andijon viloyatining ana shu xususiyatini inobatga olgan holda, kelgusi besh yilda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, tadbirkorlik va kichik biznesni, fermerlik harakatini, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, kasanachilikni rivojlantirish hisobidan yangi ish o‘rinlari tashkil etish va aholi daromadlarini oshirish vazifasi doimiy e’tibor markazimizda bo‘ladi.

Viloyat iqtisodiyotidagi ulkan ijobiy o‘zgarishlar tufayli **aholining turmush darajasi va sifati izchil yuksalib bormoqda**. Buning amaliy ifodasini 2011-yilga taqqoslaydigan bo‘lsak, har 100 ta oilaga to‘g‘ri keladigan avtomobillar soni 1,5 barobar, pilesoslar 2,1 barobar, kir yuvish mashinalari 1,2 barobar, televizor va muzlatkichlar 1,1 barobar ko‘paygani yaqqol tasdiqlaydi.

**Shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o‘zgartirish**, odamlarning yashash sharoitini yaxshilash, ayniqsa, qishloq aholisi uchun shahardagidan qolishmaydigan uy-joylar qurish bo‘yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz namunaviy uy-joylar qurish bo‘yicha boshlangan ishlarning davomi sifatida qishloq aholisi uchun ixcham va arzon uy-joylar qurish haqida

yaqinda yangi qaror va dastur qabul qilganimizdan, o‘ylaymanki, xabaringiz bor. Ishonchim komilki, bu dasturni amalga oshirishda ham sizlar barchaga ibrat va namuna bo‘lasiz.

**Viloyatda transport infratuzilmasini, muhandislik va axborot kommunikatsiyalarini rivojlanтирish bo‘yicha ham ulkan ishlar qilinmoqda.**

Mustaqilligimizning 25 yilligi arafasida Qamchiq dovoni orqali o‘tadigan, dunyoda o‘xhashi kam bo‘lgan, 19 kilometrlik noyob tunnelni o‘z ichiga olgan Angren–Pop elektrlashtirilgan temiryo‘lining foydalanishga topshirilgani yurtimiz hayotidagi muhim voqeа bo‘ldi. Bu yo‘lning ishga tushirilishi Farg‘ona vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o‘rtasida temiryo‘l orqali yuk va yo‘lovchi tashishda beqiyos qulayliklar yaratdi. Shu munosabat bilan Andijon shahridagi temiryo‘l vokzali rekonstruksiya qilindi. Uzunligi 28 kilometr bo‘lgan Andijon–Quva temiryo‘li elektrlashtirildi, 195 kilometr temiryo‘l kapital va joriy ta’mirlandi.

Bunday misollarni gaz tarmoqlarini qurish va ta’mirlash, optik tolali aloqa tarmoqlarini ishga tushirish, Internetdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli televideniyega o‘tish borasida olib borilayotgan ishlar haqida ham keltirish mumkin.

**Ijtimoiy hayotimizning yana bir muhim sohasi – sog‘liqni saqlash tizimidagi ishlar** ham izchil davom ettirilmoqda. Viloyatda oxirgi besh yilda 14 ta tibbiyot muassasasida va 127 ta qishloq vrachlik punktida qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirilgani va boshqa misollar ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ayni vaqtida biz bu sohada Birinchi Prezidentimiz tomonidan yaratilgan tizimni yanada takomillashtirish, jumladan, qishloq vrachlik punktlari, ixtisoslashgan tibbiyot markazlari faoliyati samaradorligini oshirish, zamonaviy tibbiyot imkoniyatlari bilan aholini ko'proq qamrab olish maqsadida Hukumatning 4 ta qarorini qabul qilish bo'yicha ish olib boryapmiz.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda hal qiluvchi o'rinn tutadigan **ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlar** ko'ldami tobora ortib bormoqda. Bu borada 229 ta umumta'lim mакtabida, shuningdek, kasb-hunar kollejlari, bolalar sporti inshootlari, musiqa va san'at maktablarida katta hajmda qurilish va rekonstruksiya hamda kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilganini ta'kidlash lozim.

Butun mamlakatimiz kabi Andijon viloyatida ham aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Buning natijasida oxirgi besh yilda viloyat sportchilari jahon va Osiyo miqyosidagi nufuzli musobaqalarda 415 ta oltin, 588 ta kumush va 716 ta bronza medalini qo'lga kiritishga erishdilar.

Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallah uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, «ommaviy madaniyat» kabi

tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur.

Bu borada boshqa hududlarimiz qatori Andijon viloyatida ham yoshlar bilan, ayniqsa, uyushmagan yoshlar qatlami bilan ishslash, ularning dard-u tashvishlari, muammolarini eshitish va ularni yechishga amaliy yordam berish, mustaqil hayotga kirayotgan yosh yigit-qizlar, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun hammamiz, davlat, jamoat tashkilotlari birgalikda hali ko‘p ish qilishimiz kerak.

Xabaringiz bor, yoshlarimizning sevimli xonandasini Ozodbek Nazarbekov boshchiligidagi bir guruh faol yoshlarimiz, mana, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati viloyat kengashi rahbari Elyorbek Abduqodirov shu yerda o‘tiribdilar. Ular viloyatning tuman va qishloqlarida bo‘lib, yuqorida aytilgan yoshlar muammolarini yaqindan o‘rgandilar.

Yoshlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, yoshlarning muammolarini hal qilish bo‘yicha bir qator takliflarni tayyorlashmoqda.

Ana shu fikr-mulohazalarini umumlashtirib, Andijon sharoitini hisobga olib, farzandlarimiz uchun yangi imkoniyatlar ochib berishga xizmat qiladigan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, amalga oshirsak, bunda jamoat tashkilotlari, avvalo «Kamolot» yoshlar tashkilotining ishtirokini yanada kengaytirsak, o‘ylaymanki, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Qadrli do'stlar!**

Biz dunyodagi hozirgi murakkab va tahlikali vaziyatni har tomonlama hisobga olgan holda, birinchi darajali va strategik ahamiyatga ega vazifalarni bиргаликда belgilab olishimiz, yaqin yillarga va olis istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturimizni ishlab chiqishimiz zarur.

Bizning bu boradagi qarash va yondashuvlarimiz O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining yaqinda bo'lib o'tgan syezdida, mening saylovoldi dasturimda bat afsil bayon qilinganidan sizlar albatta xabardorsiz.

Ruxsatingiz bilan, ana shu dasturning asosiy yo'naliishlariga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Biz avvalo tub negizida «**O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak**» degan g'oya mujassam bo'lган O'zbekistonning tinchlik va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy yo'lini izchil davom ettiramiz. Hozirgi o'ta notinch va murakkab zamonda beباho boyligimiz bo'lган tinch va osoyishta hayotni ko'z qorachig'idek saqlash, jamiyatimizda millatlar va dinlararo hamjihatlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bizning eng muhim va ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Biz o'z faoliyatimizda **qonun ustuvorligi, tartib-intizom, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga** alohida e'tibor beramiz. Yurtimizda barpo etilayotgan huquqiy-demokratik davlatda adolatsizlik bo'lishiga hech qachon yo'l qo'ymaymiz. Qonun va adolat himoyasi hokimiyatning barcha bo'g'lnlari, eng avvalo davlat boshqaruvi organlari, ayniqsa, huquqni muhofaza qilish idoralarining birinchi darajali vazifasi bo'lib, ayni paytda butun jamiyatimizning kuch va

imkoniyatlarini shu yo‘lda safarbar etish shart deb hisoblaymiz.

Hech kimga sir emas, dunyoda, yon-atrofimizda jamiyatimizdagi barqaror vaziyatni izdan chiqarish, odamlar o‘rtasiga nifoq solish, dushmanlik urug‘ini sepish, turli mojarolarni keltirib chiqarish va hatto qon to‘kilishini istayotgan kuchlar ham, afsuski, yo‘q emas.

Shuni ochiq tan olish kerak, biz notinch zamonda va notinch mintaqada yashayapmiz. Shuning uchun ham Vatanimiz himoyasini, davlatimiz mustaqilligi va chegaralarimiz daxlsizligini kafolatlaydigan, Qurolli Kuchlarimizning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni qat’iyat bilan davom ettiramiz.

Bir so‘z bilan aytganda, biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga xavf solishga urinadigan har qanday yovuz kuchlarga munosib zarba berishga qodirmiz. Bundan xalqimizning ko‘ngli to‘q bo‘lishi, hech kimda hech qanday shubha bo‘lmasligi kerak.

Biz taraqqiyotning «o‘zbek modeli»ga asoslangan yo‘lni qat’iy davom ettirib, mamlakatimizning iqtisodiy qudratini oshirish, jahon maydonida uning raqobatdoshligini ta’minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko‘taramiz.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari bilan 2015–2019-yillar uchun tasdiqlangan 8 ta eng muhim dasturni, jumladan, sanoatda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish,

uni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, energiya sarfini kamaytirish, iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushini oshirish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishga alohida ahamiyat beriladi.

Shu maqsadda 2030-yilgacha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 2 barobar oshirishimiz lozim. Bunda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 33,5 foizdan 40 foizga yetkazish, qishloq xo‘jaligi ulushini esa 16,6 foizdan 8–10 foizga kamaytirish, yalpi ichki mahsulot uchun sarflanadigan energiya hajmini taxminan 2 barobar qisqartirishni ta’minlashimiz darkor.

Biz hayotda o‘zini to‘la oqlagan «**Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun**» degan tamoyildan kelib chiqqan holda, ijtimoiy sohadagi islohotlarni, **xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish yo‘lini davom ettiramiz**. Ya’ni taraqqiyotning «o‘zbek modeli» tarkibidagi mashhur besh tamoyildan biri bo‘lgan kuchli ijtimoiy siyosat yuritish prinsipiga qat’iy amal qilamiz.

Davlat budgetining ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lishi bundan buyon ham saqlab qolinadi. Aholining kam ta’milangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, keksalarini e’zozlash, onalik va bolalikni himoya qilish, oila va mahalla institutlariga e’tibor, ayollar va yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini oshirishga qaratilgan ishlarning samarasini oshirish – asosiy maqsadlarimizdan biridir.

**Qadrli do'stlar!**

Bizning saylovoldi dasturimizda mamlakatimizdag'i barcha hududlar qatori Andijon viloyatida ham har bir shahar va tumanni rivojlantirish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan va bugungi imkoniyatdan foydalanib, ular haqida ham qisqacha axborot berib o'tmoqchiman.

Viloyatda yaqin besh yilda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha umumiy qiymati 2 trillion 400 milliard so'mlik 981 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

**Oziq-ovqat sanoatida** shu davrda 162 ta, **yengil, charm-poyabzal** va **farmatsevtika sanoatida** 506 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Jumladan, Andijon shahri, Asaka, Bo'z, Paxtaobod, Buloqboshi, Shahrixon tumanlarida zamonaviy to'qimachilik korxonalari tashkil etish hisobidan viloyatda paxta tolasini qayta ishlash darajasi hozirgi 56 foizdan 2021-yilda 82 foizga yetkaziladi.

Yana bir muhim dastur – **2017–2021-yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi** tayyorlandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxtadan olingan tolaning 40 foizi qayta ishlanmoqda, qolgani tabiiyki, chetga eksport qilinmoqda. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, xomashyo emas, ip-kalavani eksport qilsak, tolaga nisbatan 1,4 marta ko'p mahsulotni eksport qilamiz. Agar paxtani tayyor mahsulot qilib sotadigan bo'lsak, eksport xajmi 6 barobar ko'payadi.

Bu faqat valuta tushumi ko‘payadi degani emas. Bundan yangi ish o‘rinlari ham ko‘payadi, budgetga qo‘sishimcha soliqlar ham ko‘payadi. Eng muhimmi, xalqimiz farovonligi oshadi.

Dasturga muvofiq yaqin besh yilda 2 milliard 200 million dollar investitsiya jalb etib, 120 ta yangi korxona tashkil etiladi, 20 ta mavjud korxona modernizatsiya qilinadi. Natijada mamlakatimizda to‘qimachilik, tikuv va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,2 barobar ko‘payadi.

Shuningdek, 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab gazlama, tayyor tikuv buyumlari, paypoq va kiyimbosh mahsulotlarini eksport qilishdan tushgan valuta mablag‘larining bir qismini tijorat banklariga sotish tartibi bekor qilinadi.

Andijon viloyatida ham umumiy qiymati qariyb 220 million dollar bo‘lgan 14 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Misol uchun, Qo‘rg‘ontepa tumanida qiymati 110 million dollarlik loyiha amalga oshirilib, yiliga 33 million metr kvadrat ip-gazlama, 11 million metr kvadrat pahmoq, 3,5 million dona pahmoq buyum ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etiladi.

Bundan tashqari, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida va boshqa tarmoqlarda 413 ta loyiha amalga oshiriladi.

**Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish** dasturi doirasida kelgusi yilning o‘zida 61 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lsa, kelgusida har yili 100 dan ortiq loyiha joriy etiladi.

Viloyatda kelgusi besh yilda hududiy eksport hajmini kamida 1,6 barobar oshirish, eksportchi

korxonalar sonini 2 barobar ko‘paytirish bo‘yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Iqtisodiyotimizning yetakchi tarmog‘i bo‘lgan **qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va modernizatsiya qilish** borasida ham oldimizda katta vazifalar turganini biz yaxshi tasavvur qilamiz.

Avvalo, rizq-ro‘zimiz manbai bo‘lgan yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ko‘ptarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, irrigatsiya-melioratsiya tizimini yaxshilash, har bir tumanda parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikni yo‘lga qo‘yish, muqobil energiya manbalari asosida issiqxonalar tashkil etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Ayniqsa, jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi tobora dolzarb bo‘lib borayotganini inobatga olgan holda, yer maydonlarini optimallashtirish hisobidan kelgusi besh yilda go‘sht va sut ishlab chiqarishni kamida 1,3 barobar, tuxumni – 2 marta, kartoshkani – 1,2 karra, meva-sabzavot va uzum yetishtirishni – 1,3 barobar ko‘paytirish, shuningdek, ularni qayta ishlashni kengaytirishni o‘z oldimizga vazifa qilib qo‘yanmiz.

Viloyatda **axborot-kommunikatsiya texnologiya-larini rivojlantirish**, hokimliklar, idora va tashkilotlar, korxonalarda ulardan keng foydalanishni ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish bugungi kun talabi ekani hech kimga sir emas. Shundan kelib chiqib, 380 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa tarmoqlarini barpo etish, mobil aloqa xizmatlarini kengaytirish uchun 75 ta tayanch stansiya qurish,

eskirgan telefon stansiyalari o‘rnida yangi stansiyalar barpo etish e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Xonobod shahri, Andijon, Jalaquduq, Xo‘jaobod va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida 7 ta raqamli teleuzatgich qurilmasini o‘rnatish, viloyat hududini raqamli televideniye bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish belgilab qo‘yilgan.

Muhtaram yurtdoshlar!

Tan olib aytishimiz kerakki, biz ko‘pincha viloyat miqyosidagi masalalarga e’tibor qaratib kelamiz. Vaholanki, har bir tuman, shahar va qishloqning o‘ziga xos xususiyati, sharoiti va muammosi bor. Ular, hech shubhasiz, odamlarning hayotiga ta’sir qiladi, ularning e’tiroziga sabab bo‘ladi. Buni hisobga olmaslik aslo mumkin emas.

Biz bugungi uchrashuvimizni ochiq va jonli suhbat tarzida o‘tkazish uchun, unda aytildigan fikr va takliflarni imkon qadar ko‘proq odamlar eshitsin, muhokamalarda o‘zları ham qatnashsin deb, bu tadbirni videokonferensiya shaklida o‘tkazyapmiz.

Bu zalda o‘tirganlar ham, shahar va tumanlardagi katta-katta zallarda yig‘ilib, videokonferensiya orqali uchrashuvimizda ishtirok etayotgan fuqarolar ham muhokamalarda bemalol qatnashsin. O‘zlarini qiziqtirayotgan, qiynayotgan savollar bilan murojaat qilsin. Men ularning har qanday savoliga javob berishga tayyorman.

Agar bunday muloqot shakli sizlarga ma’qul bo‘lsa, bu tajribani yana davom ettiramiz. Bundan buyon faqat viloyat miqyosidagi gaplar bilan kifoyalanmasdan, pastga, quyi bosqichga tushib, har bir tuman va

shaharga, kerak bo‘lsa, qishloqlar, mahallalargacha kirib boramiz.

Bugungi kunda **hududlarni**, ya’ni tuman va **shaharlarni** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, odamlarning hayotiga va kayfiyatiga ta’sir qiladigan sohalardagi ishlarni jonlantirish, mavjud muammolarni bartaraf etish, aholi uchun qulayliklar yaratish maqsadida biz o‘z oldimizga 15 ta maxsus dasturni amalga oshirishni vazifa qilib olganmiz.

Ruxsatingiz bilan, ana shu dasturlarning asosiy mazmun-mohiyatiga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

**Birinchidan, 2016-yil 5-oktabrdagi Farmon bilan Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.**

Farmonga muvofiq, 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlar va jinoyat ishlari doirasidagi muqobil – «vstrechniy» tekshirishlar bekor qilinadi. Bu tadbirkorlar faoliyatiga aralashish va ularga bosim o‘tkazish holatlarini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari uchun javobgarlik choralarini yengillashtirish va ayrim hollarda umuman bekor qilish, ruxsat berish tartib-qoidalarini soddalashtirish, biznes yuritishdagi turli xarajatlarni keskin qisqartirish va boshqa keng ko‘lamli chora-tadbirlar, hech shubhasiz, xususiy

mulk va tadbirkorlikning yanada jadal rivojlanishi uchun muhim turtki beradi.

Andijon viloyatida amalga oshiriladigan aniq tadbirlar haqida gapiradigan bo‘lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan ularga ajratiladigan kreditlar miqdori kelgusi besh yilda kamida 3–3,5 barobar ko‘paytiriladi.

Andijon shahri va Asaka tumanida 21 hektar yerda kichik biznes uchun tashkil etilgan 4 ta maxsus sanoat zonasi kengaytirilib, boshqa tumanlarda ham shunday hududlar yaratiladi va ular uchun zarur bo‘lgan imtiyoz va preferensiylar yangitdan beriladi. Shu tariqa viloyatda kelgusi besh yilda 10 mingdan ortiq yangi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyekti tashkil etish va ularning umumiy sonini 30 mingtaga yetkazish ko‘zda tutilmoxda.

**Ikkinchidan, yaqinda imzolangan qarorga muvofiq «2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihamar asosida arzon va qulay uy-joylar qurish dasturi» tasdiqlandi.**

Avvalo, qishloq aholisining ehtiyoj va talablarini hisobga olib, Qishloq joylarda kam ta’minlangan oilalar uchun arzon va qulay uy-joylar qurish dasturi qabul qilinganidan sizlar ommaviy axborot vositalari orqali xabardorsiz, albatta.

Bu dasturda 2017-yilda ehtiyojmand oilalar uchun boshlang‘ich to‘lov hajmi ikki barobar kamaytirilgan, to‘rt xil yangi namunadagi, qulay va arzon, bir va ikki qavatli 15 mingta zamonaviy uy-joy barpo etish mo‘ljallanmoqda.

Dasturga muvofiq, Andijon viloyatida kelgusi yilning o‘zida 1 ming 165 ta arzon namunali uy-joy barpo etiladi.

Ayni vaqtida **shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan yaxshilash, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish** bo‘yicha olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar davom ettiriladi.

Masalan, kelgusi yili Andijon shahridagi Saida Zunnunova nomidagi shohko‘cha, bu yerdagi istirohat bog‘ida katta ko‘lamdagи qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilib, bu joylar butunlay yangicha qiyofa kasb etadi. Cho‘lpon nomidagi kinoteatr binosi kapital ta’mirlanib, Yoshlar markaziga aylantiriladi. Andijon aeroportining samolyotlar uchib qo‘nadigan yo‘lagi rekonstruksiya qilinadi. Albatta, bunday ishlar barcha tuman markazlari va aholi punktlarida ham keng ko‘lamda davom ettiriladi.

**Uchinchidan, Hududiy avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Afsuski, biz avtomobil transporti infratuzilmasini rivojlantirish borasida asosiy e’tiborni xalqaro, davlat ahamiyatiga molik, shuningdek, hududlarimizni bog‘laydigan avtomobil yo‘llariga qaratish bilan cheklanib qolmoqdamiz.

Hududlarning ichki yo‘llari, jumladan, tumanlar, aholi maskanlari, xo‘jaliklarni bog‘laydigan yo‘llar, shuningdek, qishloqlar, mahallalar ichidan o‘tadigan yo‘llar tarmog‘ini kengaytirish, ularning holatini

yaxshilashga ikkinchi darajali ish deb qarashga o‘rganib qolganmiz.

Vaholanki, barcha tumanlarda, hatto eng chekka joylarda ham ishlab chiqarishni rivojlantirish, buning uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish kerakligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Lekin, ravon va zamonaviy yo‘l bo‘lmasa yoki umuman yo‘l bo‘lmasa, tabiiyki, unday joyga hech kim sarmoya sarflamaydi, zamonaviy texnologiyalarni olib bormaydi. Buni ochiq tan olishimiz kerak.

Shuning uchun ham yangi dasturda mamlakatimizdagi barcha bo‘g‘indagi avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish, ularning mustahkamligini oshirish, ta’mirlash va sifat darajasini saqlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko‘zda tutilmoqda.

Shu asosda Andijon viloyatida kelgusi besh yilda umumiy foydalanishdagi 154 kilometr yo‘lni rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, 17 kilometrdan ortiq yo‘llarni kengaytirish, Andijon shahrida kichik halqa yo‘l barpo etish, Mustaqillik va Yoshlar ko‘chalarini rekonstruksiya qilish va bir qator ko‘chalarни tutashtirish, tuman va qishloqlardagi ichki yo‘llarni ta’mirlash mo‘ljallanmoqda.

**To‘rtinchidan, Shahar va qishloqlarda transport ta’minotini yanada yaxshilash dasturi tayyorlanmoqda.**

Andijon viloyatida aholiga transport xizmati ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida keyingi besh yilda 266 ta avtobus sotib olindi. Birgina Andijon shahrining o‘ziga 228 ta avtobus olib kelinib, avtobus yo‘nalishlarining qayta tiklangani yo‘lovchilarga

xizmat ko'rsatish sifatining tubdan yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Bu ishlarni izchil davom ettirish maqsadida viloyatdagi barcha aholi punktlarida transport xizmatlarini yo'lga qo'yish, transport parkini bosqichma-bosqich yangilash nazarda tutilmoqda.

Jumladan, Andijon viloyatida lizing asosida yana 200 ta avtobus olib, qatnovga qo'yish, 100 ta zamonaviy avtobekat barpo etish, chekka hududlar aholisi uchun 18 ta yangi yo'nalish tashkil qilish kabi chora-tadbirlar rejalashtirilmoqda.

**Beshinchidan, Qishloqlarda ichimlik suvi tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Dasturda 2017–2021-yillarda aholi punktlarini markazlashgan ichimlik suv ta'minoti bilan qamrab olishni kengaytirish, ichimlik suvini uzluksiz yetkazib berishni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamdag'i chora-tadbirlar belgilangan.

Shu jumladan, Andijon viloyatida 842 kilometr mahalliy suv tarmog'i, 216 ta suv qudug'i, 145 ta suv bosimi minorasi va boshqa ichimlik suvi ta'minoti inshootlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Bundan tashqari, 2020–2023-yillarda Xalqaro rivojlantirish agentligi ishtirokida 71 million dollar sarflab, Xonobod-Andijon magistral suv quvurining 2-liniyasini qoramiz.

Paxtaobod va Izboskan tumanlaridagi 5 ming 500 hektar ekin maydonlari va aholi yerlarini suv bilan ta'minlash qo'shni davlat hududidagi irrigatsiya obyektlariga bog'liq ekani sizlarga yaxshi ma'lum. Shu sababli Paxtaobod tumanining Namuna massivi hududida 30–35 million metr kub sig'imga ega bo'lган

yangi suv ombori qurish rejalarashtirilmoqda. Buning uchun davlat budgetidan 140 milliard so‘m ajratish belgilanmoqda. Natijada viloyat aholisini ichimlik suvi bilan ta’minlash yaxshilanib, bu boradagi ko‘rsatkich 91 foizga yetkaziladi.

**Oltinchidan, Ko‘mirning tannarxi va aholi uchun xarid qiyamatini pasaytirish, shuningdek, qish mavsumida bu borada chayqovchilik qilishni va narxlarning oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Dasturda kuzgi-qishki mavsumda mamlakatimiz tumanlari va qishloq joylarida ko‘mirga bo‘lgan talabni qondirish, aholini ko‘mir bilan uzlucksiz ta’minlash, uning tannarxi va iste’molchilarga yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha kompleks qo‘srimcha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Jumladan, Angren–Pop elektrlashtirilgan temiryo‘li orqali Andijon viloyatiga olib kelinadigan ko‘mirning oldingi yillarga nisbatan 3–4 kun tezroq yetkazilishi ta’milanadi. Hukumatning qarori bilan 1 tonna ko‘mirning narxi 126 ming so‘m qilib qat’iy belgilab qo‘yilmoqda. Shuningdek, ko‘mirni «O‘zbekko‘mir» aksiyadorlik jamiyatining viloyatlardagi korxonalari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholiga sotish yo‘lga qo‘yiladi, bu borada chayqovchilik holatlariga butunlay barham beriladi.

**Yettinchidan, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash dasturi tayyorlanmoqda.**

Aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani elektr energiyasi bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida o'tgan besh yil mobaynida viloyatning shahar va tumanlarida 129 kilometr elektr tarmoqlari, 150 ta transformator punkti barpo etildi. Bundan tashqari, 16 ming 133 kilometr elektr tarmoqlari, 118 ta podstansiya va 6 ming 700 ta transformator punkti rekonstruksiya qilindi, kapital va joriy ta'mirlandi. Buning natijasida 77 mingdan ziyod xonadonda elektr energiyasi ta'minoti yaxshilandi.

Ishlab chiqilayotgan dasturda bu boradagi ishlarni Andijon viloyatida ham, mamlakatimizning boshqa hududlarida ham tizimli ravishda davom ettirish nazarda tutilmoqda. Xususan, past kuchlanishli elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, elektr tarmoqlari uskunalaridan foydalanish muddatlarini uzaytirish, elektr uzatish tarmoqlarining quvvatini oshirish va boshqa choralar belgilanadi.

Birgina Andijon viloyatida kelgusi besh yilda 3 ming 31 kilometr elektr tarmoqlari, 639 ta transformator punkti, 14 ta podstansiya qurish rejalashtirilayotgani dasturdagi ishlarning ko'lamidan dalolat beradi.

**Sakkizinchidan, Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017–2021-yillarga mo'ljallangan dasturida** ushbu ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustah-kamplash, ularning tarmog'ini kengaytirish, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy usul va dasturlarni joriy etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Bu haqda gapirganda, Andijon viloyatida kelgusi besh yilda 232 ta

maktabgacha ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi tubdan yaxshilanadi, jumladan, 130 ta bog‘cha yangitdan barpo etiladi, rekonstruksiya qilinadi va 102 tasi kapital ta’mirlanadi.

**To‘qqizinchidan, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Mazkur dasturda kelgusi besh yilda zamonaviy talablar, shaharsozlik va arxitektura me’yorlari asosida bozorlarni bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash choralarini belgilanadi. Shuningdek, bozorlar qoshidagi savdo-xarid korxonalari va avtomobillar to‘xtash joylari faoliyatini yaxshilash, bozorlar faoliyatini, shu yo‘nalishdagi me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, Andijon viloyatida Shahrixon, Andijon, Qo‘rg‘ontepa, Baliqchi, Ulug‘nor va Bo‘z tumanlari markazlarida joylashgan dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish rejajashtirilmoqda.

**O‘ninchidan, Pensionerlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilash dasturini ishlab chiqish yakunlandi.**

Ma’lumki, yoshi ulug‘ otaxon va onaxonlarimiz, nuroniyalarimiz hayotimizning fayz-u farishtasi hisoblanadi. Bugungi yorug‘ kunlarga yetib keli-shimizda bu tabarruk insonlarning xizmatlari juda katta va biz ularning oldida doimo qarzdormiz.

Tayyorlanayotgan dasturda ana shu qarzni imkon qadar uzish, ularning umrini uzaytirish maqsadida avvalo «Nuroniy» jamg‘armasining maqomi va

mavqeyini ko'tarish, uning viloyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko'paytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyat berilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda shuni tan olishimiz kerakki, bugungi kunda shahar va tumanlarda nuroniylarimiz o'z tashvish va muammolari yuzasidan murojaat qiladigan vakolatli jamoat tashkiloti yo'q. Shuning uchun birinchi navbatda shahar va tumanlarda Jamg'armaning davlat budgetidan mablag' bilan ta'minlanadigan bo'limlari tashkil etiladi. Shahar va tumanlar hokimliklari yangi tashkil etiladigan bu bo'limlar uchun bino ajratib, ularning moddiy-texnik bazasini yaratib beradi.

Shuningdek, «Nuroniy» jamg'armasining respublika va viloyat tashkilotlari xodimlarini ham budget hisobidan oylik maosh bilan ta'minlash yo'lga qo'yiladi.

Yana bir yangilik, har bitta mahallada raisning nuroniylar masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimi joriy etilmoqda. Ma'lumki, hozirgi paytda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari bir yilda bir marta mamlakatimizdagi sanatoriylarda sog'lig'ini tiklash uchun bepul yo'llanmalar bilan ta'minlanmoqda.

Ammo ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli bu imtiyozdan foydalana olmayapti. Endilikda ana shunday toifadagi nuroniylarimizga foydalanimagan yo'llanmalarning puli beriladi (hozirgi kunda bu o'rtacha 800 ming so'mni tashkil etmoqda).

«Nuroniy» jamg‘armasi boshchiligidagi «Mahalla» jamoat fondi, Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari tomonidan yolg‘iz qariyalar har yili qishki kiyim-bosh, qish mavsumi uchun oziq-ovqat zaxirasi bilan ta’mirlanadi.

2017–2020-yillarda respublikadagi barcha Muruvvat va Saxovat uylari rekonstruksiya qilinadi va kapital ta’mirlanadi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamonaviy sharoitlar yaratiladi.

Shuningdek, nuroniylarga tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish va ularning turlarini kengaytirish, tizimli sog‘lomlashtirishni tashkil etish, profilaktika chora-tadbirlarini, kasalliklarni davolashning zamonaviy usullarini qo‘llashni kengaytirish ko‘zda tutilmoqda.

**Yana bir muhim hujjat – onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturidir.**

Muhtarama onalarimiz, munis ayollarimiz – bizni dunyoga keltirgan, oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazgan, xonadonlarimiz ko‘rki, tarovati bo‘lib kelayotgan aziz va mehribon zotlardir. Ularga har qancha e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatsak, e’zozlab boshimizga ko‘tarsak, shuncha kam, albatta.

Ayni shu maqsadga qaratilgan dasturda kelgusi 2 yilda ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, jumladan, ularga xizmat ko‘rsatadigan davolash-profilaktika tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash, ularga maxsus va yuqori texnologiyalar asosida tibbiy

yordam ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Dasturga muvofiq barcha yangi tug'ilgan chaqaloqlar, o'smir qizlar, homilador va tug'ish yoshidagi ayollar bugungi 70 foiz o'rniiga 100 foiz patronaj tizimi bilan qamrab olinadi. Natijada kasallanish holatlarining oldi olinib, onalar va bolalarda kasalliklarni erta aniqlash ko'rsatkichi 60 foizdan 85 foizga yetkaziladi.

Shu bilan birga shifo maskanlariga markazlashgan tartibda yetkazib beriladigan dori vositalari, tibbiy buyum va uskunalar ro'yxati kengaytiriladi.

Andijon viloyatida kelgusi besh yilda 17 ta tibbiy muassasani, jumladan, Qo'rg'ontep, Jalaquduq, Xo'jaobod, Buloqboshi, Andijon, Marhamat, Paxtobod va Shahrixon tumanlari tibbiyot birlashmalariga qarashli tug'uruq komplekslari va bolalar bo'limlarini, Andijon shahridagi 2-sonli tug'uruq kompleksi va bolalar shifoxonasini rekonstruksiya qilish va jihozlash mo'ljallanmoqda.

**O'n ikkinchidan**, 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan qaror bilan «**2016–2020-yillarda respublika farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi**» tasdiqlandi.

Dasturga muvofiq farmatsevtika sohasida umumiy qiymati 224 million dollar bo'lgan 67 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish hisobidan mazkur tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2,5 barobar ko'paytiriladi.

**Navbatdagagi dastur – aholini dori vositalari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash chora-tadbirlari** doirasida aholi va tibbiyot tashkilotlarini arzon va siyatli dori vositalari bilan ta'minlash darajasini oshirish,

ularga narx belgilashning samarali mexanizmlarini joriy etish, mavjud arzon dorilar o‘rniga asossiz ravishda qimmat dorilar buyurish bo‘yicha hayotimizda uchrab turgan xolatlarga mutlaqo chek qo‘yish yuzasidan aniq choralar belgilanadi.

**O‘n to‘rtinchidan – 2017–2021-yillarda mamlakatimizda maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturidir.**

Dasturda maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, barcha aholi punktlarida sanitariya tozalash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tezkor tadbirlar belgilangan.

Jumladan, Andijon viloyatida 29 ta noqonuniy chiqindixonalarda to‘planib qolgan 133 ming tonna chiqindi joriy yil oxirigacha tugatiladi.

Viloyatdagi sanitariya va tozalash, obodonlashtirish tashkilotlari qo‘srimcha ravishda qariyb 3 milliard 900 million so‘mlik maxsus uskuna va transport vositalari bilan ta’minlanadi.

Shuningdek, 6 milliard 500 million so‘mdan ortiq mablag‘ sarflanib, viloyatdagi chiqindi poligonlari tartibga solinadi.

**Aziz va muhtaram vatandoshlar!**

Hammamiz yaxshi tushunamiz, Vatanimiz taraqqiyotining hozirgi o‘ta mas’uliyatli davrida biz o‘z oldimizga qo‘ygan vazifalar juda murakkab bo‘lib, ularni to‘liq va sifatli amalga oshirish uchun barchamiz bir musht bo‘lib harakat qilishimiz kerak.

Biz bu borada avvalo ko‘pni ko‘rgan xalqimizga, jumladan, mard va olajanob, mehnatkash Andijon ahliga, siz, azizlarga, bizga xayrixoh va taraf dor bo‘lgan barcha yurtdoshlarimizga tayanamiz.

Biz mustaqillik yillarida ulug‘ Yurtboshimiz rahnamoligida siz, azizlar bilan, butun xalqimiz bilan juda ko‘p sinovlarni birgalikda, sabr-bardosh bilan yengib o‘tdik, mamlakatimizning bugungi shonli tarixini o‘z qo‘limiz bilan yaratishga hissa qo‘shdik. Men ishonaman, kelajak nasllar bugungi avlod tomonidan amalga oshirilgan ana shunday buyuk ishlarni minnatdorlik bilan eslaydi, biz boshlagan ishlarni albatta munosib davom ettiradi.

Men butun xalqimiz qatorida go‘zal Andijonning bugungi obod qiyofasi, viloyat ahlining tinch, erkin va farovon hayoti, uning ezgu orzu-niyatlarini amalga oshirish yo‘lida butun borlig‘imni ayamasdan xizmat qilishni, sizlarning ishonchingizni oqlashni o‘zim uchun yuksak sharaf deb bilaman.

So‘zimning oxirida sizlarga va sizlar orqali butun Andijon ahliga sihat-salomatlik, baxt va omad, xona donlaringizga fayz-u baraka tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Bo‘z tumani,  
2016-yil 1-noyabr**

**OLTIN VODIY DURDONASI**  
**(FARG'ONA VILOYATI SAYLOVCHILAR**  
**VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI**  
**NUTQ)**



---

Assalomu alaykum, aziz do'stlar!  
Muhtaram yurtdoshlar!

Shu kunlarda mamlakatimizning qaysi viloyati, shahar yoki qishlog'iga bormaylik, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan olamshumul ishlar, islohotlar natijalari yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqimizning fidokorona mehnati bilan erishgan ulkan yutuqlarimiz, har bir inson, har bir oila va jamoa hayotidagi katta o'zgarishlar haqida turli kasb egalari bilan gaplashganda, avvalo ulug' Yurtboshimiz, muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimovning buyuk tarixiy xizmatlarini chuqur hurmat-ehtirom bilan eslaymiz.

Haqiqatan ham, Birinchi Prezidentimiz biz uchun yangi hayot, yangi jamiyat asoschisi, mustaqil O'zbekiston bunyodkori sifatida tariximizda mangu qoladi, yuksak ibrat namunasi bo'lib xalqimiz qalbida abadiy yashaydi.

Albatta, Islom Abdug'aniyevichning siyosiy mersini qancha ko'p o'rgansak, uning qanday ulkan xazina ekanini yanada chuqurroq anglaymiz. Biz bu ibrat maktabiga, uning saboqlariga qayerda, qaysi lavozimda bo'lmaylik, doimo murojaat qilamiz va undan o'zimizga hayotiy dastur, qo'llanma bo'ladigan yangi-yangi fikr va g'oyalalar topamiz.

Shaxsan men ulug' Yurtboshimiz asos solgan, dunyoda «o'zbek modeli» deb tan olingan taraqqiyot

yo‘lini, u kishi rahbarligida amalga oshirilgan barcha barcha ezgu ishlarni davom ettirishni o‘zimning muqaddas burchim va vazifam deb bilaman.

Mamlakatimizda shu yil 4-dekabrdan bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashish uchun men aynan shu g‘oyani bosh maqsad qilib olganman. O‘ylaymanki, yaqinda O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi syezdida bayon qilingan, mening saylovoldi dasturimda o‘z aksini topgan ustuvor yo‘nalish va vazifalar bilan tanishib chiqqan har bir yurtdoshimiz bunga ishonch hosil qilishi mumkin.

Bu saylov har birimiz, butun el-yurtimiz uchun yana bir jiddiy sinov vazifasini o‘taydigan, xalqimizning siyosiy va huquqiy madaniyatini yaqqol ko‘rsatadigan g‘oyat muhim tadbir ekanini albatta hammamiz yaxshi tushunamiz.

Albatta, saylovda har bir odam o‘zi uchun, ayni vaqtida mamlakatimiz kelajagi uchun ovoz beradi.

Hech shubhasiz, bu borada saylovoldi tadbirlari, jumladan, siz, muhtaram saylovchilar vakillari bilan bo‘ladigan uchrashuvlarning yuqori saviyada o‘tishi katta rol o‘ynaydi. Mening fikrimcha, bu uchrashuvlarda har bir hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, islohotlarning borishi, erishilgan natijalar bilan birga, yechimini kutib turgan eng dolzarb vazifalar ham o‘rtaga tashlanishi kerak. Faqat viloyat, shahar va tumanlar darajasidagi masalalar bilan kifoyalananib qolmasdan, har bir qishloq, mahalla, jamoa ichiga kirib borib, mavjud muammolarni yechishni yuqoridan emas, quyidan boshlashimiz lozim. Chunki, hammamiz

yaxshi bilamiz, har qanday binoning avval poydevori qurib bitkaziladi. Shunday ekan, biz ishni quyidan boshlasak, oddiy odamlarning hayot tashvishlari va quvonchlariga sherik bo‘lib, ularning dardini eshitsak, muammolarni birgalikda hal qilish yo‘llarini izlasak, shundagina ko‘zlagan maqsad-muddaolarimizga erisha olamiz.

E’tibor bergan bo‘lsangiz, biz keyingi paytda ayni shu masalaga – ya’ni, fuqarolarimiz, aholimizning muammolarini o‘z vaqtida yechish masalasiga alohida ahamiyat qaratayapmiz.

Bu masalani to‘g‘ri tushunish, «muammo» degan so‘zdan qo‘rqmaslik kerak. Chunki hayot bor ekan, oldimizda yangi-yangi vazifalar bilan birga, biz ilgari ko‘rmagan, duch kelmagan muammolar ham paydo bo‘lishi – bu tabiiy.

Rahmatli Islom aka aytganlaridek, vujudga kelayotgan ana shunday qiyinchilik va muammolarni o‘zimiz, o‘z aql-idrokimiz va kuch-g‘ayratimiz bilan hal qilmasak, hech kim chetdan kelib, biz uchun tadbirkorlik rivojini ham, adolat va qonun ustuvorligini ham, sanoat va fermerlik harakatining taraqqiyotini ham ta’minlab bermaydi.

Hech kim chetdan kelib, bizning o‘rnimizga aholini ish bilan band etish, yangi uy-joylar, maktab va bog‘chalar, kasalxonalar, yo‘llar qurish, elektr, SUV va gaz ta’mintoni yaxshilash, aholimizni, armiyamizni boqish, yurtimizning tinch va osoyishta hayotini asrash kabi bir-biridan muhim, bir-biridan dolzarb masalalar haqida bosh qotirmaydi, jon kuydirmaydi. Hech kim! Faqat o‘zimiz va yana bir bor o‘zimiz bu

vazifalarni hal qilishga javobgarmiz. Va faqat o‘zimiz bu masalalarni hal qilishga qodirmiz.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, biz o‘tgan davrda qo‘lga kiritgan yutuqlarimiz bilan g‘ururlanishimiz tabiiy, albatta. Lekin shu bilan birga, shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon bilan hamnafas, hamqadam bo‘lib yashash uchun biz dunyodagi, mamlakatimizdagi vaziyatni chuqur tahlil qilgan holda, bugungi va ertangi hayotimizning puxta o‘ylangan, mustahkam rejalarini tuzishimiz kerak. Mana shunday fikr, mana shunday qarash saylovoldi uchrashuvlarimizning bosh mavzusini tashkil etsa, ayni muddao bo‘lar edi.

Shuning uchun ham biz joylarda bo‘layotgan saylovoldi uchrashuvlarimizni ochiq va jonli suhbat tarzida o‘tkazyapmiz. Ularda aytildigan fikr va takliflarni imkon qadar ko‘proq odamlar eshitsin, muhokamalarda o‘zлari ham qatnashsin degan maqsadda bu tadbirlarni videokonferensiya shaklida tashkil etyapmiz.

Andijon viloyatida o‘tkazilgan uchrashuv shuni ko‘rsatdiki, bunday muloqot shakli zalda o‘tirganlarga ham, shahar va tumanlarda yig‘ilib, videokonferensiya orqali uchrashuvimizda ishtirok etayotgan fuqarolarga ham ma’qul bo‘lmoqda. Ular muhokamalarda faol qatnashib, o‘zlarini qiziqtirayotgan, qiyinayotgan savollar bilan murojaat qilyapti.

Haqiqiy demokratiya mana shunday ochiq, teng muloqotdan, bir-birimizning fikrimizni eshitib, bahs va tortishuvlar orqali umumiyl xulosaga kelishdan boshlanadi. Albatta, ko‘pni ko‘rgan, insonning, hayotning qadriga yetadigan, oqko‘ngil, mehnatkash va

mehmondo'st Farg'ona ahli bu haqiqatni yaxshi tushunadi.

Farg'ona deganda, biz avvalo Qubo – hozirgi Quva, Marg'ilon, Qo'qon kabi ko'hna sivilizatsiya maskanlariga, boy tarix va madaniyatga ega qadimiy va go'zal bir o'lkani ko'z oldimizga keltiramiz.

Bu fikrning tasdig'i sifatida Farg'ona nomini butun dunyoga taratgan Ahmad Farg'oniy bobomizning o'n ikkinchi asrdayoq lotin va yahudiy tiliga tarjima qilingan «Astronomiya asoslari» kitobini eslash kifoya, deb o'ylayman. Ulug' allomaning loyihasi asosida Nil daryosi suvining sathini o'lchaydigan o'ta noyob inshoot – «**Miqyosi Nil**» Misrda hanuzgacha saqlanib kelayotganini hammangiz yaxshi bilasiz.

Yoki yana bir ulug' ajdodimiz Burhoniddin Marg'i-noniyning «Hidoya» asari necha yuz yillardan buyon butun musulmon dunyosida islom huquqi bo'yicha assosiy qo'llanma bo'lib kelayotgani barchamizda g'urur va iftixor uyg'otmaydimi?

Ana shunday buyuk zotlarning qoldirgan bebahosini chuqr o'rganish, ularning qadamjolarini obod qilish, xotirasini abadiylashtirish bo'yicha birgalikda qilgan ishlarimiz ham barchamizga mamnuniyat yetkazadi.

Farg'ona zaminida ana shunday ulug' bobolamizning yo'lini davom ettirgan va davom ettirayotgan fidoyi insonlarning faqatgina nomlarini sanab o'tish uchun ham juda ko'p varaqlarni to'ldirishga to'g'ri keladi, desam, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, ma'naviy hayotimiz tarixida so'nmas iz

qoldirgan Uvaysiy, Nodira, Anbar otin, Dilshod Barno, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Charxiy, Sobir Abdulla kabi mumtoz siymolarning har biri haqida «Farg‘ona tong otguncha» gapirish mumkin.

Xalqimizga, Farg‘ona ahliga xos barcha ezgu fazilatlarni o‘zida mujassam etgan ulug‘ insonlar haqida fikr yuritganda, atoqli shoir, davlat va jamoat arbobi, O‘zbekiston Qahramoni Erkin aka Vohidovni ehtirom bilan eslashimiz tabiiydir.

U kishi hayot bo‘lganlarida bu yil dekabr oyida tabarruk 80 yoshga to‘lgan bo‘lardilar. O‘zining durdona asarlari bilan adabiyotimiz xazinasiga beba ho hissa qo‘shtan, xalqimizning ma’naviy olamini, milliy g‘urur-iftixorini yuksaltirish yo‘lida unutilmas xizmat qilgan bu ulkan ijodkorimizning xotirasini abadiylashtirish, ijodiy merosini chuqr o‘rganish, yoshlarimizga yetkazish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir. Nasib etsa, yaqin kunlarda el-yurtimizning ardoqli farzandi Erkin Vohidovning qutlug‘ tavallud ayyomini butun O‘zbekiston bo‘ylab katta miqyosda nishonlaymiz. Bu tantanalar u kishining kindik qoni tomsgan Farg‘ona viloyatida ayniqsa baland ruh bilan o‘tishiga ishonaman.

Ana shunday muhtaram ustozlar qatorida Aziz Qayumov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Oxunjon Hakimov, Umarali Normatov, Enaxon Siddiqova, Anvar Obidjon, Ismoil Mahmud, Iqbol Mirzo singari olimlarimiz, shoir va yozuvchilarimizning nomlarini ham bugun katta hurmat bilan tilga olamiz.

Farg‘onaning saxovatli zamini o‘zbek madaniyati va san’atining buyuk chashmasi ekanini bilmaydigan,

bunga tan bermaydigan odam yurtimizda o'zi yo'q, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman. Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboyeva, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Nabi Rahimov, Hamza Umarov, Murodjon Ahmedov, Tavakkal Qodirov, Berta Davidova, Gavhar Rahimova kabi siymolarni alohida hurmat bilan eslaymiz.

Har biri o'z sohasida ulkan ijodiy maktab yaratgan bunday buyuk san'atkorlarimiz xalqimizning chinakam faxr-u iftixori hisoblanadi. Shu o'rinda ko'nglimdag'i bir fikrni sizlar bilan o'rtoqlashmoqchi edim.

Xalqimizning qalbidan, yuragidan chuqur joy olgan mana shunday ulug' adib va san'atkorlarimiz xotirasiga bag'ishlab, Farg'onaning so'lim markazlaridan birida – mayli, Marg'ilondami, mayli, boshqa tumandami, bir go'zal bog' barpo etsak, shu muhtasham bog'da ularning timsollarini o'rnatib, butun yurtimizdan san'at muxlislari kelib ziyorat qiladigan, yoshlарimiz ta'lim-tarbiya oladigan bir joy tashkil qilsak, nima deysizlar?

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda Farg'onadan yetishib chiqqan Yorqinoy Hotamova, Muhammadsoli Yusupov, Gulnam Mamazoitova, Abdushoshim Ismoilov, Abdulahad Abdurashidov, Abdurahmon Xoltojiyev, Ilhom Ibrohimov, Muhsimjon va Yahyobek Mo'minovlar kabi taniqli ijodkorlar va ularning safini to'ldirib kelayotgan o'nlab iste'dodli yoshlar o'zbek san'ati rivojiga katta hissa qo'shmaqda.

Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish yo‘lidagi samarali mehnatlari uchun «O‘zbekiston Qahramoni» degan eng oliv unvonga sazovor bo‘lgan mirishkor fermer Patilaxon Ergasheva, mohir pedagog Manzuraxon Madaliyeva, tajribali yo‘lsoz Ulug‘bek Umarov, mexanik Botir Temirov va ular kabi o‘nlab, yuzlab farg‘onaliklarning nomlari butun yurtimizda ma’lum va mashhurdir.

Ana shunday insonlar qatorida «Nuroniy» jamg‘armasi viloyat bo‘limining raisi Topvoldi Xoldorov, mohir fermer opamiz Lolaxon Murodova va boshqalarning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilari!

Mening saylovoldi dasturimda biz o‘z oldimizga qo‘ygan strategik vazifa – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz hayot darajasini yangi bosqichga ko‘tarish yo‘lida beshta ustuvor yo‘nalish belgilanib, ularni amalga oshirish yo‘llari aniq ko‘rsatib berilgan.

Ruxsatingiz bilan, ana shu ustuvor yo‘nalishlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

**Birinchi yo‘nalish, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasini amalga oshirish borasidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi.**

Bu yo‘nalishda mamlakatimizdagи mavjud siyosiy tizimni takomillashtirish, uning faoliyat samarasini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Siyosiy tizim tarkibidagi qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis, ijro hokimiyati – Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar, mahalliy hokimiyat

organlari, shuningdek, siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlari, ommaviy axborot vositalari mustaqil holda o‘z vazifasini samarali bajarishi kerak. Ayni paytda umummilliy maqsadlar – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo‘lida bir musht bo‘lib birlashishi lozim. Shundagina bu tizim samarali tizim bo‘ladi. Bizning mazkur yo‘nalishda belgilagan tadbirlarimiz aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

E’tirof etish kerakki, bizda parlament nazorati, jamoatchilik nazorati, jurnalist tekshiruvi kabi demokratik institutlar hali to‘liq shakllanib, hayotimizdan chuqur joy olgani yo‘q. Tabiiyki, buning uchun avvalo yetarli moddiy-texnik sharoitlarni yaratish, eng muhimmi, zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tarbiyalashimiz kerak.

**Saylovoldi dasturimizning ikkinchi ustuvor yo‘nalishi qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh etish, «Kuch – adolatda» tamoyilini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.**

Albatta, hammamiz yaxshi tushunamiz, biz barpo etayotgan huquqiy demokratik davlatda inson, jamiyat uchun eng muqaddas qadriyat bo‘lgan adolat faqat va faqat qonun asosida sud hukmi bilan ta’minlanadi. Ona tilimizdagи «odil sudlov» degan iborada juda katta ma’no bor. Ya’ni, har qanday masalani faqat sud odil va adolatli hal qilishi mumkin.

Lekin odil sudlovni ta’minlash uchun yetarli shart-sharoit va mexanizmlar yaratilmasa, u shunchaki orzu, quruq gap bo‘lib qolaveradi. Adolat, haqiqat esa bahslarda, tomonlarning qarash va yondashuvlarini o‘zaro taqqoslab, xolis hukm chiqarish orqali namoyon

bo‘ladi. Buning uchun avvalo sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashimiz kerak. Buning uchun sudyalarning vakolat muddatini uzaytirish, qat’iyatli, faqat qonun asosida, o‘z vijdoniga tayanib, adolatli qarorlar qabul qila oladigan, o‘z ishini puxta bajaradigan sudyalar korpusini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berishimiz kerak.

O‘z navbatida, odil sudlovni amalga oshirish jara-yoniga chetdan aralashganlik uchun javobgarlik muqarrar ekani haqidagi qonuniy prinsip qat’iy ishlashi kerak.

**Yana bir muhim masala – sudda ishlarni ko‘rib chiqishda taraflar tengligini ta’minlash bilan bog‘liq.** Biz odil sudlovni ta’minlashda taraflar tengligi prinsipini to‘liq ishlatish uchun advokatura sohasini isloq qilish, sud-tergov jarayonlarida advokatning vakolatlarini kengaytirish va uning rolini yanada kuchaytirish yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni ko‘ramiz.

Dasturimizning ushbu yo‘nalishida korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, bu jarayonda mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, davlat idoralarida yuridik xizmat samaradorligini ta’minlash maqsadida yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha ham aniq vazifalar belgilangan.

**Dasturimizning uchinchi yo‘nalishi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil o‘sish sur’atlarini ta’minlash masalalarini o‘zida mujassam etadi.**

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash borasida butun mamlakatimiz kabi Farg'ona viloyatida ham ko'p ishlar qilingani, salmoqli natijalarga erishilganini tan olishimiz kerak. Ruxsatingiz bilan, ba'zi bir raqamlarni keltirib o'tmoqchiman.

Farg'ona viloyatida yalpi hududiy mahsulot oxirgi besh yilda 1,6 barobar o'sgan, uning tarkibida sanoatning ulushi 23,6 foizdan 27,5 foizga yetgan. Sanoat mahsulotining 96 foizdan ortig'i kimyo, neft-kimyo, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik va qurilish materiallari tayyorlash kabi zamona-viy tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgani ayniqsa diqqatga sazovordir. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi, «Farg'ona azot», «Avtoyna», Qo'qon mexanika zavodi, «DEU tekstil Farg'ona», «Qo'qon Indorama tekstil» kabi yirik sanoat korxonalari nafaqat viloyat, balki mamlakatimiz iqtisodiyotining faxri hisoblanadi.

Yana bir muhim raqamga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Bugungi kunda yurtimizda qayta ishlanayotgan paxta tolasining qariyb 35 foizi Farg'ona viloyati hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni, bu yerda nafaqat viloyatning o'zidagi, balki qo'shni viloyatlardan keltirilayotgan paxta tolsi ham qayta ishlanmoqda.

Azaldan tadbirkorlik fazilatlari bilan shuhrat topgan Farg'ona zaminida **kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi** ham jadal rivojlanmoqda. Bu haqda gapirganda, mazkur sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 62 foizga, hududiy sanoatdagi

hissasi 45 foizga, eksportdagи ulushi esa 58 foizga yetganini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Eng muhim, mehnat bilan band aholining 81 foizi ana shu sohada faoliyat ko'rsatib, daromad topmoqda.

Yurtimizda bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida yaqinda qabul qilingan Farmon bilan **Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi**.

Farmonga muvofiq, 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlar va jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlar bekor qilinadi. Bu tadbirkorlar faoliyatiga aralashish va ularga bosim o'tkazish holatlarini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari uchun javobgarlik choralarini yengillashtirish va ayrim hollarda umuman bekor qilish, ruxsat berish tartib-qoidalarini soddalashtirish, biznes yuritishdagi turli xarajatlarni keskin qisqartirish va boshqa keng ko'lamli chora-tadbirlar, hech shubhasiz, xususiy mulk va tadbirkorlik yanada jadal rivojlanishi uchun muhim turki beradi.

Dasturning Farg'ona viloyatiga tegishli qismi haqida gapiradigan bo'lsak, kelgusi besh yilda 16 mingdan ortiq yangi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektini tashkil etishga har tomonlama ko'maklashish, ularning umumiy sonini 35 mingga yetkazish choralari ko'rildi. Kichik biznes va xususiy

tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan ularga ajratiladigan kreditlar miqdori shu davrda kamida 3 barobar ko‘paytirilishi bu borada yana bir katta imkoniyat bo‘ladi.

Marg‘ilon va Quvasoy shaharlari, Oltiariq va O‘zbekiston tumanlarida 28 hektar yerda kichik biznes uchun tashkil etilgan 4 ta maxsus sanoat zonasi kengaytirilib, boshqa tumanlarda ham shunday hududlar yaratiladi.

Biz Birinchi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifa – **2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini ikki barobardan ziyod ko‘paytirish, iqtisodiyotimiz tarkibida sanoatning ulushini 40 foizga yetkazish** uchun bu borada keng ko‘lamli dasturlarni amalga oshirishimiz darkor.

Shu maqsadda kimyo sanoatini, rangli va nodir metallar, uglevodorod xomashyosi, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishslash, to‘qimachilik, charm-poyabzal, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan 8 ta maxsus dastur ijrosiga alohida e’tibor qaratiladi.

Yaqin besh yilda umumiy qiymati qariyb 40 milliard dollar bo‘lgan 657 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Bu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar ko‘paytirish imkonini beradi.

**2017–2021-yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, yaqin besh yilda yuqori qo‘srimcha qiymatga ega bo‘lgan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab**

chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha umumiy qiymati 2 milliard 247 million dollar bo‘lgan 140 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Ana shu loyihalar hayotga tatbiq etilishi natijasida mamlakatimizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,2 marta ko‘- payadi.

Farg‘ona viloyatida bu borada umumiy qiymati 112 million dollar bo‘lgan 14 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Misol uchun, 2018–2019-yillarda Rishton tumanida «Rishton to‘qimachi» korxonasida 20 million dollarlik loyiha amalga oshiriladi.

Mamlakatimizdagi har bir inson, har bir oila hayotiga bevosita daxldor bo‘lgan farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirish, hech shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. Bu borada qabul qilingan dasturga muvofiq, 2016–2020-yillarda umumiy qiymati 224 million dollar bo‘lgan 67 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Shuningdek, aholi va tibbiy tashkilotlarni arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minalash darajasini oshirish, ularga narx belgilashning samarali mexanizmini joriy etish, mavjud arzon dorilar o‘rniga asossiz ravishda qimmat dorilar buyurish bo‘yicha hayotimizda uchrab turadigan noxush holatlarga chek qo‘yish yuzasidan zarur choralar belgilaymiz.

Ma’lumki, yurtimizda keyingi yillarda Navoiy, Jizzax va Angren erkin iqtisodiy zonalari samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ijobjiy tajribani kengaytirish maqsadida Urgut va G‘ijduvon tumanlari bilan birga

Qo‘qon shahrida ham ana shunday zona tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Ayni vaqtida qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, 2017–2020-yillarga mo‘ljallangan Ko‘ptarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish dasturini qabul qilib, uning doirasida ekin maydonlarini optimallashtirish va paxta ekishni bosqichma-bosqich qisqartirish rejalashtirilmoqda.

Bu sohada yer va suv resurslaridan oqilona foy-dalanish, zamонавијив интенсив агротехнологијаларни јоријетиш, маҳсулотни саqlash ва chuqur qayta ishlash инфратузilmalarini takomillashtirishni biz hal qiluvchi vazifa sifatida kun tartibiga qo‘ymoqdamiz.

Biz bunday ulkan vazifalarni amalga oshirishda, tabiiyki, barcha viloyatlarimiz qatori qadimiy dehqonchilik an’analariga ega bo‘lgan Farg‘она ахлига, uning g‘ayrat-shijoati, mirishkorlik fazilatlariga tayanamiz.

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz bo‘yicha yetishtirilayotgan g‘allaning 10 foizi, paxtaning 8 foizi, meva-sabzavotning 10 foizdan ziyodi Farg‘она viloyatiga to‘g‘ri kelishi viloyat dehqonlarining bu boradagi ulkan salohiyatidan dalolat beradi.

Faqat ishning ko‘zini biladigan, har qarich yerning qadriga yetib, unga butun mehrini, borlig‘ini berib mehnat qiladigan insonlargina bunday yuqori natijalarga erishishga qodir bo‘ladi.

Keyingi besh yilda viloyatda paxta maydonlari 5 ming 800 гектара qisqartirilib, ko‘proq daromad beradigan, eksportbop meva-sabzavot va poliz maydonlari kengaytirilgani, yurtimizdagi bog‘larning

beshdan bir qismi shu zaminga to‘g‘ri kelayotgani viloyat qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlar jadal amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

Viloyat dehqon va fermerlari bu yil ham barcha qishloq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha mo‘l hosil yetishtirib, uni o‘z vaqtida, yuqori sifat bilan yig‘ibterib oldilar. Fursatdan foydalanib, viloyatning mirishkor dehqon va fermerlarini, barcha dala mehnatkashlarini, siz, muhtaram Farg‘ona ahlini erishgan ulkan yutuqlaringiz bilan chin qalbimdan tabriklab, sizlarga samimiyl minnatdorlik bildirishni o‘z burchim deb bilaman.

Aziz do‘sstar, saylovoldi dasturimizda davlatning iqtisodiyotdagi rolini qisqartish, hududlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha ham aniq vazifalar belgilangan. Ularning barchasi avvalo xalqimizga, har bir fuqaroga qanday naf yetkazishi, uning dasturxonida, kundalik hayotida aks etishi biz uchun o‘ta muhimdir.

Jumladan, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish, iste’mol tovarlari, jumladan, arzon narxdagi oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxatini kengaytirish va hajmini oshirish bo‘yicha ishlar davom ettiriladi.

Dasturimizning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi **Ijtimoiy sohani rivojlantirish, «Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun» degan tamoyilni amalga oshirishni** nazarda tutadi.

Avvalo, qishloq aholisining ehtiyoj va talablarini hisobga olib, Qarorga muvofiq 2017–2021-yillarda **Qishloq joylarda kam ta’minlangan oilalar uchun arzon va qulay uy-joylar qurish dasturi** qabul

qilinganidan sizlar ommaviy axborot vositalari orqali xabardorsiz, albatta.

Bugungi kunda qishloq aholisi har tomonlama qulay, lekin arzon uylarga ehtiyoj sezmoqda. Shuning uchun yangi dasturga asosan avvalgi namunadagi uylarga nisbatan 2 barobar arzon va sifatli uy-joylar qurishga o‘tayapmiz.

Bu dasturda 2017-yilda ehtiyojmand oilalar uchun boshlang‘ich to‘lov hajmi ikki barobar kamaytirilgan, to‘rt xil yangi namunadagi, qulay va arzon, bir va ikki qavatli 15 mingta zamonaviy uy-joy barpo etish mo‘ljallanmoqda.

Ushbu dasturga muvofiq, Farg‘ona viloyatida 2017-yilda jami 1 ming 128 ta ana shunday uy-joy quriladi. Jumladan, Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon, Quvasoy shaharlarida uy-joyga muhtoj oilalar uchun ko‘p-qavatli arzon uylar barpo etiladi.

Yana bir muhim hujjat – **Qishloq aholi punktlarida ichimlik suvi tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi** doirasida kelgusi besh yilda mamlakatimizda qariyb 9 ming kilometrlik ichimlik suvi tarmoqlari, 1 ming 400 ta quduq va 3 ming 600 ta suv inshooti quriladi va rekonstruksiya qilinadi. Bu esa 3 million 200 ming aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minalash va mamlakatimizda ushbu ko‘rsatkichni 67 foizdan 84 foizga yetkazish imkonini beradi.

Bu masalani Farg‘ona viloyati misolida ko‘radigan bo‘lsak, bu yerda 11 kilometr magistral suv tarmog‘i, 920 kilometr mahalliy suv tarmog‘i, 228 ta suv qudug‘i, 165-ta suv minorasi, 239 ta nasos stansiyasi

va boshqa inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish mo‘ljallanmoqda. Eng muhimi, ana shu ishlarimiz natijasida aholini ichimlik suvi bilan ta’minalash darajasi viloyat bo‘yicha 91,5 foizga yetkaziladi.

Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun biz Uyjoy kommunal xo‘jaligi vazirligini, Moliya vazirligi huzurida «Toza suv» maxsus jamg‘armasi tuzishni mo‘ljallamoqdamiz.

Yana bir muhim dastur hududiy avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga egadir. Unga binoan Farg‘ona viloyatida kelgusi besh yilda umumiy foydalanishdagi 765 kilometr yo‘lni rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, Farg‘ona shahrida katta halqa yo‘l qurilishini yakuniga yetkazish, Amir Temur, Mustaqillik, Ahmad Yassaviy, Sanoat va Bozoryo‘li ko‘chalarini to‘liq ta’mirlab, katta halqa yo‘li bilan tutashtirish, tuman va qishloqlardagi ichki yo‘llarni ta’mirlash rejalashtirilmoqda.

Shu o‘rinda Shahar va qishloqlarda transport ta’minotini yanada yaxshilash dasturi tayyorlanayotgani haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Keyingi besh yilda Farg‘ona viloyatida bu borada katta ishlar amalga oshirilganidan sizlar albatta xabardorsiz. Ayniqsa, 324 ta avtobus sotib olinib, 63 ta yo‘nalishga qo‘yilgani aholiga transport xizmati ko‘rsatish sifatini oshirish imkonini berdi. Ana shu ishlarni izchil davom ettirish maqsadida Farg‘ona viloyatida lizing asosida yana 254 ta yangi avtobus olib kelib, qatnovga qo‘yish, 26 ta zamonaviy

avtobekat barpo etish, chekka hududlar aholisi uchun 27 ta yangi yo‘nalish tashkil etish kabi chora-tadbirlar rejalashtirilmoqda.

Yana bir muhim dastur – qattiq maishiy **chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi** shaharlarimiz va qishloq aholi punktlarining tozaligi va ozodaligini oshirish, atrof-muhitni zaharlaydigan, aholi salomatligi uchun xavf tug‘diradigan, noqonuniy chiqindilar tashlanayotgan joylarni yo‘q qilish imkonini beradi.

Kelgusi ikki yilda qariyb 6 milliard 900 million so‘m mablag‘ hisobidan viloyatdagi maishiy chiqindi poligonlari tartibga keltiriladi. Ularda elektr, suv ta’minti yo‘lga qo‘yiladi va yo‘llar asfaltlanadi.

Aholining og‘irini yengil qilishga qaratilgan yana bir dastur ishlab chiqilayotganini sizlarga ma’lum qilmoqchiman. U ham bo‘lsa, **ko‘mirning tannarxi va aholi uchun xarid qiymatini pasaytirish, qish mavsumida bu borada chayqovchilik qilish va ko‘mir narxining oshib ketishini bartaraf etishni ko‘zda tutadigan dasturdir.**

Unda kuzgi-qishki mavsumda mamlakatimiz tumanlari va qishloq joylarda ko‘mirga bo‘lgan talabni qondirish, aholini ko‘mir bilan uzlusiz ta’minlash, uning tannarxi va iste’molchilarga yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha kompleks qo‘srimcha chora-tadbirlar nazarda tutiladi. Hozirgi vaqtda Angren – Pop elektrlashtirilgan temiryo‘li orqali Farg‘ona viloyatiga olib kelinadigan 1 tonna ko‘mirning oldingi yillarga nisbatan 35 ming so‘m

arzon bo‘lishi va 3–4 kun tezroq yetkazilishi ta’minlanmoqda.

Shuningdek, ko‘mir yetkazib beruvchi korxona tomonidan ko‘mirmi bevosita mahallalarining o‘zida aholiga tarqatish yo‘lga qo‘yilishi ham odamlarga qulaylik yaratadi. Korxonaning viloyatdagi mavjud 10 ta ko‘mir ombori to‘lovlarni plastik kartochka orqali qabul qiladigan terminallar bilan jihozlangani ham albatta ko‘pchilik uchun qulaylik tug‘dirmoqda.

Kelgusi besh yilda **shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash bo‘yicha ham dastur** qabul qilish belgilangan. Bu dasturda Farg‘ona viloyatida 2 ming 915 kilometr elektr tarmoqlari, 717 ta transformator punkti, 8 ta podstansiya qurish va boshqa keng ko‘lamli ishlar rejalashtirilmoqda.

Hayotimiz davomchilarini, barcha orzu-umidlarimiz timsoli bo‘lgan farzandlarimizni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan ishlarimizning davomi sifatida biz muhim bir dasturni ishlab chiqishga kirishdik. Bu **maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturidir**.

Ushbu dasturda maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning tarmog‘ini kengaytirish, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamонавиј usul va dasturlarni joriy etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. Bu haqda gapirganda, Farg‘ona viloyatida kelgusi 5 yilda 272 ta maktabgacha ta’lim

muassasasi rekonstruksiya va kapital ta'mirlanishini ta'kidlash lozim.

Aholimizning hayotiy manfaatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan yana bir vazifa borki, u ham bo'lsa, **bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturini ishlab chiqishdan iborat.**

Mazkur dasturda 2017–2020-yillarda zamonaviy talablar, shaharsozlik va arxitektura me'yorlari asosida bozorlarni bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash choralari belgilanadi. Shuningdek, bozorlar qoshidagi savdo-xarid korxonalarli va avtomobillar to'xtash joylari faoliyatini yaxshilash, shu yo'nalishdagi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, Quvasoy shahri, Besariq, O'zbekiston, Bag'dod, Uchko'prik, Oltiariq, Farg'ona tumanlari markazlarida joylashgan dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda.

Shular qatorida hozirgi paytda ishlab chiqilayotgan **Pensionerlarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash dasturining ahamiyatini ham, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz.**

Bugungi yorug' kunlarga yetib kelishimizda bu tabarruk insonlarning xizmatlari juda katta va biz ularning oldida doimo qarzdormiz.

Ushbu dasturda nuroniy keksalarimizga amaliy g'amxo'rlik va e'tiborni kuchaytirish maqsadida 2016–2020-yillarda pensioner, nogiron, yolg'iz qariyalilar va aholining kam ta'minlangan qatlamlariga tib-

biy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Tayyorlanayotgan dasturda ana shu qarzni imkon qadar uzish, ularning umrini uzaytirish maqsadida avvalo «Nuroniy» jamg'armasining maqomi va mavqeyini ko'tarish, uning viloyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko'paytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyat berilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda shuni tan olishimiz kerakki, bugungi kunda shahar va tumanlarda nuroniylarimiz o'z tashvish va muammolari yuzasidan murojaat qiladigan vakolatli jamoat tashkiloti yo'q. Shuning uchun birinchi navbatda shahar va tumanlarda Jamg'armaning davlat budgetidan mablag' bilan ta'minlanadigan bo'limlari tashkil etiladi. Shahar va tumanlar hokimliklari yangi tashkil etiladigan bu bo'limlar uchun bino ajratib, ularning moddiy-texnik bazasini yaratib beradi.

Shuningdek, «Nuroniy» jamg'armasining respublika va viloyat tashkilotlari xodimlarini ham budget hisobidan oylik maosh bilan ta'minlash yo'lga qo'yiladi.

Yana bir yangilik, har bitta mahallada raisning nuroniylar masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimi joriy etilmoqda. Ma'lumki, hozirgi paytda Ikkinchи jahon urushi qatnashchilari bir yilda bir marta mamlakatimizdagi sanatoriylarda sog'lig'ini tiklash uchun bepul yo'llanmalar bilan ta'minlanmoqda.

Ammo ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli bu imtiyozdan foydalana olmayapti.

Endilikda ana shunday toifadagi nuroniylarimizga foydalanimagan yo'llanmalarning puli beriladi (hозирги кунда бу о'ртacha 800 ming so'mni tashkil etmoqda).

«Nuroniy» jamg'armasi boshchiligidagi «Mahalla» jamoat fondi, kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari tomonidan yolg'iz qariyalar har yili qishki kiyim-bosh, qish mavsumi uchun oziq-ovqat zaxirasi bilan ta'minlanadi.

2017–2020-yillarda respublikadagi barcha Muruvvat va Saxovat uylari rekonstruksiya qilinadi va kapital ta'mirlanadi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamonaviy sharoitlar yaratiladi.

Shuningdek, nuroniylarga tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish va ularning turlarini kengaytirish, tizimli sog'lomlashtirishni tashkil etish, profilaktika chora-tadbirlarini, kasalliklarni davolashning zamonaviy usullarini qo'llashni kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, keksa avlod vakillari uchun tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish va ularning turlarini kengaytirish, tizimli sog'lomlashtirishni tashkil etish, profilaktika chora-tadbirlarini, kasalliklarni davolashning zamonaviy usullarini qo'llashni kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

Farg'ona viloyatida ham nogironlar, keksalar va kam ta'minlangan fuqarolarning 2 ming 500 nafarini, 2 ming 400 nafar urush va mehnat faxriysini turli sanatoriylarga imtiyozli yo'llanmalar bilan ta'minlash rejajashtirilmoqda.

**Yana bir muhim hujjat – 2016–2020-yillarda O‘zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturidir.**

Muhtarama onalarimiz, munis ayollarimiz – bizni dunyoga keltirgan, oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazgan, xonadonlarimiz ko‘rki, tarovati bo‘lib kelayotgan aziz va mehribon zotlardir. Ularga har qancha e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatsak, e’zozlab boshimizga ko‘tarsak, shuncha kam, albatta.

Ayni shu maqsadga qaratilgan dasturda kelgusi 2 yilda ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, jumladan, ularga xizmat ko‘rsatadigan davolash-profilaktika tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash, ularga maxsus va yuqori texnologiyalar asosida tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Dasturga muvofiq barcha yangi tug‘ilgan chaqaloqlar, o‘smir qizlar, homilador va tug‘ish yoshidagi ayollar uchun to‘liq patronaj kuzatish tizimi joriy etiladi. Natijada kasallanish holatlarining oldi olinib, onalar va bolalarda kasalliklarni erta aniqlash ko‘rsatkichi 60 foizdan 85 foizga yetkaziladi.

Shu bilan birga, shifo maskanlariga markazlashgan tartibda yetkazib beriladigan dori vositalari, tibbiy buyum va uskunalar ro‘yxati kengaytiriladi.

Kelgusi besh yilda Farg‘ona viloyatida 31 ta tibbiyot birlashmalari va poliklinikalar rekonstruksiya qilinadi va kapital ta’mirlanadi. Ular zamonaviy tibbiy uskunalar, xususan, 43 ta tomograf, 326 ta rentgen va

321 ta UZI apparatlari, 87 ta laparaskop va boshqa uskunalar bilan qo'shimcha jihozlanadi.

Ana shu maqsadlar uchun barcha manbalar hisobidan 1 trillion 500 milliard so'm va 131 million dollar mablag' sarflanadi.

Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tishni zarur deb bilaman. U ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liqdir. Buyuk Abdulla Avloniy bobomiz aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan ham yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va bu masala biz uchun o'z dolzarbliji va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidir.

Nega deganda, bugungi yashin tezligida o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosи, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga qanday og'ir kulfatlarni solayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda.

Bunday keskin va tahlikali sharoitda beparvo bo'lish, loqayd bo'lish – qanchalik og'ir bo'lmasin, ochiq aytishga majburmiz – bu xiyonat, jinoyat bilan barobardir.

Shuning uchun biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohligimizni yanada oshirishimiz kerak. Aziz yurtboshimiz Islom Abdug‘aniyevich aytganlaridek, o‘z bolalarimizni birovrlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz kerak.

Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga qulqoq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishslashga ko‘proq e’tibor qaratish zarur.

Bu vazifalarni amalgalashda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, aj-dodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayanamiz. Yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kamol toptirish, ularni sog‘lom tur mush tarzi ruhidha tarbiyalashga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytiramiz. Bu boradagi siyosatimiz yangi qabul qilingan «**Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida**»gi qonun asosida qat’iy davom ettiriladi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati barcha yoshlarimiz intiladigan, ularning qobiliyat va iqtidorini ro‘yobga chiqaradigan va manfaatlarini haqiqiy himoya qiladigan tashkilotga aylanishi uchun barcha choralarни ko‘ramiz.

Aziz do‘sstar!

Bugungi kunda biz o‘z oldimizga qo‘ygan dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish vazifasini ilm-fan namoyandalari, zahmatkash olimlarimiz, ijodkor ziyyolilarimizning faoliyatisiz tasavvur etolmaymiz. Shuning uchun ham biz ularga har tomon-

lama qulay sharoitlar yaratish maqsadida bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz. Farg‘ona viloyatida yashab ijod qilayotgan olim va adiblari-miz, universitet va institutlarda, litsey va kollejlarda dars berayotgan hurmatli domlalarimiz, ilmiy xodim-lar va mutaxassislarning mashaqqatli va sharaflı mehnatini qadrlash va rag‘batlantirishga alohida ahamiyat qaratamiz.

Biz mamlakatimizdagi, jumladan, Farg‘ona viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarimizning moddiy- texnik bazasini yanada yaxshilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab olganimiz va ularni izchil amalga oshiramiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Ijozatingiz bilan, oldimizda turgan eng muhim masala – **xavfsizlikni ta’minlash, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, tashqi siyosat haqida** to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Biz «**O‘zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak**» degan da’vatni xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi faoliyatimizning asosiy tamoyili va o‘zak g‘oyasi deb bilamiz.

Mustaqillik yillarida biz erishgan eng katta va bebahो boylik – ko‘pmillatli xalqimizning har qanday qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, uning zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligining yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga daxldorlik tuyg‘usi, jamiyatimizdagi o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir.

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kela-yotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo‘lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash – xavfsizlik va barqarorlikni hamda xalqimizning osoyishta hayotini ta’minlashning eng muhim sharti va kafolatidir.

Biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga tahdid solishga urinadigan yovuz kuchlarning har qanday harakatlariga keskin zarba berishga qodirmiz.

**Tashqi siyosat** sohasida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to‘liq amal qilish saylovoldi dasturimizning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Tashqi siyosatimizning asosiy ma’no-mazmuni – tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo‘l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘silmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O‘zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shti mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada

mustahkamlashni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Bu borada bugun Andijonda aytgan gaplarimni takrorlashni istardim. Biz qo‘snilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo‘lini izchil davom ettiramiz. Takror aytaman, qo‘snilarimiz bilan raqobat emas, o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantiramiz. Qo‘snimizning yutug‘i – bu bizning ham yutug‘imiz. Ularning tinch va farovon hayoti – butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi deb bilamiz.

Mana shu yo‘lda yangi amaliy qadamlar qo‘yayotganimiz, jumladan, qo‘sni davlatlarning rahbarlari bilan olib borayotgan muzokaralarimiz buning amaliy tasdig‘idir. Mana, yaqinda hammangiz guvoh bo‘ldinglar, Qиргизистондан kelgan mehmonlarning Andijon va Farg‘она viloyatlarida, bizning vakillarimizning esa O‘sh viloyatida bo‘lgani azaliy do‘stlik aloqalarini mustahkamlashga munosib hissa bo‘lib qo‘silishi shubhasiz.

Qadrli va aziz vatandoshlar!

Biz saylovoldi dasturimizda belgilab olgan maqsad va vazifalarni hayotga to‘liq tatbiq etish uchun mamlakatimizni rivojlantirish bo‘yicha kelgusi besh yilga mo‘ljallangan, yuqorida bayon qilingan beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha **Harakat strategiyamizni** ishlab chiqamiz.

Bu strategiyani amalga oshirish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud. Yurtimizning beqiyos ijtimoiy-iqtisodiy, intellektual-ma’naviy salohiyati, yer osti va yer usti boyliklari, dunyo miqyosidagi munosib

obro‘-e’tibori, jamiyatimizdagи mustahkam tinchlik va barqarorlik muhiti oldimizga qo‘ygan ulkan va ezgu maqsadlarga erishishda, hech shubhasiz, eng muhim omillar bo‘lib xizmat qiladi.

Eng asosiysi, bizning ko‘pni ko‘rgan, hayot sinovlarida toblangan, har qanday ulug‘ marralarni egallahsga qodir, mard va olijanob xalqimiz bor.

Ishonchim komil, xalqimizning ana shunday fazi-latlarini o‘zida mujassam etib, ularni asrlar davomida asrab-avaylab va boyitib kelayotgan Farg‘ona ahli, Farg‘ona viloyati bu yo‘lda bizga tog‘dek tayanch bo‘ladi.

Bu elning barcha ezgu orzu-niyatlarini amalgaloshirish uchun bor bilim va tajribamni, butun borlig‘imni ayamasdan xizmat qilishni men o‘zim uchun yuksak sharaf, deb bilaman.

So‘zimning yakunida sizlarga va sizlar orqali butun Farg‘ona ahliga tinchlik-omonlik, baxt-u saodat, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Rishton tumani,  
2016-yil 1-noyabr**

**GO'ZAL VA BETAKROR O'LKA**  
**(NAMANGAN VILOYATI SAYLOVCHILAR**  
**VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI**  
**NUTQ)**



---

Assalomu alaykum, qadrli yurtdoshlar!

Muhtaram do'stlar!

Avvalambor, bugun mana shu go'zal Namangan zaminida siz, azizlarni sog'-omon, yaxshi kayfiyatda ko'rib turganimdan xursand ekanimni bildirib, bar-changizga, sizlar orqali butun viloyat ahliga, o'zimning chuqur hurmat va ehtiromimni izhor etaman.

Hurmatli saylovchilar!

Barchamiz Namangan viloyati deganda, avvalo, go'zal va betakror bir o'lkani, mana shu tabarruk zaminga ulkan mehr va sadoqat bilan yashayotgan, mustaqilligimizni mustahkamlash va Vatanimizni yanada ravnaq toptirish yo'lida tinim bilmasdan mehnat qilayotgan, fidoyi va bag'rikeng insonlarni ko'z oldimizga keltiramiz.

Bu diyordagi mashhur Axsikent, Munchoqtepa, Ayrитom, Mug'tepa kabi me'moriy yodgorliklar o'tmishda ushbu hududda o'ziga xos sivilizatsiya va boy madaniyat rivojlanganidan dalolat beradi.

Namangan qadimdan ko'p-ko'p iste'dod egalarining parvoziga qanot bergen ilohiy bir makondir. Bu ko'hna yurtda tug'ilib ijod qilgan Maxdumi A'зам Kosoniy, Boborahim Mashrab, Fazliy, Nodim Namangoniy, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda singari shoir va ma'rifatparvarlarning nomlarini xalqimiz hurmat bilan tilga oladi.

Shu o'rinda, milliy uyg'onish davrining yetuk namoyandalardan biri, Vatan va xalq istiqqloli uchun

jonini fido qilgan ulug‘ bobomiz Ibrat domla haqida to‘xtalib o‘tishni o‘rinli deb bilaman.

Barchamizga yaxshi ma’lum, XIX asrda To‘raqo‘rg‘on zaminida tug‘ilib o‘sgran noyob iste’dodli bu inson arab, fors, rus, hind, urdu, ingliz, fransuz tillarini yaxshi bilgan.

Shu bilan birga, eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini chuqur o‘rgangan. U dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bo‘lib, Sharq va Yevropa ilm-fani, madaniyati va san’ati bilan yaqindan tanishgan, yurtimizga ilg‘or madaniyat va texnika yangiliklarini olib kirishga intilgan.

Ibrat domla o‘lkamizdagi ilk matbaachilardan biri sifatida, 1908-yilda Orenburg shahridan litografik mashina sotib oladi va uni Orenburgdan Qo‘qongacha poyezdda, Qo‘qondan To‘raqo‘rg‘onga tuyalarga ortib, katta mashaqqatlar bilan olib keladi va o‘z hovlisida «Ishoqiya bosmaxonasi»ni tashkil qiladi. Yaqin-yaqingacha, ya’ni 1960-yilgacha faoliyat ko‘rsatib kelgan bu bosmaxonada o‘tgan davr mobaynida qator ilmiy-ma’rifiy kitob va risolalar, milliy gazetalar nashr etilgani, ularni tarqatish uchun vodiyning shahar-qishloqlarida o‘nlab kitob do‘konlari tashkil etilgani sizlarga yaxshi ma’lum, albatta. Bu ulug‘ ma’rifatparvar inson ko‘plab ilmiy, pedagogik hamda badiiy asarlar yaratgan, o‘z qishlog‘ida yangi maktab va kutubxona ochgan, aholi uchun zamonaviy bog‘ barpo qilgan, hozirgacha g‘oyat noyob hisoblanadigan olti tilli lug‘at yaratib, o‘z bosmaxonasida chop ettirgan. Uning «Farg‘ona tarixi» degan mashhur asari mamlakatimiz tarixiga oid nodir manbalardan

biri ekanini sizlar albatta yaxshi bilasizlar. Afsuski, 1937-yildagi qonli qatag‘onlar yurtimizning ko‘plab fozil kishilari qatorida 75 yoshni qoralagan keksa adib Ibratni ham o‘z girdobiga tortadi. U turmada og‘ir kasallikka chalinib vafot etadi. Ulug‘ ajdodimiz Ibrat taxallusini o‘ziga bejiz tanlamagan ekan. Uning Vatan va yurt taraqqiyoti yo‘lidagi fidokorona hayoti nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz uchun haqiqiy ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda, desak, adashmagan bo‘lamiz. Shu o‘rinda bir fikrni sizlar bilan o‘rtoqlashmoqchi edim. To‘raqo‘rg‘onda Ibrat domla hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan muzey borligi yaxshi, albatta.

Lekin savol tug‘iladi: shunday ulug‘ zotning xalqimiz uchun qilgan buyuk xizmatlarini butun mamlakat miqyosida o‘qib-o‘rganish, merosini targ‘ib qilish, avlodlarga yetkazish uchun shuning o‘zi yetarlimi?

Menimcha, To‘raqo‘rg‘onda u kishiga atab zamnaviy bog‘ yaratib, yodgorlik majmuasini tashkil qilsak, buyuk bobomiz oldidagi qarzimizni uzgan bo‘lamiz, desam Sizlar nima deysizlar?

Bu yer butun respublikamiz aholisi uchun sevimli bir ziyyaratgohga aylanishi kerak. Nega deganda, bunday fidoyi insonlar o‘zbek xalqining faxr-u iftixoridir. Agar viloyat ahli shu taklifni qo‘llab-quvvatlasa, ziyorolar, keng jamoatchiligidir, davlat idoralari bunga bosh-qosh bo‘lsa, tom ma’noda ibratli bir ish bo‘lardi. Bu yerda yoshlarimiz uchun til o‘rganish bo‘yicha «Ibrat maktabi»ni tashkil qilsak ayni muddao bo‘lur edi.

Namangan adabiy muhitida kamolga yetgan Muhammadsharif So‘fizoda yurtimiz so‘z san’atkorlari

orasida birinchi bo‘lib, «O‘zbekiston xalq shoiri» unvoni bilan taqdirlangani ham alohida e’tiborga sazovordir.

Eng muhimi, viloyatda ana shunday ezgu an’analar munosib davom etib, bu tabarruk tuproqda Rafiq Mo‘min, Chustiy, Yo‘ldosh Shamsharov, Parda Tursun, Usmon Nosir, Zafar Diyor, Turg‘un Po‘lat, Husniddin Sharipov, Habib Sa’dulla kabi atoqli adiblar yetishib chiqqan.

Bugungi kunda faol ijod qilayotgan Ermamat Nurmatov, Abdug‘ani Abduvaliyev, Ziyovuddin Mansur kabi taniqli ijodkorlar, Jamoliddin Muslim, Xosiyat Rustamova, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi Mehrinoz Abbosova singari iste’dodli yoshlarni tarbiyalab yetishtirganini alohida ta’kidlash lozim.

Namangan zamini o‘zbek san’ati va madaniyati rivojiga qanday ulkan hissa qo‘shgani haqida har qancha gapirsak arziydi, albatta.

Bu haqda so‘z borganda, Sora Eshonto‘rayeva, Mukarrama Azizova, Tursunoy Ja’farova, Shahodat Rahimova, Habiba Oxunova, Kamoliddin Rahimov, O‘rinboy Nuraliyev, Ergash Yo‘ldoshev kabi ustoz san’atkorlarimizni bugun sizlar bilan eslamay bo‘ladimi?

Yoqub Ahmedov, Olimjon Salimov, Karim Yo‘ldoshev, Mirza Azizov, Zulayho Boyxonova, Hoshim Arslonov, Mehri Abdullayeva singari taniqli ijodkorlarimizni tilga olishimiz, albatta tabiiydir.

Ularning izidan borib, o‘zining iste’dod va qobiliyatini namoyon etayotgan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Alisher Turdiyev, Samandar Hamroqulov, «Nihol» mukofoti sovrindorlari Malika Egamberdiyeva, yosh xonanda Bekzod Bahromov

kabi o‘nlab namanganlik yoshlarimizning kelajagiga biz katta umid va ishonch bilan qaraymiz.

Bugungi kunda yurtimiz dovrug‘ini dunyoga taratib kelayotgan muhtaram domlamiz, akademik Mahmud Salohiddinov, tarixchi olim, professor Tursunboy Fayzullayev, Jahon fanlar akademiyasining eng yosh a’zolaridan biri, mashhur «gen-nokaut» texnologiyasini ixtiro qilgan g‘o‘zashunos olim Ibrohim Abdurahmonov, taniqli ijodkorlar – Ahmadalii Akbarov, Ortiqali Qozoqov, Akmal Nur singari Namangan farzandlari haqida, ularning el-yurt oldidagi xizmatlari haqida uzoq gapirish mumkin.

Eng muhimi, ularning safi mustaqillik yillarida tug‘ilib voyaga yetgan yoshlar bilan to‘lib, kengayib borayotgani barchamizni xursand qiladi.

Namangan haqida so‘z borar ekan, albatta, bu diyordan yetishib chiqqan taniqli sportchilar xususida alohida to‘xtalib o‘tish joiz.

Bugungi kunda futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi sardori Odil Ahmedov, shotakan-karate bo‘yicha 5 karra jahon championi Muhammad Abdumutalov, tennis bo‘yicha xalqaro turnirlar g‘olibи Humoyun Sultonov, Braziliyada o‘tkazilgan yozgi olimpiya o‘yinlarining boks bo‘yicha bronza medali sohibi Murodjon Ahmadaliyev va 15-paralimpiya o‘yinlarining yengil atletika bo‘yicha oltin medali sohibasi Nozimaxon Qayumova singari iste’dodli yoshlarimiz bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Bularning barchasi Namangan xalqining asrlar osha boqiy yashab kelayotgan yuksak salohiyatidan, ayni vaqtda, bu yerda yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalananayotganidan dalolat beradi.

Namangan shuhratini oshirishga hissa qo'shayotgan bir qator yurtdoshlarimiz, xususan, «O'zbekiston Qahramoni» degan yuksak unvonga sazovor bo'lган mirishkor fermerlar Abduraim Homidov va Xalchaxon Mirzayeva, mohir shifokor Oyshaxon Qo'chqorova kabi o'z mehnati bilan dong taratgan insonlar ko'pchilikka o'rnak va namuna bo'lib kelmoqdalar.

Shu o'rinda viloyat hayotida faol qatnashib kelayotgan muhtaram nuroniylar haqida alohida to'xtalib o'tish lozim, deb o'ylayman.

Mana, yig'ilishimizda ana shunday oqsoqollari-mizdan viloyat «Nuroniy» jamg'armasining rahbari Ikromxon Najmuddinov ishtirok etayapti.

Shuningdek, keksa pedagog G'anijon Ortiqov, urush va mehnat faxriysi Sansoqjon ota Nizomov, Mavluda Imomova singari katta hayot tajribasiga ega bo'lган, yoshlarga namuna bo'lib kelayotgan insonlar nomini biz hurmat bilan tilga olamiz.

Bugungi yorug' kunlarga yetib kelishimizda ana shunday tabarruk insonlarning xizmatlari juda katta va biz ularning oldida doimo qarzdormiz.

Ana shu qarzni imkon qadar uzish, keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, avvalo, «Nuroniy» jamg'armasining maqomi va mavqeyini ko'tarish, uning viloyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko'paytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyat berishimiz zarur.

Tan olish kerakki, bugungi kunda shahar va tuinanalarda nuroniylarimiz o'z tashvish va muammo-lari yuzasidan murojaat qiladigan vakolatli jamoat tashkiloti yo'q. Shuning uchun birinchi navbatda

shahar va tumanlarda «Nuroniy» jamg‘armasining davlat budgetidan mablag‘ bilan ta’milnadanigan bo‘limlari tashkil etiladi. Mahalliy hokimliklar bu bo‘limlar uchun bino ajratib, ularning moddiy-texnik bazasini yaratib beradi.

Shuningdek, «Nuroniy» jamg‘armasining respublika va viloyat tashkilotlari xodimlarini ham budget hisobidan oylik maosh bilan ta’minalash yo‘lga qo‘yiladi. Yana bir yangilik – har bitta mahallada raisning nuroniyalar masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi joriy etilmoqda.

Namangan ahli o‘zining mohir hunarmandlari va ustalari bilan dunyoga tanilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Namangan hunarmandchilik mahsulotlari, xususan, xonatlas, adres va beqasam kabi milliy matolarimizdan tayyorlangan liboslar O‘zbekistondan tashqarida ham ma’lum va mashhurdir.

Ishbilarmonlik, tadbirkorlikning bunday noyob an’analari Namangan ahlining qon-qonida bo‘lib, avloddan avlodga o‘tib kelayotganini barchamiz yaxshi bilamiz. Mustaqillik davrida milliy an’ana va qadriyatlarimiz tiklanishida Namangan hunarmandlarining munosib hissasi bor.

Shu o‘rinda namanganlik tadbirkor Baxtiyor Umarov rahbarligidagi «Istiqlol» dizayn markazi faoliyatini ta’kidlab o‘tishni istardim. Bugungi kunda erkaklar kostumini ishlab chiqarish bo‘yicha jahondagi taniqli brendlар bilan raqobatlasha oladigan ushbu korxona 50 turdan ziyod modelda mahsulot ishlab chiqarmoqda. Eng muhimi, viloyatda shu yo‘nalishning o‘zida 150 ta xususiy korxona faoliyat olib bormoqda.

Ular ichki bozorimizni zarur mahsulotlar bilan to‘ldirish bilan bir qatorda, o‘z tovarlarini ko‘plab xorijiy mamlakatlarga eksport qilayotgani tahsinga sazovordir.

Aziz do‘sstar!

Namangan viloyati haqida so‘z yuritar ekanmiz, muhtaram Islom Abdug‘aniyevichning: «**Namanganda pok niyatli insonlar yashaydi**», degan mehr to‘la so‘zlari beixtiyor yodimizga keladi. Bu samimiy ta’rifda butun xalqimizning fikri ifoda etilgan desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

U kishining siz, aziz namanganliklarga bo‘lgan mehr-muhabbatiga barchamiz nafaqat so‘zda, balki amaliy hayotda doimo guvoh bo‘lganmiz. 90-yillarda Namangan xalqi boshiga og‘ir sinov tushgan eng murakkab vaziyatda Islom Abdug‘aniyevich katta jasorat bilan nafaqat viloyat ahlini, balki butun O‘zbekistonimizni, million-million yoshlarimizni saqlab qolganlarini barchamiz yaxshi eslaymiz.

Muhtaram Yurtboshimizning Namanganni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan g‘oya va dasturlari natijasida bugun viloyatning barcha hududlari rivojlanib, tobora obod bo‘lib bormoqda.

Keyingi besh yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti 1,7 barobar oshib, unda sanoat sohasining ulushi 16,7 foizdan 21 foizga yetgani barchamizni quvontiradi.

O‘tgan besh yil mobaynida viloyatda 375 mingta yangi ish o‘rni tashkil etilgani va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining 92 foizi ish bilan ta’minlangani alohida e’tiborga loyiq, albatta.

Bu davrda viloyatda 40 ta tibbiyot muassasasi, 102 ta qishloq vrachlik punkti va 207 ta ta’lim

obyektida yangi qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari bajarildi.

2009–2016-yillarda 182 ta qishloq massivida namunaviy loyihalar asosida 5 mingga yaqin uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Bunday shinam uy-joylarda yashayotgan oilalar soni tobora ko'payib, ularning hayot sifati butunlay o'zgarib borayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

Mustaqilligimizning 25 yilligi arafasida Qamchiq dovoni orqali o'tgan, dunyoda o'xshashi kam, 19 kilometrlik noyob tunnelni o'z ichiga olgan Angren-Pop elektrorashtirilgan temiryo'lining foydalanishga topshirilgani yurtimiz hayotidagi ulkan voqeа bo'ldi.

Bu yo'lning ishga tushirilishi Farg'onan vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o'rtaida temiryo'l orqali yuk va yo'lovchi tashishda beqiyos qulayliklar yaratish bilan birga, Namangan viloyatining muhim tranzit hududiga aylanishini ta'minladi.

Bu yilgi mavsumda namanganlik omilkor dehqon va fermerlar qishloq xo'jaligi ekinlaridan yaxshi hosil olishga erishdilar.

Bugun mana shu yuksak minbarda turib, siz, azizlarga, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan ishchi va tadbirkorlar, fermer va dehqonlar, o'qituvchi va shifokorlar, bir so'z bilan aytganda, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demasdan mehnat qilayotgan barcha **Namangan ahliga samimi** miy minnatdorlik bildirishni o'zim uchun ham qarz, ham farz deb bilaman.

Qadrli yurtdoshlar!

Bugun sizlar bilan uchrashuvimiz muhim siyosiy voqeа – 4-dékabr kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti sayloviga bag‘ishlangani hammangizga ma’lum, albatta.

Avvalambor, ta’kidlash lozimki, saylov – bu mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ko‘zgusi, fuqarolarning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishning asosiy shaklidir.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz talablariga, umume’tirof etilgan xalqaro standartlarga javob beradigan saylov tizimi yaratildi.

Oldimizda turgan bu jarayonni nafaqat xalqimiz, ayni paytda xalqaro hamjamiyat, dunyo jamoatchiligi ham kuzatib turibdi. Shu bois, ushbu saylovlarni qanday o‘tkazishimizga qarab, barchamizning siyosiy va huquqiy saviyamizga, jamiyatimizning demokratik taraqqiyot yo‘lidagi o‘sishiga, O‘zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiboriga baho berilishini unutmasligimizni istardim.

Muhtaram do‘stlar!

O‘ylaymanki, sizlar O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasining syezdida bayon etilgan mening saylov-oldi dasturimdan xabardor bo‘lsangiz kerak. Bu ma’ruza matbuotda bosilib chiqdi, kecha televideniye orqali ham namoyish qilindi.

Ruxsatingiz bilan, ana shu dasturda belgilangan asosiy yo‘nalishlarning Namangan viloyati bilan bog‘liq jihatlari to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tmoq-chiman.

Biz, avvalo, Birinchi Prezidentimiz har tomonlama asoslab bergen, tub negizida «**Bizga tinchlik va**

**omonlik kerak»** degan g‘oya mujassam bo‘lgan O‘zbekistonning tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy yo‘lni izchil davom ettiramiz.

Turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hozirgi o‘ta notinch va murakkab zamonda bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va osoyishtalikni ko‘z qorachig‘idek saqlash, jamiyatimizdagi millatlar va dinlararo hamjihatlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash **bizning eng muhim va ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.**

Demokratik yangilanishlarning bugungi bosqichida biz qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, tartib-intizom, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga alohida e’tibor qaratamiz.

Biz o‘zimiz barpo etayotgan huquqiy davlatda **adolatsizlikka hech qachon yo‘l qo‘ymaymiz.** Qonun vaadolat himoyasi hokimiyatning barcha bo‘g‘inlari, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari, ayniqsa, huquqni muhofaza qilish idoralarining birinchi darajali vazifasiga aylanishi zarur.

Shuni ochiq tan olishimiz kerakki, biz notinch zamonda va notinch mintaqada yashayapmiz. Shuning uchun ham biz Vatanimiz himoyasini, davlatimiz mustaqilligi va sarhadlarimiz daxlsizligini kafolatlaydigan, Qurolli Kuchlarimizning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlashga qaratilgan tizimli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni qat’iyat bilan davom ettiramiz.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga xavf solishga urinadigan har qanday yovuz kuchlarga munosib zarba berishga qodir bo‘lgan

milliy armiyamizni bundan buyon ham har tomonlama mustahkamlab boramiz.

Tashqi siyosatni amalgalashda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Bu borada kecha Andijon va Farg'onada aytgan gaplarimni takrorlashni istardim.

«Qo'shning tinch – sen tinch» degan gap beziz aytilmagan. Biz qo'shnilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, do'stlik yo'lini, hamkorlik qilish yo'lini izchil davom ettiramiz. Ta'kidlab aytaman, qo'shnilarimiz bilan raqobat emas, o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantiramiz. Qo'shnikimizning yutug'i – bu bizning ham yutug'imiz. Ularning tinch va farovon hayoti – butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi deb bilamiz. Mana shu yo'lida muhim amaliy qadamlar qo'yayotganimiz, jumladan, qo'shni davlatlarning rahbarlari bilan olib borayotgan muzokaralarimiz buning yaqqol tasdig'idir. Mana, yaqinda hammangiz guvoh bo'ldinglar, Qirg'izistonidan kelgan mehmonlarning Andijon viloyatida, bizning vakillarimiz esa O'sh viloyatida bo'lgani azaliy do'stlik aloqalarini mustahkamlashga munosib hissa bo'lib qo'shilishi shubhasiz.

**«Iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib, siyosiy mustaqillikni ta'minlab bo'lmaydi»** degan qoidaga amal qilgan holda, biz mamlakatimizning iqtisodiy qudratini oshirish, jahon maydonida uning raqobatdoshligini ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini izchil davom ettiramiz.

Bizning oldimizda 2030-yilgacha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini 2 barobardan ziyod oshirish, bunda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 33,5 foizdan 40 foizga yetkazish vazifasi turibdi. Bu borada qishloq xo‘jaligining ulushini 16,6 foizdan 8–10 foizga tushirish, yalpi ichki mahsulot uchun sarflanadigan energiya hajmini taxminan 2 barobar qisqartirishni ta’minlashimiz kerak bo‘ladi.

Yana bir o‘ta muhim vazifa «**Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun**» degan tamoyil asosida xalqimizning hayot darajasi va sifatini muttasil yuksaltirib borish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritishdan iboratdir. Bu borada davlat budjetining ijtimoiy yo‘naltirilgan xususiyati bundan buyon ham saqlab qolinadi.

Hurmatli vatandoshlar!

Biz Namangan viloyatining kelgusi yillardagi rivojlanish sur’atlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan «**2016–2019-yillarda Namangan viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi**» talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiramiz.

Mazkur dasturda umumiy qiymati 5 milliard dollar bo‘lgan 342 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish nazarda tutilgani sizlarga ma’lum.

Ularning orasida umumiy qiymati 2 milliard 1 million dollarga teng bo‘lgan, 1800 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarishga mo‘ljallangan To‘raqo‘rg‘on issiqlik elektr stansiyasi qurilishi eng yirik loyiha sanaladi, albatta. Ushbu elektr stansiyasi nafaqat Namangan viloyati, balki butun Farg‘ona

vodiysida elektr energiyasiga bo‘lgan talab va ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Pop tumanida 100 megavatt quvvatga ega bo‘lgan, umumiy qiymati 210 million dollar ni tashkil etadigan quyosh elektr stansiyasini qurish, Mingbuloq tumanida 211 million dollarlik «Mingbuloq neft-gaz» konini o‘zlashtirish va boshqa investitsiya loyihalarini amalga oshirish ko‘zda tutilmoxda.

Namangan viloyatini kelgusi besh yilda jadal rivojlantirish maqsadida biz mavjud ahvolni chuqur o‘rganib, bu borada aniq vazifalarni belgilab olishimiz zarur.

Shuning uchun ham joriy yil sentabr oyida hukumatimiz tashabbusi bilan viloyatga alohida ishchi guruhi yuborilib, qo‘srimcha rezerv va imkoniyatlar o‘rganildi, bir qator takliflar tayyorlandi. Va shu asosda Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot vazirligi, Namangan viloyati hokimligiga tegishli vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalari bilan birqalikda uch oy muddatda qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturini tayyorlash vazifasi topshirildi.

Jumladan, viloyatda yaqin 5 yil davomida **yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo‘yicha umumiy qiymati 2,4 trillion so‘mlik 828 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish mo‘ljallanmoqda.**

Bu haqda gapirganda, **yengil, charm-poyabzal va farmatsevtika tarmoqlarida** kelgusi besh yilda 1 trillion 565 milliard so‘m sarmoya o‘zlashtirilib, jami 353 ta investitsiya loyihasi joriy etilishini alohida aytib o‘tmoqchiman.

Namangan shahri, Namangan, To‘raqo‘rg‘on, Uychi va Uchqo‘rg‘on tumanlarida tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar tashkil etish hisobidan viloyatda paxta tolasini qayta ishlash darajasi 2021-yilga borib hozirgi 49 foizdan 94 foizga ko‘tariladi.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatyaptiki, ip-kalavani eksport qilsak, tolaga nisbatan 1,4 marta ko‘p daromad olamiz. Agar tayyor mahsulotga aylantirib sotadigan bo‘lsak, eksportdan keladigan daromadimiz 6 barobar ko‘payadi. Bu faqat valuta tushumi emas, balki yangi ish o‘rinlari, budgetga qo‘sishimcha soliq va aholi farovonligi demakdir.

**Shu sababli, tekstil va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish** maqsadida yaqin besh yilda Namangan viloyatida umumiy qiymati 346 million dollar bo‘lgan 16 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Masalan, 2016–2018-yillarda Uchqo‘rg‘on tumanida 3 ta korxonada umumiy qiymati 210 million dollar bo‘lgan loyihalar amalga oshirilib, yiliga 26 ming tonna ip va aralash kalava, 10 ming tonna bo‘yalgan kalava, 25 million momiq va 2 million trikotaj buyum ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushiriladi.

**Oziq-ovqat sanoatida** kelgusi besh yilda 214 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish mo‘ljallanmoqda. To‘raqo‘rg‘on tumanidagi meva va sabzavot tayyorlaydigan korxonada yiliga 30 ming tonna mahsulotni qayta ishlash va qadoqlash quvvatlari tashkil etiladi.

**Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi va boshqa tarmoqlarda** 185 ta loyihani amalga oshirish

ko‘zda tutilmoqda. Jumladan, 2017-yilda Kosonsoy tumanida «Quruvchi Kushon» korxonasi tomonidan yiliga 400 ming tonna sement va 5 mingta temir-beton mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi zavod ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, Mingbuloq, Norin, Chust, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Chortoq va Yangiqo‘rg‘on tumanlarida **Mahalliyashtirish dasturi** doirasida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Viloyatda yana bir muhim ko‘rsatkich – **hududiy eksport** hajmi ham ortib bormoqda. Ayni vaqtida, bu borada hali foydalanilmayotgan rezervlar mavjud ekanini ochiq tan olishimiz lozim. Buni inobatga olib, kelgusi 5 yilda hududiy eksport hajmini kamida 2,8 barobar oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmoqda.

Iqtisodiyotimizning yetakchi tarmog‘i bo‘lgan **qishloq xo‘jaligi** bo‘yicha ham oldimizda katta vazifalar turibdi.

Avvalo, agrar tarmoqda tarkibiy o‘zgarishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahamlash maqsadida kelgusi besh yil mobaynida 769 ta chorvachilik, 183 ta parrandachilik, 164 ta baliqchilik fermalari, 160 ta asalarichilik va 38 ta quyonchilik xo‘jaligi tashkil etiladi.

Shular qatorida, 1 ming 740 hektar maydonda sabzavotchilik va limonariy, 3 ming 555 hektar maydonda intensiv bog‘, 1 ming 200 hektar maydonda yangi tokzorlar barpo etish ko‘zda tutilmoqda.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish masalasi barcha tumanlarda, ayniqsa, Mingbuloq va Pop tumanlarida alohida e'tiborimiz markazida bo'ldi.

Mazkur tadbirlar natijasida kelgusi 5 yilda go'sht va sut ishlab chiqarish kamida 1,4 barobar, tuxum – 1,8 marta, kartoshka – 1,5 karra, meva-sabzavot va uzum yetishtirish 1,2 barobar ko'payadi. Shuningdek, shu mahsulotlarni qayta ishlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Namangan viloyati bo'yicha yana bir muhim soha – **axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish**, hokimliklar, idoralar, korxona va tashkilotlar faoliyatida ana shu imkoniyatlardan keng foydalanish masalasi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Aholiga ko'rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari sifatini oshirish maqsadida 250 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa tarmoqlarini va 247 ta mobil aloqa tayanch stansiyasini qurish, eskirgan telefon stansiyalarini zamonaviy stansiyalarga almashtirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Yangiyo'rg'on, Pop, Kosonsoy, Chust va Chortoq tumanlarida 26 ta raqamli teleuzatkich o'rnatish hisobidan viloyat hududini raqamli televiedeniye bilan qamrab olish darajasini hozirgi 80 foizdan 100 foizga yetkazish – oldimizda turgan muhim vazifadir.

Hurmatli yurtdoshlar!

Bizning saylovoldi dasturimizda mamlakatimizdag'i barcha viloyatlar qatori Namangan viloyatida ham har bir shahar va tumanni rivojlantirish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan. Bugungi imkoniyatdan foydalanib, ular haqida ham qisqacha axborot berib o'tmoqchiman.

Tan olish kerakki, biz ilgari islohotlarni amalga oshirishda aksariyat hollarda viloyat miqyosidagi masalalarga e'tibor qaratib kelganmiz. Vaholanki, har bir tuman va shaharning o'ziga xos xususiyatlari, yechilmagan muammolari bor va ularning barchasi odamlar hayotiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilishi shubhasiz.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Vazirlar Mahkamasiga, viloyat, shahar va tumanlar hokimliklariga fuqarolar, korxona va muassasalardan tushayotgan murojaatlar soni ortib bormoqda.

Misollarga murojaat etadigan bo'lsak, Namangan viloyatidan Vazirlar Mahkamasiga tushgan murojaatlar 2016-yilning birinchi yarim yilligida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 foizga ko'paygan. Viloyat hokimligiga tushgan yozma murojaatlar 18 foizga, qabulga kelganlar soni 36 foizga oshgan bo'lib, eng ko'p murojaatlar Namangan shahri, Uychi, Namangan, Pop, Chortoq tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Ayniqsa, Bosh vazirning yaqinda tashkil etilgan virtual qabulxonasiiga mamlakatimizning barcha hududlari, jumladan, Namangan viloyatidan ham ko'plab murojaatlar tushmoqda.

Mana, Yangiyo'rg'on tumanida yashovchi yakka tartibdagi tadbirkor F.Yo'ldoshev chorvachilikni rivojlantirish maqsadida «Xalq banki»dan 6,5 million so'm miqdorida kredit ajratishni so'rab murojaat qilgan.

Namangan shahridan fuqaro M.Dadaxonov shahar elektr tarmoqlari korxonasi xodimlari xatti-harakatidan norozi bo'lib murojaat qilgan. Biz bu masalalarni tezkor ravishda hal etdik.

Lekin bunday muammolarni joylardagi mutasaddi rahbarlar, birinchi navbatda hokimlar o‘z vaqtida yechishi kerak emasmi? Odamlar bilan ishslash, muloqot qilishni, ularning ichiga kirib, dard-u tashvishlarini eshitishni qachon o‘rganamiz?

Har qaysi rahbar, har qaysi mutasaddi uchun eng muhim masala aslida shu emasmi? Hayot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu haqiqatni tushunib, shunga rioya qilib ishlamaydigan rahbar hech qachon uzoqqa bora olmaydi.

Biz bugungi uchrashuvimizda imkon qadar ko‘proq odamlar ishtirok etsin, munozara va muhokamalarda faol, ochiq va oshkora qatnashsin, degan maqsadda uni videokonferensiya shaklida o‘tkazmoqdamiz.

Har bir inson yoshi, kasbi, millatidan qat’i nazar, o‘zini qiziqtirgan, qiynayotgan savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Men sizlarning har qanday savollaringizga javob berishga tayyorman.

Eng muhimi, biz bundan buyon mamlakat, viloyat miqyosidagi masalalardan quyiga – tuman yoki qishloq, kerak bo‘lsa, mahalla darajasidagi muammolarga qadar tushib boramiz.

Yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir odamning dardi va tashvishini eshitib, joylarda to‘planib qolgan o‘tkir muammolarning yechimini topishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqamiz va ijrosini nazoratga olamiz.

Shu maqsadda Hukumat tomonidan tuman va shaharlarimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, odamlarimizning hayoti va kayfiyatiga ta’sir etadigan sohalarda **amaliy ishlarni jonlantirish**, mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida 15 ta maxsus dastur ishlab chiqilayotganini sizlarga ma’lum qilmoqchiman.

Ruxsatingiz bilan, e'tiboringizni ana shu dasturlar-ning mazmun-mohiyatiga qaratib, ularda belgilangan chora-tadbirlarni muxtasar sharhlab bermoqchiman.

**Birinchidan, joriy yil 5-oktabrdagi Farmon bilan Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlani-shini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jiha-tidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.**

Tajribali va malakali mutaxassislar tomonidan yangitdan tayyorlangan mazkur davlat dasturi bu borada qabul qilingan qonun hujjatlari talablariga so'zsiz amal qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

U davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu sohaning huquq va kafolatlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish, tadbirkorlar faoliyatini asossiz tekshirishlarga chek qo'yish chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatga olish, ruxsat berish va litsenziyalash jarayonini takomillashtirish yuzasidan aniq choralar belgilandi. Bu haqda gapirganda, Namangan viloyatida tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladigan kreditlar miqdorini kelgusi 5 yilda kamida 3–3,5 barobarga ko'paytirish nazarda tutilganini aytib o'tmoqchiman.

Namangan shahri, To'raqo'rg'on va Pop tumanlarida kichik biznesni rivojlantirish uchun tashkil qilingan 17 gektardan iborat 4 ta maxsus sanoat zonasini

kengaytirish, boshqa tumanlarda ham xuddi shunday hududlar tashkil etish mo'ljallanmoqda.

Dasturga ko'ra, kelgusi 5 yilda 10 mingdan ortiq yangi kichik biznes subyekti tashkil etiladi.

**Ikkinchidan, yaqinda imzolangan qarorga muvofiq «2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihibar asosida arzon va qulay uy-joylar qurish dasturi» tasdiqlandi.**

Bu dastur bilan ko'pchilik tanishib ulgurgan bo'lsa kerak. Bugungi kunda aholi qulay, lekin nisbatan arzon uy-joy qurishni so'rayapti. Shu sababli ushbu dasturga muvofiq oldingiga nisbatan 2 barobar arzon va sifatli, namunali uy-joy qurish ishlari boshlanmoqda. Bu – viloyatdagi ko'plab ehtiyojmand oilalarning hayotiy muammolarini yechish imkonini beradi.

Shuningdek, kelgusi yili Namangan shahridagi Uychi, Hamroh, Marg'ilon va Qo'qon ko'chalari rekonstruksiya qilinib, ularning ikki chetida ko'p-qavatli zamonaviy uylar quriladi.

**Uchinchidan, Hududiy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi tayyorlanmoqda.**

O'tgan besh yilda viloyatda 82 kilometrdan iborat xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llarida kapital va joriy ta'mirlash ishlari bajarilgan bo'lib, xolisona aytganda, bu bizni qoniqtirmaydi.

Biz bu masalada asosiy e'tiborni xalqaro, davlat ahamiyatiga ega, shuningdek, hududlararo avtomobil yo'llariga ko'proq qaratib kelganimiz. Hududlarning ichki yo'llarini, ularning holatini yaxshilashga ikkinchi darajali ish deb qarashga o'rganib qolganmiz.

Biroq, joylarda ravon va zamonaviy yo‘l bo‘lmasa yoki umuman yo‘l bo‘lmasa, kim bunday joyga mablag‘ tikib, korxona quradi, texnika va texnologiya olib boradi, degan savolni hech kim o‘ziga berib ko‘rmaydi. Eng yomoni, bunday noxush ahvol aholining haqli e’tiroziga sabab bo‘lmoqda.

Shundan kelib chiqib, ishlab chiqilayotgan dasturda viloyat, mahalliy va shahar avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish, ularning foydalanish muddatini uzaytirish, ta’mirlash va sifatli saqlanishini ta’minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko‘zda tutiladi.

Jumladan, Namangan viloyatida kelgusi besh yilda umumiyl foydalanishdagi 198 kilometr yo‘l rekonstruksiya qilinadi va ta’mirlanadi, 75 kilometr yo‘l kengaytiriladi. Shuningdek, 2 ta yirik ko‘prik qurilib, 12 ta mavjud ko‘prik rekonstruksiya qilinadi.

**To‘rtinchidan, Shahar va qishloqlarda transport ta’minotini yanada yaxshilash dasturi tayyorlanmoqda.**

Viloyatda aholiga transport xizmati ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida oxirgi 5 yil davomida 160 ta avtobus sotib olinib, shahar va shahar atrofidagi 18 ta yo‘nalishda muntazam qatnov yo‘lga qo‘yildi. Birgina Namangan shahrining o‘ziga 100 ta avtobus olib kelingani shaharda avtobuslar qatnovini tubdan yaxshilash imkonini berdi.

Ayni paytda tayyorlanayotgan dasturda Namangan viloyatida lizing asosida yana 270 ta avtobus sotib olib, belgilangan yo‘nalishlarga chiqarish, 80 ta zamonaviy avtobekat barpo etish, chekka hududlarda yashovchi

aholi uchun yangi qatnov yo‘nalishlari tashkil etish va boshqa chora-tadbirlar rejalashtirilmoqda.

**Beshinchidan, Qishloq joylarda ichimlik suvi tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Tayyorlanayotgan dasturda mamlakatimizning barcha hududlarida bu muhim sohaga zamonaviy, tejamkor va samarali texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish yo‘li bilan suv ta’minoti va sifatini yaxshilash choralar belgilanmoqda.

O‘tgan besh yilda Namangan viloyatida 475 kilometr suv tarmoqlari va 33 ta yer osti suv qudug‘i qurildi. Natijada 450 ming aholi toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi va bu boradagi ko‘rsatkich 67 foizdan qariyb 71 foizga yetdi.

Ana shu ishlarning uzviy davomi sifatida, kelgusi besh yilda viloyatda qo‘srimcha ravishda 211 kilometr suv tarmoqlarini qurish mo‘ljallanmoqda.

Shular qatorida, Kosonsoy tumanida «Obod» suv toplash va tozalash inshooti, 13 kilometrdan iborat magistral tarmoqlar qurib bitkazilib, Kosonsoy shahri bilan bir qatorda Bahoriston, Olmazor, Yumaloqshayxmozor, Ozod qishloqlari ham toza ichimlik suvi bilan ta’minlanadi.

Mingbulloq tumanidagi Jumasho‘y shaharchasini ichimlik suvi bilan ta’minlovchi suv olish inshooti va 5 kilometrdan ziyod magistral tarmoq rekonstruksiya qilinadi. «Qizil Rovot» suv olish inshootidan Uchqo‘rg‘on shahrigacha bo‘lgan 7 kilometr masofada magistral tarmoq tortiladi.

Xalqaro moliya institutlarining 300 million dollarga yaqin imtiyozli kreditlari jalb etilib, 434

kilometr magistral va ichki tarmoqlar, 112 ta yangi suv quduqlari quriladi.

Jumladan, Chust, Pop, Chortoq, Namangan va To'raqo'rg'on tumanlari, Namangan shahri, shuningdek, Zarkent, Xadikent, Iskovot, Buloqboshi, Bo'ston, Yoshlik aholi punktlarida toza ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bo'yicha yirik loyihalar bajariladi.

Shular qatorida, Uchqo'rg'on – Namangan magistralining 2-tarmog'ini qurish, Jiydakapa – Kurashxona magistral tarmog'i va Namangan shahri oqova suv tizimlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirishga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi.

Miqyosi va ko'lami ulkan bunday loyihalarning amalga oshirilishi natijasida viloyat aholisining toza ichimlik suvi ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Eng muhimi, bu boradagi ko'rsatkich viloyat bo'yicha 90 foizga yetkaziladi.

**Oltinchidan, Ko'mirning tannarxi va aholi uchun xarid qiymatini pasaytirish, shuningdek, qish mavsumida bu borada chayqovchilik qilishni va narxlarning oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Dasturda kuz-qish mavsumida mamlakatimiz tumanlari va qishloq joylarda ko'mirga bo'lgan talabni qondirish, aholini ko'mir bilan uzluksiz ta'minlash, ko'mir tannarxi va uni iste'molchilarga yetkazib berish narxini pasaytirish bo'yicha kompleks qo'shimcha chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda.

Bu haqda gapirganda, Angren-Pop elektrlashtirilgan temiryo'lining ishga tushirilishi bilan Namangan

viloyatiga ko‘mir yetkazib berish muddati qisqarib, tashish xarajati har tonnasiga 45 ming so‘mga arzonlashdi. Bundan tashqari, Hukumat qarori bilan 1 tonna ko‘mirning narxi 126 ming so‘m qilib qat’iy belgilandi.

Shuningdek, ko‘mirni «O‘zbekko‘mir» aksiyadorlik jamiyatining viloyatlardagi korxonalarini orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri aholiga sotish yo‘lga qo‘yiladi, bu borada chayqovchilik holatlariga chek qo‘yiladi.

**Yettinchidan, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Qishloq joylarda elektr energiyasi bilan ta‘minlashdagi uzilishlar aholining haqli e’tiroziga sabab bo‘layotgani hech kimga sir emas. Bu – elektr energiyasi yetkazib berayotgan quvvatlarning eskirib qolgani bilan bog‘liq.

Mavjud ahvolni o‘nglash maqsadida, keyingi besh yilda viloyatda 3 ming 900 kilometr elektr tarmoqlari, 178 ta transformator punkti yangitdan bunyod etildi.

Jami 5,5 ming kilometr elektr tarmoqlari, 118 ta podstansiya va 1 ming 964 ta transformator punkti kapital ta‘mirlangani natijasida 278 mingdan ziyod aholi xonadoni, 4 ming 100 dan ziyod korxona va tashkilotlarga elektr energiyasi yetkazib berish yaxshilandi.

Ishlab chiqilayotgan dasturda bu boradagi ishlarni, O‘zbekistonning barcha hududlari kabi, Namangan viloyatida ham tizimli ravishda davom ettiriladi. Jumladan, kelgusi 5 yilda 143 kilometr elektr tarmoqlari, 145 ta transformator punkti va 4 ta podstansiya qurish, shuningdek, 6 ming 345 kilometr elektr

tarmoqlari va 2 ming 221 dona transformatorni rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash rejalashtirilgan.

**Sakkizinchidan, Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017–2021-yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chiqilmoqda.**

Bu dasturda ushbu muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni yuqori malakali pedagog va mutaxassislar bilan ta'minlash, ta'limtarbiya jarayonlariga zamonaviy usul va dasturlarni joriy etish, farzandlarimizning ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutiladi.

Jumladan, Namangan viloyatida kelgusi 5 yilda 17 ta maktabgacha ta'lim muassasasi to'liq qaytadan barpo etiladi, 125 ta ana shunday muassasa rekonstruksiya qilinadi va kapital ta'mirlanadi.

**To'qqizinchidan, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Ma'lumki, bozorlar Sharqda azaldan mamlakat obodligi va farovonligining ko'zgusi hisoblanadi. Shu ma'noda, Namangan viloyatida keyingi 5 yilda 4 ta bozor, jumladan, Namangan shahridagi Yashil va Chorsu bozorlari, Norin va Namangan tumanlaridagi dehqon bozorlari rekonstruksiya qilingani va kapital ta'mirlangani e'tiborga loyiqdir.

Tayyorlanayotgan dasturda kelgusi besh yilda Namangan viloyatida barcha tumanlar markazlarida joylashgan 13 ta dehqon bozorini zamonaviy talablar, shaharsozlik va arxitektura me'yorlari asosida rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda.

**O‘ninchidan, Pensionerlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilash dasturini ishlab chiqish yakunlandi.**

Ushbu dasturda 2016–2020-yillarda pensioner va nogironlar, yolg‘iz qariyalar va aholining kamta’minlangan qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Xususan, ularning turmush darajasi va sifatini oshirish, aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ko‘rsatilayotgan moddiy yordam ko‘lamini kengaytirish choralarini belgilandi.

Namangan viloyatida yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar bilan birga, nogironlar, keksalar va kamta’minlangan fuqarolarning 1 ming 450 nafarini, shuningdek, 772 nafar urush va mehnat faxriylarini turli sanatoriylarga imtiyozli yo‘llanmalar bilan ta’minlash rejalashtirilmoqda.

Hozirgi paytda Ikkinci jahon urushi qatnashchilari bir yilda bir marta mamlakatimizdagi sanatoriylarga bepul yo‘llanmalar bilan ta’minlanayotgani sizlarga yaxshi ma’lum. Endilikda salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli bu imtiyozdan foydalana olmayotgan keksalarimizga yo‘llanmalarning puli beriladi (hozirgi kunda bu o‘rtacha 800 ming so‘mni tashkil etmoqda).

«Nuroniy» jamg‘armasi boshchiligidagi «Mahalla» jamoat fondi, Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari tomonidan yolg‘iz qariyalar har yili qishki kiyim-bosh, qish mavsumi uchun oziq-ovqat zaxirasi bilan ta’minlanadi.

2017–2020-yillarda yurtimizdagi barcha Muruvvat va Saxovat uylari rekonstruksiya qilinishi va kapital ta'mirlanishi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamonaviy sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilgan.

Barchamizni ulg'aytirib, voyaga yetkazgan, Vatanimizning bugungi ravnaqiga beqiyos hissa qo'shgan bobolarimiz va momolarimizni har qancha hurmat qilsak, har qancha e'zozlasak, arziydi.

Xonadonlarimizning fayzi, farishtasi bo'lgan bu insonlarga, toki keyin armon bo'lib qolmasligi uchun, ular hayot paytlarida qo'limizdan kelgancha ko'mak va yordam berish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

**O'n birinchidan, Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi.**

Dasturda kelgusi 2 yilda ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, jumladan, ularga xizmat ko'rsatadigan davolash-profilaktika tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash, ularga maxsus va yuqori texnologiyalar asosida tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Dasturga muvofiq barcha yangi tug'ilgan chalqaloqlar, o'smir qizlar, homilador va tug'ish yoshidagi ayollar uchun 100 foiz patronaj kuzatish tizimi joriy etiladi. Natijada kasallanish holatlarining oldi olinib, onalar va bolalarda kasalliklarni erta aniqlash ko'rsatkichi 60 foizdan 85 foizga yetkaziladi. Shu bilan birga, markazlashgan tartibda kasalxonalarga beriladigan dori vositalari, tibbiy buyum va uskunalar ro'yxati kengaytiriladi.

Namangan viloyatida ham 14 ta tibbiyot birlashmali rekonstruksiya qilinadi, kapital ta'mirlanadi va eng zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlanadi. Ushbu maqsadlar uchun 1,5 trillion so'm va 131 million dollar mablag' sarflanadi.

Dastur doirasida kelgusi besh yilda Uchqo'rg'on, Kosonsoy, To'raqo'rg'on tumanlari tibbiyot birlashmali tarkibidagi tug'uruq komplekslari va bolalar bo'limlarini, Namangan shahridagi 2-sonli tug'uruq kompleksi va bolalar shifoxonasi, ixtisoslashgan akusherlik-ginekologiya markazini rekonstruksiya qilish va jihozlash, skrining markazi faoliyatini kuchaytirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash rejalashtirilmoqda.

Mo'tabar onalarimiz, muhtarama ayollarimiz oldida biz hamisha qarzdormiz. Shuning uchun ham, ro'zg'orning og'ir yukini o'zining nozik yelkasida ko'tarib, ham oila yumushlarini, ham ijtimoiy vazifalarni sidqidildan bajarib kelayotgan, doimo shukronalik bilan yashaydigan ayollarimiz, opasingillarimizning og'irini yengil qilish bizning dasturimizda alohida o'rinn egallaydi.

**O'n ikkinchi va o'n uchinchi dasturlar – respublikada Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish hamda Aholini dori vositalari bilan ta'minlash darajasini oshirish va dori-darmon narxlari shakllanishini takomillashtirishdan iborat.**

Ushbu dasturlarga muvofiq, 2016–2020-yillarda mamlakatimizda umumiy qiymati 224 million dollarga teng bo'lган 67 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Natijada respublikada farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,5 baravar ko‘payib, 22 ta yo‘nalishda keng turdag'i yangi dori vositalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Misol uchun, 2016–2018-yillarda Namangan viloyatida «Merrimed farm» qo‘shma korxonasida qiymati 10 million dollar bo‘lgan loyiha amalga oshirilib, yiliga 20 million flakon antibiotiklar va infuziya eritmalari ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etiladi. Shuningdek, «Namangan farm plant» korxonasi tomonidan 6,3 million dollar sarmoya o‘zlashtirilib, yiliga 60 million ampula dori vositalari ishlab chiqariladi.

Shu bilan birga, aholi va tibbiy tashkilotlarni arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minalash darajasini oshirish, ularga narx belgilashning tez moslashuvchan va ochiq mexanizmini joriy etish, mavjud arzon dorilar o‘rniga asossiz ravishda qimmat dorilar buyurish amaliyotiga chek qo‘yish bo‘yicha choralar ko‘riladi.

**O‘n to‘rtinchidan, 2017–2021-yillarda respublikada maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturidir.**

Ushbu dasturda kelgusi besh yilda maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalgaga oshirish belgilandi.

Jumladan, Namangan viloyatida 26 ta ko‘zda tutilmagan joyda to‘planib qolgan 44 ming tonna chiqindi joriy yilning oxirigacha tugatiladi. Viloyatdagi sanitar-tozalash va obodonchilik tashkilotlari qo‘shimcha ravishda qariyb 3,6 milliard so‘mlik uskuna va maxsus mashinalar bilan ta’minaladi.

2017–2018-yillarda jami 7,6 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ sarflanib, viloyatdagi maishiy chiqindi poligonlari o‘rab olinadi, ularga boradigan yo‘llar asfalt qilinadi.

Aziz do‘sstar!

Biz uchun o‘z dolzarbliji va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu – farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir.

Ayniqsa, dunyoda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» kabi yovuz xavf-xatarlar insoniyat boshiga og‘ir kulfatlar solayotgan hozirgi murakkab bir davrda yoshlarni tarbiyasi masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas.

Albatta, bugungi kunda yurtimizda yoshlарimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kamol toptirish, ularni sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Ammo ochiq tan olishimiz kerakki, bu borada amalga oshirayotgan ishlарimiz hali yetarli darajada emas.

Shuning uchun biz yoshlарimiz, ayniqsa, uyushmag‘an yoshlarni bilan ishlashga jiddiy e’tibor qaratishimiz zarur. Biz ular bilan ko‘proq gaplashishimiz, qalbiga qulqoq solishimiz, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz, eng asosiysi, aziz Yurtboshimiz Islom Abdug‘aniyevich aytganlaridek, yoshlarga yo‘lni keng ochib berishimiz kerak.

Mana, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishga kirishdik. Barchamiz yaxshi bilamizki, tadbirkorlik, ishbilarmonlik xususiyatlari avvalo yoshlarga xos fazilat hisoblanadi. Demak, **tadbirkorlikka yo'l ochish – avvalo, yoshlarga keng yo'l ochib berishdir**, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Har bir yigit-qiz jamiyatimizda o'z o'rnini topsa, o'z hayotiy maqsadiga ega bo'lsa, o'zi orzu qilgan kasbida ishlasa, o'zining biznesini ochsa, ularning qobiliyat va iste'dodini yuzaga chiqarish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bersak, o'zingiz o'ylang, bunday yoshlarni kim to'g'ri yo'ldan qaytara oladi?

Yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar ochib berishga xizmat qiladigan shunday dolzarb chora-tadbirlarni amalga oshirish, bunda jamoat tashkilotlari, avvalo, «Kamolot» yoshlar tashkilotining ishtirokini yanada kengaytirish kabi masalalar biz uchun eng muhim vazifa bo'lib qoladi.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Biz bugungi kunda o'zimizga aniq va ravshan qilib belgilab olgan, hozirgina qisqacha bayon qilingan maqsad va vazifalarni to'liq va sifatli bajarish uchun mahalliy hokimliklar, hududiy idoralar, tashkilot va korxonalardan faollik va yana bir bor faollik ko'rsatish talab etiladi.

Bir narsa ayonki, har qanday og'ir vazifani uddalash, avvalambor, barcha darajadagi hokimlar va rahbarlarning shaxsiy mas'uliyati, tashkilotchilik qobiliyati va tashabbuskorligi, bilim va malakasi, bir maqsad yo'lida qat'iyat bilan intilishiga bog'liq.

Ana shularning barchasini inobatga olgan holda, mening saylovoldi dasturimda davlat boshqaruvi tizimini zamon talablari darajasiga ko'tarish, barcha bo'g'indagi rahbar xodimlar faoliyatining samaradorligini, ularning xalq oldidagi javobgarligi va mas'uliyatini oshirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

**Qisqa qilib aytganda, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak,** degan oddiy, lekin g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lган prinsipni amalga oshirish uchun biz bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Qadrli va muhtaram vatandoshlar!

Birinchi Prezidentimiz, muhtaram Islom Abdug'a niyevich Karimov rahnamoligida biz sizlar bilan, butun xalqimiz bilan qanday og'ir sinovlarni birgalikda, sabr-bardosh bilan yengib o'tdik va ulardan yorug'yuz bilan chiqdik. Yurtimizning bugungi shonli tarixini o'z qo'limiz bilan yaratishga hissa qo'shdik.

**Men qachonki go'zal va betakror Namangan zaminiga kelsam, bu yerdagи ko'cha va xiyobonlar, maydonlarda yashnab turgan gul-chechaklarni, so'lim va orasta manzillarni ko'rib, ochig'i, bahri dilim ochilib ketadi.**

Pok niyatli, nozik didli, xushmuomala, mehmondo'st Namangan elining tabiatiga, sizlarning o'ziga xos shirin shevangizga, har qanday odam, albatta, havas qiladi.

Viloyatda har yili gul bayramining chiroyli o'tkazilishi, bu bayram namanganliklar hayotiga singib, yaxshi an'anaga aylanib qolgani bejiz emas. Nega deganda, gul-u rayhonni, go'zallikni yaxshi

ko‘radigan va shunday obodlikni o‘z qo‘li bilan yaratadigan odamlarning qalbi ham go‘zal bo‘ladi.

Namangan ahlining ana shunday xususiyatidan kelib chiqib, sizlar bir tashabbus bilan chiqsangizlar degan taklifni o‘rtaga tashlamoqchiman. Ya’ni davlat va jamoat tashkilotlari, ayniqsa, yoshlar, nuroniyalar, go‘zal ayollarimiz, qizlarimiz kuchni bir yerga to‘plab, viloyatning har bir shahar, tumanida respublikaga namuna bo‘ladigan, mamlakatimizning hamma yeridan odamlar bu yerga kelib zavq oladigan, eng zamonaviy shaklda «**Gullar bog‘lari**»ni yaratsak, Namanganga yarashadigan ish bo‘lur edi.

Bu masalada viloyat hokimi keng jamoatchilik bilan maslahatlashib, 1 oy muddatda o‘zining taklifini berishi zarur.

Men butun O‘zbekistonimiz qatori, gullar diyori bo‘lgan Namangan ahlining ezgu orzu-niyatlarini amalga oshirish yo‘lida butun borlig‘imni ayamasdan xizmat qilishni o‘zim uchun yuksak sharaf deb bilaman.

So‘zimning oxirida sizlarga, sizlarning timsolingizda Namangan xalqiga yana bir bor sihat-salomatlik, xonardonlaringizga fayz-u baraka, ona Vatanimizni gullab-yashnatish yo‘lidagi olijanob faoliyatningizda zafarlar yor bo‘lishini tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Uchqo‘rg‘on tumani,  
2016-yil 2-noyabr**

# **MAMLAKATIMIZNING JAVOHIR XAZINASI**

**(NAVOIY VILOYATI SAYLOVCHILAR  
VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI  
NUTQ)**



---

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar!  
Hurmatli do'stlar!

Mana, hozirgina sizlar bilan Birinchi Prezidentimiz, muhtaram Islom Abdug'aniyevichni eslab, u kishining xotirasiga hurmat bajo keltirdik. Darhaqiqat, buyuk Yurtboshimizning vafoti Vatanimiz, el-yurtimiz uchun beqiyos og'ir yo'qotish bo'ldi.

Lekin ko'pni ko'rgan, irodasi baquvvat xalqimiz boshimizga tushgan bunday og'ir sinov va yo'qotishdan sabr-matonat bilan o'tdi. Mustaqil davlatimiz asoschisi belgilab bergan taraqqiyot yo'lini og'ishmay, katta kuch-g'ayrat bilan qat'iy davom ettirishga el-yurtimiz har tomonlama qodir ekanini bugun yaqqol namoyon etmoqda.

Va bu borada aziz Islom Abdug'aniyevichning siyosiy merosi, davlat va jamiyat qurilishi bo'yicha kelajakni oldindan ko'rib ishlab chiqqan strategik g'oyalari, belgilab bergan maqsad va vazifalari bizning faoliyatimiz uchun bundan buyon ham asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Butun dunyoda «o'zbek modeli» deb tan olingen milliy taraqqiyot yo'limizning amaliy samarasini yanada oshirish va yangi bosqichga ko'tarish mening saylovoldi dasturimning tub negizi va ma'no-mazmunini tashkil etadi.

Xalq manfaati, yurtimiz tinchligi, Vatanimiz ravnaqi uchun ulug' Yo'lboshchimiz kabi bor kuch va

salohiyatim, butun borlig‘imni safarbar etishni men o‘zimning muqaddas burchim deb bilaman.

Yaratganning marhamati bilan shu buyuk inson bilan 27 yil davomida yelkama-yelka turib ishslash baxti menga nasib etdi. Ana shu davrda aziz ustozimizdan o‘rgangan ish uslubi, hayot va rahbarlik tajribasini xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmay yashashi uchun safarbar etish qanchalik og‘ir va mas’uliyatlari, ayni vaqtida sharafli vazifa ekanini shu kunlarda, ayniqsa, chuqur his etmoqdaman.

Albatta, bugungi kunda zamonning o‘zi oldimizga dolzarb qilib qo‘yayotgan o‘tkir masalalarni hal etish, O‘zbekistonimizni jahondagi rivojlangan, demokratik davlatlar qatoriga olib chiqish oson emas. Buning uchun hammamiz – butun xalqimiz birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilishimiz kerak. Ana shunday umummiliy birlik va hamjihatlikning asosiy shartini men, avvalo, odamlar bilan, jamoatchilik bilan ochiq va samimiyl muloqot tashkil etadi deb bilaman.

**«Kengashli to‘y tarqamas»** degan maqolda juda katta ma’no bor. Shu sababli ham bizning joylarda bo‘layotgan saylovoldi uchrashuvlarimiz, e’tibor bergen bo‘lsangiz, asosan jonli muloqot, videoanjuman shaklida o‘tkazilmoqda. Bugungi uchrashuvimiz ham, mana, o‘zingiz ko‘rib turibsiz, shunday shaklda olib borilmoqda. Hududi bepoyon bo‘lgan Navoiy viloyati uchun bunday muloqot ayni muddao, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Bu uchrashuvda nafaqat viloyat, balki shahar va tu‘manlardagi zallarda yig‘ilgan ishchi-muhandislar, fermerlar, tadbirkorlar, o‘qituvchi va shifokorlar, jurnalistlar, umuman, barcha ijtimoiy toifa va qat-

lamlarning namoyandalarini ko'rib turganimdan shaxsan men juda xursandman.

Hammangizga ma'lumki, saylov – bu xalq xohish-irodasining namoyon bo'lishi, demokratiyaning asosiy mezonidir. Shunday ekan, oldimizda turgan bu muhim siyosiy tadbirni mamlakatimiz Konstitutsiasi va qonunlari, xalqaro talablar asosida, barcha nomzodlarga teng sharoit va imkoniyat yaratgan holda o'tkazish qanday katta siyosiy ahamiyatga ega ekanini, o'ylaymanki, hammangiz yaxshi tushunasiz.

Muhtaram vatandoshlar!

Azim Zarafshon vohasida, behisob tabiiy boyliklar makoni bo'lgan Qizilqum mintaqasida joylashgan Navoiy viloyati, ta'bir joiz bo'lsa, mamlakatimizning dur-u javohirlar xazinasidir.

Albatta, bu saxovatli zaminning xosiyati haqida ko'p gapirish mumkin. Ammo bitta misolning o'zi ko'p narsani anglatadi deb o'ylayman. Mashhur Mendeleyev jadvalida yuzdan ziyod modda bo'lsa, shularning hammasi, jumladan, oltin, kumush, uran, tabiiy gaz, neft, mineral tuz konlari va boshqa boyliklar bu zaminda bisyor topiladi.

Bu yerda qazib olinadigan oltin va kumush, g'ozg'on marmari, cho'ponlarimiz yetishtiradigan qorako'l terisi butun dunyoda ma'lum-u mashhur bo'lib, xalqaro miqyosda sifat etalonini deb qabul qilingan. Tabiiyki, bu hammamizga katta g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Buyuk ajddodimiz Alisher Navoiy bir paytlar tahsil olish uchun Hirotdan Samarqand sari yo'lga chiqqanlarida ayni mana shu vohadan o'tganlar. Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan bu bepoyon dasht-u cho'llar vaqtি kelib bunyodkor

avlodlar tomonidan obod shahar va qishloqlarga aylanishini orzu qilganlar.

Mutafakkir shoirimizning «**Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami**», degan satrlarida qanchalik chuqur ma’no bor. Ya’ni, bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir. Xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘sib bo‘lmaydi, deb uqtirmoqda ulug‘ bobomiz.

Bu o‘lmas satrlar bugun bizning hayotimiz bilan, bizning orzu-intilish va amaliy harakatlarimiz bilan naqadar hamohang ekan odamni hayratga soladi.

Men xizmat vazifamga ko‘ra Navoiy viloyatida ko‘p bo‘lganman. Sizlarning ko‘philigingizni yaxshi taniyman. Sizlar bilan katta-katta korxonalarda, chekka ovullarda uchrashganimiz, shu zaminning bugungi va ertangi kuni haqida rejalar tuzib, samimi suhbatlar qurganimizni eslar ekanman, viloyat rivojiga ozmi-ko‘pmi hissa qo‘sghanidan faxrlanib yuraman.

Yozda jazirama issiq, qishda izg‘irin sovuq bo‘ladigan bu mintaqada yashab mehnat qilish, yerdan boylik undirish, albatta, oson emas. Bunga faqat mustahkam irodali, o‘z kuchiga ishongan, chinakam matonatli insonlar qodir bo‘ladi.

O‘z yeri, o‘z yurtiga fidoyi, ko‘ngli ochiq, ko‘p-millatli Navoiy ahlini men aynan shunday insonlar deb bilaman va sizlarning bunday fazilatlaringizni yuksak qadrlayman.

Sevikli shoirimiz Hamid Olimjon «**Zarafshonni loylatib kechgan azamatlar bordir bu elda**», degan go‘zal satrlarni bitganida, aynan sizlardek bag‘rikeng,

mard va oljanob odamlarni nazarda tutgan, desam, aslo xato bo‘lmaydi.

O‘z mehnati bilan el-yurtimizda obro‘-e’tibor topgan ana shunday ajoyib insonlardan biri mashhur usta, «El-yurt hurmati» ordeni sovrindori Tohir Rahimovdir. Mana shu Nurota tuprog‘ida tug‘ilib kamol topgan bu qo‘li gul insonni zamonamiz Farhodi desak, arziydi. Mohir ustanning san’ati bilan g‘ozg‘on marmaridan yaratilgan sag‘ana toshlari Hakim Termizi bobomiz maqbarasini, Afg‘onistonda mavlono Lutfiy, Bobur Mirzo, Kamoliddin Behzod kabi buyuk ajdodlarimiz qadamjolarini bezab turibdi. O‘tgan yili Tohir aka xavf-xatarlarga qaramasdan, Bobur xalqaro ilmiy ekspeditsiyasi bilan Afg‘onistonning Hirot shahriga borib, Alisher Navoiy bobomiz maqbarasidagi qabrtoshni yangilab kelgani – ham mahorat, ham jasorat namunasi, deyishga munosibdir.

Umuman, viloyatda Alisher Navoiy bobomiz xotirasiga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, ul zotning tabarruk merosini o‘rganish, yosh avlodimizga bezavol yetka-zish borasida ibratli ishlar qilinayotganini alohida ta’kidlashni istardim.

Xususan, Navoiy viloyati hokimligi va ijodkor ziyyolilarning tashabbusi bilan ulug‘ shoirning eng mashhur asarlari to‘rt kitob shaklida, yuksak poligrafik sifat bilan nashr etilgani ana shunday ezgu ishlar qatoriga kiradi. Shu go‘zal nashr ko‘plab yurtdoshlarimiz qatori mening ham shaxsiy kutubxonamda borligidan juda xursandman. Fursatdan foydalanib, ana shunday savobli ishlarga bosh-qosh bo‘lgan fidoyi insonlarga rahmat aytaman.

Inson ma'naviy olamini boyitishda ulkan ta'sirga ega bo'lgan kitob haqida so'z ochilgan ekan, shu bilan bog'liq muhim bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ya'ni, bugungi kunda jamiyatimizda kitobxonlik darajasi qanday? U bizni qoniqtiradimi? Kim keyingi paytda qaysi kitobni o'qidi, farzandimizga qanday kitob olib berdik?

Afsuski, ko'p hollarda bu savollarga ijobiy javob berishimiz qiyin.

Odamlarning ong-u tafakkuri, dunyoqarashini o'zgartirish, ma'naviy saviyasini yuksaltirish haqida ko'p gapiramiz. Lekin bu borada eng oddiy va ayni paytda eng ta'sirchan vosita – bu kitob emasmi? Men shunga aminman – kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q.

Albatta, hozirgi vaqtida axborot-kommunikatsiya sohasi shiddat bilan rivojlanmoqda, televideniye, radio, Internet, kompyuter, mobil telefon kundalik hayotimizdan chuqur joy olmoqda. Biz ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanib, mamlakatimizda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Buning uchun kitob nashri, kitob savdosi bilan bog'liq ishlarimizni tanqidiy ko'rib chiqishimiz kerak. Ta'lim-tarbiya muassasalari, idora va tashkilotlar, mehnat jamoalarida shu masala bo'yicha turli tanlov, festival va aksiyalar, kitob bayramlarini tashkil etishimiz kerak. Mavjud axborot-resurs markazlarini boyitish, kutubxonalar yo'q joylarda ularni tashkil etishimiz lozim. Ota-bobolarimizdan qolgan yaxshi

an'analarni davom ettirib, navoiyxonlik, boburxonlik, mashrabxonlik kechalari o'tkazsak, kerak bo'lsa, badiiy asarlarni televideniye orqali o'qitishni yo'lga qo'ysak, nima deysizlar?

Shu borada Navoiy viloyati boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak, deb o'ylayman. O'zingiz ayting, bu masalada Alisher Navoiy bobomiz nomi bilan ataladigan viloyat o'rnak bo'lmasa, kim namuna bo'ladi?

Yurtimizning barcha hududlari kabi Navoiy viloyatida ham butun hayotini xalqimiz uchun kitoblar, badiiy asarlar yozishga bag'ishlagan fidoyi insonlar ko'p. Masalan, Toshpo'lat Hamid, G'aybullay Salomov, Oydin Hojiyeva, Odil Hotamov, Ashurali Jo'rayev, Qodir Jo'raqulov kabi taniqli shoir va yozuvchilar, ilm-fan va madaniyat namoyandalarini yurtimizda ko'pchilik yaxshi biladi. Bu diyor o'zbek xalq og'zaki ijodining o'lmas durdonalarini asrabavaylab kelayotgan baxshilari bilan ham mashhurdir.

Bu zamindan O'zbekiston xalq artisti Shirin Azizova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Meh-riddin Rahmatov, iste'dodli xonanda Farhod Saidov singari san'atkorlar yetishib chiqqan. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan «Sonata» raqs guruhi, «Ivushka» xor jamoasi, «Marvarid» xalq ansamblari faoliyati butun mamlakatimizda mashhurdir.

Bu diyor yoshlari sport sohasida ham katta yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Shu yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan 15-paralimpiya o'yinlarida shu zamin o'g'loni Husniddin Norbekov yengil atletika bo'yicha oltin va bronza medallarini qo'lga kiritib, jahon ahlining olqishiga sazovor bo'ldi.

Kelinglar, bu qahramon yigitni, uning ustoz va murabbiylarini yana bir bor qutlab, ularga yangi-yangi yutuqlar yor bo‘lishini tilaylik.

Дорогие друзья!

Я рад встретиться с вами на прекрасной земле Навоийской области, которая, как и вся наша страна, неузнаваемо преобразилась за годы независимости под руководством Первого Президента Узбекистана Ислама Абдуганиевича Каримова.

Подтверждением служит то, что сегодня Навоийская область занимает второе место в стране по производимому валовому региональному продукту. На основе самых современных технологий здесь работают десятки крупнейших в Центральной Азии уникальных предприятий, которые вносят большой вклад в рост экономики, динамичное развитие страны в целом. Не случайно именно в этом регионе была создана первая в республике свободная индустриально-экономическая зона. С каждым годом становятся все более благоустроеными города и села области, развивается инфраструктура, растут доходы и благосостояние людей.

Эти достижения – результат вашего, дорогие навоийцы, самоотверженного труда, превратившего в цветущий оазис пустыню Кызылкум, о которой когда-то говорили: если тут пролетит птица – сожжет крылья, если пройдет человек – обожжет ноги.

Среди таких людей, отдающих делу развития и процветания страны все свои силы, знания и опыт, хотел бы назвать Героев Узбекистана: машиниста-экскаваторщика Анатолия Панина, энергетика Ками-

ла Ибрагимова, чабана Серикбая Сагатова, инженера Кувандыка Санакулова. В Навоийской области хорошо знают также Николая Лаккая, Мадию Сабитову, Светлану Федоренко, Бориса Сона, Игоря Шишкова, Сероба Исунца, Николая Сысоева, Владимира Бабкина, Ольгу Душкину. Своими яркими достижениями в разных сферах, созидательным трудом, активной гражданской позицией они по праву заслужили большое уважение и высокий авторитет в нашем обществе.

Всем вам хорошо известно, что Ислам Абдуганиевич уделял огромное внимание укреплению нашего бесценного богатства – мира и стабильности, межнационального согласия и взаимопонимания в стране. Навоийский регион, где сегодня единой, дружной семьей живут и трудятся представители более ста наций и народностей, является ярким примером высокой эффективности такой политики.

Хочу заверить вас, что мы твердо и последовательно продолжим этот курс демократических реформ, направленных на обеспечение стабильности и спокойствия, укрепление экономической мощи страны, создание достойных условий жизни для нашего народа, гарантируя всем гражданам Узбекистана, независимо от их национальности, языка, вероисповедания, равные права и возможность развивать свою культуру, обычай и традиции.

Наверное, вы уже ознакомились с моей предвыборной программой, которая была опубликована. Поэтому хотел бы коротко остановиться на изложенных в ней приоритетных направлениях дальнейшего

развития страны, охватывающих все сферы нашей жизни.

Так, главными нашими задачами мы определили: совершенствование системы государственного и общественного управления и последовательную реализацию концепции «**От сильного государства – к сильному гражданскому обществу**»; обеспечение верховенства закона и дальнейшее реформирование судебно-правовой системы; углубление экономических реформ, обеспечение макроэкономической стабильности и устойчивых темпов роста, с сокращением уровня присутствия государства в экономике и комплексным развитием территорий; развитие социальной сферы и реализацию одного из важнейших принципов «**Реформы не ради реформ, а во имя блага людей**»; обеспечение безопасности, упрочение атмосферы религиозной толерантности и межнационального согласия, во внешней политике – полное следование нашим национальным интересам.

Важнейшая задача для нас, я это подчеркиваю, – обеспечить, чтобы все принимаемые меры позитивно отражались на достатке и повседневной жизни каждого нашего соотечественника.

В связи с этим хочу обратить ваше внимание на то, что мы запланировали в масштабах республики в ближайшие пять лет осуществить ряд целевых программ для решения насущных социальных вопросов.

Будут реализованы программы, направленные на строительство доступного жилья, улучшение обеспечения населения питьевой водой и электроэнергией, развитие дорог и транспортного обслуживания, дальнейшее развитие сфер здравоохранения, обра-

зования, охраны материнства и детства, всемерную поддержку представителей старшего поколения, и другие программы, которые затрагивают жизненные интересы каждого человека и каждой семьи в нашей стране, в том числе в Навоийской области.

На реализацию этих важнейших задач мы направим все силы и возможности нашего государства и общества. Безусловно, такая благородная работа, в которой, я уверен, вы, уважаемые навоийцы, примете самое активное участие, найдет яркое воплощение во всех городах и селах вашего региона.

Ведь всех нас объединяет одна цель – процветание нашей Родины, нашего общего дома, имя которому – Узбекистан. И нам предстоит большая работа – вместе решать проблемы, стоящие перед нами, вместе строить наше будущее, воспитывать детей гармонично развитыми личностями, достойными нашей прекрасной страны, наших великих целей. Мощный фактор развития Узбекистана – это прочное межнациональное согласие и дружба, уверенность нашего многонационального народа в завтрашнем дне.

Aziz do'stlar!

Navoiy viloyati boy madaniy va tarixiy yodgorliklari bilan ham alohida ajralib turadi. Ayniqsa, Karmana shahri, Qosim shayx maqbarasi, Raboti Malik yodgorligi, Qizilqum bag'ridagi tosh o'rmon, Sarmishsoydag'i toshga o'yilgan qadimiy rasmlar – bularning barchasi viloyatning ko'hna tarixi va madaniyatidan dalolat beradi.

Bunday maskanlar biz bugun to'planib turgan Nurota tumanida ham mavjud. Mashhur aziz-

avliyolar, tabarruk zotlar yashab kelgani, ilm-ma'rifat nurini taratgani uchun bu muqaddas maskanga Nurota deb nom berilganini hammamiz yaxshi bilamiz. Bu zamindagi Chilustun masjidi, qadimiy chashma va boshqa yodgorliklar yurtimizning shahar va qishloqlaridan, chet ellardan keladigan ziyoratchilar bilan doimo gavjum bo'ladi. Nurota shahrini va bu yerdagи ko'hna obidalarni har tomonlama obod qilib, aholi va ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratish – bizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimizdir.

Muxtasar aytganda, Navoiy viloyatida turizm sohasini, xususan, ekoturizmni rivojlantirish, buning uchun zarur infratuzilma tarmoqlarini yaratish e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Hurmatali uchrashuv qatnashchilari!

So'nggi yillarda butun mamlakatimiz kabi Navoiy viloyati ham yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining 10 foizi, jumladan, sementning 45 foizi, mineral o'g'itlarning 30 foizi, elektr energiyasining 16 foizi aynan Navoiy viloyati hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Bu zamindagi Navoiy kon-metallurgiya kombinati, «Navoiyazot», «Qizilqumsement» korxonaları, Navoiy issiqlik elektr stansiyasi, «Elektr kimyo zavodi» kabi yirik quvvatlar mamlakatimiz iqtisodiyotining faxri hisoblanadi.

Viloyatda xorijiy sarmoyalalar ishtirokida 53 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 25 tasi yoki deyarli yarmi keyingi 5 yilda ishga tushirilgani soha

rivojiga berilayotgan yuksak e'tibor natijasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizda birinchi marta Navoiy viloyatida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonada 19 ta korxona tomonidan 100 turdan ortiq zamонавији саноат махсулотлари ishlab chiqarilmoqda.

Yaqinda qabul qilingan Farmonda mazkur iqtisodiy zonada yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar va eng zamонавији innovatsion texnologiyalarni jalb etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Viloyatning ulkan iqtisodiy va tranzit imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish maqsadida 2010-yilda Koreyaning «Korean Air» aviakompaniyasi bilan hamkorlikda «Navoiy» aeroporti bazasida xalqaro transport logistika markazi tashkil etilgan edi. Bu markaz o'tgan qisqa muddatda havo transportida yuk tashish bo'yicha xalqaro tizimning muhim bo'g'iniga aylanganini alohida ta'kidlashni istardim.

Ana shu ishlarning davomi sifatida kelgusida bu yerda quyosh elektr stansiyasi uchun panellar va boshqa zarur asbob-uskunalar ishlab chiqaradigan zavod barpo etamiz.

Shunisi e'tiborligi, Navoiy viloyatidagi zamонавији texnologiyalarni turli millatga mansub o'zimizning mahalliy yoshlarimiz boshqarmoqda. Biz ularning mehnatini qadrlaymiz va ular bilan faxrlanamiz. Aynan ularning mehnati, izlanishi bilan yuqori texnologiyalar,

**innovatsiyalar bo'yicha Navoiy viloyati maktabi yaratilmoqda.**

Hammamiz yaxshi bilamiz, Amerika Qo'shma Shtatlarida «Silikon vodiysi» deb ataladigan, yuksak innovatsion texnologiyalar, ilm-fan sohasining eng ilg'or yutuqlari joriy etiladigan yirik markaz bor. Dunyodagi ko'p davlatlar hozir shunday markazlarni tashkil etishga intilmoqda. Chunki bu – taraqqiyot talabi. Navoiy viloyati biz uchun ana shunday innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar markaziga aylanib bormoqda va biz bu jarayonni sizlar bilan yanada kuchaytiramiz.

Mamlakatimiz olimlarining yangi ilmiy ishlanmalarini hayotga joriy etish, yoshlarni fan va texnika sohasiga kengroq jalb etish, fundamental va amaliy fan sohalarining ishlab chiqarish tarmoqlari bilan aloqalari samarasini yanada oshirish maqsadida Navoiy viloyatida O'zbekiston Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'limini tashkil etsak, Navoiy kon-metallurgiya kombinatini bu loyihani moddiy va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul etib belgilasak, nima deysizlar?

Shu asosda biz AQSh, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy kabi taraqqiy topgan davlatlardagi nufuzli ilmiy-texnika markazlari bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishga, nasib etsa, mana shu Navoiy Innovatsiya markazini butun dunyoga tanitishga erishamiz. Bu yo'ltagi dastlabki amaliy qadam sifatida mustaqilligimizning 26 yilligi arafasida Navoiy viloyatida mana shu masalaga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etsak, maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Navoiy viloyatida **kichik biznes va xususiy tadbirkorlik** sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Buning tasdig‘ini keyingi besh yilda kichik biznes subyektlari soni 2,2 barobar ko‘payib, 7 ming 200 taga yetgani, mazkur sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 38 foizni tashkil etayotgani misolida ko‘rish mumkin. Eng muhimi, viloyatdagi mehnat bilan band aholining 60 foizi ayni shu sohada mehnat qilmoqda.

Albatta, mamlakat miqyosidagi ko‘rsatkichlar bilan solishtirganda, bu raqamlar nisbatan pastligi hammamizni qoniqtirmaydi. Ayni paytda bu Navoiy viloyatida hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘pligini ko‘rsatadi. Biz kelajakda bu imkoniyatlarni to‘liq ishga solish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘ramiz va Navoiy viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo‘yicha, albatta, yetakchilar qatoriga chiqadi.

Viloyat iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i bo‘lgan **qishloq xo‘jaligida** ham katta yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Buni joriy mavsum natijalari ham yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Viloyatning mirishkor dehqon va fermerlari bu yil ham barcha agrar tarmoqlar bo‘yicha mo‘l hosil yetishtirdilar.

Fursatdan foydalanib, Navoiy viloyatining murakkab iqlim sharoitida mana shunday yutuqlarga erishayotgan omilkor fermer va dehqonlarga, barcha dala mehnatkashlariga, butun viloyat ahliga chin qalbimdan chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli do‘sstar!

Bizning kelgusi besh yilga mo‘ljallangan maqsad va vazifalarimiz O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining yaqinda bo‘lib o‘tgan, kuni kecha

televideniye va matbuotda e'lon qilingan syezdida va mening saylovoldi dasturimda atroflicha bayon qilingan.

Sizlarning qiziqishingizni e'tiborga olib, ruxsattingiz bilan, beshta ustuvor yo'nalishdan iborat bo'lган ushbu dasturning Navoiy viloyatiga oid qismiga ko'proq to'xtalib o'tmoqchiman.

Viloyatda sanoat sohasida yaqin 5 yilda umumiy qiymati 10 trillion 200 milliard so'm bo'lgan 486 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Buning natijasida yangi zamонавиј корхоналар barpo etiladi, mavjud корхоналар modernizatsiya qilinadi, eng muhim, yoshlarimiz uchun yangi ish o'rirlari yaratiladi.

Mazkur hudud sanoatida yetakchi o'rin tutadigan metallurgiya, energetika va kimyo sohasida 3 milliard 200 million dollarlik 25 ta yirik loyiha, oziq-ovqat sanoatida 97 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Bunday misollarni yengil, charm-poyabzal va farmatsevtika sanoati, qurilish materiallari va boshqa nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish bo'yicha ham keltirish mumkin.

Bugungi uchrashuvimizda ishtirok etayotgan siz, azizlarga, qolaversa, butun viloyat ahliga Navoiy viloyatining yer osti qazilma boyliklarini zamонавиј texnologiyalar asosida chuqur o'rganib, bosqichma-bosqich o'zlashtirishga kirishayotganimizni ma'lum qilmoqchiman. Bu borada yaqinda 5 yillik maxsus Dastur qabul qildik.

Ushbu dasturga ko'ra, vohadagi «Quljuqtov» va «Ovminzatov» tog'larida geologiya-qidiruv ishlarini

amalga oshirish, ularni sanoat asosida o‘zlashtirishga tayyorlash va shu tariqa Navoiy va Buxoro viloyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga kuchli turki beradigan yangi sanoat korxonalarini barpo etish ko‘zda tutilmoqda.

Viloyatda eksport hajmi 2011-yilga nisbatan 3 barobar ko‘paygan bo‘lsa-da, bu borada ishga solinmagan imkoniyatlar hali juda ko‘p. Shularning barchasini inobatga olib, kelgusi besh yilda eksport faoliyatiga yana kamida 40 ta korxonani jalb etish, hududiy eksport hajmini kamida ikki barobar ko‘paytirish ko‘zda tutilmoqda. Bu puxta o‘ylangan va real maqsad bo‘lib, biz uni, albatta, amalga oshiramiz.

**Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va modernizatsiya qilish** bo‘yicha ishlar izchil davom ettiriladi. Bu borada yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ko‘ptarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, irrigatsiya-melioratsiya tizimini yaxshilash masallariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Navoiy viloyatining o‘ziga xos sharoitidan kelib chiqib, vohada chorvachilik, xususan, qo‘y-echki boqishni rivojlantirish, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, muqobil yoqilg‘i asosida issiqxonalar tashkil etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish diqqatimiz markazida bo‘ladi.

Yil – o‘n ikki oy jazirama issiqda, qorli-yomg‘irli kunlarda dasht-u qirlarda chorva ortidan yuradigan, el-yurtimizni go‘sht va sut mahsulotlari bilan ta’millaydigan cho‘pon-cho‘liqlarning mashaqqatli mehnatini qadrlash, sohaga tegishli imtiyoz va preferensiyalar berish bo‘yicha ham aniq rejalarimiz bor.

Biz Navoiy viloyatining cho‘l va dasht mintaqalaridagi lalmi yerlarni o‘zlashtirib, bu yerda dehqonchilik va bog‘dorchilikni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratamiz.

Shu bilan birga, sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash, kollektor tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, serhosil va ertapishar, mahalliy sharoitga mos ekin navlarini yaratish ishlari izchil davom ettiriladi.

Shu tariqa Navoiy viloyatida kelgusi besh yilda go‘sht, sut va tuxum yetishtirishni kamida 1,2 barobar, kartoshkani – 1,3 karra, meva-sabzavot va uzum yetishtirishni 1,3 marta ko‘paytirishimiz, ularni qayta ishlashni kengaytirishimiz zarur.

**Yana bir muhim vazifa – ayrim tumanlar budgetini subvensiyadan chiqarishdan iborat.**

Bugungi kunda Xatirchi, Nurota, Navbahor tumanlarida budget xarajatlarining 50–67 foizi, Qiziltepa tumanida 11 foizi Davlat budgetidan beriladigan subvensiya hisobidan qoplanmoqda.

Bunday holatdan qutulish uchun nima qilish kerak? Avvalo, xususiy mulk rivoji, tadbirkorlik va fermerlik uchun barcha qulay sharoitlarni yaratib berishimiz zarur. Yangi zamonaliviy korxonalar tashkil etish hisobidan ish o‘rinlarini ko‘paytirishimiz kerak.

**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarin rivojlantirish**, hokimliklar, idoralar, korxona va tashkilotlarda ulardan keng foydalanishni ta‘minlash bo‘yicha ham Navoiy viloyatida ko‘pgina ishlar rejalashtirilgan. Xususan, aholiga ko‘rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari sifatini oshirish maqsadida kelgusida 214 kilometr optik tolali aloqa

tarmog‘i, mobil aloqa bo‘yicha 42 ta tayanch stansiyasi barpo etiladi. Shu bilan birga, 40 ta teleuzatgich uskunasi o‘rnatilib, viloyat aholisi 100 foiz raqamli televideniyega o‘tkaziladi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Sizlarga yaxshi ma’lumki, mamlakatimizda mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab «**Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun**» degan ezgu g‘oya asosida inson manfaatlari barcha o‘zgarish va islohotlarimiz markaziga qo‘yib kelinmoqda.

Shu maqsadda biz tuman va shaharlarimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirishga bevosita ta’sir etadigan dolzarb yo‘nalishlar bo‘yicha 15 ta maxsus dastur ishlab chiqmoqdamiz. Aytish kerakki, bu dasturlarning ayrimlari tasdiqlanib, ularni amalga oshirish bo‘yicha ishlardan boshlab yuborildi.

Ruxsatingiz bilan, ana shu dasturlarning mazmun-mohiyatiga, shu borada Navoiy viloyatida amalga oshiriladigan ishlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

**Birinchidan**, Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, 2016-yil 5-oktabrdagi Farmon bilan tasdiqlandi.

Bu haqda sizlar yetarlicha ma’lumotga egasizlar deb o‘yayman. Ommaviy axborot vositalarida ham bu mavzu keng yoritilmoqda.

Qo‘sishmcha sifatida men mazkur dasturda tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash

bo'yicha 42 ta aniq chora-tadbir belgilanganini aytib o'tmoqchiman.

Navoiy viloyatida kelgusi besh yilda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 3 ming 245 ta yer uchastkasi ajratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ularning 530 tasi sanoat hududlariga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklari tomonidan shu davrda 4 trillion so'mlik kreditlar ajratiladi.

**Ikkinchidan**, yaqinda qabul qilingan qarorga asosan 2017–2021-yillarda qishloq joylardagi kam ta'minlangan oilalar uchun arzon va qulay uy-joylar qurish dasturi tasdiqlandi. Vaqt o'tishi, hayot o'zgarishi bilan aholimiz ko'paymoqda, uning talabi, ehtiyoji oshmoqda, jumladan, Navoiy viloyatida ham bu juda muhim masalaga aylanmoqda.

Mazkur dasturda bularning barchasi hisobga olingan. Xususan, qishloq joylardagi kam ta'minlangan oilalarni, yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, qulay va arzon ko'pqavatlari uylar qurish yo'li bilan ularning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish, turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Dasturga asosan viloyatning 8 ta tumanida jami 716 ta xonadonga mo'ljallangan arzon va qulay uy-joylar quriladi. Har bir oila o'zining talabi va imkoniyatiga qarab, xohlasa ikki xonali, xohlasa, uch yoki to'rt xonali uy-joyga buyurtma beradi.

Shuningdek, shahar va qishloqlarimizning qiyofasini tubdan yaxshilash, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va shu asosda aholining turmush darajasi va sifatini oshirish borasidagi keng ko'lamli ishlarimiz davom

ettiriladi. Jumladan, Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlarida bu borada katta ishlarni amalga oshiramiz. Shular qatorida zamonaviy loyihalar asosida 816 ta xonadon uchun 17 ta ko‘pqavatli «Kamolot» uylarini barpo etamiz.

**Uchinchidan**, Hududiy avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Avtomobil transporti infratuzilmasini rivojlantirish borasida biz keyingi paytda asosiy e’tiborni xalqaro va davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan yo‘llarga, shuningdek, hududlararo avtomobil yo‘llariga qaratish bilan cheklanib kelyapmiz.

Hududlarning ichki yo‘llari, jumladan, tumanlar, aholi punktlari va xo‘jaliklarni bir-biriga bog‘laydigan yo‘llar, aholi maskanlari ichidan o‘tadigan yo‘llar tarmog‘ini kengaytirishga, ularning holatini yaxshilashga, afsuski, ikkinchi darajali ish deb qarashga o‘rganib qolganmiz.

Ishlab chiqilayotgan dasturda viloyat, mahalliy va shahar avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish, ularning mustahkamligini oshirish, sifatli ta’mirlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko‘zda tutiladi. Jumladan, Navoiy viloyatida kelgusi besh yilda beshta ko‘prik va 657 kilometr mahalliy ahamiyatga molik yo‘llar kapital va joriy ta’mirlanishi belgilanmoqda.

**To‘rtinchidan**, Shahar va qishloqlarda transport ta’minotini yanada rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda.

Viloyatda oxirgi besh yilda aholiga transport xizmati ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida 41 ta, jumladan, qishloqlar uchun 27 ta yo‘nalish ochildi.

Bu boradagi ishlarning davomi sifatida kelgusi 5 yilda Navoiy viloyatida lizing asosida 83 ta avtobus

xarid qilib, ularni belgilangan yo‘nalishlarga qo‘yish, 5 ta zamonaviy avtobekat barpo etish, chekka hududlarda yashovchi aholi uchun 49 ta yangi yo‘nalish tashkil etish kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

**Beshinchidan,** Qishloq joylarda ichimlik suvi ta’minoti tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Oxirgi besh yilda Navoiy viloyatida 755 kilometr suv tarmoqlari va 186 ta yer osti qudug‘i barpo etilib, buning natijasida 283 ming aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash yaxshilandi. Viloyatda aholining suv bilan ta’minlanishi 80 foizdan oshdi.

Tayyorlanayotgan dasturda qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta’minlash darajasini oshirish, zamonaviy tejamkor va samarali texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish yo‘li bilan suv ta’minoti sifatini yaxshilash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish choralarini belgilanadi.

Kelgusi besh yilda Navoiy viloyatida 678 kilometr ichimlik suvi tarmoqlarini qurish rejalashtirilmoqda. Buning natijasida 257 ming aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash yaxshilanib, viloyatda ichimlik suvi bilan ta’minlanish darajasi 2021-yilda 84,5 foizga yetkaziladi.

**Oltinchidan,** Ko‘mir tannarxi va aholiga xarid qiymatini pasaytirish, qish mavsumida bu borada chayqovchilik qilish va narxlarning oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmoqda.

Dasturda kuz-qish mavsumida mamlakatimiz tumanlari va qishloq joylarda ko‘mirga bo‘lgan talabni qondirish, aholini ko‘mir bilan uzluksiz ta’minlash,

ko‘mirning tannarxi va iste’ molchilarga yetkazib berish narxini kamaytirish bo‘yicha kompleks qo‘sishimcha chora-tadbirlar nazarda tutiladi. Jumladan, aholiga qulaylik yaratish maqsadida Navoiy viloyati ko‘mir yetkazib beruvchi korxonasi tomonidan ko‘mirni bevosita mahallalarga olib borish va o‘sha yerda aholiga tarqatish yo‘lga qo‘yiladi.

**Yettinchidan**, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash dasturi ishlab chiqilib, qabul qilinadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagи elektr energiyasi ishlab chiqaradigan quvvatlarning 65 foizi eskirgan. Bunday holatni o‘nglash bo‘yicha davlatimiz tomonidan zarur chora-tadbirlar ko‘rilmоqda. Bu haqda gapirganda, birgina Navoiy viloyatida o‘tgan besh yilda 277 kilometr elektr tarmoqlari, 118 ta transformator yangitdan qurilib, 6 ming 370 kilometr elektr tarmoqlari, 1 ming 611 ta transformator kapital ta’mirlanganini ta’kidlash lozim.

Ishlab chiqilayotgan dasturda bu boradagi ishlarni izchil davom ettirish nazarda tutilmoqda. Xususan, Navoiy viloyatida kelgusi besh yilda 454 kilometr elektr tarmoqlari, 188 ta transformator punktini qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda.

**Sakkizinchidan**, Maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturi tayyorlanmoqda.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim muassasasi hisoblanadigan bolalar bog‘chalari o‘g‘il-qizlarimiz, nabi-ralarimizning ong-u tafakkuri, qiziqishlar dunyosi, go‘zal his-tuyg‘ulari shakllanishida, ularning kelgusida barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishida hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Ishlab chiqilayotgan dasturda Navoiy viloyatida ham bolalar bog'chalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning tarmog'ini kengaytirish, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash, o'quvtarbiya jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan va biz ularni albatta amalga oshiramiz.

**To'qqizinchidan**, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Bu dasturda kelgusi besh yilda mamlakatimizda zamonaviy shaharsozlik me'yorlari asosida bozorlarni bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash bo'yicha aniq ishlar belgilanmoqda.

Shuningdek, bozorlar qoshidagi savdo-xarid korxonalari va avtomobillar to'xtash joylari faoliyatini yaxshilash, bozorlar faoliyatini va savdo-xarid korxonalari faoliyatini tartibga soladigan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

Navoiy viloyatida Karmana, Nurota, Xatirchi tumanlaridagi markaziy dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda.

**O'ninchidan**, Pensionerlarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash dasturini ishlab chiqish yakunlanmoqda.

Bugungi yorug' kunlarga yetib kelishimizda bu tabarruk insonlarning xizmatlari juda katta va biz ularning oldida doimo qarzdormiz. Ushbu dasturda 2016–2020-yillarda pensioner, nogiron, yolg'iz qariyalar va aholining kam ta'minlangan qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Tayyorlanayotgan dasturda nuroniy keksalarimizga

amaliy g‘amxo‘rlik va e’tiborni kuchaytirish maqsadida, avvalo, «Nuroniy» jamg‘armasining maqomi va mavqeyini oshirish, uning viloyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko‘paytirish, moddiytexnik bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi.

Keksalarning tashvish va muammolarini vaqtida hal etish uchun «Nuroniy» jamg‘armasi bo‘limlarini shahar va tumanlarda tashkil etib, ularga alohida bino ajratish, ularning xodimlarini budget hisobidan oylik maosh bilan ta’minlashni yo‘lga qo‘yamiz.

Shu bilan birga, har bitta mahallada raisning nuroniylar masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimini joriy etsak, nima deysizlar?

Ma’lumki, hozirgi paytda Ikkinchı jahon urushi qatnashchilari bir yilda bir marta mamlakatimizdagi sanatoriylarda o‘z sog‘lig‘ini tiklash uchun bepul yo‘llanmalar bilan ta’minlanmoqda.

Ammo ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli bu imtiyozdan foydalana olmayapti. Biz buni e’tiborga olib, davolanishga borolmaydigan faxriyalarimizga yo‘llanmalarning pulini berishga qaror qildik. Hozirgi kunda sanatoriy yo‘llanmasining o‘rtacha narxi 800 ming so‘mni tashkil etmoqda. Demak, ana shu mablag‘ sanatoriylarga borib davolanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan keksalarimizga beriladi.

Shuningdek, nuroniylarga tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish va ularning turlarini kengaytirish, doimiy tibbiy ko‘rik va sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish, zamonaviy davolash usullarini kengaytirish ko‘zda tutilmoqda.

«Nuroniy» jamg‘armasi boshchiligidagi «Mahalla» jamoat fondi, Kasaba uyushmlari va jamoat

tashkilotlari tomonidan yolg‘iz qariyalar har yili qishki kiyim-bosh va belgilangan turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab kelinmoqda.

2017–2020-yillarda mamlakatimizdagi barcha «Muruvvat» va «Saxovat» uylari rekonstruksiya qilinadi va kapital ta'mirlanadi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamonaviy sharoitlar yaratiladi.

**Navbatdagi dastur** – Ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash dasturi ishlab chiqilmoqda.

Oilalarimizda, jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini mustahkamlashda ibrat va namuna bo'lib kelayotgan muhtarama opa-singillarimizga hamisha e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning og'irini yengil qilish – biz, yurtimiz o'g'lolarining muqaddas vazifamizdir.

Ayni shu maqsadga qaratilgan dasturda kelgusi ikki yilda ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, jumladan, ularga xizmat ko'rsatadigan davolash-profilaktika tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash, ularga maxsus va yuqori texnologiyalar asosida tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Dasturga muvofiq barcha yangi tug'ilgan cha-qaloqlar, o'smir qizlar, homilador va tug'ish yoshi-dagi ayollar uchun to'liq patronaj kuzatish tizimi joriy etiladi. Natijada kasallanish holatlarining oldi olinib, onalar va bolalarda kasalliklarni erta aniqlash ko'rsatkichi hozirgi 70 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Shu bilan birga, shifo maskanlariga markazlashgan tartibda yetkazib beriladigan dori vositalari, tibbiy buyum va uskunalar ro'yxati kengaytiriladi.

Navoiy viloyatida kelgusi besh yilda 37 ta tibbiyot muassasasida 96 milliard so‘mlik qurilish va ta‘mirlash ishlarini bajarish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash rejalashtirilmoqda.

Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan o‘ta muhim masala – bu unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liq. Biz bir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim: otona, jamiyat e‘tiboridan chetda qolgan bola oilaga quvonch va foyda o‘rniga faqat tashvish keltiradi. Shu bois bola tarbiyasi, yoshlar bilan ishlash biz uchun eng muhim va dolzarb vazifa bo‘lib qolishi shart.

Qayerda, qaysi lavozimda ishlashimizdan qat‘i nazar, bolalarimiz bilan gaplashib, ularning ko‘ngliga yo‘l topib, yurish-turishi, xatti-harakatidan xabardor bo‘lib borishimiz kerak. Ayniqsa, uyushmagan yoshlarga alohida e‘tibor berishimiz lozim. Chunki odamlar, jamiyat e‘tiboridan chetda qolgan bolaning ko‘ngli o‘ksik bo‘ladi, alamzada bo‘ladi. Kim qayoqqa tortsa, nimaga qiziqtirsa, shu yoqqa qarab intiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning: «**Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona**», degan maqoliga amal qilaylik. Biz uchun jamiyatda begona bola yo‘q va bo‘lmasligi kerak. Hammasi o‘zimizning, O‘zbekistonimizning bolalari. Vaqtida mehr ko‘rsatsak, ishga, ilmga, kasb-u hunarga, ezgu fazilatlarga o‘rgatsak, ularning yo‘lini ochib bersak, ertaga foydasi o‘zimizga, jamiyatimizga tegadi. Aks holda, ular boshqalarning qo‘lidagi qurolga aylanib qolishi hech gap emas.

Yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» degan balo-qazolar xavf

solib turgan paytda bolalarimiz tarbiyasiga beparvo qarashimiz mumkinmi o‘zi? Bunday loqaydlikdan g‘arazli kuchlar foydalanib, sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Afsuski, Navoiy viloyatida ham bunday holatlar uchramoqda.

Biz – ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y yoshlar bilan ishlashda munosabatni, yondashuvni o‘zgartirishimiz kerak. Bu borada olimlarimiz, o‘qituvchi va murabbiylarimiz, yozuvchi va shoirlarimiz, jurnalistlarimiz, butun jamoatchiligi-miz yanada faollik ko‘rsatadilar, deb ishonaman.

Ayniqsa, qizlarimiz tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishimiz zarur. Ularni ilm-fan, kasb-hunar sirlarini puxta egallashga o‘rgatish, hayotda munosib o‘rnini topishiga erishish, erta nikohlarning oldini olish – eng muhim vazifamizdir. Bu borada yaqinda qabul qilingan «**Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida**»gi qonun yangi imkoniyatlar ochib beradi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati barcha yoshlarimiz intiladigan, ularning qobiliyat va iqtidorini ro‘yobga chiqaradigan va manfaatlarini haqiqiy himoya qiladigan tashkilotga aylanishi uchun biz barcha choralarни ko‘ramiz.

Mamlakatimizdagi har bir inson, har bir oila hayotiga bevosita daxldor bo‘lgan, kuni kecha qabul qilingan qaror bilan tasdiqlangan yana bir dastur – **farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirish**, hech shubhasiz muhim ahamiyatga ega. Bu dasturga muvofiq, 2016–2020-yillarda umumiy qiymati 224 million dollar bo‘lgan 67 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Shuningdek, dasturda aholi va tibbiy tashkilotlarni arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlash darajasini oshirish, ularga narx belgilashning samarali mexanizmini joriy etish, mavjud arzon dorilar o'rniga asossiz ravishda qimmat dorilar buyurish bo'yicha hayotimizda uchrab turadigan noxush holatlarga chek qo'yish yuzasidan zarur choralar belgilangan.

Navoiy viloyatida kelgusi besh yilda farmatsevtika sohasini rivojlantirish bo'yicha 6 million 600 ming dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Misol uchun, 32 hektar yer maydonida dorivor o'simliklar yetishtirilib, dori-darmonlar uchun xomashyo olish yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, «Navoiy» erkin iqtisodiy zonasida tashkil etilgan O'zbekiston – Hindiston qo'shma korxonasida 2018-yildan boshlab 600 million dona dori vositasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Aziz do'stlar!

Mamlakatimiz mustaqilligining ma'naviy-intellektual asoslarini mustahkamlashda ilm-fan namoyandalar, zahmatkash olimlarimiz, ijodkor ziyyolilarimizning hissasi katta va biz buni yuksak baholaymiz. Mehnati igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli bo'lgan bu insonlar uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish maqsadida biz bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz. Jumladan, Navoiy viloyatida yashab ijod qilayotgan olim va adiblarimiz, institut, litsey va kollejlarda dars berayotgan hurmatli domlalarimiz, ilmiy xodimlar va mutaxassislarining mashaqqatli va sharafli mehnatini qadrlash va rag'batlantirishga alohida ahamiyat qaratamiz. Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy konchilik institutining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash,

madaniyat va sport muassasalari, istirohat bog'lari va muzeylarimizning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab olganmiz va ularni izchil amalga oshiramiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Hozirgina bayon qilingan dastur va rejalarimizni amalga oshirish uchun avvalo nima kerak? Tinchlik va osoyishtalik kerak. Shu munosabat bilan yurtimizdagi tinch-osoyishta hayot, Vatanimiz xavfsizligi, chegaralarimiz daxlsizligi, tashqi siyosat borasidagi asosiy tamoyillarimiz haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Biz «O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak» degan da'vatni xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi faoliyatimizning asosiy tamoyili va o'zak g'oyasi deb bilamiz.

Mustaqillik yillarida biz erishgan eng katta va bebafo boylik – ko'pmillatli xalqimizning har qanday qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, uning zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligining yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga daxldorlik tuyg'usi, jamiyatimizdagi o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir.

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kela-yotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo'lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash – xavfsizlik va barqarorlikni hamda xalqimizning osoyishta hayotini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolatidir.

Biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga tahdid solishga urinadigan yovuz kuchlarning har qanday harakatlariiga keskin zarba berishga qodirmiz.

**Tashqi siyosat** sohasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to'liq amal qilish saylovoldi dasturimizning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Tashqi siyosatimizning asosiy ma'no-mazmuni – tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qaramaqarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O'zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Bu borada boshqa viloyatlarimizda ham aytgan gaplarimni takrorlashni istardim. Biz qo'shnilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo'lini izchil davom ettiramiz. Takror aytaman, qo'shnilarimiz bilan raqobat emas, o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantiramiz. Qo'shnikimizning yutug'i – bu bizning ham yutug'imiz. Ularning tinch

va farovon hayoti – butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi deb bilamiz.

Mana shu yo‘lda yangi amaliy qadamlar qo‘yatganimiz, jumladan, qo‘shni davlatlarning rahbarlari bilan olib borayotgan muzokaralarimiz buning amaliy tasdig‘idir va bu ishlarni izchil davom ettiramiz.

Qadrli va aziz vatandoshlar!

Biz saylovoldi dasturimizda belgilab olgan maqsad va vazifalarni hayotga to‘liq tatbiq etish uchun mamlakatimizni rivojlantirish bo‘yicha kelgusi besh yilga mo‘ljallangan beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha **Harakat strategiyamizni ishlab chiqamiz.**

Albatta, bu strategiyani amalga oshirish oson emas. Buning uchun jamiyatimizdagi barcha kuchlarni birlashtirib, hayot sinovlarida toblangan, har qanday ulug‘ marralarni egallahsga qodir, mard va oljanob xalqimiz qatori siz, hurmatli Navoiy ahliga tayangan holda ish olib boramiz.

Sizlarning, butun el-yurtimizning ishonchini oqlash, xalqimizning barcha orzu-niyatlarini amalga oshirish uchun bor bilim va tajribamni, butun borlig‘imni ayamasdan xizmat qilishni men o‘zim uchun yuksak sharaf, deb bilaman.

So‘zimning yakunida sizlarga, sizlar orqali butun Navoiy viloyati ahliga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, xonardonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Nurota tumani,  
2016-yil 4-noyabr**

**ILM-U MA'RIFAT, DIN-U DIYONAT,  
BUNYODKORLIK BILAN NOM  
QOZONGAN XALQ**  
**(BUXORO VILOYATI SAYLOVCHILAR  
VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI  
NUTQ)**

the most important thing is to have a good  
team. Many people work hard and do a good job,  
but it's the team that makes the difference. I'm  
glad to be part of such a great organization.

It's been a great experience so far.  
I've learned a lot about myself and my  
abilities. I've also learned a lot about the  
industry and how it works. I'm excited to see  
what the future holds for me. I'm grateful  
for the opportunity to work at this company.  
I'm looking forward to many more years of  
success and growth.

---

Assalomu alaykum, hurmatli vatandoshlar!  
Qadrli do'stlar!

Bugun ko'hna va tabarruk Buxoro zaminida siz, azizlar bilan uchrashib, sizlarni mana shunday yaxshi kayfiyatda ko'rib turganimdan xursandman. So'zimning avvalida barchangizga, sizlar orqali butun viloyat ahliga o'zimning chuqrur hurmat va ehtiromimni bildirishga ruxsat etgaysiz.

Hurmatli yurtdoshlar!

Hammamiz uchun aziz va qadrdon bo'lgan, buyuk davlat va siyosat arbobi muhtaram Islom Abdug'aniyevichning vafot etganlariga, mana, ikki oydan oshdi. Vaqt o'tgan sari Birinchi Prezidentimizning xalqimiz, Vatanimiz ravnaqi yo'lidagi unutilmas xizmatlarini, u kishining rahbarligida amalga oshirilgan tarixiy ishlar salmog'ini har birimiz yanada chuqrurq anglab yetayapmiz. Va ayni paytda barchamiz Yurtboshimiz asos solgan milliy taraqqiyot yo'lini yangi bosqichga ko'tarish zaruratini, shu boradagi o'z burchimiz va mas'uliyatimizni teran his qilmoqdamiz.

Shaxsan men shunday buyuk insonga safdosh bo'lib, chorak asrdan ko'proq vaqt birga ishlaganidan baxtiyorman. U kishi boshlagan barcha-barcha ezgu ishlarni og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettirishni o'zimning muqaddas burchim deb bilaman. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qat-

nashish uchun men aynan ana shu g‘oya, ana shu vazifani o‘zimga bosh maqsad qilib olganman.

Albatta, hammamiz yaxshi tushunamiz, bu saylov barchamiz, butun el-yurtimiz uchun g‘oyat muhim siyosiy tadbir, yana bir ulkan sinovdir. O‘zbekistonning bundan keyingi siyosati qanday bo‘ladi, mamlakatimiz qaysi yo‘ldan boradi, farzandlarimiz, oilamiz, Vatanimiz kelajagini qanday barpo etamiz, degan savollar bugun oldimizda turibdi. Va shu yurtning fuqarosi sifatida hammamizni o‘ylantiradigan bu savollarga biz aynan shu saylov orqali javob topamiz.

Xabaringiz bor, biz kuni kecha Farg‘ona vodiysi viloyatlarida, bugun Navoiy viloyatida saylovchilar vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazdik. Videokonferensiya shaklidagi bu ochiq va jonli muloqotlar xalqimizning siyosiy ongi va tafakkuri, huquqiy madaniyati naqadar o‘sib borayotganini ko‘rsatmoqda. Odamlar nafaqat shaxsiy muammolari, nafaqat o‘zi yashayotgan shahar va qishlog‘i, balki butun O‘zbekiston hayoti va kelajagi bilan bog‘liq masalalarni o‘rtaga qo‘yayotgani ularning faol grajdanlik pozitsiyasidan dalolat beradi.

Sizlar bilan bugungi uchrashuvimizda ham imkon qadar ko‘proq odamlar ishtirok etsin, munozara va muhokamalarda faol qatnashsin, degan niyatda uni videokonferensiya shaklida o‘tkazayapmiz. Har bir saylovchi o‘zini qiziqtirgan, qiynayotgan savollar bilan murojaat qilishi mumkin.

Aziz do‘stlar!

Dunyoda alohida bir elga, alohida bir yurtga bag‘ishlab barpo qilingan yodgorliklar majmuasi

kamdan kam uchraydi. Buxoroi sharif ayni shunday o'lkalar qatoriga kiradi.

Mustaqillik yillarida bu qadimiy diyor va uning mard, oljanob xalqi sharafiga «Ko'hna va boqiy Buxoro» yodgorlik majmuasi bunyod etilganini yaxshi bilamiz. Bu majmua loyihasini muhtaram Islom Abdug'aniyevich o'z qo'llari bilan chizib, uning qurilishiga shaxsan bosh-qosh bo'lган edilar.

Bu tabarruk zaminning necha ming yillik qadimiy tarixi, buyuk alloma va aziz-avliyolari, uning betakror madaniyati o'z ifodasini topgan ana shu yodgorlik bugungi kunda Buxoroning yorqin timsoliga aylanib qoldi.

Haqiqatan ham, azaldan turli savdo yo'llari, madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan boqiy Buxoro, uning ko'pni ko'rghan, ilm-ma'rifikat, din-u diyonat, bunyodkorlik borasida nom qozongan xalqi har qanday hurmat va e'tiborga munosibdir.

Azim Zarafshon daryosi bo'yida joylashgan bu go'zal vohadagi Varaxsha va Narshax singari qadimiy sivilizatsiya o'choqlari, ko'hna Ark, Somoniylar maqbarasi, Chashmai Ayub, Minorai Kalon, Chor Bakr va o'nlab noyob me'moriy obidalar bizning tariximiz, madaniyatimiz qanday chuqr ildizlarga ega ekanini yaqqol tasdiqlaydi.

Bu qutlug' zamindan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Narshaxiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Mir Said Kulol, Xo'ja Orif Revgariy, Bahouuddin Naqshband kabi buyuk mutafakkirlarning nomlari, ularning boy merosi butun Sharq va G'arb olamida mashhurdir.

Xabaringiz bor, yaqinda Toshkentda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Konferensiya doirasida bir qator yuksak martabali mehmonlar bilan uchrashganimizda, ularning har biri O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk daholar nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida g'oyat muhim o'rinni tutishini e'tirof etdi.

Ushbu anjumanda buyuk muhaddis Imom Buxoriy bobomizning tabarruk merosini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida xalqaro ilmiy markaz tashkil etish haqidagi O'zbekistonning taklifi katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingani ham shundan darak beradi.

Mana, ko'rdingizmi, ulug' bobolarimizning sharofti, o'lmas nomlari, ularning ruhi poklari bugun ham bizni qanday qo'llab-quvvatlayapti, bizga qanday madad beryapti. Biz mana shunday ulug' allomalarimiz bilan, ularni kamolga yetkazgan ona zaminimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

«Oqqan daryo – oqaveradi», deydi xalqimiz. Darhaqiqat, o'tmishda qancha-qancha sinov va qiyinchiliklarga duch kelmasin, Buxoroi sharifning ilm-ma'rifat, madaniyat va san'at daryosi hech qachon to'xtagan emas. Bu ko'hna yurtda tug'ilib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Sadriddin Ayniy singari ko'plab ma'rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag'ishlab kelmoqda.

Bu haqda gapirganda, zamonaviy o‘zbek ababiyotining taniqli vakillari bo‘lgan Ne’mat Aminov, Omon Muxtor, Sadriddin Salim Buxoriy, Ahad Hasan kabi shoir va yozuvchilarimizning yorqin xotirasini butun el-yurtimiz yuksak ehtirom bilan yodga oladi.

Bugungi kunda Jamol Kamol, To‘ra Mirzayev, Toshpo‘lat Ahmad, Jo‘ra Fozil, Jahongir Ismoilov, Laylo Sharipova, Mamatqul Jo‘rayev, Shodmon Sulaymon singari iste’dodli olim va ijodkorlarimiz ustozlar an’anasini faol davom ettirmoqdalar.

Qadim Buxoroni biz nafaqat «**Islom dinining quvvati**», balki ayni paytda milliy madaniyatimiz va san’atimizning noyob chashmasi sifatida ham yaxshi bilamiz.

Bu yurtning farzandlari bo‘lgan Olim Xo‘jayev, Razzoq Hamroyev, Muxtor Ashrafiy, davlatimiz madhiyasining muallifi, betakror inson Mutal Burhonov, Sa’di Tabibullayev, Lutfulla Nazrullayev, Sharif Qayumov, Sattor Yarashev kabi san’atimiz darg‘alarining milliy madaniyatimiz rivojiga qo‘shtigan beqiyos hissasini barchamiz yuksak qadrlaymiz.

Ularning izdoshlari bo‘lgan Baxtiyor Ixtiyorov, O‘lmas Rasulov, Tesha Mo‘minov, Ubaydulla Baqoyev, Shamsi Yo‘lliyev, Soyib Niyozov, Yulduz Turdiyeva, Ilyos Arabov singari san’atkorlar, Olim Abdiyev, Alisher Narzullayev singari O‘zbekiston xalq ustalari Buxoro shuhratiga shuhrat qo‘shtimoqdalar.

O‘zining fidokorona mehnati bilan el-yurt o‘rtasida obro‘-e’tibor topgan O‘zbekiston Qahramonlari – mirishkor fermer Azim Latipov, zardo‘z Muyassar Temirova, ekskavatorchi To‘ra Narziyevning nomlarini alohida ehtirom bilan aytib o‘tmochchiman.

Ular qatorida O‘zbekiston xalq o‘qituvchilari To‘xtamurod Jumayev, Guloyim Jalliyeva, mirishkor fermer Yoqub Fattoyev, xizmat ko‘rsatgan sport ustozи Rustam To‘rayev kabi o‘z kasbini ulug‘lab kelayotgan insonlarni har qancha ta’riflasak arziydi, albatta.

Ayni paytda, bugungi yorug‘ kunlarga yetib kelishimizda katta xizmatlari singgan, boy hayotiy bilim va tajribasi bilan jamiyatimiz hayotida faol qatnashib, yoshlarga namuna bo‘lib kelayotgan «Nuroniy» jamg‘armasi viloyat bo‘limining rahbari Samoyiddin Huseinov, Romitan tumani bo‘limi raisi Telman Baqoyev, faol ma’naviyat targ‘ibotchisi Ra’no Rahimova, usta kandakor Shokir Kamolov singari faxriyalarimizning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Bugungi kunda Buxoro yoshlaringin sport sohasida erishayotgan yutuqlari ham barchamizni quvontiradi. Oxirgi besh yilda viloyat sportchilari jahon va Osiyo miqyosidagi nufuzli musobaqalarda 86 ta oltin, 133 ta kumush va 158 ta bronza medalini qo‘lga kiritishga erishdilar.

Ayniqsa, bu yil Braziliyada bo‘lib o‘tgan Olimpiada o‘yinlarida buxorolik sportchilardan 8 nafari yuqori shohsupalarga ko‘tarilgani – bu haqiqiy qahramonlik namunasi, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Olimpiya o‘yinlarida Shahobiddin Zoirov va Sherzod Namozov oltin, Shahram G‘iyosov kumush, Ixtiyor Navro‘zov, Rishod Sobirov, Shuhrat Boboyev, Feruz Saidov, Shirin Sharipov bronza medallarni qo‘lga kiritganida butun xalqimiz cheksiz quvonib, «Yashasin O‘zbekiston!» deb hayqirgani hammamizning esimizda.

Kelinglar, ana shu yoshlarimizni yana bir bor chin dildan qutlab, ularga doimo baxt va omad yor bo‘lishini tilaylik.

Muhtaram anjuman qatnashchilar!

Keyingi yillarda, butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi, Buxoro viloyatida ham yuqori o‘sish sur’atlari kuzatilmoqda. Buning tasdig‘ini so‘nggi besh yilda viloyat iqtisodiyoti 1,5 barobar o‘sgani, yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi 24,7 foizdan 30 foizga yetganida ko‘rish mumkin.

Buning natijasida Buxoro viloyatining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushi tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz bo‘yicha qazib olinadigan tabiiy gazning 10 foizi, gaz kondensatining 11 foizi, neftning 7 foizi, yetishtiriladigan paxtaning 11 foizi, g‘allaning 9 foizi, pillaning 12 foizi Buxoro viloyati hissasiga to‘g‘ri kelayotgani va boshqa misollarda bunga to‘la ishonch hosil qilish mumkin.

So‘nggi 5 yilda viloyat iqtisodiyotida umumiyligi 7 milliard 200 million dollarlik investitsiyalar o‘zlashtirildi. Buning 3 milliard 900 million dollari xorijiy investitsiyalar ekani ayniqsa e’tiborlidir.

Mana shu investitsiyalar tufayli Buxoro tarixan qisqa vaqt ichida mamlakatimizdagi yirik sanoatlashgan hududlardan biriga aylandi. Jumladan, mamlakatimiz iqtisodiyotining faxri bo‘lgan Buxoro neftni qayta ishslash zavodi, Gazli neft-gaz majmuasi, «Deu tekstil Buxoro», «Knauf gips Buxoro» kabi yirik korxonalar bunyod etildi. Eng muhimi, minglab buxoroliklar, o‘zimizning farzandlarimiz uchun zamonaviy ish o‘rinlari yaratildi.

Azal-azaldan o‘zining hunarmandlik, tadbirkorlik fazilatlari bilan dong taratgan Buxoro ahli iqtisodiyotimizda tobora katta o‘rin egallayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ham muhim natijalarga erishmoqda.

Buning tasdig‘ini mazkur sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi qariyb 68 foizga yetgani, ish bilan band aholining salkam 80 foizi ayni shu tarmoqda mehnat qilayotgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Muhtaram Birinchi Prezidentimizning: «**O‘zbek dehqonining mehnati – haqiqiy qahramonlikdir**», degan so‘zlarining amaliy tasdig‘ini buxorolik zahmatkash dehqon va fermerlar mehnati misolida yaqqol ko‘rishi mumkin.

Aynan ularning fidokorona mehnati bilan keyingi besh yilda viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, murakkab iqlim sharoiti, yerlarning sho‘rlanish darajasi yuqori ekaniga qaramasdan, 1,3 barobar ko‘paydi.

Dehqonlarimizning og‘irini yengil qilish, yerning dardiga darmon bo‘lish maqsadida viloyatda so‘nggi yillarda ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash, unumdarligini oshirish bo‘yicha ko‘p ish qilinmoqda. Oxirgi besh yilda 66 ming hektar sug‘oriladigan yerning meliorativ holati, qariyb 94 ming hektar yerning suv ta’mnoti yaxshilandı.

Joriy yilda paxta maydonlari 1 ming 800 hektarga qisqartirilib, ularning o‘rniga ko‘proq daromad beradigan, viloyatning tabiiy iqlim sharoitiga mos keladigan meva-sabzavot va poliz ekinlari ekildi. Bu o‘z navbatida bozorlarimizni arzon va sarxil mahsulotlar bilan to‘ldirish imkonini bermoqda.

Buxorolik omilkor dehqon va fermerlar bu yilgi mavsumni ham yuksak mehnat yutuqlari bilan yakunlayotgani barchamizni xursand qiladi.

Fursatdan foydalanib, o‘zining fidokorona mehnati bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sib kelayotgan Buxoro dehqonlariga, barcha viloyat mehnatkashlariga chuqur minnatdorlik bildirishni o‘zim uchun ham qarz, ham farz, deb bilaman.

### Qadrli do‘srlar!

Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar – bu aholi turmush darajasini yaxshilash yoki hududlarimizni obodonlashtirish bo‘ladimi, namunaviy uy-joylar, ijtimoiy obyektlar, yo‘l va ko‘priklar qurish, tarixiy va madaniy merosimizni tiklash bo‘ladimi, transport-muhandislik, axborot kommunikatsiyalari va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘ladimi – bularning barchasida sizlar bevosita ishtirok etib kelmoqdasiz, bu ulkan o‘zgarishlarga hammangiz bevosita guvohsiz.

Shu sababli, bu masalaga batafsil to‘xtalib o‘tirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman.

Hozirgi kunda bizning oldimizda ana shu erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlab, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishdek yangi, ulkan vazifalar turibdi. Va bu vazifalarni bugungi globallashuv davrida dunyoda iqtisodiy inqiroz, qarama-qarshilik va nosog‘lom raqobat, xomashyo resurslarining narxi pasayib borayotgan keskin va murakkab bir sharoitda amalga oshirishimizga to‘g‘ri kelmoqda.

Bu esa bizdan xalqaro miqyosdagi mavjud og‘ir vaziyatni chuqur tahlil qilgan holda, strategik ahamiyatga ega vazifalarni belgilab olish, yaqin va o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturimizni ishlab chiqishimizni talab etadi.

Bu boradagi ustuvor yo‘nalishlar mening shu yil 19-oktabrda O‘zbekiston Liberal-demokratik partiya-sining syezdida so‘zlagan ma’ruzamda batafsil bayon qilganidan sizlar albatta xabardorsiz.

Lekin bugungi uchrashuvimizda qatnashayotgan va videokonferensiya orqali bizni kuzatayotgan yurtdoshlarimizni, bu dastur Buxoro viloyatida qanday amaliy natijalar beradi, degan savol qiziqtirishi tabiiy.

Biz saylovoldi dasturimizda mamlakatimizdagи barcha hududlar qatori Buxoro viloyatida ham har bir shahar va tumanni rivojlantirish bo‘yicha aniq rejalar ni ishlab chiqqanmiz.

**Viloyatda kelgusi besh yilda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo‘yicha umumiy qiymati 1 trillion 200 milliard so‘mlik 1000 dan ziyod investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.**

Buning uchun Buxoro viloyatida barcha sharoit va imkoniyatlar – xomashyo ham, resurslar ham, insoniy va intellektual salohiyat ham yetarli.

Hammamizga ma’lumki, hozirgi vaqtida Navoiy, Jizzax va Angren hududlarida erkin industrial zonalar samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ijobiy tajribani kengaytirish maqsadida, ayni paytda G‘ijduvon

tumanida ham ana shunday sanoat hududini tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Ushbu tumanning qulay geografik o‘rni, transport-kommunikatsiya imkoniyatlari, qolaversa, g‘ijdu-vonliklarning ishbilarmonlik va tadbirkorlik xusu-siyatlari yangi tashkil etiladigan industrial zonaning kelajagini ta’minlab beradi. O‘ylaymanki, bu hudud Buxoro viloyati bilan bir qatorda, qo‘shni Samarqand, Navoiy, Xorazm va boshqa viloyatlarimizning ham iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Viloyatda **oziq-ovqat sanoati sohasida** yaqin besh yilda umumiy qiymati 187 milliard so‘mlik 306 ta loyiha amalga oshiriladi.

Misol uchun, 2017-yilda Buxoro tumanida 5 million dollar sarmoya evaziga 15 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlash quvvatlari tashkil etiladi. Umuman, kelgusi besh yilda meva-sabzavotni qayta ishlash hajmini viloyat miqyosida o‘rtacha 30 foizga, go‘sht bo‘yicha – 25 foizga, sut bo‘yicha – 23 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Viloyatda 2017–2021-yillarda yengil, **charmpoyabzal** va **farmatsevtika sanoatida** ham keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirib, umumiy qiymati 707 milliard so‘mlik 265 ta loyihani ishga tushirish mo‘ljallanmoqda.

Buxoro shahri, Vobkent, Kogon, Qorako‘l, G‘ijduvon tumanlarida yuqori texnologiyaga asoslangan tayyor tekstil mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil qilish hisobiga viloyatda paxta tolasini qayta ishlash darajasi bugungi kundagi 29 foizdan 2021-yilga borib 55 foizga yetkaziladi.

2017–2021-yillarda **tekstil va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar das turiga muvofiq** Buxoro viloyatida ham umumiy qiymati 688 milliard soʻmlik 231 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Jumladan, Qorakoʼl tumanidagi «Qorakoʼl Asaka tekstil» korxonasida 30 milliard soʻmlik loyiha amalga oshirilib, yiliga 3 ming 200 tonna ip va kalava ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyiladi.

**Qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa sohalarda** kelgusi 5 yilda umumiy qiymati 323 milliard soʻmlik 442 ta loyiha amalga oshiriladi. Shular qatorida, 2017-yilda Kogon shahridagi «Maks Bilding» qoʼshma korxonasida 1,5 million dollar sarmoya evaziga yiliga 10 ming tonna gips aralashmasi va gipsokarton ishlab chiqaradigan yangi quvvatlar ishga tushiriladi.

**Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish** boʻyicha ishlar davom ettiriladi. 2017-yilda bu borada 20 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan boʻlsa, 2021-yilga kelib, bunday loyihalar soni 41 taga yetkaziladi. Shu jumladan, bu masalada chetda qolayotgan Qorakoʼl, Olot, Qorovulbozor va Shofirkon tumanlarida mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyiladi.

Bugungi kunda **hududiy eksport** 128 million dollarni tashkil etmoqda. Viloyatdagi mayjud salohiyat va imkoniyatlardan yetarlicha foydalanimayotgani tufayli bu borada sezilarli oʼsish kuzatilmayapti. Holbuki, barcha tumanlarda **eksport hajmlari** va

**valuta tushumini ko‘paytirish bo‘yicha foydalanilmagan rezervlar hali juda ko‘p.**

Shuni e’tiborga olgan holda, kelgusi 5 yilda hududiy eksport hajmini kamida 1,5 baravar ko‘paytirish, eksport faoliyatiga 200 dan ortiq yangi sanoat korxonalarini jalg etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

**Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va modernizatsiyalash bo‘yicha ishlar izchil davom ettiriladi.**

Mavjud yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ko‘ptarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, irrigatsiya-melioratsiya tizimini yaxshilash, tumanlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, meva-sabzavot, uzum hamda poliz mahsulotlarini ko‘paytirish, zamonaviy texnologiyalar asosida issiqxonalar tashkil etish kabi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Jumladan, kelgusi besh yilda go‘sht ishlab chiqarishni kamida 1,3 baravar, sutni – 1,4 baravar, tuxumni – 1,6 baravar, kartoshkani – 1,3 baravar, meva-sabzavot va uzum yetishtirishni 1,4 baravarga ko‘paytirish, shuningdek, ularni qayta ishlashni kengaytirish rejalashtirilmoqda.

**Yana bir muhim yo‘nalish – Buxoroning turistik salohiyatidan yanada to‘liq foydalanishdir.**

Ikki yarim ming yillik tarixga ega Buxoro zaminidagi noyob me’moriy yodgorliklar, vohaning go‘zal tabiatи butun dunyodan turistlarni jalg etishi uchun juda katta imkoniyatlarga ega.

Bu borada Buxoro xalqaro aeroportining zamonaviy yangi binosi qurilgani va joriy yil sentabr oyida Toshkent – Buxoro yo‘nalishida zamonaviy tezyurar poyezd qatnovining yo‘lga qo‘yilgani muhim bir qadam bo‘lganini qayd etish lozim. Ushbu poyezd Toshkentdan Buxorogacha bo‘lgan 600 kilometrlik masofani ilgarigidek 7–8 soatda emas, balki 3 soat-u 47 daqiqada bosib o‘tishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, mamlakatimiz aholisi va xorijiy mehmonlar uchun qanday katta qulaylik yaratilganini tasavvur qilish qiyin emas.

Viloyatning turistik salohiyatini yanada oshirish uchun kelgusi besh yilda 50 ta yangi mehmonxona qurish va mavjud 10 ta mehmonxonani kengaytirish hisobiga ulardagi yashash o‘rinlari bugungi kundagi 4,5 mingtadan 6,5 mingtagacha yetkaziladi.

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirish natijasida 2021-yilga borib, viloyatga keladigan xorijiy sayyoohlar soni qariyb 2 baravarga oshishi kutilmoqda.

**Viloyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishni davom ettirish**, ulardan keng foydalanishni ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish mo‘ljallanmoqda.

Aholiga ko‘rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari sifatini oshirish maqsadida kelgusi besh yilda 300 kilometr uzunlikdagi optik-tolali aloqa liniyalari va 250 ta mobil aloqa baza stansiyasi quriladi.

Gazli shaharchasi, Qizilrabot, Zafarobod kabi olis aholi punktlarida 8 ta raqamli teleuzatgich qurilmasini o‘rnatish orqali viloyat hududini raqamli televideniye

bilan qamrab olish darajasi 80 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

**Yana bir muhim vazifa – ayrim tumanlar mahalliy budgetlarining subvensiyaga qaramlik darajasini keskin kamaytirish bilan bog‘liq.**

Bugun mamlakatimizda, jumladan, Buxoro viloyatida ishbilarmonlik muhitini, kichik biznes va tadbirkorlikni keng rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni izchil tatbiq etishga katta e’tibor qaratilib, bu borada barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Lekin shunga qaramasdan, viloyatning Vobkent, Peshku, Shofirkon, Buxoro tumani mahalliy budget xarajatlarining bir qismi subvensiya hisobidan qoplab kelinmoqda va biz bu holatni o‘zgartirish bo‘yicha jiddiy ishlashimiz kerak.

Buning asosiy yo‘li – ishlab chiqarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini, xizmat ko‘rsatish sohalarini jadal rivojlantirib, budget daromadlarining asosi hisoblangan soliq tushumlarini ko‘paytirishdan iborat.

Yuqorida aytib o‘tilgan chora-tadbirlarni amalgalashish hisobidan Buxoro tumani 2016-yil yakuni bilan, Vobkent tumani 2017-yilda, Peshku va Shofirkon tumani 2020-yilga borib subvensiyadan to‘liq chiqishi kutilmoqda.

Aziz do‘sstar!

**Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar**

**insonlar sifatida tarbiyalash** biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi.

Shu o‘rinda, kasb-hunar kollejlarini bitirayotgan yoshlarni ish bilan ta’minalash, nafaqat ish bilan ta’minalash, ular o‘z iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun yetarli shart-sharoit yaratib berish hammamizning burchimiz ekanini ta’kidlamoqchiman. Bugungi kunda Buxoro viloyati aholisi 1 million 836 ming kishini tashkil etayotgani hamda har yili kasb-hunar kollejlarini minglab yigit-qizlar tamomlab, hayotga yo‘l olayotganini hisobga olsak, yaratilayotgan har bitta ish o‘rni naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini tushunish qiyin emas.

Yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar oolib berishga xizmat qiladigan dolzarb chora-tadbirlarni amalga oshirish, ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlashga jiddiy e’tibor qaratish, bunda jamoat tashkilotlari, avvalo «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ishtirokini yanada kengaytirish kabi masalalar bizning doimiy e’tiborimizda bo‘ladi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Xabaringiz bor, shu kunlarda Hukumat tomonidan barcha viloyat, tuman va shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, odamlarning hayoti va kayfiyatiga salbiy ta’sir qiladigan muammolarni bartaraf etish, aholi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida 15 ta maxsus dastur ishlab chiqilmoqda va ularning aksariyati qabul qilindi.

Ruxsatingiz bilan, sizlarning e’tiboringizni ana shu dasturlarning asosiy mazmun-mohiyatiga qaratmoqchiman.

**Birinchidan, Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, 2016-yil 5-oktabrdagi Farmon bilan tasdiqlandi.**

Bu masala bo'yicha qanday yangilik va o'zgarishlar bo'lishi, tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha qanday imtiyoz va preferensiyalar berilishi, ularning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha belgilangan amaliy choralar sizlarga albatta yaxshi ma'lum, deb o'ylayman. Shular qatorida tadbirkorlik sohasidagi qonunlar ijrosi ustidan Parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Oliy Majlis huzurida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil institutini tashkil etish mo'ljallanmoqda.

Buxoro viloyati misolida gapiradigan bo'lsak, keyingi besh yil mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan ularga ajratiladigan kreditlar miqdori kamida 2 baravarga ko'paytiriladi.

**Ikkinchidan, 2017–2021-yillarda qishloq joylarida yangilangan namunaviy loyihalari bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi ishlab chiqilib, 2016-yil 21-oktabrdagi qaror bilan tasdiqlandi.**

Ushbu dasturda qishloq joylardagi kam ta'minlangan oilalarni, yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, qulay va arzon uylarni qurish yo'li bilan ularning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish, turmush darajasi

va sifatini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Dasturda qishloq joylarda narx parametrlari va me'moriy tuzilishiga ko'ra yakka tartibdagi uy-joylar namunalarining uchta eng arzon turlarini qo'shimcha ravishda barpo etish nazarda tutilgan. Unga ko'ra, 2017-yilda mamlakatimizda 15 mingta, jumladan, Buxoro viloyatida 1 ming 142 ta ana shunday uy-joy quriladi.

Shular qatorida, ijtimoiy-ma'naviy hayotimizda faol qatnashayotgan yoshlarni uy-joy bilan ta'minlash bundan buyon ham doimiy e'tiborimizda bo'ladi. Kelgusi yilda Buxoro shahri va tumanlar markazlarida zamonaviy loyihalar asosida jami 1 ming 312 ta kvartirali 39 ta ko'pqavatli «Kamolot» uylari bunyod etilishi shu ezgu maqsadga xizmat qiladi.

**Uchinchidan, Hududiy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Ta'kidlash kerakki, ishlab chiqilayotgan ushbu das-turda xalqaro va davlat ahamiyatidagi yo'llar bilan birga, viloyat, mahalliy va shahar avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish, ularni ta'mirlash va zarur darajada saqlanishini ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko'zda tutiladi.

Jumladan, Buxoro viloyatida kelgusi besh yilda 132 kilometr mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan va 676 kilometr ichki yo'llarda ta'mirlash ishlari bajariladi.

**To'rtinchidan, Shahar va qishloqlarda transport ta'minotini yanada rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda.**

Viloyat aholisiga transport xizmati ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida oxirgi 5 yilda 656 ta avtobus va 1 ming 700 ta mikroavtobus xarid qilinib, Buxoro shahri va uning atrofidagi yo'nalishlarga qo'shildi.

Bu boradagi ishlarni davom ettirish uchun viloyatda yaqin besh yilda yana 350 ta avtobus sotib olish, bitta avtobekat qurish, chekka hududlarda yashovchi aholi uchun qo'shimcha yo'nalishlar ochish va boshqa qulayliklar yaratish rejalashtirilmoqda.

**Beshinchidan, Qishloqlarda ichimlik suv ta'minoti tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiyalash dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Keyingi besh yilda viloyatda 878 kilometr ichimlik suv tarmoqlari qurilib, buning natijasida 280 ming aholining toza ichimlik suv bilan ta'minlanishi yaxshilangan va suv bilan ta'minlanganlik darajasi 48 foizdan 61 foizga yetkazildi.

Tayyorlanayotgan dasturga binoan kelgusi besh yilda Buxoro viloyatida 490 kilometr suv tarmoqlari yangidan quriladi va 125 kilometr suv tarmoqlari ta'mirlanadi.

Jumladan, Jahon bankining 55 million dollarlik mablag'i hisobidan Buxoro va Kogon shaharlarida quvvati sutkasiga 100 ming kubometrni tashkil etuvchi oqova suv tozalash inshootlari hamda 60 kilometr oqova suv tarmoqlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Shuningdek, yana bir muhim loyiha – Jahon bankining 82 million dollarlik mablag'i hisobidan 2018-yilga qadar Olot va Qorako'l tumanlarini ichimlik suv bilan ta'minlashni yaxshilash loyihasi

doirasida 2 ming 200 kilometr masofadagi ichimlik suv magistral quvurlari va tarmoqlarini yangidan qurish va rekonstruksiya qilish natijasida 173 ta qishloq aholi punktida suv ta'minoti yaxshilanadi.

**Oltinchidan, Ko‘mir tannarxini va aholiga xarid qiymatini pasaytirish, shuningdek, qish mavsumida ko‘mir mahsuloti bilan chayqovchilik qilishni va narxlarning oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.**

Bugungi kunda dolzarb bo‘lib turgan ushbu masala bo‘yicha Buxoro viloyatida ham bir qator ishlar amalgalashiriladi. Jumladan, Koreyaning «Jel» kompaniyasi bilan «O‘zbek ko‘mir» birlashmasi hamkorligida Jondor tumanida briket ishlab chiqarish korxonasini tashkil qilish bo‘yicha kelishuv imzolanib, tashkiliy masalalar ko‘rilmoxda.

**Yettinchidan, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Hududlarimizda, ayniqsa, qishloq joylarda uzluksiz elektr energiyasi ta’minoti bilan bog‘liq muammolar borligi hech kimga sir emas. Bu avvalo elektr energiyasini ishlab chiqaradigan va yetkazib berayotgan quvvatlarning eskirib qolgani bilan bog‘liq.

Dasturda bu boradagi ishlarimizni tubdan yaxshilash maqsadida, jumladan, Buxoro viloyatida kelgusi besh yilda 655 kilometr elektr uzatish tarmoqlari va 195 ta transformator punktini yangidan qurish, 3 ming 40 kilometr elektr uzatish tarmoqlari va 470 ta transformator punktini rekonstruksiya qilish ko‘zda tutilmoqda.

**Sakkizinchidan, Maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash dasturi tayyorlanmoqda.**

Dasturda maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni yuqori malakali pedagog va mutaxassislar bilan ta’minalash, o’qitish va tarbiyalash jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va uslublarini joriy qilish, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Buxoro viloyatida kelgusi 5 yilda 107 ta maktabgacha ta’lim muassasasi kapital ta’mirlanadi. Ushbu maqsadlar uchun 57 milliard so‘m mablag‘ sarflanadi.

**To‘qqizinchidan, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Viloyatda o’tgan 5 yilda Buxoro shahri va Shofirkon tumanlaridagi dehqon bozorlari, G‘ijduvon tumanidagi «Xo‘jai jahon» savdo kompleksi yangidan barpo etildi. Qorovulbozor tumanidagi dehqon bozori rekonstruksiya qilindi.

Qabul qilinadigan yangi dasturda kelgusi besh yilda Buxoro shahri, Olot, Buxoro, G‘ijduvon, Qorako‘l, Romitan va Jondor tumanlarida bittadan, Kogon shahrida 2 ta dehqon bozorini rekonstruksiya qilish mo‘ljallanmoqda.

**O’ninchidan, Pensionerlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilash dasturini ishlab chiqish ham yakunlanmoqda.**

Tayyorlanayotgan dasturda 2016–2021-yillarda pensioner, nogiron, yolg‘iz qariyalar va aholining kam ta’minlangan qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yor-

dam ko'rsatish tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda. Shu jumladan, ularning turmush darajasi sifatini oshirish, manzilli ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ko'rsatilayotgan moddiy yordam ko'lamini kengaytirish choralar belgilanmoqda.

Buxoro viloyatida nogironlar, keksalar va kam ta'minlangan fuqarolar sog'lig'ini qayta tiklash maqsadida har yili ularning 1 ming 960 nafarini, shuningdek, 350 nafar urush va mehnat fronti faxriylarini turli sanatoriyalarga imtiyozli yo'llanmalar bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Hozirgi paytda Ikkinchiji jahon urushi qatnashchilarini bir yilda bir marta mamlakatimizdagi sanatoriyalarga bepul yo'llanmalar bilan ta'minlanayotgan bo'lsa-da, ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli bu imtiyozdan foydalana olmayapti. Endilikda bunday nuroniylarimizga yo'llanmalarning puli beriladi (hozirgi kunda bu o'rtacha 800 ming so'mni tashkil etmoqda).

Shuningdek, «Nuroniy» jamg'armasi, «Mahalla» jamoat fondi, Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari hamkorligida yolg'iz qariyalar har yili qish mavsumi uchun kiyim-bosh va oziq-ovqat zaxirasi bilan ta'minlandi.

2017–2020-yillarda yurtimizdagi barcha «Muruvvat» va «Saxovat» uylari rekonstruksiya qilinishi va kapital ta'mirlanishi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamonaviy sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilgan.

Tayyorlanayotgan dasturda «Nuroniy» jamg‘armasining maqomi va mavqeyini ko‘tarish, uning villoyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Birinchi navbatda shahar va tumanlarda Jamg‘armaning davlat budjetidan mablag‘ bilan ta’millanadigan bo‘limlari tashkil etilib, shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan ularning moddiy-texnik bazasi yaratib beriladi. Har bitta mahallada raisning nuroniylar masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimini joriy etish belgilanmoqda.

O‘ylaymanki, bu ishlarimiz barchamizni ulg‘aytirib, voyaga yetkazgan, Vatanimizning bugungi ravnaqiga beqiyos hissa qo‘sghan, har qaysi oilaning fayzi, farishtasi bo‘lgan ota-onalarimiz, mo‘tabar bobo va momolarimizga zarur ko‘mak va yordam berish, ular oldidagi qarzimizni ado etishda amaliy bir qadam bo‘ladi.

**Navbatdagi dastur – Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi.**

Xonardonlarimiz ko‘rki va tarovati bo‘lib kelayotgan aziz va mo‘tabar onalarimiz, muhtarama ayollarimizga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularning og‘irini yengil qilish bizning dasturimizda alohida o‘rin egallaydi.

Dasturda ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, shu jumladan ularga xizmat ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnik bazasini va kadrlari tarkibini yanada

mustahkamlash, ularga maxsus va yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha zamonaviy uslublar va uskunalarini joriy qilishni kengaytirish chora-tadbirlari nazarda tutilgan.

Shuningdek, barcha yangi tug'ilgan chaqaloqlar, o'smir qizlar, homilador va tug'ish yoshidagi ayollar uchun to'liq patronaj kuzatuv tizimi joriy etiladi. Buning natijasida onalar va bolalarda kasalliklarni erta aniqlash ko'rsatkichi 70 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Buxoro viloyatida ham kelgusi besh yilda G'ijduvon, Shofirkon, Buxoro, Romitan, Qorovulbozor va Kogon tumanlari tibbiyot birlashmalari tarkibidagi tug'uruq komplekslari va bolalar bo'limlari, Buxoro shahridagi klinik markazini rekonstruksiya qilish va jihozlash rejalashtirilmoqda.

**Yana ikkita muhim ijtimoiy dastur – Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish hamda Aholini dori vositalari bilan ta'minlash darajasini oshirish va dori-darmon narxlari shakllanishini takomillashtirish dasturlari ishlab chiqilmoqda.**

Xabaringiz bor, yaqinda «Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaror qabul qilindi. O'ylaymanki, mazkur Qaror ham mamlakatimizda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, aholi va davolash muassasalarini sifatli va xavfsiz dori-darmon vositalari bilan ta'minlashga, aholi salomatligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu dasturlarga muvofiq, 2016 – 2020-yillarda mamlakatimizda umumiy qiymati 224 million dollarga teng bo'lgan 67 ta investitsiya loyihasi

amalga oshiriladi. Natijada respublikada farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,5 baravar ko‘payadi. Jumladan, 22 ta yo‘nalish bo‘yicha keng turdag'i yangi dori vositalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Yaqinda qabul qilingan 2016 – 2020-yillarda respublika farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish Dasturiga, shuningdek, hududlarni rivojlantirish das-turlariga asosan Buxoro viloyatida dorivor o‘simliklarning sanoat plantatsiyalarini yaratish bo‘yicha 11 ta loyiha va tabiiy, mineral, kimyoviy va biologik xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida dori vositalari va tibbiyot buyumlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 13 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Viloyatda bugungi kunda 4 ta korxonada 20 nomdagi dori-darmon, tibbiy buyumlar va biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa, 2021-yilgacha 20 ta korxonada 70 tadan ortiq nomdagi import o‘rnini bosuvchi dori vositalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Kelgusi yilning o‘zida «Gufik Avitsenna» O‘zbekiston – Hindiston qo‘shma korxonasida 500 million so‘mlik loyiha amalga oshirilib, yiliga 1 million dona tabletka ishlab chiqarishga mo‘ljallangan quvvatlar ishga tushiriladi.

Viloyatdagi shahar va tumanlar tibbiyot birlashmalarida ijtimoiy dorixonalar tashkil qilish ishlari yakunlanadi.

Shu o‘rinda bir fikrni aytib o‘tmoqchi edim. Mana, Buxorodagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan Ibn Sino bobomiz o‘z vaqtida qanchadan qancha dori-

darmonlarni kashf etgan. Shunday buyuk tabibni tarbiyalab voyaga yetkazgan Buxoro xalqi bugun ham mana shu sohalarda boshqalarga ibrat va namuna ko‘rsatsa, ayni muddao bo‘lur edi.

Shu maqsadda bu yerda tegishli vazirlik va idoralar, viloyat hokimligi va respublika «Asaka» bankining ishtiroki va moliyaviy ko‘magi bilan «O‘zfarmsanoat» aksiyadorlik kompaniyasining mintaqaviy filialini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Bu markazga Abu Ali ibn Sino bobomizning nomini bersak, shu taklifga nima deysizlar?

**O‘n to‘rtinchidan, 2017–2021-yillarda respublikada qattiq maishiy chiqindilarni sanitar tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi tayyorlandi.**

Ushbu dasturda kelgusi besh yilda qattiq maishiy chiqindilarni sanitar tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish belgilandi. Jumladan, Buxoro viloyatidagi sanitar-tozalash va obodonchilik tashkilotlari 2017-yilda qo‘srimcha ravishda 20 ta maxsus mashinalar bilan ta’milanadi. Bularning barchasi Buxoro viloyati aholisining hayoti yanada obod, farovon va fayzli bo‘lishiga hissa qo‘sadi.

Hurmatli do‘stlar!

Biz oldimizga qo‘ygan vazifalar g‘oyat ulkan va murakkab bo‘lib, ularni to‘liq va sifatli bajarish uchun mahalliy hokimliklar, hududiy idoralar, tashkilot va korxonalar tomonidan barcha chora-tadbirlarni ko‘rish talab etiladi.

Bu, albatta, barcha darajadagi hokimlar va rahbarlarning shaxsiy mas’uliyati, tashkilotchilik qobi-

liyati, bilimi va malakasi, intiluvchanligi va tashab-buskorligiga bog‘liq.

Ana shularning barchasini inobatga olgan holda, mening saylovoldi dasturimda davlat boshqaruvi tizimini zamon talablari darajasiga ko‘tarish, barcha bo‘g‘indagi rahbar xodimlar faoliyatining samaradorligini, ularning xalq oldidagi javobgarligi va mas’uliyatini oshirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

**Qisqa qilib aytganda, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak,** degan oddiy, lekin g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan prinsipni amalga oshirish uchun biz bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Muhtaram vatandoshlar!

Qadrli do‘sstar!

Biz o‘z oldimizga O‘zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, xalqimiz hayotini yanada farovon qilish vazifasini qo‘ygan ekanmiz, bunday ulug‘ maqsadlarga erishish uchun barcha imkoniyatlarga egamiz. Eng muhimi, 25 yillik mustaqil taraqqiyot tajribasiga, dunyo hamjamiyati bilan samarali hamkorlik aloqalariga egamiz.

Ana shu imkoniyatlarning barchasidan unumli foydalanib, bundan buyon ham yagona xalq, yagona millat bo‘lib, qat’iyat bilan oldinga intilib yashasak, marra albatta bizniki bo‘ladi.

O‘zining necha ming yillik tarixi davomida ko‘p sinov va mashaqqatlarni ko‘rgan, hech qachon irodasi bukilmasdan, doimo hayotga ishonch bilan qaraydigan mehnatkash Buxoro ahli bilan, siz azizlar bilan birga

shunday oliv maqsadga intilib yashashni, xalqimizning ishonchini oqlash va el-yurtimizga sadoqat bilan xizmat qilishni men o'zim uchun katta sharaf deb bilaman.

So'zimni yakunlar ekanman, sizlarga va sizlar orqali butun viloyat xalqiga sihat-salomatlilik, baxt-u saodat, yangi-yangi muvaffaqiyatlar, xonardonlarin-gizga fayz-u baraka tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

**G'ijduvon tumani,  
2016-yil 4-noyabr**

**SAMARQAND – YER YUZINING  
SAYQALI**  
**(SAMARQAND VILOYATI  
SAYLOVCHILAR VAKILLARI BILAN  
UCHRASHUVDAGI NUTQ)**



---

Assalomu alaykum, hurmatli vatandoshlar!  
Muhtaram do'stlar!

Avvalambor, siz, azizlar bilan, sizlarning timsolingizda men uchun behad qadrli bo'lgan Samarqand viloyati ahli bilan uchrashib turganimdan xursandman. Fursatdan foydalanib, barchangizga o'zimning samimiy hurmat va ehtiromimni bildirishga ruxsat bergaysiz.

Hurmatli yurtdoshlar!

Ko'hna Samarqand zamini Ollohning nazari tushgan ilohiy bir yurt sifatida azal-azaldan yetti iqlimda ma'lum-u mashhur bo'lib keladi. Bugun bu qadimiy zamin xalqimizning ulug' farzandi, xalqparvar va tinchlikparvar davlat arbobi, aziz va mehribon Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich tug'ilib o'sgan va mangu orom topgan joy sifatida har birimiz uchun yanada qadrdon va tabarruk maskanga aylandi, desak, ayni haqiqatdir.

Oradan yillar, asrlar o'tadi. Lekin buyuk Yo'l-boshchimizning mustaqil O'zbekiston davlatini barpo etish va uni har tomonlama ravnaq toptirish yo'lidagi beqiyos jasorati va tarixiy xizmatlarini xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Mana, oradan ikki oydan ko'proq vaqt o'tishiga qaramasdan, Yurtboshimiz dafn etilgan tabarruk mas-kandan hali-hanuz ziyoratchilarning qadami uzilgani yo'q. Har kuni mamlakatimiz va xorijiy davlatlardan

ming-minglab odamlar u kishining abadiy oromgohini ziyyarat qilib, o‘z hurmat-ehtiromini bajo keltirish uchun kelayotganlari Islom Abdug‘aniyevichning aziz xotirasi xalqimiz qalbidan naqadar chuqur joy olganini ko‘rsatadi.

Birinchi Prezidentimizning Vatanimiz, el-yurtimiz oldidagi buyuk xizmatlarini inobatga olib, bu ulug‘ zotning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Samarqand shahrida milliy urf-odatlarimizga muvofiq, Islom Karimov sharafiga muazzam ziyyaratgoh barpo etib, shaharning katta maydonlaridan biriga ulug‘ vor haykalini o‘rnatsak, nima deysizlar?

Hozirgi kunda davlat komissiyasi tomonidan Yurtboshimiz xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha xalqimiz, jamoatchiligidan kelayotgan takliflar o‘rganilib, tegishli qaror loyihasi tayyorlanmoqda. Bu qarorda mana shu taklif ham albatta hisobga olinadi deb o‘ylayman.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Bizning ezgu maqsadimiz bo‘lgan zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o‘sishini ta’minlash va shu asosda aholimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashdek strategik vazifalarni amalga oshirishda Yurtboshimizning beباھو g‘oyalari, siyosiy merosi biz uchun hamisha dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Muhtaram Islom Abdug‘aniyevich «**Rahbarning eng asosiy vazifasi – odamlarni rozi qilish**» degan fikrni ko‘p takrorlar edilar. Shaxsan men shunday buyuk insonning safdoshi sifatida u kishi boshlagan

barcha ezgu ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishni, o‘z faoliyatim bilan el-yurtimizni rozi qilishni o‘zimning nafaqat eng muhim vazifam, balki muqaddas insoniy burchim deb bilaman. Va bundan yigirma besh yil oldin xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olingan, dunyoda taraqqiyotning «o‘zbek modeli», «Islam Karimov modeli» deb tan olingan strategik rivojlanish yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish uchun bor bilim va tajribam, kuch-g‘ayratimni safarbar etishga tayyorman.

Aziz do‘stlar!

Shu yil 4-dekabrda bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi mamlakatimiz hayotida qanday muhim, kerak bo‘lsa, hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini, albatta, barchamiz yaxshi tushunamiz. Bu o‘rinda gap faqat saylovda qatnashayotgan to‘rtta siyosiy partianing manfaatlari va nomzodlarning dasturida belgilangan maqsad va vazifalar haqida emas, avvalo, 32 million xalq yashayotgan O‘zbekistondek katta bir mamlakatning bugungi va ertangi taqdiri haqida borayotganini unutmasligimiz zarur.

Shu ma’noda, ertaga saylov uchastkasiga keladigan har bir fuqaro, har bir vatandoshimiz shu masala bo‘yicha o‘z mas’uliyatini chuqr anglab, birinchi navbatda o‘zi va oilasi, farzandlarining hayoti va kelajagi uchun, O‘zbekiston taraqqiyoti uchun ovoz berayotganini har tomonlama tushunib ish tutsa, ayni muddao bo‘lardi.

Bu saylovning yana bir muhim ahamiyati shundaki, uni yuqori darajada, milliy qonunlarimiz va xalqaro andozalarga mos holda, xolisona o‘tkazishimizga qarab, xalqimizning siyosiy va huquqiy saviyasiga,

jamiyatimizning bugungi demokratik taraqqiyotiga baho beriladi.

Bu yilgi saylovoldi uchrashuvlari, e'tibor bergen bo'lsangiz, barcha nomzodlar uchun yangicha shaklda o'tkazilmoqda. Ya'ni, bu uchrashuvlarda imkon qadar ko'proq odamlar ishtirok etishi, nomzodlarning das-turlari bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini erkin, ochiq va oshkora bildirishi uchun ular videokonferensiya shaklida tashkil etilmoqda. Siz, azizlar bilan bugungi ochiq va jonli muloqotimizda ham har bir saylovchi o'zini qiziqtirgan taklif va savollar bilan murojaat qilishi mumkin.

Muhtaram do'stlar!

Bugun Samarqand ahli huzurida – bu ulug' va qut-lug' diyorning haqiqiy vatanparvarlari, yurtparvarlari bo'lgan sizdek yuksak ma'rifatli insonlar huzurida turib, Samarqand haqida, uning xalqi haqida so'z aytish – bu albatta oson ish emas.

Mashhur shoirimiz Erkin Vohidov bir she'rida «Ta'rifing bitmoqqa, xalqim, mingta Firdavsiy kerak», deganlaridek, Samarqandning shon-u shuh-ratini, uning qadimiylari tarixi va betakror madaniyatini tarannum etish uchun odam, albatta, yo zo'r shoir yoki zo'r olim bo'lishi kerak.

Qachonki «Samarqand» degan sehrli va tabarruk so'zni tilga olar ekanman, men, avvalo, Yaratganning inoyati bilan shu zaminda non-tuz nasib etib, sizlar bilan birga uni obod qilish yo'lida mehnat qilgan unutilmas yillarimni eslayman. Xalqimizning, Yurtboshimizning ishonchini oqlash uchun viloyat ahli bilan qancha-qancha sinov va mashaqqatlarni yengib o'tganimizni, bu yo'lida qanday bahs va tortishuvlar, muhokamalar

bo‘lganini, lekin doimo bir-birimizga hurmat va mehr-oqibatimizni saqlab kelganimizni shaxsan men hech qachon unutmayman. Hayotimning eng jo‘shqin, eng mazmunli davri bo‘lgan ana shu paytda bag‘rikeng va olajanob Samarqand ahli meni qanday qo‘llab-quvvatlaganini, menga bamisol parvoz uchun qanot bergenini minnatdorlik bilan doimo yodimda saqlayman.

Haqiqatan ham, yer yuzining sayqali bo‘lmish Samarqand tuprog‘ining har bir zarrasida ulug‘ bir hikmat bor.

Bu go‘zal vohadagi ko‘hna Afrosiyob yodgorliklari, Shohi Zinda ansamblı, Hazrati Xizr masjidi, Hazrati Doniyor maqbarasi, muazzam Registon maydoni singari o‘nlab-yuzlab noyob obidalar bugungi kunda ham butun dunyoni o‘ziga maftun etib kelmoqda.

Qadimda So‘g‘diyona va Maroqand nomi bilan mashhur bo‘lgan davlatlarning shu zaminda barpo etilgani milliy davlatchiligidan tamal toshlari aynan shu yerda qo‘yilganidan dalolat beradi.

Bu haqda gapirganda, Samarqandni o‘zining buyuk saltanatiga poytaxt qilib, uni jahondagi eng qudratli va obod shaharlardan biriga aylantirgan Sohibqiron Amir Temur va u kishining nabirasi Mirzo Ulug‘bek bobolarimizning nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olishimiz tabiiydir.

Bu tabarruk diyor dunyo ilm-fani va madaniyati rivojida beqiyos o‘rin tutadigan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Xo‘ja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abulays Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy kabi ko‘plab aziz-avliyolar, shoir va allomalar uchun

kamolot beshigi bo‘lib xizmat qilgani barchamizga g‘urur bag‘ishlaydi.

Yaqinda azim poytaxtimiz Toshkent shahrida o‘tkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlarining 43-sessiyasida mana shu haqiqat yana bir bor o‘z tasdig‘ini topganiga barchamiz guvoh bo‘ldik.

Samarqand tuprog‘ida voyaga yetgan Mahmudxo‘ja Behbudi, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy biz yig‘ilib turgan mana shu Kattaqo‘rg‘on zaminidan yetishib chiqqan Abdulhamid Majidiy singari o‘nlab ma’rifat fidoyilarining qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlарimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Samarqandning o‘ziga xos ilmiy-ijodiy muhitini shakllantirish va rivojlantirishda unutilmas xizmat qilgan Botir Valixo‘jayev, Nuriddin Shukurov, Mamasasul Boboyev, Ma’ruf Jalil, Barot Boyqobilov, Mashrab Boboyev kabi atoqli olim va adiblarning xotirasi xalqimiz yodida yashab kelmoqda.

Bugungi kunda faol ijod qilayotgan Saydi Umirov, Mamatqul Hazratqulov, Xurshid Davron, Nusrat Rahmat, Farmon Toshev, O‘tkir Rahmatov, Xosiyat Bobomurodova, Azim Suyun, Yo‘ldosh Eshbek kabi taniqli ijodkorlar, Nodir Jonuzoq, Orif To‘xtash, Vohid Luqmon singari iste’dodli yoshlар ham Samarqand farzandlari ekanini alohida ta’kidlash lozim.

Samarqand diyori o‘zbek san’ati va madaniyati rivojiga qanday ulkan hissa qo‘shgani haqida har qancha gapirsak arziydi, albatta. Bu haqda so‘z borganda, Isaxor Oqilov, Shirin Meliyeva, Nasim

Hoshimov, Xolida Xo'jayeva kabi – joylari jannatda bo'lsin – ustozi san'atkorlarimizni, To'ti Yusupova, Avaz Rajabov, Nasiba Abdullayeva, Ra'no Yarasheva, Mardon Mavlonov, Baxtiyor To'rayev, Orolmirzo Safarov, Abdunabi Ibrohimov singari taniqli ijodkorlarimizni eslashimiz tabiiydir.

Modomiki, gap shu haqda borar ekan, men o'zbek madaniyati va san'ati rivojiga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan yana bir fidoyi inson haqida alohida to'xtalib o'tishni o'zimning burchim deb bilaman.

Bu inson O'zbekiston xalq artisti, buyuk san'atkorimiz Bahodir Yo'ldoshevdir. Samarqandning, mana shu qadimiyligi Kattaqo'rg'on zaminining munosib farzandi bo'lgan Bahodir akani sizlarga ta'riflab o'tirishga, o'ylaymanki, hech qanday hojat yo'q.

Shaxsan men o'z kasbiga, san'atga sadoqatni Vatanga sadoqat deb biladigan, har qanday sharoitda ham o'zining hayotiy va ijodiy prinsiplaridan qaytmaydigan bu ajoyib ijodkorni nihoyatda hurmat qilishimni bugun yana bir bor takrorlab aytmoqchiman. Bahodir Tursunovich bilan biz ko'p yillar davomida mamlakatimizda o'tkazib kelinayotgan katta-katta madaniy tadbirlarni – bu Mustaqillik yoki Navro'z bayramlari bo'ladimi, «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali bo'ladimi – shularning barchasini goh talashib-tortishib, goh bahslashib, lekin doimo hamfikr bo'lib o'tkazgan paytlarimizni zavq bilan eslayman. Bugungi kunda ham san'at yo'lida, yosh iste'dodlarni tarbiyalash yo'lida o'zini ayamasdan sidqidildan xizmat qilib kelayotgan Bahodir Yo'ldoshevga hammamiz birgalikda uzoq umr, sihat-salomatlik, yangi ijodiy zafarlar tilasak, ayni muddao bo'lur edi.

Samarqand viloyatida samarali faoliyat olib borayotgan professorlar O'ktamoy Vahobova, Diamat To'xtayev, Rustam Xolmurodov, Lapas Alibekov, Mavlon Jo'raqulov, Temur Shirinov, Amriddin Berdimurodov va boshqalar o'zlarining ilmiy izlanishlari bilan butun mamlakatimizda tanilgan shaxslardir.

O'zining boy bilim va tajribasi, fidokorona mehnati va ibratli faoliyati bilan el-yurtimiz farovonligiga katta hissa qo'shib kelayotgan samarqandlik O'zbekiston Qahramonlari – Do'stmurod Abdullayev, Avaz Hosilov, Avaz Ergashev, shuningdek, mirishkor fermerlar Zaynab Haydarova, Eliboy Taniyev, Toshtemir Hayitov, O'zbekiston xalq o'qituvchisi Dilorom Mamasharipova kabi yurtdoshlarimiz bilan barchamiz faxrlanamiz.

Ayni paytda tabarruk yoshda bo'lishiga qaramasdan, jamiyatimiz hayotida faol qatnashib, yoshlarga namuna bo'lib kelayotgan «Nuroniy» jamg'armasi viloyat bo'limining rahbari Hasan Normurodov, Samarqand davlat universitetining professori, navoiyshunos olim Muslihiddin Muhiddinov, mohir paxtakor Barot Nodirov, fidoyi pedagog Oliya O'roqova va boshqa o'nlab faxriyalarimizning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Muhtaram anjuman qatnashchilari!

Samarqand viloyati o'zining rivojlangan sanoati va qishloq xo'jaligi, tabiiy boyliklari, ulkan sayyohlik salohiyati bilan mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rinn tutadi.

Bu fikrning tasdig‘i sifatida albatta ko‘p-ko‘p misollar keltirish mumkin. Bu haqda gapirganda, avvalo, viloyat iqtisodiyoti 2010-yildan buyon 1,7 barobar o‘sganini ta’kidlash joiz.

Yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi 2011-yilda 18 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yil yakuni bilan bu ko‘rsatkich qariyb 24 foizga yetishi kutilmoqda.

Bugungi kunda jahondagi eng yuksak standartlar asosida jihozlangan Samarqand avtomobil zavodida o‘nlab turdag'i mashinalar ishlab chiqarilmoqda. Shu bilan birga, «British-Amerikan tabakko», «Sam Antep Gilam», «Amin Invest» qo‘shma korxonalar, «Sharq sanoati» xususiy konserni singari yirik ishlab chiqarish quvvatlari viloyat sanoati rivojiga muhim hissa qo‘shmoqda.

Oxirgi besh yilda viloyatda 100 dan ortiq yangi qo‘shma va xorijiy korxonalar tashkil etilib, ayni paytda ularning soni 259 taga yetgani quvonarlidir. Mazkur korxonalarda yiliga 2,5 trillion so‘mlik mahsulot tayyorlanmoqda.

Samarqand viloyatining iqtisodiy rivoji uning eksport salohiyatida ham namoyon bo‘lmoqda. Joriy yilda hududiy eksport miqdori 385 million dollarga yetib, bu ko‘rsatkich 2011-yilga nisbatan 4,3 baravar oshgani ham shundan dalolat beradi.

Bugungi kunda jahon bozorida raqobat tobora kuchayib, mahsulot yoki xizmatning xaridorini topish eng og‘ir va mushkul muammoga aylanib borayotgанини inobatga oladigan bo‘lsak, bunday iqtisodiy o‘sishning biz uchun qanchalik katta ahamiyatga ega ekani yaqqol ayon bo‘ladi.

Azaldan hunarmandlik va ishbilarmonlik fazilatlari bilan dong taratgan samarqandliklar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ham muhim natijalarga erishib kelmoqda. Ayni paytda viloyatda mazkur sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 78 foizdan oshgani va mehnat bilan band aholining 84 foizdan ziyodi shu sohada faoliyat ko'rsatayotgani e'tiborga loyiq, albatta.

Viloyatda qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilish va modernizatsiyalash yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi besh yilda paxta maydonlari 16 ming gektardan ziyod va g'alla maydonlari 6 ming gektarga qisqartirilib, ko'proq daromad beradigan mevasabzavot va poliz ekinlari ekilmoqda. Bu davrda 82 ming hektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi.

Ana shu o'tgan vaqt mobaynida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash darajasi 2 baravar oshib, jumladan, sabzavotning 33 foizi, mevaning – 38 foizi, sutning – 34 foizi, go'shtning – 27 foizi viloyatdagi mahalliy korxonalarda qayta ishlanmoqda.

Viloyatning mirishkor dehqon va fermerlari barcha qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha mo'l hosil yetishtirib, bu yilgi mavsumni ham yuksak mehnat yutuqlari bilan yakunlayotgani barchamizni xursand qiladi.

Fursatdan foydalanib, mamlakatimiz rivoji va el-yurtimiz farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilib kelayotgan Samarqand dehqonlariga, barcha viloyat mehnatkashlariga chuqr minnatdorlik bildirishni o'zimning burchim deb bilaman.

Muhtaram do'stlar!

Mustaqillik yillarda Samarqandning chiroyiga chiroy qo'shish, uning asl tarixiy qiyofasini tiklash, iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, shu zaminda yashayotgan insonlarga har tomonlama munosib sharoit yaratish borasida qanday katta ishlar amalga oshirilayotgani haqida batafsil to'xtalib o'tirishning zarurati yo'q deb o'ylayman. Chunki sizlarning barchangiz bu jarayonlarda faol ishtirok etib kelyapsiz, hammangiz bu ishlardan yaxshi xabardorsiz.

Ayni vaqtida bizning oldimizda erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlab, taraqqiyotimizni yangi bosqichga olib chiqishdek muhim va ulkan vazifa turibdi.

Bugun globallashuv davrida dunyoda kechayotgan keskin va murakkab sharoitni barchamiz ko'rib-bilib turibmiz. Jahonda iqtisodiy inqiroz, qarama-qarshilik va nosog'lom raqobat tobora kuchayib, xomashyo resurslarining narxi pasayib bormoqda.

Biz dunyodagi hozirgi murakkab va tahlikali vaziyatni har tomonlama hisobga olgan va chuqur tahlil qilgan holda, birinchi darajali ahamiyatga ega vazifalarni belgilab olishimiz hamda yaqin va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan harakat strategiyasini ishlab chiqishimiz zarur.

Bizning bu boradagi qarash va yondashuvlarimiz O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining yaqinda bo'lib o'tgan syezdida, mening saylovoldi dasturimda batafsil bayon qilingani sizlarga ma'lum, albatta.

Biz saylovoldi dasturimizda mamlakatimizning barcha hududlari qatori Samarqand viloyatida ham

har bir shahar va tumanni rivojlantirish bo‘yicha aniq rejalarни ishlab chiqqanmiz.

Ruxsatingiz bilan, mana shu masalalarga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Viloyatda kelgusi besh yilda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo‘yicha umumiyligi qiymati 2 trillion 300 milliard so‘mlik 900 dan oshiq loyihami amalga oshirish rejalashtirilgan.

Jumladan, 2017–2021-yillar davomida yengil sanoatda umumiyligi qiymati 240 milliard so‘mlik 105 ta investitsiya loyihasi joriy etiladi. Buning natijasida viloyatda paxta tolasini qayta ishlash darajasini keskin oshirish mo‘ljallanayotganini ta’kidlash lozim.

Misol uchun, 2018–2019-yillarda Samarqand shahrida «Neks tekstil» korxonasi tomonidan 21 milliard so‘mlik sarmoya hisobiga 6 ming tonna ip-kalava ishlab chiqarish tashkil etiladi. Jomboy tumanida 37 million yevro investitsiya kiritish orqali 10 million kvadrat metr tayyor material ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan korxona barpo etiladi.

Hozirgi vaqtida Navoiy, Jizzax va Angren hududlarida tashkil etilgan erkin industrial zonalar samarali faoliyat ko‘rsatayotganidan barchangiz yaxshi xabardorsiz.

Endilikda bu ijobiy tajriba kengaytirilib, Urgut tumanining resurs bazasidan samarali foydalanish, sanoat va eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, investitsiya va ilg‘or texnologiyalarni jalb etish maqsadida «Urgut» erkin industrial zonasi tashkil etiladi.

**Oziq-ovqat sanoatida** kelgusi besh yilda umumiyligi qiymati 425 milliard so‘m bo‘lgan 261 ta loyiha amalga oshiriladi. Natijada mevani qayta ishslash darajasi bugungi kundagi 12,5 foizdan 2021-yilga borib qariyb 36 foizga, sabzavotlarni qayta ishslash esa 22 foizdan 38 foizga yetkaziladi.

**Yengil, charm-poyabzal, farmatsevtika sanoatida** 351 milliard so‘mlik investitsiya hisobidan 303 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Shular qatorida, kimyo, elektr texnika, mashinasozlik va boshqa sohalarda jami 1 trillion 300 milliard so‘mlik investitsiya o‘zlashtirilib, 233 ta ishlab chiqarish obyekti tashkil etiladi.

**2017–2021-yillarda tekstil va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar dasturiga muvofiq viloyatda umumiyligi qiymati 240 milliard so‘mlik 105 ta loyiha ishga tushirilib, minglab yangi ish o‘rnini yaratiladi.**

Xususan, Samarqand shahridagi «Samarqand Yevro Aziya Tekstil» korxonasida kelgusi yilda 25 milliard so‘mlik investitsiya hisobidan yiliga 15 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, «Samarqand Apparel» korxonasiga 3 million dollar investitsiya mablag‘i jalb etilib, 500 ta yangi ish o‘rni yaratiladi va yiliga 3 million dona trikotaj mahsuloti ishlab chiqarishga erishiladi.

**Qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa sohalarda** kelgusi besh yilda viloyatda umumiyligi qiymati 290 milliard so‘mlik ikki yuzdan ortiq loyiha amalga oshiriladi va 5 mingga yaqin yangi ish o‘rni ochiladi. Masalan, Narpay tumanida 2017–2018-yillar

mobaynida «Narpay Iftixor Sanoati» korxonasi tomonidan 55 million dollar investitsiya o‘zlashtirilib, yillik quvvati 540 ming tonna yuqori sifatli sement ishlab chiqarish zavodi ishga tushiriladi.

**Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish** dasturi doirasida viloyatda kelgusi besh yilda 77 ta yangi loyihani ishga tushirish va qariyb 443 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish belgilangan. Bu? o‘z navbatida, viloyatga chetdan olib kelinayotgan 147 million dollarlik mahsulotlarni o‘zimizda ishlab chiqarish imkonini beradi.

Kelgusi besh yilda **hududiy eksport** hajmini kamida 2 barobarga oshirish, yana 150 ga yaqin korxonani jalb etish hisobiga eksport qiluvchi korxonalar sonini 3 barobarga ko‘paytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmoqda.

**Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va modernizatsiyalash bo‘yicha ishlar izchil davom ettiriladi.**

Jumladan, paxta maydonlarini optimallashtirish, sabzavot va bog‘dorchilikni kengaytirish, ko‘p tarmoqli fermerlikni rivojlantirish, irrigatsiya-melioratsiya tizimini yaxshilash, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, issiqxona xo‘jaligi va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqib, amalga oshiramiz.

Butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi tobora dolzarb bo‘lib borayotganini inobatga olib, 2021-yilgacha kartoshka yetishtirishni 1,5 baravar, sabzavotni – 1,7 baravar, meva va uzumni – 2 baravar, go‘sht va sut mahsulotlarini – 1,5 baravar, baliqni 2,5 baravar ko‘paytirish, shuningdek, ularni qayta ishlashni kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz.

## **Yana bir muhim yo‘nalish – Samarqandning turistik salohiyatidan yanada to‘liq foydalanishdir.**

Ma’lumki, hozirgi kunda Samarqand nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda tan olingan sayyohlik markazlaridan biri hisoblanadi. Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan, qadim sivilizatsiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan Samarqand bugungi kunda ham butun dunyo e’tiborini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Bu haqda gapirganda, eng avvalo, har qanday insonni o‘ziga maftun qiladigan, bir ko‘rgan odam, qani endi yana bir bor ko‘rsam, deb orzu qiladigan Sharq gavhari – go‘zal va buyuk Samarqand shahri xayolimizda namoyon bo‘ladi.

Samarqand nafaqat o‘zining betakror me’moriy obidalari, so‘lim tabiat, ayni paytda, bag‘rikeng va mehmondo‘st xalqi, shirin-shakar, sarxil mevalari, eng muhimi, qulay infratuzilma tarmoqlari bilan ham nom qozongan.

Samarqandning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida yaqin besh yilda viloyatda 40 dan ziyod yangi mehmonxona qurish va 12 ta mehmonxonani kengaytirish mo‘ljallanmoqda. Buning natijasida mehmonxonalarlardagi o‘rinlar soni 7 mingtagga yetadi yoki hozirgiga nisbatan 1,5 barobar ko‘payadi.

Samarqanddagagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolarni ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari izchil davom ettiriladi. Qadimda shahar atrofida Amir Temur bobomiz qanday mashhur bog‘lar barpo etganini hammamiz yaxshi bilamiz. Ana shu go‘zal bog‘larni qaytadan tiklab, ularni turistik marshrutlar yo‘nalishiga kiritsak, nima deysizlar?

Shu borada Urgut tumanidagi Taxtaqoracha dovoni va Yuqori chinor, Samarqand tumanidagi Ohalik va Mironko'lda 20 ga yaqin ekoturizm maskani, Samarqand, Toyloq va Jomboy tumanlarida 10 ga yaqin agroturizm obyekti barpo etiladi.

Urgut shahrida xalqimizning qadimiy urf-odat va an'analari, hunarmandchilikning yo'qolib berayotgan turlarini qayta tiklab, xorijiy sayyoohlarga namoyish etishni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Shuningdek, Jomboy tumanidagi «Zarafshon» qo'riqxonasi va Samarqand tumanidagi qayiq haydashga moslashgan kanalni xorijiy sayyoohlar tashrif buyuradigan maskanga aylantirish ko'zda tutilmoqda.

Bu haqda so'z borar ekan, Islom Abdug'aniyevichning tashabbuslari bilan Toshkent – Samarqand yo'nalishidagi 344 kilometr masofani atigi 2 soatda bosib o'tadigan zamonaviy «Talgo» poyezdining qatnovi yo'lga qo'yilgani viloyatda turizmni yanada rivojlanterish uchun katta imkoniyatlar ochib berayotganini alohida ta'kidlash lozim.

**Viloyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanterishni davom ettirish, ulardan keng foydalanishni ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish mo'ljallanmoqda.**

Bu hududda keyingi besh yilda 464 kilometr optik tolali aloqa tarmog'i quriladi. Shuningdek, 29 ta raqamli teleuzatgich o'rnatish natijasida raqamli televideniye bilan qamrab olish darajasi bugungi kundagi 88 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

**Viloyatdagi yana bir muhim vazifa – ayrim tumanlar mahalliy budjetlarini subvensiyaga qaramlikdan chiqarish bilan bog'liq.** Bugungi

kunda viloyatning 12 ta tumani budgetdan beriladigan subvensiya hisobiga qoplanmoqda.

Bunday qaramlikdan qutulishning yo‘li ma’lum – ishlab chiqarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini, xizmat ko‘rsatish sohalarini jadal rivojlantirib, budget daromadlarining asosi hisoblangan soliq tushumlarini ko‘paytirishdan iborat.

Viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar natijasida 2017-yilda Jomboy, Oqdaryo va Urgut tumanlari, 2019-yilda Bulung‘ur va Qo‘srbab tumanlari, 2020-yilga borib Narpay, Nurobod va Toyloq tumanlarini subvensiyaga qaramlikdan to‘liq chiqarish kutilmoqda.

Aziz do’stlar!

**Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash** biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi.

Viloyatda yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish va ularni zamonaviy ish o‘rinlari bilan ta’minlash maqsadida kelgusi besh yilda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun 237 mingta, jumladan, qiz bolalar uchun 120 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Kelgusi yilda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan Samarqand shahrida zamonaviy «Yoshlar markazi» majmuasi foydalanishga topshiriladi va unda o‘ndan ortiq ijodiy to‘garaklar tashkil etiladi.

Yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar ochib berish, ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishslash, bunda jamoat tashkilotlari, avvalo, «Kamolot» yoshlar

ijtimoiy harakatining ishtirokini yanada kengaytirish kabi masalalarga doimiy e'tibor qaratamiz.

Dunyoda, yon-atrofimizda qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora ortib, inson qalbi va ongini egallash, birinchi navbatda, yoshlarning ma'naviy olamini izdan chiqarish, ularni o'z ota-onasiga, el-yurtiga qarshi qo'yishga qaratilgan tahdid va xurujlar kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. Mana shunday murakkab va tahlikali zamonda o'zining kimligini, qanday buyuk zotlarning avlodi, qanday bebahomeros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan yosh avlodgina muqaddas zaminimizni turli balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'lishini hech qachon unutmasligimiz zarur.

Muhtaram yurtdoshlar!

Tan olib aytishimiz kerakki, biz ko'pincha viloyat miqyosidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratib kelimiz. Vaholanki, har bir tuman, shahar va qishloqning o'ziga xos xususiyati, sharoiti va muammosi bor. Bunday muammolar, hech shubhasiz, odamlarning hayotiga salbiy ta'sir qiladi, ularning e'tiroziga sabab bo'ladi. Buni hisobga olmaslik aslo mumkin emas.

Bugungi kunda hududlarni, tuman va shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini bezovta qila-yotgan, qiynayotgan muammolarni bartaraf etish, odamlar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida Hukumatimiz tomonidan 15 ta maqsadli dastur ishlab chiqilmoqda. Ularning aksariyati bugungi kunda tasdiqlanganidan sizlar xabardorsiz deb o'ylayman.

Ruxsatingiz bilan, ana shu dasturlarning asosiy mazmun-mohiyatiga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

**Birinchidan, Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, 2016-yil 5-oktabrdagi Farmon bilan tasdiqlandi.**

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, bu yo'ldagi to'siq-g'ovlarni bartaraf etishga qaratilgan ushbu dastur doirasida Samarqand viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan ularga ajratiladigan kreditlar miqdorini kelgusi besh yilda 2 baravar ko'paytirish ko'zda tutilmoqda. Jumladan, 15 mingga yaqin yangi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektini tashkil etishga har tomonlama ko'mak berib, ularning sonini 30 mingtaga yetkazish choralari ko'rildi.

**Ikkinchidan, 2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihamalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi ishlab chiqilib, 2016-yil 21-oktabrdagi qaror bilan tasdiqlandi.**

Bu dasturda qishloq joylardagi kam ta'minlangan oilalar, avvalo, yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ularning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish, turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Unga ko'ra, 2017-yilda mamlakatimizda qishloq joylarda 15 mingta, jumladan, Samarqand viloyatida 1 ming 314 ta ana shunday uy-joy barpo etish rejalahtirilmoqda.

Ayni vaqtda, shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan yaxshilash, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarimiz davom ettiriladi. Dasturga muvofiq, Samarqand viloyatida 2017-yilda 448 kvartirali 28 ta ko'pqavatli uy, yer maydoni 2 sotix bo'lgan, 2-3 xonadan iborat 470 ta uy, yer maydoni 4 sotix bo'lgan, 4 xonadan iborat 330 ta ikki qavatli uy quriladi.

**Uchinchidan, Hududiy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Afsuski, biz hududlarning ichki yo'llari, jumladan, tumanlar, aholi maskanlari, xo'jaliklarni bog'laydigan yo'llar, shuningdek, qishloqlar, mahallalar ichidan o'tadigan yo'llar tarmog'ini kengaytirish, ularning holatini yaxshilashga ikkinchi darajali ish deb qarashga o'r ganib qolganmiz.

Shuning uchun ham yangi dasturda mamlakatimizdagi barcha bo'g'indagi avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish, ularning mustahkamligini oshirish, ta'mirlash va sifat darajasini saqlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko'zda tutilmoqda.

Shu asosda, Samarqand viloyatida kelgusi besh yilda 428 kilometr avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, 600 kilometr yo'lni joriy ta'mirlash mo'ljallanmoqda.

**To'rtinchidan, Shahar va qishloqlarda transport ta'minotini yanada yaxshilash dasturi tayyorlanmoqda.**

Samarqand viloyatida aholiga transport xizmati ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida keyingi besh yilda 97 ta yangi yo'lovchi transport yo'nalishi tashkil etilib, ularning umumiy soni 386 taga yetkazildi.

Bu ishlarning izchil davomi sifatida viloyatdagi barcha aholi punktlarida transport xizmatlarini yo'lga qo'yish, transport parkini bosqichma-bosqich yangilash nazarda tutilmoqda. Jumladan, yaqin besh yilda yana 280 ta avtobus olib kelib, Samarqand viloyatida marshrutlarga chiqarish, 188 ta zamonaviy avtobekat barpo etish va rekonstruksiya qilish, chekka hududlarda yashovchi aholi uchun 31 ta yangi yo'nalish tashkil qilish va boshqa chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Bu sohadagi yana bir yangilikdan sizlarning xabaringiz bor: temiryo'l vokzalidan Sartepa mas-sivigacha tramvay qatnovi yo'lga qo'yilmoqda.

**Beshinchidan, Qishloq joylarda ichimlik suv ta'mnoti tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiyalash dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Dastur doirasida kelgusi besh yilda viloyatda 87 kilometr magistral va 894 kilometr mahalliy suv tarmog'i, 336 ta suv qudug'i, 272 ta suv minorasi, 6 ta suv hovuzi, 312 ta nasos stansiyasi, 300 dan ortiq suvni zararsizlantirish inshooti quriladi va rekonstruksiya qilinadi. Ushbu tadbirlarga 135 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltiriladi.

Misol uchun, 2018-yilgacha Qo'shrabot tumanida jami 36 million dollar mablag', shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining qariyb 30 million dollar krediti hisobiga tuman markazi va 78 ta qishloqni ichimlik suv bilan ta'minlash loyihasi amalga oshiriladi. Shuningdek; 2020 – 2024-yillarda Xalqaro rivojlanish

agentligi ishtirokida 64 million dollar sarmoya evaziga Kattaqo‘rg‘on shahrining suv ta’minoti tizimi rekonstruksiya qilinadi.

**Oltinchidan, Ko‘mir tannarxini va aholiga xarid qiymatini pasaytirish, shuningdek, qish mavsumida ko‘mir mahsuloti bilan chayqovchilik qilishni va narxlarning oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo‘sishimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.**

Dasturda kuz-qish mavsumida mamlakatimiz tumanlari va qishloq joylaridagi ko‘mirga bo‘lgan talabni qondirish, aholini ko‘mir bilan uzlucksiz ta’minalash, uning tannarxi va iste’molchilarga yetkazib berish xaratjatlarini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

**Yettinchidan, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Bugungi kunda elektr energiyasini ishlab chiqaradigan va yetkazib berayotgan quvvatlarning aksariyat qismi eskirib qolgani va zo‘riqib ishlayotgani sababli hududlarimizda, ayniqsa, qishloq joylarda uzlucksiz elektr energiyasi ta’minoti bilan bog‘liq jiddiy muammolar borligi barchamizga ayon.

Dasturda past kuchlanishli elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, uskunalardan foydalanish muddatlarini uzaytirish, elektr uzatish tarmoqlarining quvvatini oshirish singari zarur choralar belgilangan.

Kelgusi besh yilda viloyat elektr energiyasi tarmoqlarining 650 kilometrini kapital va 2 ming 110 kilometrini joriy ta’minalash rejalashtirilayotgani bu ishlarning ko‘lamidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 1-martdagi «Muqobil energiya manbalarini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan Pastdarg‘om tumanida 100 megavatt quvvatli quyosh fotoelektrik stansiyasini qurish boshlangan bo‘lib, uning ishga tushirilishi viloyatda energiya ta’minotini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Sakkizinchidan, Maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya va modernizatsiyalash dasturi tayyorlanmoqda.**

Ushbu dasturga ko‘ra, Samarqand viloyatida kelgusi besh yilda 800 o‘rinli 16 ta yangi bolalar bog‘chasi quriladi. 4250 o‘rinli 45 ta muassasa rekonstruksiya qilinadi va kapital ta’mirlanadi.

**To‘qqizinchidan, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.**

Dasturga ko‘ra, viloyat aholisiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish maqsadida kelgusi besh yilda qariyb 20 milliard so‘mlik investitsiyalar hisobiga 9 ta dehqon bozori rekonstruksiya qilish mo‘ljallanmoqda.

Xususan, 2017-yilda Kattaqo‘rg‘on dehqon bozorida 2 milliard so‘mlik rekonstruksiya ishlari amalga oshirilib, bu yerda 1 ming 80 o‘rinli 9 ta savdo paviloni barpo etiladi. Bozor hududida zamonaviy infrastruktura yaratiladi.

**O‘ninchidan, Pensionerlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilash dasturini ishlab chiqish yakunlanmoqda.**

Bugungi yorug‘ kunlarga yetib kelishimizda yoshi ulug‘ otaxon va onaxonlarimiz, nuroniyalarimizning xizmatlari juda katta va biz ularning oldida doimo qarzdormiz. Tayyorlanayotgan dasturda ana shu qarzni imkon qadar uzish maqsadida pensioner, nogiron,

yolg'iz qariyalar va aholining kam ta'minlangan qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Samarqand viloyatida ham nogironlar, keksalar va kam ta'minlangan fuqarolar sog'lig'ini qayta tiklash maqsadida har yili ularning 3 ming 500 nafarini, shuningdek, 2 ming nafardan ortiq urush va mehnat fronti faxriylarini turli sanatoriylarga imtiyozli yo'llammalar bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Hozirgi paytda Ikkinchiji jahon urushi qatnashchilari bir yilda bir marta mamlakatimizdagi sanatoriylarga bepul yo'llammalar bilan ta'minlanmoqda. Endilikda salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli bu imtiyozdan foydalana olmayotgan keksalarimizga yo'llammalarning puli beriladi. Bugungi kunda sanatoriyo'llanmasining o'rtacha narxi 800 ming so'mni tashkil etmoqda. Demak, ana shu mablag' sanatoriylarga borib davolanish imkoniyatiga ega bo'limgan keksalarimizga beriladi.

Shuningdek, «Nuroni» jamg'armasi, «Mahalla» jamoat fondi, Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yolg'iz qariyalarni har yili qish mavsumi uchun kiyim-bosh va oziq-ovqat zaxirasi bilan ta'minlash doimiy e'tiborimizda bo'ladi.

2017–2020-yillarda yurtimizdagi barcha «Muruvvat» va «Saxovat» uylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlab, zamonaviy sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan.

Tayyorlanayotgan dasturga ko'ra, «Nuroni» jamg'armasining davlat budgetidan mablag' bilan ta'minlanadigan shahar va tuman bo'limlari tashkil etilib, mahalliy hokimliklar tomonidan ularning

moddiy-texnik bazasi yaratib beriladi. Har bitta mahallada raisning nuroniylar masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimini joriy etish belgilanmoqda.

**Navbatdagি dastur – Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi.**

Muhtarama onalarimiz, munis ayollarimiz – bizni dunyoga keltirgan, oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazgan, xonadonlarimiz ko'rki, tarovati bo'lib kelayotgan aziz va mehribon zotlardir. Ularga har qancha e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatsak, e'zozlab boshimizga ko'tarsak, shuncha kam, albatta.

Ayni shu maqsadga qaratilgan dasturda kelgusi ikki yilda ayollar va bolalarga maxsus va yuqori texnologiyalar asosida tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash, jumladan, ularga xizmat ko'rsatadigan davolash-profilaktika tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Xususan, kelgusi besh yilda Samarqand viloyatining Bulung'ur, Oqdaryo va Kattaqo'rg'on tumanlari tibbiyot birlashmalarining tug'uruqxona bo'limlari hamda Samarqand shahridagi uchta tug'uruqxona kompleksi rekonstruksiya qilinadi.

**Yana ikkita muhim ijtimoiy dastur – Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish hamda Aholini dori vositalari bilan ta'minlash darajasini oshirish va dori-darmon narxlari shakllanishini takomillashtirish dasturlari ishlab chiqildi.**

Xabaringiz bor, yaqinda «Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi

qaror qabul qilindi. Mazkur qaror mamlakatimizda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, aholi va davolash muassasalarini sifatli va xavfsiz dori-darmon vositalari bilan ta'minlashga, aholi salomatligini yanada mustahkamlashga qaratilgani bilan e'tiborlidir.

Viloyatda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish bo'yicha 24 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilib, 22 ta yangi loyiha ishga tushiriladi. Natijada yoshlar uchun 500 ga yaqin yangi ish o'rni yaratiladi. Jumladan, Pastdarg'om tumanida «Pastdarg'om Farm» korxonasi tomonidan yiliga 50 million dona dori vositalari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lган 3 milliard so'mlik loyiha hayotga joriy etiladi.

**2017–2021-yillarda respublikada qattiq maishiy chiqindilarni sanitariya yo'li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi tayyorlangani ham muhim ahamiyatga ega.**

Ushbu dasturga ko'ra, Samarqand viloyatida kelgusi besh yilda jami 7 milliard so'mdan ziyod investitsiya mablag'lari hisobidan 14 ta chiqindi toplash shoxobchasi, shuningdek, maxsus transport vositalariga xizmat ko'rsatuvchi 13 ta shoxobcha quriladi. Albatta, bu ishlarning barchasi viloyat aholisining turmushi yanada obod va farovon bo'lishiga xizmat qiladi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashni xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi faoliyatimizning asosiy tamoyili va o'zak g'oyasi deb bilamiz.

Mustaqillik yillarida biz erishgan eng katta va bebaho boylik – ko'pmillatli xalqimizning har qanday

qiyingchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, uning zamonaqiy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligining yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga daxldorlik tuyg'usi, jamiyatimizdagi o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir.

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kelayotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo'lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlashni biz xavfsizlik va barqarorlikni, xalqimizning osoyishta hayotini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolati deb bilamiz va bu yo'lida barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiramiz.

Takror aytaman – biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga tahdid solishga urinadigan yovuz kuchlarning har qanday harakatlariga keskin zarba berishga qodirmiz.

**Tashqi siyosat** sohasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to'liq amal qilamiz.

Bu boradagi siyosatimizning asosiy ma'no-mazmu-ni – tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O'zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlak-

katimiz hududidan tashqarida bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Hammamiz yaxshi tushunamiz, Vatanimiz taraqqiyotining hozirgi o‘ta mas’uliyatli davrida biz o‘z oldimizga qo‘ygan vazifalar juda murakkab bo‘lib, ularni to‘liq va sifatli amalga oshirish uchun barchamiz birgalikda, bahamjihat harakat qilishimiz zarur.

Biz bu borada, avvalo, ko‘pni ko‘rgan xalqimizga, jumladan, mening hayotimda unutilmas iz qoldirgan, mard va oljanob, mehnatkash Samarqand ahliga, siz, azizlarga, bizga xayrixoh va tarafdror bo‘lgan barcha yurtdoshlarimizga tayanamiz.

Men butun xalqimiz qatorida Samarqand ahlining tinch, erkin va farovon hayotini ta’minlash, uning ezgu orzu-niyatlarini amalga oshirish yo‘lida butun borlig‘imni bag‘ishlab xizmat qilishni, sizlarning ishonchingizni oqlashni o‘zim uchun eng yuksak sharaf deb bilaman.

So‘zimning oxirida sizlarga va sizlar orqali butun Samarqand xalqiga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonardonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

Kattaqo‘rg‘on shahri,  
2016-yil 8-noyabr

**YURAGIMGA, QALBIMGA YAQIN  
INSONLAR**

**(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
SAYLOVCHILAR VAKILLARI BILAN  
UCHRASHUVDAGI  
NUTQ)**

1920-1921  
1921-1922  
1922-1923  
1923-1924  
1924-1925  
1925-1926  
1926-1927  
1927-1928  
1928-1929  
1929-1930  
1930-1931  
1931-1932  
1932-1933  
1933-1934  
1934-1935  
1935-1936  
1936-1937  
1937-1938  
1938-1939  
1939-1940  
1940-1941  
1941-1942  
1942-1943  
1943-1944  
1944-1945  
1945-1946  
1946-1947  
1947-1948  
1948-1949  
1949-1950  
1950-1951  
1951-1952  
1952-1953  
1953-1954  
1954-1955  
1955-1956  
1956-1957  
1957-1958  
1958-1959  
1959-1960  
1960-1961  
1961-1962  
1962-1963  
1963-1964  
1964-1965  
1965-1966  
1966-1967  
1967-1968  
1968-1969  
1969-1970  
1970-1971  
1971-1972  
1972-1973  
1973-1974  
1974-1975  
1975-1976  
1976-1977  
1977-1978  
1978-1979  
1979-1980  
1980-1981  
1981-1982  
1982-1983  
1983-1984  
1984-1985  
1985-1986  
1986-1987  
1987-1988  
1988-1989  
1989-1990  
1990-1991  
1991-1992  
1992-1993  
1993-1994  
1994-1995  
1995-1996  
1996-1997  
1997-1998  
1998-1999  
1999-2000  
2000-2001  
2001-2002  
2002-2003  
2003-2004  
2004-2005  
2005-2006  
2006-2007  
2007-2008  
2008-2009  
2009-2010  
2010-2011  
2011-2012  
2012-2013  
2013-2014  
2014-2015  
2015-2016  
2016-2017  
2017-2018  
2018-2019  
2019-2020  
2020-2021  
2021-2022  
2022-2023  
2023-2024  
2024-2025  
2025-2026  
2026-2027  
2027-2028  
2028-2029  
2029-2030  
2030-2031  
2031-2032  
2032-2033  
2033-2034  
2034-2035  
2035-2036  
2036-2037  
2037-2038  
2038-2039  
2039-2040  
2040-2041  
2041-2042  
2042-2043  
2043-2044  
2044-2045  
2045-2046  
2046-2047  
2047-2048  
2048-2049  
2049-2050  
2050-2051  
2051-2052  
2052-2053  
2053-2054  
2054-2055  
2055-2056  
2056-2057  
2057-2058  
2058-2059  
2059-2060  
2060-2061  
2061-2062  
2062-2063  
2063-2064  
2064-2065  
2065-2066  
2066-2067  
2067-2068  
2068-2069  
2069-2070  
2070-2071  
2071-2072  
2072-2073  
2073-2074  
2074-2075  
2075-2076  
2076-2077  
2077-2078  
2078-2079  
2079-2080  
2080-2081  
2081-2082  
2082-2083  
2083-2084  
2084-2085  
2085-2086  
2086-2087  
2087-2088  
2088-2089  
2089-2090  
2090-2091  
2091-2092  
2092-2093  
2093-2094  
2094-2095  
2095-2096  
2096-2097  
2097-2098  
2098-2099  
2099-20100  
20100-20101  
20101-20102  
20102-20103  
20103-20104  
20104-20105  
20105-20106  
20106-20107  
20107-20108  
20108-20109  
20109-20110  
20110-20111  
20111-20112  
20112-20113  
20113-20114  
20114-20115  
20115-20116  
20116-20117  
20117-20118  
20118-20119  
20119-20120  
20120-20121  
20121-20122  
20122-20123  
20123-20124  
20124-20125  
20125-20126  
20126-20127  
20127-20128  
20128-20129  
20129-20130  
20130-20131  
20131-20132  
20132-20133  
20133-20134  
20134-20135  
20135-20136  
20136-20137  
20137-20138  
20138-20139  
20139-20140  
20140-20141  
20141-20142  
20142-20143  
20143-20144  
20144-20145  
20145-20146  
20146-20147  
20147-20148  
20148-20149  
20149-20150  
20150-20151  
20151-20152  
20152-20153  
20153-20154  
20154-20155  
20155-20156  
20156-20157  
20157-20158  
20158-20159  
20159-20160  
20160-20161  
20161-20162  
20162-20163  
20163-20164  
20164-20165  
20165-20166  
20166-20167  
20167-20168  
20168-20169  
20169-20170  
20170-20171  
20171-20172  
20172-20173  
20173-20174  
20174-20175  
20175-20176  
20176-20177  
20177-20178  
20178-20179  
20179-20180  
20180-20181  
20181-20182  
20182-20183  
20183-20184  
20184-20185  
20185-20186  
20186-20187  
20187-20188  
20188-20189  
20189-20190  
20190-20191  
20191-20192  
20192-20193  
20193-20194  
20194-20195  
20195-20196  
20196-20197  
20197-20198  
20198-20199  
20199-20200  
20200-20201  
20201-20202  
20202-20203  
20203-20204  
20204-20205  
20205-20206  
20206-20207  
20207-20208  
20208-20209  
20209-20210  
20210-20211  
20211-20212  
20212-20213  
20213-20214  
20214-20215  
20215-20216  
20216-20217  
20217-20218  
20218-20219  
20219-20220  
20220-20221  
20221-20222  
20222-20223  
20223-20224  
20224-20225  
20225-20226  
20226-20227  
20227-20228  
20228-20229  
20229-20230  
20230-20231  
20231-20232  
20232-20233  
20233-20234  
20234-20235  
20235-20236  
20236-20237  
20237-20238  
20238-20239  
20239-20240  
20240-20241  
20241-20242  
20242-20243  
20243-20244  
20244-20245  
20245-20246  
20246-20247  
20247-20248  
20248-20249  
20249-20250  
20250-20251  
20251-20252  
20252-20253  
20253-20254  
20254-20255  
20255-20256  
20256-20257  
20257-20258  
20258-20259  
20259-20260  
20260-20261  
20261-20262  
20262-20263  
20263-20264  
20264-20265  
20265-20266  
20266-20267  
20267-20268  
20268-20269  
20269-20270  
20270-20271  
20271-20272  
20272-20273  
20273-20274  
20274-20275  
20275-20276  
20276-20277  
20277-20278  
20278-20279  
20279-20280  
20280-20281  
20281-20282  
20282-20283  
20283-20284  
20284-20285  
20285-20286  
20286-20287  
20287-20288  
20288-20289  
20289-20290  
20290-20291  
20291-20292  
20292-20293  
20293-20294  
20294-20295  
20295-20296  
20296-20297  
20297-20298  
20298-20299  
20299-202100  
202100-202101  
202101-202102  
202102-202103  
202103-202104  
202104-202105  
202105-202106  
202106-202107  
202107-202108  
202108-202109  
202109-202110  
202110-202111  
202111-202112  
202112-202113  
202113-202114  
202114-202115  
202115-202116  
202116-202117  
202117-202118  
202118-202119  
202119-202120  
202120-202121  
202121-202122  
202122-202123  
202123-202124  
202124-202125  
202125-202126  
202126-202127  
202127-202128  
202128-202129  
202129-202130  
202130-202131  
202131-202132  
202132-202133  
202133-202134  
202134-202135  
202135-202136  
202136-202137  
202137-202138  
202138-202139  
202139-202140  
202140-202141  
202141-202142  
202142-202143  
202143-202144  
202144-202145  
202145-202146  
202146-202147  
202147-202148  
202148-202149  
202149-202150  
202150-202151  
202151-202152  
202152-202153  
202153-202154  
202154-202155  
202155-202156  
202156-202157  
202157-202158  
202158-202159  
202159-202160  
202160-202161  
202161-202162  
202162-202163  
202163-202164  
202164-202165  
202165-202166  
202166-202167  
202167-202168  
202168-202169  
202169-202170  
202170-202171  
202171-202172  
202172-202173  
202173-202174  
202174-202175  
202175-202176  
202176-202177  
202177-202178  
202178-202179  
202179-202180  
202180-202181  
202181-202182  
202182-202183  
202183-202184  
202184-202185  
202185-202186  
202186-202187  
202187-202188  
202188-202189  
202189-202190  
202190-202191  
202191-202192  
202192-202193  
202193-202194  
202194-202195  
202195-202196  
202196-202197  
202197-202198  
202198-202199  
202199-202200  
202200-202201  
202201-202202  
202202-202203  
202203-202204  
202204-202205  
202205-202206  
202206-202207  
202207-202208  
202208-202209  
202209-202210  
202210-202211  
202211-202212  
202212-202213  
202213-202214  
202214-202215  
202215-202216  
202216-202217  
202217-202218  
202218-202219  
202219-202220  
202220-202221  
202221-202222  
202222-202223  
202223-202224  
202224-202225  
202225-202226  
202226-202227  
202227-202228  
202228-202229  
202229-202230  
202230-202231  
202231-202232  
202232-202233  
202233-202234  
202234-202235  
202235-202236  
202236-202237  
202237-202238  
202238-202239  
202239-202240  
202240-202241  
202241-202242  
202242-202243  
202243-202244  
202244-202245  
202245-202246  
202246-202247  
202247-202248  
202248-202249  
202249-202250  
202250-202251  
202251-202252  
202252-202253  
202253-202254  
202254-202255  
202255-202256  
202256-202257  
202257-202258  
202258-202259  
202259-202260  
202260-202261  
202261-202262  
202262-202263  
202263-202264  
202264-202265  
202265-202266  
202266-202267  
202267-202268  
202268-202269  
202269-202270  
202270-202271  
202271-202272  
202272-202273  
202273-202274  
202274-202275  
202275-202276  
202276-202277  
202277-202278  
202278-202279  
202279-202280  
202280-202281  
202281-202282  
202282-202283  
202283-202284  
202284-202285  
202285-202286  
202286-202287  
202287-202288  
202288-202289  
202289-202290  
202290-202291  
202291-202292  
202292-202293  
202293-202294  
202294-202295  
202295-202296  
202296-202297  
202297-202298  
202298-202299  
202299-202300  
202300-202301  
202301-202302  
202302-202303  
202303-202304  
202304-202305  
202305-202306  
202306-202307  
202307-202308  
202308-202309  
202309-202310  
202310-202311  
202311-202312  
202312-202313  
202313-202314  
202314-202315  
202315-202316  
202316-202317  
202317-202318  
202318-202319  
202319-202320  
202320-202321  
202321-202322  
202322-202323  
202323-202324  
202324-202325  
202325-202326  
202326-202327  
202327-202328  
202328-202329  
202329-202330  
202330-202331  
202331-202332  
202332-202333  
202333-202334  
202334-202335  
202335-202336  
202336-202337  
202337-202338  
202338-202339  
202339-202340  
202340-202341  
202341-202342  
202342-202343  
202343-202344  
202344-202345  
202345-202346  
202346-202347  
202347-202348  
202348-202349  
202349-202350  
202350-202351  
202351-202352  
202352-202353  
202353-202354  
202354-202355  
202355-202356  
202356-202357  
202357-202358  
202358-202359  
202359-202360  
202360-202361  
202361-202362  
202362-202363  
202363-202364  
202364-202365  
202365-202366  
202366-202367  
202367-202368  
202368-202369  
202369-202370  
202370-202371  
202371-202372  
202372-202373  
202373-202374  
202374-202375  
202375-202376  
202376-202377  
202377-202378  
202378-202379  
202379-202380  
202380-202381  
202381-202382  
202382-202383  
202383-202384  
202384-202385  
202385-202386  
202386-202387  
202387-202388  
202388-202389  
202389-202390  
202390-202391  
202391-202392  
202392-202393  
202393-202394  
202394-202395  
202395-202396  
202396-202397  
202397-202398  
202398-202399  
202399-202400  
202400-202401  
202401-202402  
202402-202403  
202403-202404  
202404-202405  
202405-202406  
202406-202407  
202407-202408  
202408-202409  
202409-202410  
202410-202411  
202411-202412  
202412-202413  
202413-202414  
202414-202415  
202415-202416  
202416-202417  
202417-202418  
202418-202419  
202419-202420  
202420-202421  
202421-202422  
202422-202423  
202423-202424  
202424-202425  
202425-202426  
202426-202427  
202427-202428  
202428-202429  
202429-202430  
202430-202431  
202431-202432  
202432-202433  
202433-202434  
202434-202435  
202435-202436  
202436-202437  
202437-202438  
202438-202439  
202439-202440  
202440-202441  
202441-202442  
202442-202443  
202443-202444  
202444-202445  
202445-202446  
202446-202447  
202447-202448  
202448-202449  
202449-202450  
202450-202451  
202451-202452  
202452-202453  
202453-202454  
202454-202455  
202455-202456  
202456-202457  
202457-202458  
202458-202459  
202459-202460  
202460-202461  
202461-202462  
202462-202463  
202463-202464  
202464-202465  
202465-202466  
202466-202467  
202467-202468  
202468-202469  
202469-202470  
202470-202471  
202471-202472  
202472-202473  
202473-202474  
202474-202475  
202475-202476  
202476-202477  
202477-202478  
202478-202479  
202479-202480  
202480-202481  
202481-202482  
202482-202483  
202483-202484  
202484-202485  
202485-202486  
202486-202487  
202487-202488  
202488-202489  
202489-202490  
202490-202491  
202491-202492  
202492-202493  
202493-202494  
202494-202495  
202495-202496  
202496-202497  
202497-202498  
202498-202499  
202499-202500  
202500-202501  
202501-202502  
202502-202503  
202503-202504  
202504-202505  
202505-202506  
202506-202507  
202507-202508  
202508-202509  
202509-202510  
202510-202511  
202511-202512  
202512-202513  
202513-202514  
202514-202515  
202515-202516  
202516-202517  
202517-202518  
202518-202519  
202519-202520  
202520-202521  
202521-202522  
202522-202523  
202523-202524  
202524-202525  
202525-202526  
202526-202527  
202527-202528  
202528-202529  
202529-202530  
202530-202531  
202531-202532  
202532-202533  
202533-202534  
202534-202535  
202535-202536  
202536-202537  
202537-202538  
202538-202539  
202539-202540  
202540-202541  
202541-202542  
202542-202543  
202543-202544  
202544-202545  
202545-202546  
202546-202547  
202547-202548  
202548-202549  
202549-202550  
202550-202551  
202551-202552  
202552-202553  
202553-202554  
202554-202555  
202555-202556  
202556-202557  
202557-202558  
202558-202559  
202559-202560  
202560-202561  
202561-202562  
202562-202563  
202563-202564  
202564-202565  
202565-202566  
202566-202567  
202567-202568  
202568-202569  
202569-202570  
202570-202571  
202571-202572  
202572-202573  
202573-202574  
202574-202575  
202575-202576  
202576-202577  
202577-202578  
202578-202579  
202579-202580  
202580-202581  
202581-202582  
202582-202583  
202583-202584  
202584-202585  
202585-202586  
202586-202587  
202587-202588  
202588-202589  
202589-202590  
202590-202591  
202591-202592  
202592-202593  
202593-202594  
202594-202595  
202595-202596  
202596-202597  
202597-202598  
202598-202599  
202599-202600  
202600-202601  
202601-202602  
202602-202603  
202603-202604  
202604-202605  
202605-202606  
202606-202607  
202607-202608  
202608-202609  
202609-202610  
202610-202611  
202611-202612  
202612-202613  
202613-202614  
202614-202615  
202615-202616  
202616-202617  
202617-202618  
20261

---

Assalomu alaykum, qadrli yurtdoshlar!

Muhtaram do'stlar!

Bugun mana shu bepoyon, saxovatli qoraqalpoq zaminida siz, azizlar bilan uchrashib, hammangizni sog'-salomat, yaxshi kayfiyatda ko'rib turganimdan g'oyat xursandman.

So'zimning avvalida barchangizga, sizlar orqali butun Qoraqalpog'iston ahliga o'zimning chuqur hurmat-ehtiromimni va ezgu tilaklarimni bildirishga ruxsat etgaysiz.

Mana, hozirgina sizlar bilan hammamiz uchun aziz va qadrli bo'lgan Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimovni eslab, u kishining so'nmas xotirasiga hurmat bajo keltirdik. Buyuk Yurtboshimizning xalqimiz, Vatanimiz ravnaqi yo'lidagi unutilmas tarixiy xizmatlarini har birimiz vaqt o'tgan sari tobora chuqur his etmoqdamiz. Ayni paytda bu ulug' zot asos solgan mustaqil O'zbekiston davlatini yanada mustahkamlash, mamlakatimizni dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga olib chiqish, xalqimiz uchun barcha sohalarda munosib hayot sharoitini yaratib berish borasidagi vazifalar, shu yo'ldagi o'zimizning burchimiz va mas'uliyatimiz haqida shu kunlarda hammamiz o'ylashimiz, albatta, tabiiydir.

Islom aka yurtimizning barcha hudud va mintaqalari qatori Qoraqalpog'istonga, qoraqalpoq xalqiga ham

buyuk bir hurmat va mehr-muhabbat bilan qarar edilar. U kishining «Men o‘zimni nafaqat o‘zbek xalqining, balki qoraqalpoq xalqining ham farzandi deb bilaman» degan, chin yurakdan aytgan so‘zlarini hammamiz yaxshi eslaymiz. Va aziz Yurtboshimizdan ibrat olib, Vatanimizdagi ming-minglab insonlar bu samimiy so‘zlarni o‘zining dil amri, hayotiy e’tiqodi deb hisoblar edilar.

Bugun siz, qadrdonlarim huzurida, o‘z tarixida ko‘p-ko‘p og‘ir sinovlarni ko‘rgan, mehnatkash va bag‘rikeng Qoraqalpog‘iston vakillari qarshisida turib, qalbimdan chuqur joy olgan shu fikrni men ham katta hurmat, katta g‘urur va iftixon bilan takrorlamoqchiman: «Men nafaqat o‘zbek xalqining, balki qoraqalpoq xalqining ham farzandiman!».

Va inshoollo, Xudo taolo menga qancha umr bergen bo‘lsa, qayerda bo‘lmayin, qaysi vazifada ishlamayin, mana shu so‘zlarimga doimo sodiq bo‘lib qolishga, qoraqalpoq eliga bo‘lgan cheksiz hurmat va ehtiromimni amaliy ishlar bilan isbotlashga harakat qilaman, deb barchangizni ishontiraman.

Aziz do‘sstar!

Men muhtaram Islom Abdug‘aniyevichga safdosh bo‘lib, chorak asrdan ko‘proq vaqt shu buyuk inson bilan birga ishlaganimdan cheksiz faxrlanaman. U kishi boshlagan barcha-barcha ezgu ishlarni og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettirishni o‘zimning muqaddas burchim deb bilaman. Shu yil 4-dekabrda bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashish uchun men aynan ana shu g‘oyani o‘z saylovoldi dasturim uchun bosh maqsad qilib belgilab olganman.

Hammamiz yaxshi anglab turibmizki, bu saylov barchamiz uchun g‘oyat muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi siyosiy jarayon, oldimizda turgan yana bir ulkan siyosiy sinovdir.

Ushbu saylovlar orqali avvalo xalqimiz o‘zining ertangi kunini, davlatimizning kelgusi rivojlanish yo‘lini yana bir bor aniqlab, tasdiqlab oladi. Va shu asosda siyosiy saviyasi, huquqiy madaniyatini, faol grajdaniqlik pozitsiyasini amalda namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bu siyosiy tadbirning yana bir muhim tomoni shundaki, saylovni qanday o‘tkazishimizga qarab, jahon hamjamiyati bizga baho beradi, shu jarayon orqali yurtimizni yanada yaxshiroq taniydi. Bizning imkoniyatlarimizni yaqindan bilib, xalqimizning demokratik taraqqiyot,adolat va qonun ustuvorligiga, ochiqlik, tenglik prinsiplariga sadoqatini, dunyo ahli bilan hamkorlik yo‘lidagi intilishlarini ko‘rib, hech shubhasiz, mamlakatimiz bilan o‘zaro manfaatli aloqalarini kuchaytirishga bo‘lgan qiziqishi yanada ortadi.

Shu ma’noda, bo‘lg‘usi saylovlarni Konstitutsiamiz va milliy qonunchilik normalariga, xalqaro andozalarga to‘liq rioya qilgan holda o‘tkazishimiz qanday katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligimizni istardim.

Kimki saylov kampaniyasini televiedeniye, Internet va ommaviy axborot vositalari orqali kuzatib bora-yotgan bo‘lsa, Prezidentlik lavozimiga nomzodlarning joylarda saylovchilar vakillari bilan uchrashuvlari videokonferensiya shaklida olib borilayotgанини ko‘rishi mumkin. Xalqimizning ongi va tafakkuri,

dunyoqarashi tobora o'sib borayotgan hozirgi kunda bunday ochiq va jonli muloqot ko'pchilik uchun ayni muddao ekanini bu uchrashuvlar yaqqol ko'rsatmoqda.

Bo'lib o'tayotgan suhbatlarda odamlar, saylov-chilarimiz nafaqat o'zлari yashayotgan shahar va qishloq, balki butun O'zbekiston hayoti va kelajagi bilan bog'liq g'oyat muhim masalalarni o'rtaga qo'yayotgani, ularning daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotgani barchamizni quvontiradi.

Ta'kidlash joizki, saylov oldidan biz – bu yuksak lavozimga nomzodlar nainki o'z saylovoldi dasturlarimizni sinovdan o'tkazyapmiz, ayni vaqtida o'zimiz ham katta bir imtihondan, siyosat va demokratiyaning haqiqiy maktabidan o'tmoqdamiz. Siyosiy-ijtimoiy hayotimizning doimo oldingi saflarida bo'lib kelayotgan qoraqalpoq xalqi bu haqiqatni albatta yaxshi tushunadi deb ishonaman.

Muhtaram anjuman qatnashchilar!

Bugun uchrashuvimizda odat bo'lib qolgan an'anaga ko'ra, men avvalo qoraqalpoq xalqining betakror tabiatni, qadimiy tarixi va boy madaniyati haqida, bu elga xos go'zal insoniy fazilatlar haqida fikr yuritishim kerak edi. Mening ma'ruzamda shu masala atroficha yoritilgan ham. Lekin sizlarning har biringiz bu ma'lumotlarni menga nisbatan har tomonlama chuqurroq va kengroq bilishingizni hisobga olgan holda, ruxsatingiz bilan, avvalo, men Qoraqalpog'istonni birinchi marta qanday taniganimni, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos bu ajoyib diyorni o'zim uchun ilk bor qanday kashf qilganimni qisqacha aytib o'tmoqchiman.

Mening Qoraqalpog‘iston bilan yaqindan tanishuvim, aniqroq aytadigan bo‘lsam, qoraqalpoq zaminiga mehr qo‘yib, bir umr unga maftun bo‘lib qolishim studentlik davrimdan boshlangan edi.

Xabaringiz bo‘lsa, men 1976–1981-yillari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida tahsil olganman. Kursdoshlarim orasida, umuman, institutimizda Qoraqalpog‘istondan kelib o‘qiyotgan yigit-qizlar ko‘p edi. Sodda, oqko‘ngil, ilmga, kasb-hunarga astoydil intiladigan bu yoshlар bilan barchamiz qalin do‘st, yaqin o‘rtoq bo‘lib ketgan edik.

Shu o‘rinda ko‘nglimdagи bir fikrni aytib o‘tsam: yoshlikda, talabalik davrida – siz hali hech kim bo‘lмаган, o‘zaro munosabatlar faqat tenglik va samimiyat asosiga quriladigan davrda paydo bo‘lgan do‘stlik haqiqiy do‘stlikdir. Shu paytda orttirgan do‘stlaringiz chinakam og‘aynilaringizdir. Men o‘sha unutilmas yillarda topgan qoraqalpoq do‘stlarimni hozir ham eslab, ular bilan faxrlanib yuraman.

Institutimizda o‘tkaziladigan turli tadbirlar, bayramlarda Qoraqalpog‘iston yoshlari juda faol qatnashar edilar. Ayniqsa, Jizzax, Sirdaryo viloyatlariga paxta terimiga chiqqanlarimizda, ishdan keyin, kechqurunlari gulxan atrofida qoraqalpoq qizlarimiz, yigitlarimiz Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq kabi shoirlardan she‘r o‘qib, qo‘sishq aytib, raqsga tushganlarida barchamiz qoyil qolar edik.

Men o‘shanda «Bo‘zatov», «Aydinlar», «Dembermes» degan qoraqalpoq xalq qo‘sishqlarini birinchi marta eshitib, o‘zimni bamisoli sehrlanib qolgandek his qilganimni hozir ham yaxshi eslayman.

Ayniqsa, ulkan san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Bayram Matchonov ijro etgan «**Mening jigit vaqtim, sening qiz vaqting**» deb boshlanadigan qo'shiqni hammamiz jon dilimiz bilan tinglar, tinglabgina qolmasdan, unga jo'r bo'lib aytar edik. Hozir ham shu ajoyib qo'shiqni eshitsam, nafaqat men, balki juda ko'pchiligidan yoshlikning betakror damlariga qaytgandek bo'lamic, o'zimizni yasharib, yana kuchg'ayratga to'lгandek sezamiz.

Qoraqalpoq adabiyotini ham men ana shu kursdoshlarim orqali yaqindan taniganman.

Men ko'pincha qoraqalpoq do'stlarimga, ularning o'zidan eshitgan «**Ayt, sen, Ajiniyozning qo'siqlaridan**» deb iltimos qillardim va ular bu iltimosimni bajo keltirishardi. Shu tariqa men Jo'lmirza Oymirzayev, Xo'jabek Seyitov, Tilovbergan Jumamuratov, Turdimurat Najimov, Sadiq Nurimbetov, Abbas Dabilov, keyinchalik «O'zbekiston Qahramoni» degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan Ibroyim Yusupov, To'lepbergen Qaipbergenov kabi ulkan shoir va adiblarning asarlari bilan tanishib, qoraqalpoq xalqining urf-odat va qadriyatlari, dard-u armonlari va orzu-intilishlari haqida boy tasavvurga ega bo'lганман.

Ana shunday ustozlar izidan borib, bugungi kunda barakali ijod qilayotgan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoirlari va yozuvchilari Jivanboy Izbaskanov, Kenisboy Karimov, O'rozboy Abdurahmonov, Guliston Annaqilicheva, Muratboy Nizanov va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlarini imkonim boricha kuzatib borishga harakat qilaman.

Ba'zan men o'zi, agar irrigator bo'lмаганимда, балки шоир bo'lармидим, deb o'yлаб ham qolaman. Menden qanday shoir chiqardi, buni bilmayman-u, lekin she'riyatning, adabiyotning chinakam muxlisi bo'lish baxti nasib etganidan baxtiyorman.

Qoraqalpoq diyori o'zining dunyoda o'xshashi yo'q, betakror san'ati bilan barchamizni hayratga solib keladi. Bu zamindan yetishib chiqqan Oyimxon Shomurotova, Jo'ldasbek Quttimuratov, Otajon Xudoyshukurov, Zamira Davletmuratova kabi buyuk san'atkorlarning – Olloh ularning barchasini rahmat qilsin – xotirasini xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Mashhur san'at arboblari – kompozitor Najmiddin Muhammeddinov va artist Najmiddin Ansatboyev, Tamara Doshumova, Muyassar Razzoqova, Gulparshin Sirimbetova, Jalgasboy Sultanboyev, Mirzagul Sapayeva, Maxset Xo'janiyazov, Gulxatiysha Ayimbetova, Aygul Nadirova, yorqin iste'dodli opera xonandalari Jenisbek Piyazov va Eliza Aytniyazovani mamlakatimizda tanimaydigan odam topilmaydi, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda sizlar bilan bir taklif haqida fikrlashib, maslahatlashib olsak. Ya'ni, qoraqalpoq zaminini butun dunyoda ulug'lagan ana shunday buyuk san'atkorlar sharafiga Nukus shahrida go'zal bir bog' barpo etib, ularning xotirasini abadiylashtirsak, merosini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida keng targ'ib qilish ishlarini yanada jonlantirsak, nima deysizlar?

Mamlakatimizdagи eng qadimiy teatrlardan biri bo'lган Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatri yurtimizda ham, chet ellarda ham ma'lum va mashhurdir. Ne-ne iste'dodli san'atkorlar, teatr

arboblarini kamolga yetkazgan ushbu teatrning tashkil topganiga 90 yil to‘lmoqda. Bu tarixiy sanani poytaxtimiz Toshkent shahrida, viloyatlarimizda, mamlakatimiz miqyosida keng nishonlash bo‘yicha katta amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, ushbu san’at maskanining moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, uning statusi, ya’ni maqomini oshirish, ijodiy jamoani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kabi masalalar ko‘zda tutilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, bu sanani barchamiz birgalikda albatta yuqori darajada o‘tkazamiz.

Qoraqalpoq o‘lkasida ajdodlarimizdan qolgan noyob folklor namunalarini avlodlarga bezavol yetkazib kelayotgan usta baxshi va jirovlar G‘ayratdin Utemuratov va Tenilboy Qalliyevning ijodi har qancha tahsinga sazovor.

Nukus shahridagi Igor Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san’at muzeyi o‘zining beba ho tasviriy san’at asarlari bilan nafaqat mamlakatimizda, balki jahonda ham katta shuhrat qozongan. Bu yerda 90 mingga yaqin nodir eksponatlar jamlangan bo‘lib, ularning orasida o‘zbek va rns rassomlarining asarlari, qoraqalpoq xalq amaliy san’ati namunalari, qadimiy Xorazm davlatiga mansub yodgorliklarni ko‘rish mumkin. 2003-yilda Birinchi Prezidentimizning tashabbusi bilan mazkur muzey uchun yangi, zamонавиј bino barpo etilganidan sizlar yaxshi xabardorsiz, albatta. Biz yaqin vaqt ichida ana shu qurilishning ikkinchi bosqichini, uni bugungi kun talablari asosida jihozlash va yangi ekspozitsiyasini yaratish ishlarini albatta yakuniga yetkazamiz.

Mamlakatimizning ilm-fan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan marhum akademiklar Marat Nurmuhamedov, Sobir Kamolov, Charjou Abdиров, Abat Dauletov, Amin Baxiyev, Tursinbay Eshanovlarning hayoti va faoliyatini jamoatchiligidiz doimo hurmat bilan eslaydi. Bugungi kunda ana shu sohada Husniddin Hamidov, Jumanazar Bozorboyev singari akademiklarimiz, taniqli tibbiyot professori Abdulla Xudoybergenov, Toshkent davlat yuridik universiteti rektori, yuridik fanlari doktori Yesemurat Kanyazov kabi olimlarimiz samarali xizmat qilib kelmoqdalar.

O'zining fidokorona mehnati bilan «O'zbekiston Qahramoni» degan oliv unvonga sazovor bo'lgan mohir shifokor Onesiya Saitova, mirishkor fermer Sarsenbay Seytnazarov va arxeolog olim G'ayratdin Xojaniyazovning nomlarini el-yurtimiz yaxshi biladi.

Shular qatorida «Nuroniy» jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi raisi Sharaf Usnatdinov, shuningdek, Janabay Shimanov, Jalil Muyaddinov, Qaipbergen Yusupov kabi muhtaram faxriylar va mahalla jonkuyarlar o'zlarining ibratli faoliyati bilan barchaga o'rnak bo'lib kelmoqdalar.

Qadrli do'stlar!

Qoraqalpog'iston Respublikasi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida qanday katta o'rin tutishini barchamiz yaxshi bilamiz va buni yuqori baholaymiz.

Bu haqda so'z yuritishdan oldin muhim bir masala-ga e'tiboringizni qaratishni istardim.

2010-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining sobiq Bosh kotibi janob Pan Gi Mun O'zbekistonga

tashrif buyurganida, men muhtaram Yurtboshimizning topshirig‘iga binoan yuksak martabali mehmonning Qoraqalpog‘istonga safari davomida unga hamrohlik qildim. Biz vertolyotda parvoz qilib, butun Qoraqalpog‘iston hududini, qurib borayotgan Orol dengizini tepadan turib yaqqol kuzatish imkoniga ega bo‘ldik.

O‘shanda men mehmonimizga Orol dengizi bilan bog‘liq ekologik ofat haqida, jumladan, dengiz tubidan har yili 700 – 800 million tonna tuz bo‘ronlari havoga ko‘tarilishi haqida gapirib bergen edim.

Bunday ayanchli manzarani o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, ishoninglar, janob Bosh kotibning ko‘zidan yosh chiqib ketdi. «**Men dunyodagi halokat sodir bo‘lgan juda ko‘p joylarni o‘z ko‘zim bilan borib ko‘rganman, – dedi u o‘shanda. – Lekin bunday og‘ir ekologik holatni umrimda birinchi marta ko‘rib turibman.** Shunday keskin vaziyatga qaramasdan, shu yerda yashab mehnat qilayotgan odamlarga, ularning **sabr-bardoshiga qoyil qoldim**», deb aytganini men shaxsan o‘zim eshitganman. Bu gaplarni janob Pan Gi Mun keyin televide niye orqali ham aytganidan sizlar xabardorsiz.

Haqiqatan ham, taqdirning, hayotning har qanday og‘ir sinov va qiyinchiliklariga qaramasdan, o‘z yurti, o‘z zaminiga, ota-bobolarining mozoriga hamisha sadoqat ko‘rsatib yashayotgan mard va matonatli qoraqalpoq elining mustahkam irodasiga tan berib, bunday xalq bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

Albatta, Orol dardi, Orol fojiasini butun xalqimiz o‘z dardi deb qabul qildi. Birinchi Prezidentimiz

ushbu mintaqada yuzaga kelgan ekologik ofat oqibatlarini yumshatish, jahon jamoatchiligi e'tiborini bu muammoga qaratish, qoraqalpoq xalqini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha qanday katta ishlarni amalga oshirganlari sizlarga yaxshi ma'lum.

Bu xalq o'tmishda ham, hozirgi kunda ham barcha mashaqqatlarga chidash berib, hech qachon ertangi kunga ishonchini yo'qotmasdan kelayotgani buyuk bir ibrat namunasidir. Xudoi taoloning qudratini qarangki, u qoraqalpoq elining ana shunday sabr-bardoshiga yarasha ulardan o'z marhamatini ayagani yo'q. Garchi Orol dengizining suvi kamaygan bo'lsada, bu bepoyon zamin bag'ridagi boshqa boyliklarni qoraqalpoq xalqiga, butun O'zbekiston xalqiga mo'l-ko'l qilib bermoqda. Buning tasdig'ini ushbu mintaqada topilayotgan va ishga tushirilayotgan tabiiy boyliklarning yangi-yangi konlari va zaxiralari misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Agar Qoraqalpog'istonning xaritasiga qarasangiz, uning ulkan sahro – Qoraqum va Qizilqum o'rtasida joylashganini, yon-atrofidagi joylar Borsa kelmas, Qumbaskan, Qo'yqirilgan, Qanliko'l degan nomlar bilan atalganini ko'ramiz. Tabiiyki, bu nomlar o'tmishdag'i og'ir fojialardan dalolat beradi.

Bugungi kunda o'zimiz ko'rib turganimizdek, bu yerdag'i hayot manzaralari butunlay o'zgarmoqda. Ya'ni, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullar yangicha chiroy ochib borayotganini, zamonaviy korxonalar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari, kommunikatsiya tarmoqlari barpo etilayotganini ko'rib, ko'zimiz quvonadi.

Bularning barchasi avvalo mustaqillik sharofati, butun mamlakatimiz qatori Qoraqalpog'iston iqtisodiyoti ham yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotganining natijasidir.

Shu borada ba'zi bir misol va raqamlarga e'tibor ringizni qaratmoqchiman. Qoraqalpog'istonda 2010-yildan buyon yalpi hududiy mahsulot hajmi 1,5 barobar ko'paydi, unda sanoatning ulushi 31 foizdan oshdi.

Keyingi besh yilda 13 trillion 300 milliard so'mlik investitsiya o'zlashtirilgan bo'lsa, shuning 2 milliard 400 million dollari xorijiy investitsiyalar ekanı e'tiborlidir. Mustaqillik yillarda Birinchi Prezidentimiz rahnamoligida Qoraqalpog'istondagi boy mineral xomashyo manbalarini yuksak zamonaviy texnologiyalar asosida o'zlashtirish, shuning hisobidan mazkur hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, shu asosda xalq farovonligini yuksaltirish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Masalan, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Qo'ng'irot soda zavodining barpo etilishi cho'l bag'ridagi haqiqiy mo'jiza bo'ldi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Bu korxonaga keyingi besh yilda 110 million dollar investitsiya kiritilib, kalsiyplashgan soda ishlab chiqarish quvvati 2 barobar oshirildi va yiliga 200 ming tonnaga yetkazildi.

Yana bir noyob va ulkan loyiha – qiymati 4 milliard dollardan ziyod bo'lgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi bugungi kunda sanoatimizning lokomotiviga aylandi. O'tgan yili dekabr oyida ishga tushirilgan ushbu majmua yiliga 4 milliard kubometr gazni qayta ishlash asosida 400 ming tonna polietilen, 100 ming tonna polipropilen, 100 ming tonnadan ziyod piroliz

suyuqligi ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu yerda yaqin vaqt ichida metanni tozalash usuli bilan sintetik suyuq yoqilg'i va parafin ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

So'nggi besh yilda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 12 ta hududiy korxonada Mahalliylashtirish dasturi asosida 186 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilganini alohida ta'kidlash lozim.

Bu yerda faoliyat yuritayotgan 66 ta qo'shma korxonaning 30 tasi keyingi 5–6 yilda, asosan ilgari bunday korxonalar bo'lmagan tumanlarda tashkil etilgani ham e'tiborga sazovordir.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida** Qoraqalpog'iston Respublikasida oxirgi besh yilda 6 ming 500 ta yangi kichik biznes subyekti tashkil etilib, ularning soni 10 mingdan oshdi. Bugungi kunda yalpi hududiy mahsulotning qariyb yarmi, hududiy eksportning 75 foizi ushbu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizi aynan shu sohada mehnat qilmoqda.

Orolbo'yida vujudga kelgan murakkab va og'ir iqlim sharoitiga qaramasdani, qoraqalpog'istonlik dehqon va fermerlarning fidokorona mehnati tufayli **qishloq xo'jaligi** sohasida ham ulkan natijalarga erishilmoqda.

Respublikada bu yil ham paxta va g'alla bo'yicha mo'l hosil yetishtirilib, shartnomalar rejali ortig'i bilan bajarildi. Shu bilan birga, 450 ming tonnaga yaqin kartoshka, meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yoki bu borada 2011-yilga nisbatan 1,6 barobar ko'p hosil olindi. Shuningdek, 40 ming hektar maydonda 140

ming tonnadan ortiq sholi yetishtirilganini alohida ta'kidlamoqchiman.

Fursatdan foydalanib, yil davomida qahramonlarcha mehnat qilib, mamlakatimizning yuksak xirmoniga katta hissa qo'shgan dehqon va fermerlar, barcha dala mehnatkashlariga, butun Qoraqalpog'iston xalqiga o'zimning chuqur minnatdorchiligidagi bildirishga ijozat bergaysiz.

Hurmatli do'stlar!

**Qoraqalpog'istonda ijtimoiy sohadagi islohotlarni amalga oshirish bo'yicha ham ulkan natijalar qo'lga kiritilmoqda.** Bu haqda gapirganda, avvalo, **yillik ish o'rnlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlariga muvofiq**, keyingi besh yilda 300 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratilganini qayd etish joiz. Shu davrda hududdagi 91 ta kasb-hunar kollejini tamomlagan 142 ming bitiruvchi korxona va tashkilotlar, kichik biznes subyektlariga biriktirilib, ish bilan ta'minlandi.

Respublika iqtisodiyotining barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotgani tufayli aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar oxirgi besh yilda 1,8 barobar ko'paydi. Bu esa **aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilashga** ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning isbotini 2011-yilga nisbatan har yuz xonadonga to'g'ri keladigan avtomobillar soni 1,8 barobar, pilesoslar 1,9 marta, kir yuvish mashinalari, televizor va muzlatkichlar 1,2 karra ko'payganida ko'rish mumkin.

Mamlakatimizning barcha hududlari kabi **Qoraqalpog'iston Respublikasida ham shaharlar, qish-**

**loq va ovullar qiyofasini tubdan o‘zgartirish**, ularni obodonlashtirish, odamlar uchun zamonaviy sharoitlar yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2009–2016-yillarda hududning 134 ta qishloq massivida namunaviy loyihalar asosida 3 ming 650 ta uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi.

Nukus shahrida so‘nggi ikki yilda eski uy-joylar, bino va inshootlar o‘mida 34 ta zamonaviy ko‘p qavatli uy barpo etilganini alohida ta’kidlash lozim. Joriy yilda yana 18 ta ana shunday zamonaviy uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi.

Nukus shahri markazidan o‘tadigan «Do‘slik» kanalining ikki yarim kilometrlik qismi betonlashtirilib, ikki tarafi obodonlashtirilib, zamonaviy dam olish maskani barpo etilgani shahar qiyofasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Ayni paytda kanalning yana ikki kilometrlik qismida obodonlashtirish ishlari davom ettirilmoqda.

Bundan tashqari, shahar markazida bayram tad-birlari o‘tkaziladigan zamonaviy amfiteatr, «Yoshlar markazi», turli sport majmualari bunyod etildi.

**Zamonaviy transport, ijtimoiy infratuzilma va axborot-kommunikatsiyalarini rivojlantirish sohasida** ham ko‘p ishlar qilinmoqda. Masalan, so‘nggi besh yilda 151 kilometr yangi gaz tarmoqlari barpo etildi, 108 kilometr gaz tarmoqlari rekonstruksiya qilindi va kapital ta’mirdan chiqarildi. Buning natijasida 77 mingga yaqin xonadonda tabiiy gaz ta’mnoti tubdan yaxshilandi. Shu davrda 239 ta ta’lim muassasasi, bolalar sporti inshooti, musiqa va san’at maktabi, 24 ta tibbiyot maskani yangidan qurildi, rekonstruksiya qilindi va kapital ta’mirlandi.

Mustaqillik yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlarida ko'plab fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'tgan yili qoraqalpog'istonlik olimlar tomonidan 100 jilddan iborat «Qoraqalpoq folklori» nashr qilingani, hech shubhasiz, katta mehnat mahsulidir. Endigi vazifa ana shunday noyob ma'naviy boylik yosh avlodimiz qalbidan chuqur joy olishi uchun farzandlarimizning kitobxonlik madaniyatini oshirishdan iborat.

Mustaqillik yillarda sport, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar yuksak natijalar bermoqda. Buni qoraqalpog'istonlik sportchi yoshlarning oxirgi besh yilda qit'a va jahon championatlarida, nufuzli xalqaro turnirlarda 70 ta oltin, 76 ta kumush va 120 ta bronza medalini qo'lga kiritgani misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Ana shunday mahoratli sportchilarimizdan og'ir atletikachilar Mansurbek Chashemov, Rustam Jangabayev, Baxram Mendibayev, akademik eshkak eshish bo'yicha qit'a championi Abubakir Uzakbayev, yunonrum kurashi ustasi To'rabek Tirkashev, sambochi Azamat Turdanov, shotokan-karate bo'yicha yoshlari o'rtasida jahon championlari Allamurat Urinbayev, Aysanem Allambergenova kabi yoshlarimizning nomlarini alohida ta'kidlash o'rnlidir.

Hurmatli do'stlar!

Bizning saylovoldi dasturimizda mamlakatimizdagi barcha hududlar qatori Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olingan. Bugungi imkoniyat-

dan foydalanib, ular haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishga ijozat bergaysiz.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida yaqin 5 yilda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, mavjudlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha umumiyligi qiymati qariyb 6 trillion so‘mlik 574 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Xususan, Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasida 678 million dollar investitsiya hisobidan 230–280 megavattli ikkita bug‘-gaz qurilmasini barpo etish ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, Janubiy Koreyaning «Samsung Engineering» kompaniyasi bilan hamkorlikda umumiyligi qiymati 300 million dollar bo‘lgan yangi piroлиз uglevodorod zavodini qurish mo‘ljallanmoqda.

Bunday yirik loyihalar haqida gapirganda, Surgil konini jihozlashning ikkinchi bosqichini barpo etish, Sharqiy Berdaq va Shimoliy Berdaq konlarida kompressor stansiyasi qurish orqali qo‘srimcha jihozlashga qaratilgan loyihalarni alohida qayd etish lozim.

**Yengil sanoat, charm-poyabzal va farmatsevtika tarmoqlarida** kelgusi besh yilda 92 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Chimboy, Beruniy, Xo‘jayli, Amudaryo, Ellikqal‘a, To‘rtko‘l va Qo‘ng‘iroq tumanlarida to‘qimachilik korxonalarini qayta tashkil etish va kengaytirish hisobidan respublikada paxta tolasini qayta ishslash darajasi bugungi kundagi 13,5 foizdan 2021-yilga borib 45–50 foizga yetkaziladi.

**2017–2021-yillarda tekstil va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturiga** muvofiq, mamlakatimiz bo‘yicha yaqin besh yilda 2 milliard 200 million dollar investitsiya

jalb etilib, 120 ta yangi korxona tashkil etiladi, 20 ta mavjud korxona modernizatsiya qilinadi. Natijada mamlakatimizda to‘qimachilik, tikuv va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,2 barobar ko‘payadi.

Shuningdek, 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab gazlama, tayyor tikuv buyumlari, paypoq va kiyimbosh mahsulotlarini eksport qilishdan tushgan valuta mablag‘larining bir qismini tijorat banklariga sotish tartibi bekor qilinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham umumiy qiymati qariyb 213 million dollar bo‘lgan 8 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Misol uchun, 2017–2018-yillarda Chimboy paxta tozalash zavodi bazasida 10 million dollar sarmoya evaziga yiliga 4 ming tonna ip-kalava va 4 ming tonna trikotaj mato ishlab chiqarish tashkil etiladi.

**Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi** va boshqa tarmoqlarda 196 ta loyiha amalga oshiriladi. Jumladan, kelgusi ikki yilda Qorao‘zak tumanida yiliga 200 ming tonna sement ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan zavod ishga tushiriladi.

**Oziq-ovqat sanoatida** kelgusi besh yilda 201 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish mo‘ljallanmoqda. Xususan, Nukus tumanida yiliga 1,5 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlaydigan korxona ish boshlaydi.

Shu davrda **Mahalliylashtirish dasturi** doirasida 38 ta loyiha hayotga joriy etiladi. Jumladan, Beruniy, To‘rtko‘l, Chimboy tumanlarida shu yo‘nalishda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasida hududiy eksport** hajmi joriy yilning o'tgan davrida 34 million dollarni tashkil etgan va bu 2011-yilga nisbatan 2,4 barobar ko'kdir. Ayni vaqtida barcha shahar va tumanlarda eksport hajmi va valuta tushumini ko'paytirish bo'yicha ishga solinmagan zaxiralar hali juda ko'p.

Kelgusi 5 yilda hududiy eksport hajmini kamida 1,5 barobar oshirish, eksport faoliyatiga yana kamida 30 ta korxonani jalg etish ko'zda tutilmoxda.

Biz qishloq xo'jaligini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha ham aniq vazifalarni belgilab olganmiz.

Avvalo, ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash va ularning unumdorligini oshirish bo'yicha ishlar davom ettiriladi. Ekin maydonlarining katta qismi kuchli darajada sho'rangan qoraqalpoq dehqonlari buning ahamiyatini albatta yaxshi tushunadi.

Bundan tashqari, 2021-yilgacha qiymati 337 million dollar bo'lgan, suv resurslarini boshqarishni yaxshilashga qaratilgan loyiha amalga oshirilishini qayd etib o'tmoqchiman. «Bo'ston» magistral kanalida qariyb 70 kilometr masofada beton qoplama yotqizish suvning isrof bo'lishini kamaytirish imkonini beradi.

Jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi tobora dolzarb bo'lib borayotgan hozirgi davrda go'sht va sut ishlab chiqarishni kamida 1,5 barobar, tuxumni – 1,8 marta, baliqni – 2 karra, kartoshkani – 1,5 barobar, meva-sabzavot va uzum yetishtirishni 1,4 marta ko'paytirishga erishamiz. Ayni vaqtida bu mahsulotlarni qayta ishlashni kengaytirish bo'yicha aniq chora-

tadbirlarni o‘z oldimizga vazifa qilib qo‘yganmiz va ularni, albatta, amalga oshiramiz.

Shuningdek, Qoraqalpog‘istonning o‘ziga xos sharoitidan kelib chiqib, bu yerda chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik, bog‘dorchilikni rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalgaloshirish diqqatimiz markazida bo‘ladi.

**Axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarini rivojlantirish** bugungi kunda qanchalik muhim ekani haqida gapirishning o‘zi ortiqcha deb o‘layman.

Bu yo‘nalishda Qoraqalpog‘iston Respublikasida kelgusi besh yilda aholiga ko‘rsatilayotgan telekomunikatsiya xizmatlari sifatini oshirish uchun 260 kilometrlik optik tolali aloqa tarmoqlari va 129 ta mobil aloqa tayanch stansiyasi barpo etiladi.

Nukus shahri, Amudaryo, Qo‘ng‘iroq, Ellikqal‘a, To‘rtko‘l, Shumanay, Mo‘ynoq, Taxtako‘pir tumanlarida 14 ta raqamli teleuzatgich o‘rnatilib, hududni raqamli televide niye bilan qamrab olish darajasi 59 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Muhtaram yurtdoshlar!

**Kelgusi yillarda xalqimizning hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan ishlarni davom ettirish doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ladi.**

Aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, keksalarga g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, onalik va bolalikni himoya qilish, oila va mahalla institutlariga e’tibor, ayollar va yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini oshirish – asosiy vazifamizdir.

Bundan buyon har bir tuman va shaharga, kerak bo‘lsa, chekka-chekka qishloq va ovullargacha kirib

boramiz. U yerda istiqomat qilayotgan odamlarning dardini eshitamiz, muammolarini hal qilishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqamiz va ijrosini qat'iy nazoratga olamiz.

Shu maqsadda biz 15 ta maxsus dastur ishlab chiqib, ularni amalga oshirish ustida ish olib boryapmiz. Aytish kerakki, bu dasturlarning ba'zilari tegishli farmon va qarorlar bilan tasdiqlanib, ular bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Ruxsatingiz bilan, ana shu dasturlarning asosiy mazmun-mohiyatiga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

**Birinchidan**, Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, farmon bilan tasdiqlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ham ana shu dasturda belgilangan vazifalarning ijrosini to'liq ta'minlash, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar miqdorini kelgusi 5 yilda kamida 3 barobar oshirish rejalashtirilmoqda. Shu davr ichida bu yerda 6 mingdan ortiq yangi kichik biznes subyekti tashkil etish va ularning umumiy sonini 16 mingtaga yetkazish choralar ko'rildi.

**Ikkinchidan**, 2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi ishlab chiqilib, 2016-yil 21-oktabrdagi qaror bilan tasdiqlandi.

Ushbu dasturda qishloq joylardagi kam ta'minlangan va yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash,

qulay va arzon uylarni qurish yo‘li bilan ularning bu boradagi ehtiyojini qondirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandı.

Dasturda qishloq joylarda uch xil namunaviy loyiha asosida arzon va shinam uy-joylarni barpo etish nazarda tutilmoqda. Kelgusi yili Qoraqalpog‘iston Respublikasida 827 ta xonadonga mo‘ljallangan ana shunday uy-joylar quriladi. Har bir oila o‘zining talabi va imkoniyatiga qarab, xohlasa ikki xonali, xohlasa uch yoki to‘rt xonali uy-joyga buyurtma beradi. Shuningdek, aholining talabiga ko‘ra, oldingi loyihalar bo‘yicha ham yana 135 ta uy-joy barpo etiladi.

Shular qatorida, shahar aholisini arzon va qulay uy-joy bilan ta’minalashga ham alohida e’tibor qaratiladi. 2017-yilda Nukus shahrida 20 ta ko‘pqavatli uy qurish ko‘zda tutilgan. Natijada 710 ta oila zamonaviy, arzon uy-joylarga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, jamiyatimizning faol yoshlari uchun kelgusi yilda Nukus shahri hamda Chimboy, Qo‘ng‘irot va Kegeyli tumanlarida 1 tadan «Kamolot» uylari barpo etilib, 110 ta yosh oila zamonaviy uy-joy bilan ta’milanadi.

Ayni vaqtida **shahar** va **qishloqlarimiz** qiyofasini tubdan yaxshilash, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar davom ettiriladi. Shular qatorida, 2017-yilda Nukus shahridagi Davlat o‘lkashunoslik muzeyi binosini qurish, bu yerdagi Yosh tomoshabinlar teatri va «Aydin jol» sport majmuasini rekonstruksiya qilish ishlari nihoyasiga yetkaziladi.

Barcha tumanlarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari barpo etiladi. Shuningdek, 8 ta madaniyat va istirohat bog‘i yangitdan quriladi, 4 ta bog‘ kapital ta’mirlanadi. 14 ta maktab va 9 ta tibbiyot muassasasida yangi qurilish, 190 ta maktab, 51 ta kasbhunar kolleji, 25 ta shifo maskanida rekonstruksiya va kapital ta’mirlash ishlari amalga oshiriladi.

**Uchinchidan**, Hududiy avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturida xalqaro va davlat ahamiyatiga ega yo‘llar bilan birga, viloyat, mahalliy va shahar avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish, ularni ta’mirlash va zarur darajada saqlanishini ta’minalashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko‘zda tutiladi.

Ayni paytda shuni aytish kerakki, ko‘p hollarda hududlarning ichki yo‘llari, afsuski, e’tibordan chetda qolmoqda.

Vaholanki, barcha tumanlarda, ayniqsa, chekka joylarda ishlab chiqarishni rivojlantirmoqchi bo‘lsak, buning uchun birinchi navbatda zamonaviy talablarga javob beradigan yo‘l bo‘lishi kerak.

Bu oddiy masala emas, uning yechimini topish ham oson emas. Shu maqsadda Qoraqalpog‘iston Respublikasida kelgusi besh yilda umumiy foydalishdagi 550 kilometr yo‘lni rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va kengaytirish mo‘ljallanmoqda. Bundan tashqari, Nukus shahrida kichik halqa yo‘li barpo etish, Dosnazarov va Beruniy ko‘chalarini rekonstruksiya qilish ko‘zda tutilmoqda.

**To‘rtinchidan**, Shahar va qishloqlarda transport ta’motini yanada rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga transport xizmati ko'rsatish sifatini yanada oshirish maqsadida keyingi 5 yilda 79 ta avtobus, 191 ta mikroavtobus sotib olindi hamda 21 ta shahar va shahar atrofi yo'nalişlariga qo'yildi. Bu boradagi ishlarning uzviy davomi sifatida lizing asosida yana 100 ta avtobus xarid qilinadi, 106 ta zamonaviy avtobekat barpo etiladi, chekka hududlar aholisi uchun 12 ta yangi yo'naliş tashkil etiladi.

**Beshinchidan**, Qishloqlarda ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlarini yanada kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Mazkur dasturda mamlakatimiz barcha hududlarining, ayniqsa, qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasini yanada oshirish, zamonaviy tejamkor va samarali texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanimish choralar belgilanadi. Jumladan, kelgusi besh yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida 400 kilometr suv tarmog'i yangitdan quriladi, 285 kilometrdan ortiq suv tarmog'i ta'mirlanadi, 62 ta suv qudug'i barpo etiladi va rekonstruksiya qilinadi.

Osiyo taraqqiyot bankining 117 million dollar mablag'i jalb etilib, Amudaryo, Beruniy, Mo'ynoq, Qo'ng'iroq, Nukus va Qorao'zak tumanlarida 512 kilometr ichimlik suvi tarmog'i quriladi. Bundan tashqari, 433 kilometr suv tarmog'i va ko'plab suv inshootlari rekonstruksiya qilinadi. Buning natijasida respublikada 220 ming aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanishi yaxshilanib, bu boradagi ko'rsatkich 85 foizga yetkaziladi.

**Oltinchidan**, Ko‘mir tannarxi va xarid qiymatini pasaytirish, shuningdek, qish mavsumida bu borada chayqovchilik qilish, narxning asossiz oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo‘s Shimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmoqda.

Dasturda kuzgi-qishki mavsumda mamlakatimiz tumanlari va qishloq joylarda ko‘mirga bo‘lgan talabni qondirish, aholini ko‘mir bilan uzlucksiz ta’minalash, uning tannarxi va iste’molchilarga yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar nazarda tutiladi. Jumladan, aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida «Qoraqalpoq ko‘mir yetkazuvchi» unitar korxonasi tomonidan ko‘mirni mahallalarga olib borib tarqatish yo‘lga qo‘yiladi. Korxonaning barcha ko‘mir omborlari to‘lovni plastik kartochkalar orqali amalga oshiradigan terminallar bilan jihozlanadi.

**Yettinchidan**, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash dasturi tayyorlanmoqda.

Bu masala bo‘yicha biz o‘tgan davrda albatta katta ishlarni amalga oshirdik. Ammo yangi ishlab chiqarish korxonalarining paydo bo‘lishi, aholi sonining ko‘payib borayotgani talab va ehtiyojning ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Ishlab chiqilayotgan dasturda bu boradagi ishlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham izchil davom ettirish nazarda tutilmoqda. Xususan, past kuchlanishli elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, elektr tarmoqlari uskunalaridan foydalanish muddatlarini uzay-

tirish, elektr uzatish tarmoqlarining quvvatini oshirish va boshqa choralar belgilanadi.

Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida kelgusi besh yilda 806 kilometr elektr tarmog‘i va 241 ta transformator punktini qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda.

**Sakkizinchidan**, Maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash dasturi tayyorlanmoqda.

O‘z bolasini yaxshi tarbiya beradigan, mакtabga puxta tayyorlaydigan bolalar bog‘chasiga berishni albatta har bir ota-onasi xohlaydi.

Ushbu dasturda namunaviy bog‘chalar qurish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yuqori malakali pedagoglar bilan ta’minalash, o‘qitish va tarbiya jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etish, umuman, yosh bolani sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalash uchun nimaiki zarur bo‘lsa, ularning barchasi ko‘zda tutilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida kelgusi besh yilda 8 ta namunaviy bolalar bog‘chasi barpo etish, 93 ta mакtabgacha ta’lim obyektini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash mo‘ljallanmoqda.

**To‘qqizinchidan**, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Mazkur dasturda kelgusi besh yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahri, Taxtako‘pir, Qorao‘zak, Chimboy, Beruniy, Kegeyli, Ellikqal‘a, Qanliko‘l tumanlari markazlaridagi dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda.

**O‘ninchidan**, Pensionerlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilash dasturini ishlab chiqish yakunlanmoqda.

Barchamizning o‘sib-ulg‘ayishimiz uchun qo‘lidan kelgan sharoitni yaratib bergen, mamlakatimizning bugungi yutuqlariga munosib hissa qo‘shgan muhtaram faxriylarimiz oldida biz doimo qarzdormiz. Ularga e’tibor va g‘amxo‘rlikni yanada kuchaytirish – ana shu qarzimizni ado etish yo‘lidagi kichik bir qadam, xolos. Har qanday jamiyatda ham keksa avlod vakillariga munosabat, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish shu jamiyatning yetuklik darajasini belgilaydigan mezon ekanini hech qachon unutmasligimiz kerak.

Tayyorlanayotgan dasturda 2016–2021-yillarda pensioner, nogiron, yolg‘iz qariyalar va aholining kam ta’minlangan qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda.

Bu borada avvalo «Nuroniy» jamg‘armasining maqomi va mavqeyini oshirish, uning viloyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko‘paytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi.

Har bir shahar va tumanda jamg‘armaning bo‘limlarini tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. Ularning samarali ish olib borishi uchun alohida xonalar ajratish, xodimlarini budjet hisobidan ish haqi bilan ta’minalash tartibi joriy etiladi.

Ma’lumki, Birinchi Prezidentimizning qarorlariga muvofiq, Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va front o‘rtida mehnat qilgan keksalarimizni har yili

mamlakatimiz sanatoriylarida bepul davolash tizimi o‘rnatalgan edi. Ammo ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli bu imtiyozdan foydalana olmayapti. Biz shuni e’tiborga olib, shunday faxriyalarimizga yo‘llanmalarning pulini berishga qaror qildik. Bugungi kunda sanatoriyo yo‘llanmasining o‘rtacha narxi 800 ming so‘mni tashkil etmoqda. Demak, ana shu mablag‘ sanatoriylarga borib davolanish imkoniyatiga ega bo‘lмаган keksalarimizga beriladi.

Hozirgi vaqtدا «Nuroniy» jamg‘armasi boshchili-gida «Mahalla» jamoat fondi, Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari tomonidan yolg‘iz qariyalar har yili qishki kiyim-bosh va belgilangan turdagি oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlab kelinmoqda va bu ishlar bundan keyin ham davom ettiriladi.

Kelgusi to‘rt yilda mamlakatimizdagi barcha «Muruvvat» va «Saxovat» uylari rekonstruksiya qilinadi va kapital ta’mirlanadi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamonaviy sharoitlar yaratiladi.

**O‘n birinchidan**, Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Biz uchun mehr va sadoqat, fidoyilik ramzi bo‘lgan aziz va mo‘tabar onalarimiz, muhtarama ayollarimizga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularning og‘irini yengil qilish bizning faoliyatimizda doimo ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Mazkur dasturda ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, jumladan, ularga xizmat ko‘rsatadigan davolash-profilaktika muassasalarining

moddiy-texnik bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, barcha yangi tug‘ilgan chaqaloqlar, o‘smir qizlar, homilador va tug‘ish yoshidagi ayollar uchun to‘liq patronaj kuzatuv tizimi joriy etiladi. Buning natijasida onalar va bolalarda kasalliklarni erta aniqlash ko‘rsatkichi bugungi 70 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Kelgusi besh yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus, Xo‘jayli tumanlari tibbiyat birlashmlari tarkibidagi tug‘uruq komplekslari va bolalar bo‘limlari, Nukus shahridagi 9 ta oilaviy poliklinika, Xo‘jayli va Taxtako‘pir tumanlaridagi bolalar sanatoriylari, respublika o‘smirlar dispanseri, bolalar stomatologiya poliklinikasi va boshqa tibbiyat maskanlarini rekonstruksiya qilish va jihozlash rejalashtirilmoqda.

Aziz do‘sstar!

Bugungi va ertangi hayotimiz haqida gap borganda albatta hammamiz kelajagimiz davomchilari bo‘lgan farzandlarimiz haqida, ularning bilimli, zamonaviy kasb-u hunarlar egasi bo‘lib, jismoniy va ma’naviy sog‘lom, barkamol bo‘lib voyaga yetishi haqida o‘ylaymiz.

Haqiqatan ham, har bir bola – bamisol o‘sib, kuchga to‘lib kelayotgan, parvarishga muhtoj nozik bir nihol. Shunday ekan, uni hech qachon mehr va e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Ota-on, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik e’tiboridan chetda qolgan bola oilaga, jamiyatga quvonch va foyda o‘rniga faqat tashvish, faqat muammo keltiradi.

Shu ma’noda, ulug‘ shoir Berdaq bobomizning:

**«Yigit degan yaxshi, bilimdon bo‘lur,  
Bilim, hunar yigit uchun jon bo‘lur,  
Aqlsizlar ishi ko‘p yomon bo‘lur,  
Nodonlar hech xizmat qilmas xalq uchun»**

degan dono o‘gitlari bugun ham qanday katta ahamiyatga ega ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz. Mana shu so‘zlarga har birimiz rioya qilib, yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» degan balo-qazolar xavf solib turgan bugungi davrda bolalarimiz tarbiyasiga, ayniqsa, uyushmagan yoshlар tarbiyasiga alohida e’tibor berishimiz zarur.

Bu borada bizning dasturlarimizda, qizlarimizni ilm-fan, kasb-hunar sirlarini puxta egallahsga o‘rgatish, ularning hayotda munosib o‘rnini topishiga ko‘maklashish, erta nikohlarning oldini olish kabi muhim vazifalar ham o‘z ifodasini topgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda yaqinda qabul qilingan **«Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»**gi qonun yangi imkoniyatlar ochib berishi shubhasiz.

Hurmatli do‘stlar!

Yaqinda qabul qilingan qaror bilan tasdiqlangan, mamlakatimizdagи har bir inson, har bir oila hayotiga bevosita daxldor bo‘lgan yana bir dastur – **farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirish** bilan bog‘liq bo‘lib, unga muvofiq, kelgusi to‘rt yilda umumiyligi qiymati 224 million dollar bo‘lgan 67 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Natijada mamlakatimizda farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,5 baravar ko‘payadi. Jumladan, 22 ta

yo‘nalish bo‘yicha keng turdag'i yangi dori vositalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Xabaringiz bor, yaqinda «Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta‘minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaror ham qabul qilindi. Hech shubhasiz, bu qaror mam-lakatimizda aholi va davolash muassasalarini sifatlari va xavfsiz dori-darmon vositalari bilan ta‘minlashga, aholi salomatligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida kelgusi ikki yilda 16 ta korxonada import o‘rnini bosadigan dori vositalari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Masalan, Nukus shahrida «Nukus medtex» va «Mustafa farm» korxonalarida infuziya sistemasi, tibbiyot va insulin shprislari, lateks qo‘lqoplar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shuningdek, 236 hektar maydonda 200 tonnadan ziyod dorivor o‘simgiliklar yetishtirish rejalashtirilmoqda.

**O‘n ikkinchidan**, 2017–2021-yillarda mamlakatimizda qattiq maishiy chiqindilarni sanitari tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi tayyorlanmoqda.

Ushbu dasturda kelgusi besh yilda qattiq maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish belgilandi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham shu yo‘nalishda faoliyat olib boradigan tashkilotlar 2017-yilda qo‘sishmcha ravishda maxsus transport vositalari bilan ta‘minlanadi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz «O‘zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak» degan da’vatni xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi faoliyatimizning asosiy tamoyili va o‘zak g‘oyasi deb bilamiz.

Mustaqillik yillarda biz erishgan eng katta va beba ho boylik – ko‘pmillatli xalqimizning yakdillik, qoraqalpoqcha ibora bilan aytganda, og‘zibirligi, jamiyatimizdag i o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir.

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kelayotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo‘lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash – xavfsizlik va barqarorlikni hamda xalqimizning osoyishta hayotini ta’minlashning eng muhim sharti va kafolatidir.

Yana bir bor ta’kidlab aytmoqchiman – biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga tahdid solishga urinadigan yovuz kuchlarning har qanday harakatlariga keskin zarba berishga qodirmiz.

**Tashqi siyosat** sohasida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to‘liq amal qilish saylovoldi dasturimizning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bu siyosatning asosiy ma’no-mazmuni – tinchlik-parvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qar-

shiliklarni faqat tinch, siyosiy yo‘l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘silmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O‘zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tashqi siyosatni amalgalashda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shti mamlakatlar bilan do’stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Bu borada ilgari ham aytgan bir fikrimni takrorlashni istardim. Biz qo‘snilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo‘lini izchil davom ettiramiz. Hamkorlikni tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi deb bilamiz. Qo‘snilarimiz bilan o‘zaro hurmat va manfaatli hamkorlikni qancha rivojlantirsak, yurtimiz ham, butun mintaqamiz ham yanada ravnaq topadi.

Mana shu yo‘lda yangi qadamlar qo‘yayotganimiz, jumladan, qo‘shti davlatlar rahbarlari bilan olib borayotgan muzokaralarimiz buning amaliy tasdig‘idir va bu ishlarni izchil davom ettiramiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Biz saylovoldi dasturimizda belgilab olgan maqsad va vazifalarni hayotga to‘liq tatbiq etish uchun mamlakatimizni rivojlantirish bo‘yicha kelgusi besh yilga mo‘ljallangan beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha **Harakat strategiyamizni** ishlab chiqamiz.

Albatta, bu strategiyani amalga oshirishda biz jamiyatimizdagi barcha kuchlarni birlashtirib, hayot sinovlarida toblangan, har qanday ulug‘ marralarni egallahsga qodir, mard va oljanob xalqimiz qatori siz, hurmatli Qoraqalpog‘iston ahliga tayangan holda ish olib boramiz.

Doimo hayotga ishonch bilan qarab, zamon bilan hamohang bo‘lib, o‘z yurtiga sadoqat bilan yashaydigan Qoraqalpog‘iston ahli bilan, siz azizlar bilan birga shunday olivy maqsadlar yo‘lida xizmat qilishni men o‘zim uchun katta sharaf deb bilaman.

So‘zimni atoqli qoraqalpoq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov tomonidan yozilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasining madhiyasidagi ushbu go‘zal satrlar bilan tugatishni istardim:

**Jayhun jag‘asinda o‘sken bayterek,  
To‘bi bir, shaqasi ming bo‘lar demek,  
Sen so‘nday sayali, quyashli elsen,  
Tinishliq ham ig‘bal sendegi tilek.**

Ulug‘ shoirimiz aytganidek, tinchlik-omonlik, baxt-u iqbol barchamizga yor bo‘lsin. Qoraqalpoq yeri, qoraqalpoq xalqi hamisha omon bo‘lsin!

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Shumanay tumani,  
2016-yil 10-noyabr**

**OQQAN DARYO ASLO  
TO'XTAMAS**

**(XORAZM VILOYATI SAYLOVCHILAR  
VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI  
NUTQ)**



---

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!  
Hurmatli do'stlar!

Avvalambor, mana shu qadim va go'zal Xorazm zaminida, siz, azizlar bilan uchrashib, sizlarni sog'-salomat, xush kayfiyatda ko'rib turganimdan xur-sandman.

So'zimning avvalida barchangizga, sizlar orqali butun viloyat ahliga o'zimning yuksak hurmat-ehtiromim va samimiyl tilaklarimni izhor etaman.

Mana, hozirgina sizlar bilan Birinchi Prezidentimiz, buyuk davlat va siyosat arbobi muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimovni eslab, u kishining xotirasi va ruhi poklariga hurmat bajo keltirdik. Darhaqiqat, ulug' Yo'lboshchimizning vafoti el-yurtimiz uchun beqiyos og'ir yo'qotish bo'ldi.

O'zining butun rahbarlik faoliyatini Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligiga bag'ishlab, ilgari dunyo xaritasida ham bo'limgan mustaqil O'zbekiston davlatiga asos solgan bu ulug' zotning tarixiy xizmatlarini bugungi va kelajak avlodlar hech qachon unutmaydi.

Mana, hozir Urganch aeroportidan kelayotib, yo'lining u tomoniga qarayman, bu tomoniga qarayman. Xorazm vohasining bugungi gullab-yashnayotgan qiyofasida, qad ko'tarayotgan yangi-yangi zamona viy binolar, sanoat korxonalari, muhtasham saroylar, raxon yo'llar, keng maydon va xiyobonlar, bog'-rog'lar,

ta’lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari – bularning barchasida Islom Abdug‘aniyevichning qutlug‘ izlarini, muborak siyemosini ko‘rgandek bo‘laman. Va bunday hissiyotlarni bugungi kunda har bir yurtdoshimiz o‘z qalbidan o‘tkazmoqda, desam, o‘ylaymanki, xato qilmagan bo‘laman.

U kishi qadimiylar va navqiron Xorazm zaminini, uning ko‘hna tarixi va boy madaniyatini, mehnatkash Xorazm ahlini qanday hurmat qilishini, qanday yuksak qadrlashini hammamiz yaxshi bilamiz.

Xorazmliklarning o‘z yurtiga, tug‘ilib o‘sgan tuprog‘iga sadoqatiga Yurtboshimiz doimo qoyil qolib, buni boshqalarga ibrat va namuna qilib ko‘rsatib, «**Yot ellarning bog‘i bilan bog‘chasi, Xorazmning yantog‘icha ko‘rinmas**» degan satrlarni takrorlar edilar.

Yaratganning marhamati bilan 27 yil davomida shu buyuk insonga yelkadosh va safdosh bo‘lib ishslash saodati menga nasib etganidan baxtiyorman. Ana shu davrda u kishidan o‘rgangan ish uslubi, hayot va rahbarlik tajribasini xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmay yashashi uchun safarbar etish qanchalik og‘ir va mas’uliyatli, ayni vaqtida sharafli vazifa ekanini vaqt o‘tgan sari, ayniqsa, chuqur his etmoqdaman.

Buyuk Yurtboshimiz, aziz Islom Abdug‘aniyevichning siyosiy merosini, davlat va jamiyat qurilishi bo‘yicha belgilab bergen strategik g‘oyalari, oldimizda turgan ulkan maqsad va vazifalarni davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarish borasidagi o‘z

burchim va javobgarligimni chuqur his qilgan holda, men bu saylovda ishtirok etish haqidagi taklifni qabul qilganimni aytib o'tishni joiz deb bilaman.

Qadrli do'stlar!

Xorazm deganda, jahon ilm-fani, madaniyat va san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilgan betakror bir o'lka ko'z oldimizga keladi.

Insoniyat tarixidagi eng qadimiy yozma manbalaridan biri bo'lgan «Avesto» kitobining aynan shu zaminda paydo bo'lgani Xorazm yurtining tarixi qanday teran ekanidan dalolat beradi.

Ilk o'rta asrlarda aynan shu yerda asos solingan Ma'mun akademiyasi butun Sharq va G'arb olamida qanday yuksak shuhrat qozongani barchamizga yaxshi ma'lum.

Jo'shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida unib-o'sgan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Sakkokiy, Munis, Fernz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan.

Men ana shunday ulug' ajdodlarimizning bashariyat tarixida tutgan o'rni va ahamiyati haqida shu yil sentabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida so'zlaganimda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan atoqli siyosat va jamoat arboblari ularning buyuk merosiga katta hurmat

va ehtirom bilan qaraganlarini, ularni birgalikda o‘rganish va jahon miqyosida targ‘ib qilishga tayyor ekanliklarini bildirishganini bugun yana bir bor g‘urur bilan takrorlamoqchiman.

El-yurt ozodligini o‘z hayotidan ham ustun qo‘ygan Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi mardlik va jasorat timsoli bo‘lgan bobolarimiz butun xalqimizning iftixoriga aylangan.

Buyuk valiy Najmiddin Kubro ulug‘ yoshda bo‘lishiga qaramasdan, Chingiz lashkarlariga qarshi mardonavor jangga kirgani, Vatan bayrog‘ini uning qo‘lidan tortib ololmagan yovuz bosqinchilar u zot halok bo‘lganidan keyin qo‘lini kesib, bayroqni olishgani tillarda doston bo‘lib keladi.

Bunday beqiyos jasorat bugungi kunda ham yosh avlodimizni Vatanga muhabbat va sadoqat bilan yashash, uni mardona himoya qilish yo‘lida buyuk ibrat namunasi bo‘la oladi.

Xorazm diyoridan yetishib chiqqan ulug‘ olimlar haqida gapirganda, matematika, trigonometriya va geografiya fanlarining shakllanishiga beqiyos hissa qo‘sghan Muhammad Xorazmiy nomini birinchilar qatorida tilga olamiz. O‘nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatlarini aynan shu vatandoshimiz ilk bor asoslab bergen va amaliyotga tatbiq etgan.

Bu ulug‘ zotning nomi «algoritm» va «algebra» kabi zamonaviy ilmiy atamalar bilan birga butun dunyoga tarqalib, yer yuzidagi barcha madaniy xalqlar tillarida qo‘llanib kelmoqda.

Shu o‘rinda bir fikrga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Dunyodagi mashhur «BBC» kompaniyasi

tayyorlagan kichkina bir hujjatli filmni sizlar ham ko'rgan bo'lsangiz kerak.

Unda Buyuk britaniyalik muxbir o'zining mobil telefonini ko'rsatib, «Men har safar shu telefondan foydalanganimda uning ichida mujassam bo'lgan buyuk o'zbek Muhammad Xorazmiy dahosiga ta'zim qilaman» deydi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda axborot-kommunikatsiya sohasida jahonda erishilayotgan baracha yutuqlarga buyuk vatandoshimizning ilmiy kashfiyotlari asos bo'lib xizmat qilayotgani hammasizga g'urur va iftixor baxsh etmaydimi?

Shu munosabat bilan bir taklifni sizlar bilan maslahat qilmoqchiman.

Ma'lumki, poytaxtimizda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, ko'pgina viloyatlarimizda esa uning filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ana shu nufuzli oliy o'quv yurtiga ulug' bobomiz Muhammad Xorazmiy nomini bersak, men o'ylaymanki, har tomonlama adolatli ish bo'lur edi. Sizlar bunga nima deysizlar?

Shu asosda ushbu universitetning obro'-e'tiborini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida biz bilan yaqindan hamkorlik qilayotgan davlatlar, jumladan, Janubiy Koreya bilan Xorazmiy bobomizning nomini, uning bebaho ilmiy merosini yanada chuqur o'rganish va dunyoga targ'ib qilish borasida yangi bir qadam qo'ygan bo'lardik.

«Oqqan daryo – aslo to'xtamas» deganlaridek, Xorazmda ana shunday buyuk allomalarning shonli an'analarini davom ettirayotgan, dunyoda hech kimdan

kam bo‘lmay kamol topayotgan yoshlarimizning safi tobora kengayib borayotgani ayniqsa quvonarlidir.

Mana shunday yoshlarimizdan biri, O‘zbekiston Milliy universitetining matematika fakulteti talabasi Hakimboy Egamberganov qatorasiga uch yil – 2014, 2015, 2016-yillarda matematika bo‘yicha Yevropa mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan xalqaro fan olimpiadalarida oltin medalni qo‘lga kiritib, Xorazmiy bobomizning haqiqiy nabirasi ekanini isbotlab berdi.

Hakimboy Urganch tumanida tug‘ilgan va shu tumandagi 1-son mактабда o‘qigan.

Shu bilan birgalikda u zamonaviy matematikaning jadal rivojlanayotgan sohalarida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Bunday iqtidorli yoshlarimizni har qancha qo‘llab-quvvatlasak, olqishlasak oz deb o‘yayman.

Bu haqda gapirganda, kuni kecha bizni tark etgan sevimli shoirimiz, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning «**Ummon ortin yoritdi ilk bor, Beruniyning aql mash’ali**» degan satrlari beixtiyor yodga tushadi. O‘zbekiston yoshlarining «aql mash’ali» hali ko‘p bor dunyo ahlini hayratga solib, hammani qoyil qoldirishiga ishonaman.

Bugungi kunda xorazmlik buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari sifatida O‘zbekiston Qahramonlari Sharifboy Rajabov, Bekturdi Jumaniyozov, mashhur pedagoglar Vera Pak, Anora Mahmudova va Egambergan Karimov, mohir shifokor Ravshan Qurbonov, temiryo‘l sohasining fidoyi rahbari Ochilboy Ramatov, xizmat ko‘rsatgan paxtakor va qishloq xo‘jaligi xodimlari Baxtiyor Halimbetov, Baxtiyor

Madrimov, Otamurod Xudoynazarov kabi ko‘plab zahmatkash insonlarning, Vatanimizning yanada gul-lab-yashnashi yo‘lida tinmasdan mehnat qilayotgan jonkuyar rahbar Shakarjon Xo‘janiyozovaning nom-larini chuqur hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz.

Sizlar yaxshi xabardor bo‘lsangiz ham, men Xorazm vohasi milliy kino san’atimizning poydevori qo‘yilgan tarixiy yurt ekanini yana bir bor eslatib o‘tmoqchiman. Birinchi o‘zbek kino rejissyori va operatori Xudoybergan Devonov o‘ta murakkab bir davrda, XX asr boshida o‘zbek kino san’atiga asos solgan fidoyi inson sifatida madaniyatimiz tarixida so‘nmas iz qoldirgan.

Xorazmliklarning betakror san’ati haqida har qancha gapirsak arziydi. «Suvora»-yu «Lazgi»ni eshitmagan, ulardan olam-olam zavq olmaydigan insonni yurtimizda topishning o‘zi qiyin.

Safo Mug‘anniy, Chokar, Sheroziy, Matyoqub Xarratov, Bola baxshi kabi tengsiz san’atkorlar o‘zbek san’ati tarixining timsoliga aylangan, desam, xato bo‘lmaydi.

Ikki asr muqaddam bu o‘lkada **«Xorazm tanbur chizig‘i»** deb nomlangan nota tizimi yaratilgani ayniqsa e’tiborga molikdir. Bunday noyob va buyuk merosimizni topib, uni o‘rganish va targ‘ib etishga ulkan hissa qo‘shgan xorazmlik musiqashunos olimlarimiz Otanazar Matyoqubov, Rustam Boltayev, Hamidulla Aminovga chin qalbdan minnatdorlik bildirishni o‘zimning burchim deb bilaman.

Ayni vaqtida biz Xorazmning mana shunday behaho madaniy merosini, ayniqsa, Xorazm maqom-larini yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish,

ularni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, katta bilim va fidoyilikni talab qiladigan bu sohaga yosh san'atshunoslarni jalb etish, buning uchun tashkiliy, moddiy va ma'naviy tomonidan tegishli sharoitlarni yaratib berish bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz zarur.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Xorazm Ma'mun akademiyasi, O'zbekiston davlat konservatoriysi va boshqa ilmiy dargohlarimiz bu masalani o'z nazora-tiga olsa, viloyat hokimligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi bu ishni har tomonlama qo'llab-quvvatlasa, ayni muddao bo'lur edi.

Sizlar yaxshi bilasizlar, O'zbekiston xalq artistlari Ortiq Otajonov, Bobomurod Hamdamov, Olmaxon Hayitova, Otajon Xudoyshukurov, Gulnora Raximova, O'zbek xalq hofizi Ro'zmet Jumaniyozov singari elimiz sevgan o'nlab san'atkorlarning ustozи Komiljon Otaniyozovdir.

Vatanimiz go'zalligini, yuksak insoniy tuyg'ularni avj pardalarda kuylagan, benazir ovoz sohibi Komiljon Otaniyozov tavalludiga kelgusi yili 100 yil to'ladi. Buyuk san'atkorimizning yubileyini haqiqiy san'at va nafosat bayrami sifatida butun mamlakatimiz miqyosida keng nishonlasak, Xorazm ahlining haqiqiy orzusi amalga oshadi desam, nima deysizlar?

Hozirgi vaqtida Xorazmda ulug' hofizning xotirasini abadiylashtirish maqsadida, avvalo, uning fidoyi muxlislari tomonidan viloyat miqyosida birmuncha ishlar qilinganidan biz xabardormiz.

Ammo, ochiq tan olish kerak, bu ishlar buyuk san'atkorning shon-shuhrati va mavqeyi darajasida emas.

Shuning uchun viloyatda Komiljon Otaniyozov nomi bilan ataladigan bir zamонавија ijod markazi va uning tarkibida go‘zal bog‘ tashkil etsak, iste’dodli yoshlarimizning bu yerga kelib, adabiyot va san’at, kino, fotografiya sirlarini chuqur o‘rganishini yo‘lga qo‘ysak, nur ustiga nur bo‘lar edi.

Yubiley tadbirdari doirasida, umuman, Xorazmning o‘lmas musiqiy merosi, xususan, Komiljon Otaniyozov ijodiga bag‘ishlab xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zining yorqin iste’dodi bilan Xorazm san’atini dunyoga tarannum etib kelayotgan O‘zbekiston xalq artistlari Gavhar Matyoqubova, Maryam Ixtiyorova, Ortiq Otajonov, aka-uka Eshchonovlar, Farhod Davletov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Tohir Saidov, Aleksandr Bekchonov, To‘lqin Jabborov, «Nihol» mukofoti sovrindorlari Bunyodbek Saidov, Dilmurod Sultonov va barcha-barcha xorazmlik ijodkorlarga yangi-yangi muvaffaqiyatlar tilashga ruxsat bergaysiz.

Bu diyorda tug‘ilib kamolga etgan Erkin Samandar, Omon Matjon, Komil Avaz, Gavhar Ibodullayeva kabi o‘nlab shoir va yozuvchilar o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotganini xalqimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Xorazmlik mashhur akademiklarimiz Sa’dulla Iskandarov, Azimboy Sa’dullayev, professorlar Bahrom Abdullayev, Shavkat Qodirov, Ikrom Abduvaliyev singari olimlarimiz bugun ham o‘zbek ilmfani shuhratini dunyoga yoyib kelmoqdalar.

Va bu bizning demokratik taraqqiyot yo‘lidagi eng katta yutug‘imizdir, desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

O‘zining qadimiyligi mobaynida ko‘p sinov va mashaqqatlardan o‘tgan, hayotning ma’nosini, insonning qadr-qimmatini yaxshi anglaydigan Xorazm ahli bu siyosiy jarayonda o‘zining siyosiy yetukligini, faol grajdaniqlik pozitsiyasini namoyish etadi, deb ishonaman.

Muhtaram saylovchilar!

Mening saylovoldi dasturimda belgilangan maqsad va vazifalar, avvalo, o‘tgan davrda mamlakatimiz erishgan ulkan yutuqlarga asoslanadi. Chunki bugun qaysi marrada turganimizni bilib, anglab olmasdan biz keyingi, yanada yuqori marraga ko‘tarila olmaymiz.

Bu haqda gapirganda, Xorazm viloyatida oxirgi besh yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 1,6 barobar oshganini, unda sanoatning ulushi 25,5 foizga yetganini alohida ta’kidlash lozim.

Jumladan, shu davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,5 barobar, iste’mol tovarlari 3,3 barobar, qurilish ishlari 1,8 barobar va chakana savdo aylanmasi 1,5 barobar o‘sdi.

Albatta, bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

Ammo biz uchun bu raqamlar xalqimizning kundalilik hayotida, dasturxonida, uning kayfiyatida qanday aks etmoqda, degan savol eng muhim ahamiyatga ega. Nega deganda, bizning barcha sa’y-harakat va intilishlarimiz, avvalo, ulug‘ bir maqsadga – inson manfaatini ta’minlash, odamlarning ro‘zg‘orini obod, hayotini yanada farovon qilishga qaratilgan.

Viloyatda keyingi yillarda jon boshiga hisoblaganda aholi daromadlari 2 barobarga o'sgani hammamizni quvontiradi. Bu, o'z navbatida, odamlarimizning turmush darajasi va sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Masalan, so'nggi besh yilda har yuzta xonadonga to'g'ri keladigan avtomobillar soni 1,6 barobar, kir yuvish mashinalari 1,3 marta, pilesos, televizor va xolodilniklar 1,2 marta ko'paygan.

Ma'lumki, Birinchi Prezidentimizning 2012-yil 22-noyabrdagi qarori asosida 2013–2015-yillarda Xorazm viloyati sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi qabul qilingan edi. O'tgan davrda ushbu dastur doirasida 308 million dollardan ortiq investitsiya hisobidan 432 ta sanoat korxonasi tashkil etildi.

Ayniqsa, viloyatda «Damas», «Orlando» va «Labo» avtomobillari, gidravlik ekskavatorlar, buldozerlar, maishiy va sanoatbop xolodilniklar kabi yuqori texnologiyalar asosida mahsulot chiqaradigan korxonalar barpo etildi.

Bunday katta o'zgarishlarni yengil sanoat sohasida ham ko'rish mumkin. Xususan, Bog'ot, Hazorasp, Shovot, Yangibozor tumanlarida yangi zamonaviy to'qimachilik majmualari ish boshladi.

Bugungi kunda viloyatdagi 34 ta qo'shma korxona ning 15 tasi yoki qariyb yarmi oxirgi besh yilda, ilgari bunday korxonalar mavjud bo'lмаган tumanlarda tashkil etilgani e'tiborlidir.

Yana bir muhim tarmoq – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Keyingi besh yilda viloyatda 5 ming 300 dan ortiq yangi kichik biznes subyekti tashkil etilib, ularning umumiyligi soni qariyb 11 mingtaga yetdi.

Bugungi kunda ushbu sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 74 foizga, hududiy eksport tarkibida esa 42 foizga yetdi. Viloyatda mehnat bilan band aholining 82 foizdan ziyodi aynan shu sohada ishlamoqda.

Hammangiz yaxshi bilasiz, muhtaram Islom Abdug‘aniyevich ushbu viloyatning og‘ir iqlim va tuproq sharoitini hisobga olib, «**Xorazm dehqonining har bir kuni – bu haqiqiy qahramonlik**», degan gapni ko‘p takrorlar edilar.

Haqiqatan ham, yozi jazirama issiq, qishi qahraton sovuq bo‘ladigan, yerlari kuchli darajada sho‘rlangan bu hududda mardona mehnat qiladigan voha dehqon va fermerlarini **bir emas, ikki marta qahramon**, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Men o‘ylaymanki, dehqonchilikning qanday qiyin va mashaqqatli soha ekanini, Xorazm sharoitini biladigan har qanday odam mening bu fikrlarimga albatta qo‘shiladi.

Bunday murakkab sharoitda bir tup giyoh, bir tup ko‘chatni ko‘kartirish qanday katta mehnat va fidoyilik evaziga amalga oshishini bilgan odam biladi, bilmagan odam bilmaydi.

Dunyodagi eng mashaqqatli kasb bo‘lgan dehqonchilik sohasida Xorazm ahli beqiyos tajribaga ega. Xorazm dehqonchilik maktabini, ana shunday boy va noyob tajribalarni chuqur o‘rganish va boshqalarga o‘rgatish, keng ommalashtirish maqsadida viloyatda bir ilmiy markaz tashkil etsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bu markazga moliyaviy va ilmiy-metodik tomonidan tegishli yordam va ko‘mak ko‘rsatish vazifasini

Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi zimmasiga yuklash ko‘zda tutilmoqda.

Men o‘ylaymanki, mana shunday markazni tashkil etsak, nafaqat mamlakatimiz, balki xorijiy o‘lkalardan ham fermerlar, olim va mutaxassislar kelib, Xorazm dehqonchilik maktabining sirlarini atroflicha o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar.

Fursatdan foydalanib, bu yil g‘alla, paxta, sholi va meva-sabzavot ekinlaridan mo‘l hosil yetishtirgan, rizq-ro‘zimiz bunyodkori bo‘lgan mirishkor dehqon va fermerlarga, barcha dala mehnatkashlari, butun Xorazm ahliga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli do‘sstar!

Bizning saylovoldi dasturimizda mamlakatimizning barcha hududlari qatori Xorazm viloyatini rivojlantirish bo‘yicha ham aniq rejalar ishlab chiqilgan. Ruxsatingiz bilan ular haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

**Viloyatda yaqin besh yilda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha 645 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.**

Eng yirik loyihalardan biri – «UzXCMG» O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma korxonasida 15 million dollar investitsiya hisobidan yiliga 400 dona gidravlik ekskavator va yo‘l qurish texnikasini ishlab chiqarish loyihasi joriy etiladi.

**Oziq-ovqat sanoatida** kelgusi besh yilda umumiy qiymati 118 milliard so‘m bo‘lgan 231 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Shular qatorida 2018-yilda Urganch tumanidagi «Elita chorva nasl» korxonasida 1 milliard 100 million so‘m sarmoya

kiritib, meva-sabzavot sharbatlari tayyorlaydigan korxona tashkil etiladi.

**Yengil sanoat, charm-poyabzal tarmoqlarida** kelgusi besh yilda 118 ta loyiha amalga oshiriladi.

Jumladan, Urganch shahri, Bog'ot, Gurlan, Hazorasp, Xonqa va Yangiariq tumanlarida zamonaviy korxonalar tashkil etiladi.

Shuning hisobidan viloyatda paxta tolasini qayta ishslash darajasi bugungi kundagi 46,6 foizdan 2021-yilda qariyb 64 foizga yetkaziladi.

**Yana bir muhim dastur** – 2017–2021-yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi.

Mazkur dasturda yaqin besh yilda 2 milliard 200 million dollar investitsiya jalb etib, 120 ta yangi korxona tashkil etish, 20 ta korxonani modernizatsiya qilish ko‘zda tutilmoqda.

Buning natijasida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,2 marta ortadi. Xorazm viloyatida bu borada 8 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

**Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida** 192 ta loyiha amalga oshiriladi. Misol uchun, Xonqa tumanidagi «Obi hayot injiniring» korxonasida yiliga 80 ming metr polietilen quvur tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi.

**Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish** bo‘yicha ishlar davom ettiriladi. 2017-yilda bu borada 12 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lsa, 2021-yilga borib, ularning soni 25 taga yetkaziladi.

Xorazm viloyatida kelgusi besh yilda hududiy eksport hajmini kamida ikki barobar oshirish, eksport

faoliyatiga kamida 120 ta korxonani jalb etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

**Biz qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va modernizatsiya qilishni izchil davom ettiramiz.**

Kelgusi besh yilda yer maydonlarini optimallashtrish hisobidan go‘sht va sut ishlab chiqarishni kamida 1,9 barobar, tuxumni 1,2 marta, kartoshka, mevasabzavot va uzum yetishtirishni 1,3 karra ko‘paytirish, shuningdek, ularni qayta ishlashni kengaytirish yuzasidan samarali ish olib boriladi.

Viloyatda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun magistral kanallar rekonstruksiya qilinadi, nasos bilan sug‘oriladigan maydonlar 30 ming gektardan ortiq ekin maydonlarida sizot suvlar sathi pasaytiriladi.

Ma’lumki, Xorazm vohasi betakror tabiat, UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan noyob madaniy va tarixiy obidalari, infratuzilma tarmoqlari bilan O‘zbekistonning yuksak sayyoqlik salohiyatiga ega bo‘lgan hududlaridan hisoblanadi.

Shu sababli, viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish ishlari izchil davom ettiriladi. Jumladan, kelgusida yana 25 ta yangi mehmonxona qurish va mavjud 5 ta mehmonxonani kengaytirish hisobidan ulardagi o‘rinlar soni 2 ming 100 tadan 3 ming 170 taga yetkaziladi. Shuningdek, 22 ta madaniy-tarixiy meros obyektida ta’mirlash va tiklash ishlari bajariladi.

Bog‘ot, Xonqa, Yangibozor va Urganch tumانlarida Amudaryo sohillarida, «G‘ovukko‘l» va «Eshonravot» ko‘llari bo‘yida sog‘lomashtirish-sayyoqlik majmualari barpo etiladi.

Ana shunday ishlarimiz natijasida 2021-yilga borib, viloyatga keladigan xorijiy sayyoohlar soni ikki barobar ko‘payib, 100 ming nafarga yetishi kutilmoqda.

**Viloyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yanada rivojlantiriladi.** Biz davlat va nodavlat korxonalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samarasini oshirish bo‘yicha katta ishlarni bajarishimiz zarur.

Aholiga ko‘rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari sifatini oshirish maqsadida kelgusi besh yilda 316 kilometr optik tolali aloqa tarmoqlarini va 60 ta mobil aloqa tayanch stansiyasini qurish nazarda tutilmoqda.

Hazorasp tumanidagi Tuproqqa‘l'a va Sarimoy aholi punktlarida to‘rtta raqamli teleuzatgich o‘rnatish orqali viloyat hududida raqamli televideniyeden foydalanish darajasini 76 foizdan 100 foizga yetkazish mo‘ljallanmoqda. Bu rejalarmi belgilangan muddatda va yuqori sifat bilan amalga oshirish uchun biz barcha resurs va imkoniyatlarga egamiz.

Hammamizga ma‘lumki, biz bugun axborot globallashuvi davrida yashayapmiz. Biz istaymizmi, yo‘qmi, yurtimizga turli ko‘rinishdagi axborot xurujlari bo‘lishi tabiiy.

Ana shunday xurujlarga qarshi aholida, ayniqsa, yoshlarda immunitetni mustahkamlash, ularni milliy qadriyatlarimiz, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda televideniye va radioning o‘rni beqiyosdir.

Afsuski, Toshkentdagagi respublika televideniyesidan keyin ikkinchi bo‘lib respublikamizda ish faoliyatini boshlagan Xorazm viloyati televideniyesi binosi o‘tgan

asrning 60-yillarida hashar yo‘li bilan qurilgan. Bu bino bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermaydi.

Shu sababli, viloyat televideniyesi uchun Urganch shahri markazida yangi bino qursak, bunga qanday qaraysizlar?

Xuddi shuningdek, bugungi kunda viloyatda 31 ta davriy nashrlar mavjud. Aholini, ayniqsa, yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashdagi ularning ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi.

Shu boisdan, mahalliy jurnalislarning malakasini oshirish, turli ijodiy uchrashuvlar, seminar va o‘quvlar o‘tkazish, kasb mahorati bo‘yicha fikr-mulohazalar almashishga xizmat qiladigan «**Matbuot uy**» binosini qursak, maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Aziz Xorazm ahli!

Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, sog‘lom hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o‘zining dolzarbligini yo‘qotmaydigan masala hisoblanadi.

Bu borada avvalo, kasb-hunar kollejlarini, oliv o‘quv yurtlarini bitirayotgan yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularning qobiliyati va salohiyatini namoyon etishlari uchun yetarli shart-sharoit yaratib berish hammamizning nafaqat vazifamiz, balki burchimiz ekanini alohida ta’kidlamoqchiman.

Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu muammoning naqadar o‘tkir va keskin bo‘lib turganini anglash qiyin emas.

Shu sababli, yoshlarimiz tarbiyasiga, ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, bunda jamoat tashkilotlari, bиринчи navbatda, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ishtirokini kengaytirish kabi masalalarga yanada jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim.

Bu borada bizning dastur va rejalarimizda qiz bolalarni ilm-fan, kasb-hunar sirlarini puxta egallashga o'rgatish, ularning manfaatlarini himoya qilish, hayotda munosib o'rnni topishiga ko'maklashish, erta nikohlarning oldini olish kabi muhim vazifalar ham o'z ifodasini topgan. Ularni amalga oshirishda yaqinda qabul qilingan **«Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»**gi qonun barchamiz uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi kerak.

Barchangiz yaxshi tushunasizki, yuqorida zikr etilgan dolzarb muammolarni hal etish bevosita hududlar, tuman va shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, odamlarning hayotiga va kayfiyatiga salbiy ta'sir etadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish bilan uzziy bog'liqdir.

Shu borada biz hozirgi vaqtda ayni shu yo'naliishlarda bir qator muhim dasturlar qabul qildik. Aytish kerakki, bu dasturlarning ayrimlari keyingi paytda qabul qilingan farmon va qarorlar bilan tasdiqlanib, ularning ijrosi bo'yicha ishlar boshlab yuborildi.

**Birinchidan,** Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, farmon bilan tasdiqlandi.

Bu haqda ko‘p gapirmasdan faqat bitta fikrni ta’kidlashni zarur, deb bilaman.

Ushbu dastur shu borada oldin qabul qilingan qonun hujjatlarini joylarda so‘zsiz bajarish, yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, davlat organlari tomonidan tadbirkorlarga halaqit berish, ularning yo‘liga to‘siq qo‘yish emas, aksincha, har tomonlama keng ko‘mak berishni ta’minlashga qaratiladi.

Kelgusi besh yil mobaynida Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar miqdorini kamida uch barobar ko‘paytirish bo‘yicha aniq vazifalar qo‘yilmoqda.

Bu borada ko‘riladigan aniq choralar natijasida yaqin besh yilda 6 ming 500 dan ortiq yangi kichik biznes subyekti tashkil etiladi va ularning umumiy soni 17 mingtaga yetkaziladi.

Shu o‘rinda bir taklifni o‘rtaga tashlamoqchiman. Yaxshi bilasizlar, bugungi kunda Navoiy, Jizzax, Angren shaharlarida erkin industrial hududlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularga qo‘srimcha ravishda hozir Urgut, Qo‘qon va G‘ijduvon tumanlarida ham ana shunday erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilinayapti.

Xorazm viloyatida ham tadbirkorlik juda rivojlangan. Shuni inobatga olib, Hazorasp tumanida, Pitnak shahrida erkin industrial zona tashkil qilsak, sizlar nima deysizlar?

**Ikkinchidan**, 2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uyjoylar qurish dasturi tasdiqlanganidan barchangizning xabaringiz bor.

Ushbu dasturda qishloq joylardagi daromadi kam bo‘lgan va yosh oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, qulay va arzon ko‘p qavatli uylarni qurish yo‘li bilan ularning uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, turmush darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Ularga ko‘ra, kelgusi yilda 15 mingta ana shunday uy-joy quriladi. Jumladan, Xorazm viloyatida 2017-yilda 1 ming 72 ta namunaviy uy-joy qurish va keyingi yillarda ham bu ishlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

Ayni paytda shahar va qishloqlarimizning qiyofasini tubdan yaxshilash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib boriladi. Misol tariqasida, keyingi yilda Urganch shahridagi Tinchlik va Ma’rifatchi ko‘chalarini rekonstruksiya qilish ishlari nihoyasiga yetkaziladi. Amir Temur nomidagi istirohat bog‘i rekonstruksiya qilinadi. Bunday qurilish va obodonchilik ishlari barcha tuman markazlari va aholi punktlarida ham keng ko‘lamda olib boriladi.

Shuningdek, Urganch shahri va tuman markazlarida zamonaviy loyihalar asosida jami 1 ming 472 ta kvartiraga mo‘ljallangan 46 ta ko‘p qavatli «Kamolot» uylarini barpo etish va ularni ijtimoiy hayotimizda faol ishtirok etayotgan yoshlarimizga topshirish mo‘ljallanmoqda.

**Uchinchidan**, Hududiy avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturiga binoan Xorazm viloyatida kelgusi besh yilda umumfoydalanishdagi

mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan 123 kilometr avtomobil yo‘llarini kapital ta’mirlash, 503 kilometr ichki yo‘llarni joriy va kapital ta’mirlash, 9 ta ko‘priksiya rekonstruksiya qilish bo‘yicha vazifalar belgilab olingan.

**To‘rtinchidan,** Shahar va qishloqlarda transport ta’minotini yanada rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda.

Xorazmda aholiga transport xizmati ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida oxirgi 5 yil davomida 393 ta avtobus va 181 ta mikroavtobus sotib olinib, Urganch shahri va shahar atrofi yo‘nalishlariga qo‘yildi.

Bu boradagi ishlarni izchil davom ettirgan holda, kelgusi besh yilda yana 169 ta avtobus sotib olish, 6 ta avtostansiya qurish, chekka hududlarda yashovchi aholi uchun qo‘srimcha transport yo‘nalishlarini tashkil etish rejalashtirildi.

Bundan tashqari, kelgusi ikki yilda qariyb 76 million dollar investitsiya o‘zlashtirish hisobidan umumiyligi 36 kilometrdan ziyod Miskin-Urganch temiryo‘l tarmog‘ini elektrlashtirish mo‘ljallanmoqda. Mavjud 134 kilometr temiryo‘l tarmoqlari ta’mirlanib, Hazoraspdagagi vokzal rekonstruksiya qilinadi.

**Beshinchidan,** Qishloqlarda ichimlik suvi ta’minoti tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturiga muvofiq yaqin besh yilda Xorazm viloyatida 718 kilometrdan ortiq suv tarmoqlari yangitdan quriladi, 115 kilometr tarmoq esa tubdan ta’mirlanadi.

40 million dollar investitsiya hisobidan Urganch, Xiva va Pitnak shaharlarida kunlik quvvati 80 ming kubometrni tashkil etadigan oqova suvni tozalash

inshootlari hamda 134 kilometr oqova suv tarmoqlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Orolbo‘yi mintaqasida joylashgan Xorazm vohasi uchun aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minalash naqadar dolzarb ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Dasturda belgilanadigan ishlarni amalga oshirish natijasida 220 ming aholini ichimlik suvi bilan ta’minalash yaxshilanib, ichimlik suvi ta’minti darajasi viloyat bo‘yicha 91 foizga yetkaziladi.

**Oltinchidan**, Ko‘mir tannarxini va aholiga xarid qiymatini pasaytirish, shuningdek, qish mavsumida bu borada chayqovchilik qilishni va narxlarning oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Dasturda kuz-qish mavsumida tumanlar va qishloq joylarda ko‘mirga bo‘lgan talabni qondirish, aholini ko‘mir bilan uzlusiz ta’minalash, uning tannarxi va iste’molchiga yetkazib berish narxini kamaytirish bo‘yicha kompleks qo‘srimcha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Dasturga asosan, viloyatdagi ko‘mir yetkazuvchi korxona tomonidan ko‘mirni mahallalarga olib borib, tarqatish yo‘lga qo‘yiladi.

Hozirgi kunda Xorazm viloyatida bir tonna ko‘-mirning narxi 126 ming so‘m qilib belgilandi. Shuningdek, Urganch shahrida briketlangan ko‘mir ishlab chiqaradigan korxona tashkil etilib, kuniga 40 tonna mahsulot tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi.

**Yettinchidan**, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash maqsadida ishlab chiqilayotgan dastur doirasida kelgusi besh yilda viloyatda 1 ming 107 kilometr elektr

tarmoqlari, 336 ta transformator punkti va 5 ta podstansiya qurish rejalarashtirilmoqda.

Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasidan Xorazm-dagi Sarimoy aholi punktigacha 220 kilovoltli elektr tarmog‘ini barpo etish mo‘ljallanmoqda. Bu loyihani amalga oshirish natijasida viloyat aholisi va korxonalarini elektr energiyasi bilan ta’minalash yaxshilanadi.

Kelgusi ikki yilda Bog‘ot va Shovot tumanlarida qiymati 176 million dollar bo‘lgan 60 megavatt quyosh elektr stansiyasi qurish mo‘ljallanayotganini aytib o‘tishni zarur deb bilaman.

**Sakkizinchidan**, Maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturi tayyorlanmoqda. Bolaning inson sifatida shakllanishi, avvalo, oilada va bolalar bog‘chasi dagi sharoit va tarbiya ishlariga bog‘liq. Olimlar va pedagoglar bola tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi, deb hisoblaydilar.

Shuning uchun farzandlarimiz kamoloti yo‘lida biz mablag‘ va imkoniyatni ayamasligimiz kerak. Dasturda yangi bolalar bog‘chalari qurish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

Xorazm viloyatida kelgusi besh yilda jami 228 ta maktabgacha ta’lim muassasasi rekonstruksiya qilinadi va kapital ta’mirlanadi.

Ayni vaqtida bu sohada xususiy bolalar bog‘chalari faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ham keng imkoniyat ochib beriladi.

**To‘qqizinchidan**, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda. Bozorlar – azaldan yurtimizda tinchlik, to‘kinlik va farovonlik belgisi hisoblanadi. Ayni vaqtida bozorlar – hayot darajamiz, milliy madaniyatimizning ko‘zgusi hamdir.

Dasturga muvofiq, kelgusi besh yilda Urganch shahri va 9 ta tuman markazida joylashgan dehqon bozorlari rekonstruksiya qilinadi. Bundan tashqari, Urganch shahridagi mahallalarda joylashgan kichik bozorlarning qiyofasi ham zamonaviy ko‘rinishga keltiriladi.

Shuningdek, bozorlar qoshidagi savdo-xarid korxonalarini va avtomobillar to‘xtash joylari faoliyatini yaxshilash, bozorlar faoliyatini, shu yo‘nalishdagi me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha zarur ishlar amalga oshiriladi.

**Yana bir muhim dastur** – pensionerlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilash masalalari bilan bog‘liq.

Tayyorlanayotgan ushbu dasturda muhtaram faxriyalarimiz oldidagi farzandlik burchimizni ado etish, ularning umrini mazmunli qilish maqsadida kelgusi besh yilda pensioner, nogiron, yolg‘iz qariylar va aholining kam ta’minlangan qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Jumladan, Xorazm viloyatida ana shunday toifaga mansub fuqarolarning sog‘ligini mustahkamlash uchun har yili ularning 2 ming 250 nafarini, shuningdek, 450 nafar urush va mehnat fronti faxriysini turli

sanatoriylarga imtiyozli yo‘llanmalar bilan ta’minlash rejalahtirilmoxda.

Hozirgi paytda ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli ana shu yo‘llardan foydalana olmayapti.

Xo‘sh, bunday sharoitda nima qilish kerak? Ushbu yo‘llanmaning o‘rtacha narxi hozirgi kunda 800 ming so‘mni tashkil etmoqda. Biz bunday nuroniylarimizga yo‘llanmalarning pulini berishga qaror qildik. O‘yaymanki, bu – adolatli yechim.

Bundan tashqari, «Nuroniy» jamg‘armasi, «Mahalla» jamoat fondi, Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari hamkorligida yolg‘iz qariyalarni har yili qish mavsumi uchun kiyim-bosh va oziq-ovqat zaxirasi bilan ta’minlash ishlari bundan buyon ham davom ettiriladi.

Kelgusi to‘rt yilda yurtimizdagи barcha «Muruvvat» va «Saxovat» uylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, ularda har jihatdan zamonaviy sharoitlar yaratish belgilangan.

«Nuroniy» jamg‘armasining maqomi va mavqeyini ko‘tarish, uning viloyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko‘paytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga biz alohida e’tibor qaratamiz.

Birinchi navbatda, shahar va tumanlarda jamg‘armaning davlat budgetidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan bo‘limlari tashkil etiladi.

Aziz do‘sstar, mo‘tabar keksalarimiz, ota-onayu bobo-momolarimiz boshimizdagи toji davlatimiz ekanini hech qachon unutmaylik.

Bu g‘animat, ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketadigan hayotda ularni qancha qadrlab, qancha e’zozlasak,

bu dunyoda ham, u dunyoda ham hech qachon kam bo‘lmaymiz.

Yana bir muhim hujjat – onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqilmoqda.

Dasturga muvofiq, barcha yangi tug‘ilgan chaqlarloqlar, o‘smir qizlar, homilador va tug‘ish yoshidagi ayollar bugungi 70 foiz o‘rniga 100 foiz patronaj tizimi bilan qamrab olinadi. Natijada, kasallanish holatlarining oldi olinib, onalar va bolalarda kasalliklarni erta aniqlash ko‘rsatkichi 60 foizdan 85 foizga yetkaziladi.

Shuningdek, dasturda ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish, jumladan, shu yo‘nalishdagi davolash va profilaktika tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash, ularga maxsus va yuqori texnologiyalar assosida tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda.

Xorazm viloyatida ham kelgusi besh yilda Qo‘siko‘pir, Hazorasp, Urganch va Yangibozor tumanlari tibbiyot birlashmalariga qarashli tug‘ruq komplekslari va bolalar bo‘limlari, Urganch shahridagi klinik shifoxonani rekonstruktsiya qilish va jihozlash rejalashtirilmoqda.

**Yana ikkita muhim hujjat** – Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish hamda Aholini dori vositalari bilan ta’minlash darajasini oshirish va dori-darmon narxlari shakllanishini takomillashtirish dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Bizda dori vositalari ishlab chiqarish va dori-darmonlarning narxi masalasida muammolar borligini ochiq tan olishimiz kerak. Bu masalalar aholini qiyinayotgani, ularning ko‘p mablag‘i dori-darmonga sarf bo‘layotgani hech kimga sir emas. Dastur doirasida umuman tibbiyot sohasini tubdan isloh qilishga qaratilgan 4 ta hukumat qarorini qabul qilish belgilangan.

Jumladan, farmatsevtika sohasida 2016–2020-yillarda mamlakatimizda 67 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Natijada farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,5 barobar ko‘payadi. 22 ta yo‘nalish bo‘yicha keng turdag'i yangi dori vositalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Xorazm viloyatida kelgusi besh yilda 39 ta korxonada 100 dan ortiq nomdagi import o‘rnini bosadigan dori vositalari ishlab chiqariladi. Viloyatdagi shahar va tuman tibbiyot birlashmalarida ijtimoiy dorixonalar tashkil qilinadi va ularda dori vositalari arzon, maqbul narxlarda sotilishi ta’minlanadi.

**O‘n to‘rtinchidan**, qattiq maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish dasturi tayyorlanmoqda. Bu masalaga mening ma’ruzamda juda qisqa – yarim betgina joy ajratilgan, lekin uning qanday katta ahamiyatga ega ekanini tushunish, anglash qiyin emas.

Dasturda kelgusi besh yilda qattiq maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish bo‘yicha muhim tadbirlar belgilanadi.

Jumladan, Xorazm viloyatida 71 ta noqonuniy joyda to‘planib qolgan chiqindilarni joriy yil oxirigacha tugatish vazifasi qo‘yilmoqda. Viloyatdagi sanitariya-tozalash va obodonchilik tashkilotlari qo‘shimcha ravishda 15 ta maxsus yuk transport vositasi va boshqa zarur texnikalar bilan ta’minlanadi.

Kelgusi ikki yilda jami 4 milliard 700 million so‘mdan ortiq mablag‘ hisobidan viloyatdagi maishiy chiqindi poligonlari tartibga solinadi.

Hammamiz tushunamizki, kun tartibiga qo‘yilayotgan bunday ulkan masalalarni hal qilish uchun, avvalo, mablag‘ kerak, daromad kerak. Shu nuqtayi nazardan qaraganda bugungi kunda mahalliy budgetlarning subvensiyaga qaramlik darajasini keskin kamaytirish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi. Hozirgi vaqtida 8 ta tuman – Bog‘ot, Gurlan, Qo‘sisko‘pir, Xonqa, Xiva, Shovot, Yangiariq va Yangibozor tumanlari mahalliy budgetlari xarajatlarining 33-62 foizi subvensiya hisobiga qoplanmoqda.

Albatta, viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha yuqorida aytib o‘tilgan chora-tadbirlar ishlab chiqarishning sezilarli darajada o‘sishini, demakki, mahalliy daromad bazasini ham ko‘paytirishni ta’milaydi. 2020-yilda Xiva va Xonqa tumanlarini, 2021-yilda Shovot tumanini subvensiyadan chiqarish ko‘zda tutilmoqda.

Aziz yurtdoshlar!

Sizlarning e’tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiiman. Bu xalqimizning tinchligi, kafolatlangan xavfsizligini ta’minalash masalasidir. Biz bu maqsadga erishish uchun hozirgi vaqtida Ichki ishlar

vazirligi tizimini tubdan o‘zgartirish chora-tadbirlarini ko‘ryapmiz.

O‘z paytida Muhtaram Yurtboshimiz ichki ishlar idoralarining eng quyi tizimida profilaktika inspektorlarini tashkil qilgan edilar. Ammo bugun bu inspektorlar profilaktika, ya’ni jinoyatlarning oldini olish bilan shug‘ullanmayapti, aksincha, sodir bo‘lgan jinoyatlarni ro‘yxatga olish, yuqori idoralarga hisobot yozish bilan band.

Shu sababli, bu masalaga qarashimizni tubdan o‘zgartirib, mahalladagi uchastka nozirlariga samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz. Ularga xizmat uylari va avtomashinalar beriladi. Uchastka nozirlari endi kechasi bilan uxlamay mahalla osoyishtaligini qo‘riqlab yuradigan bo‘ladi.

Shuningdek, har bir tuman hokimi va tuman ichki ishlar bo‘limlari rahbarlarining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rnbosari lavozimi joriy etiladi.

Bu rahbarlarning asosiy vazifasi mahallada uchastka inspektorlari bilan ishlashni tashkil etadi. Ularning kechasi mahallada yurganini aholi ko‘rsa, o‘z xavfsizligiga qanoat hosil qiladi. Shundagina odamlar uyida tinch-xotirjam uxlaydi.

Aziz do‘sstar!

Mustaqillik yillarida biz erishgan eng katta va beba ho boylik – ko‘pmillatli xalqimizning ahilli, jamiyatimizdagi o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir.

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kelayotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo

hushyor va ogoh bo‘lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash – xavfsizlik va barqarorlikni hamda xalqimizning osoyishta hayotini ta’minlashning eng muhim sharti va kafolatidir.

Yana bir bor ta’kidlab aytmoqchiman – biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga tahdid solishga urinadigan yovuz kuchlarning har qanday harakatlariga keskin zarba berishga qodirmiz.

**Tashqi siyosat** sohasida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to‘liq amal qilish saylovoldi dasturimizning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bu siyosatning asosiy ma’no-mazmuni – tinchlik-parvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo‘l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘silmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O‘zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shti mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Men mana shu ma’ruzaga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida mutafakkir bobomiz Abullays Samar-

qandiyning shu haqda aytgan bir fikriga duch keldim.  
Bu ulug' zot, mana, nima deb yozgan ekanlar:

**«Parvardigor bizga nasiba qilib yaratgan barcha ne'mat va boyliklar ichida doimo qadr-qimmat qilishimiz lozim bo'lgan, e'zozlashimiz shart bo'lgan oliv fazilat – bu do'stlik va mehr-oqibatdir».**

Qarang, qanday zo'r, qanday chuqur ma'noli, bugungi kunimiz uchun ham qanday zarur gap.

Bugun mana shu ezgu yo'lida yangi amaliy qadamlar qo'yayotganimiz, jumladan, Xorazm viloyatiga yaqin qo'shni bo'lgan qardosh Turkmaniston davlatining Prezidenti hurmatli Gurbanguli Berdimuhamedov bilan o'tkazgan muzokaralarimiz, o'zaro hamkorlik aloqalarimiz rivojlanib borayotgani buning yana bir tasdig'idir va biz bu ishlarni izchil davom ettiramiz.

Bunday hamkorlik rishtalari ham yurtimizda, ham mintaqamizda tinchlik va taraqqiyotni mustah-kamlashga xizmat qiladi.

Muhtaram va qadrli yurtdoshlarim!

Biz saylovoldi dasturimizda belgilab olgan maqsad va vazifalarni hayotga to'liq tadbiq etish, mamlakatimizni yanada rivojlantirish uchun kelgusi besh yilga mo'ljallangan asosiy ustuvor yo'nalishlar bo'yicha Harakat strategiyamizni ishlab chiqamiz.

O'tgan davrda mamlakatimizda samarali amalgaga oshirib kelingan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi taraqqiyot yo'lini yangi bos-qichga ko'tarishda biz yurtimizda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, mana shu zaminning gullab-yashnashi yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan barcha

yurtdoshlarimiz, butun xalqimizning aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyatiga tayanamiz.

Men butun xalqimiz qatorida go‘zal va betakror Xorazm viloyat ahlining tinch, erkin va farovon hayotini ta’minlash, uning ezgu orzu-niyatlarini amalga oshirish yo‘lida butun borlig‘imni ayamasdan xizmat qilishni, sizlarning ishonchingizni oqlashni o‘zim uchun yuksak sharaf deb bilaman.

So‘zimning oxirida sizlarga va sizlar orqali ko‘pni ko‘rgan, mard va olijanob, bag‘rikeng Xorazm ahliga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonardonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Shovot tumani,  
2016-yil 11-noyabr**

**OQKO'NGIL, ORIYATLI VA  
MEHNATKASH INSONLAR YURTI**  
**(SURXONDARYO VILOYATI  
SAYLOVCHILAR VAKILLARI BILAN  
UCHRASHUVDAGI  
NUTQ)**



---

Assalomu alaykum, muhtaram yurtdoshlar!  
Qadrli do'stlar!

Avvalambor, siz, azizlar bilan mana shu qutlug' zaminda, ne-ne ulug' zotlar yashab o'tgan tabarruk Surxon tuprog'ida uchrashib turganimdan g'oyat xursandman.

Fursatdan foydalanib, sizlarga va sizlar orqali mard va olijanob, mehmondo'st va oriyatli Surxon ahliga yuksak hurmat va ehtiromimni, ezgu tilaklarimni bildirishni o'zim uchun sharaf deb bilaman.

Mana, hozirgina Birinchi Prezidentimizni, bar-chamiz uchun aziz va qadrli bo'lgan muhtaram Islom Abdug'aniyevichni eslab, u kishining xotirasiga hurmat bajo keltirdik. Biz – hammamiz, qayerda, qaysi sohada ishlashimizdan qat'i nazar, buyuk rahbarimizning mehridan bahramand bo'lganmiz.

Yurtboshimiz butun O'zbekistonni yagona, ulkan bir oila deb bilar edilar. «**Qani endi, qulochim yetganida barcha-barchangizni bag'rimga bosib, sizlarga bo'lgan mehrimni, hurmatimni izhor qillardim**», deb aytgan gaplariga hammamiz ko'p bor guvoh bo'lganmiz.

Biz uchun mustaqil O'zbekiston, ozod va obod Vatan timsoliga aylanib ketgan Yo'lboshchimizni yurtimizda yetti yoshdan yetmis yoshgacha – barchamiz cheksiz mehr bilan sevar edik. U kishini ishda ham, hayotda ham ibrat namunasi, mustahkam tayanchimiz va suyanchimiz deb bilar edik.

Islom aka tom ma'noda xalq, millat yetakchisi edilar. Shuning uchun mamlakatimizning qaysi hududi, qaysi mintaqasiga bormasin, odamlar u kishini eng yaqin qadrdonidek kutib olardi. Jumladan, Surxon zaminida ham ulug' ustozimiz rahbarligida katta ishlar amalga oshirilganini, qancha-qancha uchrashuvlar, samimiy gurunglar, tarixiy anjumanlar o'tkazilganini hammamiz yaxshi eslaymiz.

Bugungi kunda Surxondaryoning qaysi shahri yoki qishlog'iga bormaylik, kim bilan suhbatlashmaylik, albatta, Birinchi Prezidentimizning tashabbuslari bilan ro'yobga chiqqan ulkan ishlarning natijasini ko'ramiz, xalqimizni u kishining xotirasiga qilayotgan duolarini eshitamiz.

Muhtaram Islom Abdug'aniyevichning siyosiy merosini, beba ho o'git va nasihatlarini qalbimga, yuragimga joylab, aziz ustozimiz boshlagan ishlarni sizlar bilan, butun xalqimiz bilan birga davom ettirish, yangi bosqichga ko'tarishni men o'zimning muqaddas burchim deb bilaman. Ayni ana shunday ezgu maqsad mening saylovoldi dasturimning asosiy g'oyasi, mazmunini tashkil etadi.

Hammangiz yaxshi bilasiz, Yurtboshimiz Surxon vohasiga, Surxon ahliga alohida e'tibor, yuksak hurmat-ehtirom bilan qrarar edilar. 2014-yili shaxsan o'zлari kelib, Termiz shahriga Amir Temur ordenini topshirganlari ham buning yana bir yorqin dalili bo'lgan edi.

Mustaqillik yillarda Termiz shahrida qanday katta ishlarni amalga oshirganimiz, ilgari yopiq, chekka va qarovsiz bir shaharcha bo'lgan bu maskan hozirgi kunda go'zal va zamonaviy shaharga aylanib borayotgani

haqida sizlarga ortiqcha gapirib o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak.

Toshguzar – Boysun – Qumqo‘rg‘on temiryo‘lining qurilgani, yangi-yangi korxonalar, turar-joylar, ta’lim, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari barpo etilgani – bularning barchasi Surxondaryo viloyatining qiyofasi, rivojlanish sur’atlarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Eng muhim, Surxon elining sha’ni va g‘ururi tiklandi.

Surxon vohasining Zarautsoy, Teshiktosh g‘orlari, Bobotog‘ va Boysuntog‘ qoyalaridagi rasmlar bu zamin jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan ekaniga guvohlik beradi.

Baqtriya, Kushon kabi ko‘hna davlatlar tarixi, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Zartepa qal’asi singari noyob yodgorliklar bu yerda qadim zamonalarda ham yuksak taraqqiyot mavjud bo‘lganini isbotlaydi.

Surxondaryoni Yaratganning o‘zi go‘zal tabiat bilan siylagan. Oltinsoy, Sangardak, Sayrob, Darband, Xonjizza, Bobotog‘ kabi go‘zal go‘shalarni bir bor ko‘rgan, «Algomish» dostonini baxshilarning o‘zidan eshitgan odam bu diyorga umrbod maftun bo‘lib qoladi.

O‘zining halol mehnati, betakror iste’dod va mahorati bilan Surxondaryo rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan ko‘plab fidoyi yurtdoshlarimiz nomlarini bugun hurmat bilan tilga olamiz. Bu haqda gapirganda, avvalo, O‘zbekiston Qahramonlari, mirishkor fermerlar Ibrohim Fayzullayev, Ahmad Narzullayev, Isoxon Bahromov, temiryo‘lchilar Yusuf Ziyayev, marhum Hamza Mahkamov kabi insonlarning hayoti va faoliyatini el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilishning yorqin namunasi, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

Shular qatorida akademik Nazar To‘rayev, professorlar Xolto‘ra Mirzaqulov, To‘xtash Annayev, ma’naviyat fidoyisi Toshtemir Turdiyev kabi ilm-fan namoyandalari, Shohida Oripova, Mamayusuf Xo‘jamberdiyev, Zulxumor Xidirova singari jonkuyar pedagoglar, Ergash Iskandarov, Qurban Mamanazarov kabi mohir shifokorlar va boshqa soha vakillari nomlarini alohida ta‘kidlash o‘rinlidir.

Surxon zamini o‘zbek madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘sghan mashhur rassom Ro‘zi Choriyev, Shukur Xolmirzayev, Tog‘ay Murod, Mengziyo Safarov, Shafoat Rahmatullayev kabi atoqli adiblarning ona yurti ekanini hammamiz yaxshi bilamiz.

Shu zaminda unib-o‘sib, kamolga yetgan O‘zbekiston xalq shoirlari Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zam, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoir Eshqobil Shukur, adabiyotshunos Abdulla Ulug‘ov va bugungi kunda shu yerda yashab, barakali ijod qilib kelayotgan Bolta Yoriyev, Jamila Ergasheva, Mengnor Ollomurod, Safar Kokilov singari iste’dodli shoir va yozuvchilarimizning asarlarini xalqimiz sevib o‘qiydi.

Surxon vohasining o‘ziga xos milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan betakror san’ati bor. O‘zbekiston xalq artistlari Gulnora Ravshanova, Mahmud Namozov, Samandar Alimov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Hosila Rahimova, mashhur «Surxon» guruhini mamlakatimizda bilmaydigan odam topilmasa kerak.

Noyob boyligimiz bo‘lgan folklor san’atini asrlar osha asrab-avaylab, uni yanada boyitib kelayotgan O‘zbekiston xalq baxshilari Shoberdi Boltayev,

Abdunazar Poyonov, Xushboq Mardonaqulov, Shodmon Xo'jamberdiyevga barchamizning nomimizdan chuqr minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Surxondaryo azaldan mard va botir insonlar, alp pahlavonlar yurti bo'lib kelgan. Mashhur polvonlarimiz Samijon Ubaydullayev, Sanjar To'xtashev, Sharof Xolmamatov, Sharafuddin Lutfullayev, Bekzod To'raboev kabi sportchilarimizni, ularning izidan kelayotgan o'nlab, yuzlab yoshlarning nomlarini bugun faxr bilan tilga olamiz.

Surxon yoshlaringin sport sohasida erishayotgan yutuqlari har qanday yuksak ta'rifga munosibdir. Oxirgi besh yilda viloyat sportchilari jahon va Osiyo chempionatlarida, xalqaro musobaqalarda 62 ta oltin, 67 ta kumush, 111 ta bronza medalini qo'lga kiritishga erishdilar. Nufuzli xalqaro musobaqalarda ana shunday yuksak natijalarga erishib, Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etib kelayotgan Suhrob Tursunov, Rustam Ergashev, Sitora Hamidova, Barno Mirzayeva, 15-paralimpiya o'yinlarida bronza medalini qo'lga kiritgan Ahror Bozorov va Faxriddin Hamroyev kabi azm-u shijoatli yoshlarimizga, ularning murabbiylariga yana bir bor chuqr hurmatimiz va tashakkurimizni bildirsak, ayni muddao bo'lur edi.

Aziz do'stlar!

Ma'lumki, Surxondaryo viloyati o'zining iqtisodiy salohiyati, muhim geografik o'rni, tabiiy imkoniyatlari bilan mamlakatimiz taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida ana shu salohiyat va imkoniyatlarni voha ahli, butun xalqimiz manfaatlari yo'lida ishlatish bo'yicha ulkan ishlar amalga

oshirildi. Viloyat iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlari bilan rivojlanib bormoqda. Buning tasdig'ini 2010-yilga nisbatan yalpi hududiy mahsulot hajmi 1,8 barobar o'sgani misolida ko'rish mumkin.

**Sanoat sohasini** oladigan bo'lsak, oxirgi besh yilda uning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 16 foizdan 20 foizga yetganini qayd etish joiz.

To'palang gidroelektrostansiysi, Jarqo'rg'on neftni qayta ishslash zavodi, «Sharg'un ko'mir», «Xo'jaikon tuz» aksiyadorlik jamiyatlari, «Xonjizza» kon-boyitish majmuasi kabi yirik sanoat korxonalari viloyat sanoatida yetakchi o'rin tutadi.

Bu zamindagi mavjud 63 ta qo'shma korxonadan 31 tasi so'nggi besh yilda, ilgari bunday korxonalar bo'lмаган туманларда ташкіл етілганды.

Yana bir ahamiyatga molik jihat shundaki, shu o't-gan davrda 8 ta hududiy korxonada Mahalliylashtirish dasturi doirasida 3 milliard 200 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

**Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi** ham jadal rivojlanmoqda. Buning tasdig'ini keyingi besh yilda ularning soni 12 foizga oshib, 13 mingtaga yetganida ko'rish mumkin. Natijada mazkur sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 75 foizga, hududiy eksportdagi ulushi esa 58 foizga yetdi. Eng muhim, mehnat bilan band aholining 80 foizi ana shu sohada faoliyat ko'rsatmoqda.

Hurmatli yurtdoshlar!

Barchamizga yaxshi ayon, Surxon vohasi azal-azaldan unumtdor tuprog'i, ishning ko'zini biladigan, bir yilda ikki-uch martalab hosil oladigan mirishkor dehqonlari bilan shuhrat qozonib keladi. Yurtimiz

bozorlariga qishin-yozin ertagi karam va sabzavotlarni, barra ko'katlarni, poliz, meva-yu uzumni, sitrus mevalarni yetkazib beradigan ham Surxondaryoning zahmatkash fermer va dehqonlaridir.

Mamlakatimizdagи ekin maydonlarining 7 foizi Surxondaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Viloyat dehqonlari yurtimizda yetishtiriladigan paxta va g'allaning 8–9 foizini, meva va sabzavotning 11 foizdan ziyodini yetkazib bermoqda.

Keyingi besh yilda paxta maydonlari 12 foizga qisqartirilib, ko'proq daromad beradigan meva-sabzavot va poliz ekinlari maydonlari kengaytirilgani tufayli viloyat dehqonchiligidagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Viloyatda qishloq xo'jaligini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ishlari bundan keyin ham davom ettirilib, meva-sabzavot yetishtirish, uni qayta ishlash sanoati keng rivojlantiriladi.

Men o'tgan safar Surxondaryoga kelganimda Termiz tumanida 25 million AQSH dollari hisobidan barpo etilgan yangi korxonaning ishi bilan yaqindan tanishgan edim. Asosan eksportga mahsulot chiqaradigan mana shunday zamонавиъи ishlab chiqarish korxonalari nafaqat viloyat, balki mamlakatimiz agrar sohasining kelajagini tashkil etishi zarur. Biz bunday korxonalarni qo'llab-quvvatlab, ularga qo'shimcha imkoniyat va preferensiyalar berish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rishga tayyormiz.

Vohaning zahmatkash dehqonlari bu yil ham barcha qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha mo'l hosil yetishtirib, uni o'z vaqtida, yuqori sifat bilan yig'ib-terib oldilar. Fursatdan foydalanib, viloyatning

mirishkor dehqon va fermerlari, barcha dala mehnat-kashlariga, siz, aziz Surxon ahliga fidokorona mehnatingiz uchun chin qalbimdan tashakkur bildiraman.

Muhtaram do'stlar!

**Viloyatda qabul qilingan yillik ish o'rnlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlari** asosida keyingi besh yilda 376 mingta yangi ish o'rni yaratilgani shu muhim masalani yechish yo'lidagi katta amaliy qadamdir.

Ana shunday chora-tadbirlar tufayli **aholining turmush darajasi va sifati tobora yuksalib bor-moqda**.

Buning isbotini o'tgan besh yilda viloyatda har yuzta xonadonga to'g'ri keladigan avtomobillar soni 1,8 marta, pilesoslar 1,5 barobar, kir yuvish mashinalari 1,3 karra, televizor va xolodilniklar 1,1 barobar ko'payganida ko'rish mumkin.

**Viloyatda shahar va qishloqlar qiyofasini tubdan o'zgartirish**, qishloq aholisi uchun shahardagidan qolishmaydigan uy-joylar qurish bo'yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'tgan besh yilda namunaviy loyihalar asosida 178 ta massivda 5 ming 800 ga yaqin uy-joy barpo etilganini ta'kidlash o'rnlidir.

Biz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lган soha – transport infratuzilmasini, axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha ham viloyatda katta ishlar qilinmoqda.

Xabaringiz bor, hozirgi kunda Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temiryo'lini elektrlashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu loyiha yakuniga yetkazilishi bilan temiryo'l orqali yuk tashish

xarajatlari o‘rtacha 20 foizga kamayadi, yo‘lovchi va yuk tashish tezligi 1,5 barobar oshadi.

Bunday misollarni gaz tarmoqlarini qurish va ta’mirlash, optik tolali aloqa tarmoqlarini ishga tushirish, Internetdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli televideniyega o‘tish borasida olib borilayotgan ishlar bo‘yicha ham keltirish mumkin.

Ijtimoiy hayotimizda katta o‘rin tutadigan **sog‘-liqni saqlash tizimidagi islohotlar** ham izchil davom ettirilmoqda. Keyingi besh yilda 36 ta tibbiyot muassasasi, jumladan, viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, onkologiya, endokrinologiya, sil kasalliklari dispanserlari va boshqa shifoxonalar rekonstruksiya qilingani va jihozlangani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida **ta’lim** va **tarbiya sohasidagi ishlar** ko‘lami ham tobora ortib bormoqda. Bu borada ko‘plab umumta’lim maktablari, litsey va kollejlар, bolalar sporti inshootlari, musiqa va san’at maktablarida katta hajmda qurilish, rekonstruksiya va kapital ta’mirlash ishlari amalga oshirilganini ta’kidlash lozim.

Hurmatali Surxon ahli!

O‘ylaymanki, sizlar mening saylovoldi dasturimning asosiy yo‘nalishlari bilan yaxshi tanishsiz. Dasturda butun mamlakatimiz qatori Surxondaryo viloyatini ham yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish bo‘yicha aniq maqsad va vazifalar belgilab olingan.

Viloyatda yaqin besh yilda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha 600 dan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish reja-

lashtirilmoqda. Jumladan, Jarqo‘rg‘on neftni qayta ishlash zavodida neft qazib olish, neft va gaz kondensatini qayta ishslash hajmini ko‘paytirish bo‘yicha 140 million dollarlik loyiha amalga oshiriladi. Sherobod tumanida 100 megavattli fotoelektr stansiyasi barpo etiladi.

**Oziq-ovqat sanoatida** kelgusi besh yilda 210 ta, **yengil va charm-poyabzal sanoati tarmoqlarida** esa 127 ta investitsiya loyihasi joriy etiladi. Bu haqda gapirganda, 10 ta yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida paxta tolasini qayta ishslash darajasi viloyatda bugungi 8 foizdan qariyb 84 foizga yetkazilishini alohida qayd etish lozim.

**To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yana-da rivojlantirish** sohasida yangi, muhim rejalar belgilangan. Dasturga muvofiq yaqin besh yilda 2 milliard 200 million dollar investitsiya jalg etish hissobidan 120 ta yangi korxona tashkil etiladi va 20 ta korxona modernizatsiya qilinadi. Buning natijasida yurtimizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,2 marta ortishi rejalashtirilgan.

Bu borada Surxondaryo viloyatida 12 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Misol uchun, kelgusi yili Sariosiyo tumanida 7 million 500 ming dollarlik loyiha hayotga tatbiq etilib, yiliga 10 million juft paypoq ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, kelgusi ikki yilda ushbu chegaradosh tumanda eng zamonaviy texnologiyalar asosida tikuv fabrikasi hamda to‘qimachilik korxonasi barpo etiladi.

2017–2018-yillarda Sherobod tumanida «Norteks stayl» xorijiy korxonasi tomonidan yiliga 15 ming tonna ip-kalava, 5 ming tonna bo‘yalgan ip-kalava, 4

ming tonna trikotaj gazlama, 2 million 500 ming dona tikuvchilik mahsuloti ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

**Bundan tashqari, qurilish mahsulotlari sanoatida 189 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.**

Bugungi kunda O‘zbekistonimiz ulkan qurilish maydoniga aylanganini hammamiz ko‘rib turibmiz. Katta hajmdagi ana shunday bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, avvalo, mana shu tarmoqni jadal rivojlantirishni talab qiladi. Boy xomashyo resurslari Surxondaryoda ko‘p. Shularni ishga solish hisobidan Sherobod va Jarqo‘rg‘on tumanlarida cement zavodi, Termiz va Boysun tumanlarida DSP, gipsokarton, Denov tumanida polietilen quvurlar ishlab chiqarish korxonasi quriladi.

**Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish** dasturi doirasidagi ishlar ham davom ettiriladi. Kelgusi yili bu yo‘nalishda 17 ta loyihami amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lsa, 2021-yilga borib, ularning soni 36 taga yetkaziladi.

Viloyatda yaqin besh yilda eksport hajmini kamida ikki barobar oshirish, eksport faoliyatiga yana kamida 140 ta korxonani jalb etish mo‘ljallanmoqda.

Surxondaryoning Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston bilan chegaradosh hududda joylashgani dunyo bozorlariga chiqishga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, xalqaro tranzit hudud sifatida yuk tashish ko‘lamini kengaytirish, xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar eksportini keskin oshirish, xalqaro xizmatlar hajmini kengaytirish uchun bu yerda barcha sharoitlar yetarli. Biz ana shu imkoniyatlarni to‘liq ishga solishni rejalashtirganmiz. Yaqinda Termizda barpo etilgan yangi bojxona kompleksi shu borada muhim qadam bo‘lishi shubhasiz.

**Viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish** uchun yaqin besh yilda 25 ta yangi zamonaviy mehmonxona qurish va 10 ta mehmonxonani kengaytirish rejalashtirilmoqda. Ana shunday keng ko‘lamli ishlar hisobidan 2021-yilgacha viloyatga keladigan xorijiy turistlar sonini yiliga 70 mingga yetkazish kutilmoqda.

Iqtisodiyotimizning yetakchi tarmog‘i bo‘lgan **qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va modernizatsiya qilish** bo‘yicha ham oldimizda katta vazifalar turibdi.

Avvalo, rizq-ro‘zimiz manbayi bo‘lgan yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ko‘ptarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, irrigatsiya-melioratsiya tizimini yaxshilash ko‘zda tutilmoqda.

Jumladan, 445 kilometrdan iborat kollektor-drenaj tarmoqlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi, 74 ta irrigatsiya obyektlarida qurilish-ta’mirlash ishlari bajariladi. Shular qatorida Sherobod magistral kanalining Qiziriq hamda Sherobod tumanlari hududidan o‘tadigan qismi rekonstruksiya qilinadi. Natijada ushbu tumanlardagi 90 ming hektar maydonni sug‘orish imkoniyati yaxshilanadi. 2020-yilgacha 103 ming hektar yerning suv ta’mintoni yaxshilashga xizmat qiladigan «Hazorbog‘ – Oqqapchig‘ay» kanalida rekonstruksiya ishlari olib boriladi.

Viloyatda har bir tumanning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ularda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikni yo‘lga qo‘yish, muqobil energiya manbalari asosida issiqxonalar tashkil etishga e’tibor qaratamiz.

Kelgusi besh yilda yer maydonlarini optimallash-tirish hisobidan go‘sht va sut ishlab chiqarishni kamida

1,3 barobar, tuxumni 1,7 marta, kartoshkani 1,1 barobar, meva-sabzavotni 1,2 karra, uzum yetishtirishni 1,8 marta ko‘paytirish, shuningdek, ularni qayta ishlashni kengaytirishni oldimizga vazifa qilib qo‘yganmiz.

**Viloyatda axborot-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish**, davlat va xo‘jalik tashkilotlari, bank-moliya tizimi, biznes tuzilmalari, ta’lim-tarbiya, tibbiyot va boshqa sohalarda ularni yanada kengroq qo‘llash bo‘yicha ham aniq vazifalar belgilangan.

Bu yerda telekommunikatsiya va mobil aloqa xizmati sifatini yaxshilash maqsadida 150 ta tayanch stansiya quriladi. Boysun, Denov, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun, Sherobod, Sho‘rchi tumanlarida 2 ta yuqori quvvatli va 97 ta past quvvatli teleuzatgich o‘rnatalib, raqamli televideniyega o‘tish rejasi 100 foiz bajariladi.

**Surxondaryo viloyatidagi yana bir muhim vazifa – mahalliy budjetlarning subvensiyaga qaramlik darajasini keskin kamaytirishdan iborat.**

Joriy yilda viloyat mahalliy budgeti xarajatlarining 43 foizi davlat budgetidan beriladigan subvensiya hisobidan qoplanmoqda. Termiz shahri va Jarqo‘rg‘on tumanidan tashqari barcha 12 ta tuman mahalliy budgetining 60–70 foiz xarajatlari subvensiyaga bog‘liq bo‘lib qolganini qayd etish joiz.

Viloyatda ishlab chiqarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlik harakatini kengaytirish, xizmat ko‘rsatish hajmini keskin oshirish va shu asosda soliq tushumlarini ko‘paytirish orqali subvensiyadan qutulish mumkin. Biz shu yo‘nalishdagi ishlarimizning samarasini oshirishimiz kerak.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Surxondaryo viloyatida bugungi kunda 2 million 500 mingga yaqin kishi yashamoqda. Oxirgi besh yilda viloyat aholisi 191 mingdan ziyod ko‘paydi.

Tabiiyki, ana shu insonlarning tobora o‘sib bora-yotgan talab va ehtiyojlarini qondirish, ular uchun munosib hayot sharoitlari yaratib berish – barchamizning asosiy burchimiz, vazifamiz hisoblanadi.

Shu maqsadda odamlarning hayoti va kayfiyatiga bevosita ta’sir etadigan eng muhim ijtimoiy sohalar bo‘yicha biz 15 ta maxsus dastur ishlab chiqmoqdamiz. Aytish kerakki, ularning ba’zilari yaqinda tasdiqlanib, bu borada amaliy ishlar ham boshlab yuborildi.

Ruxsatingiz bilan ana shu dasturlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

**Birinchidan**, Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minalashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir dasturga binoan, 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi. Shuningdek, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil, ya’ni «vstrechniy» tekshirishlarga barham beriladi.

Moliya-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha birinchi marta huquqbazarlik sodir etgan tadbirkorlar va ularning xodimlari, davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan tadbirkorlik qilayotgan shaxslar, agar yetkazilgan zararni qoplagan va huquqbazarlik oqibatlarini belgilangan muddatda o‘z ixtiyorli bilan bartaraf etgan bo‘lsa, javobgarlikning barcha turlaridan ozod qilinadi.

Tadbirkorlik sohasidagi qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Oliy Majlis huzurida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari

va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil institutini tashkil etish mo‘ljallanmoqda.

Umuman, mazkur dasturda tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha 42 ta chora-tadbir belgilangan. Ularni amalga oshirish doirasida Surxondaryo viloyatida kelgusi besh yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar miqdori kamida 3–3,5 barobar ko‘paytiriladi. Ko‘riladigan aniq choralar natijasida ana shu davrda ikki mingdan ortiq yangi kichik biznes subyekti tashkil etiladi va ularning umumiy soni 15 mingtaga yetkaziladi.

**Ikkinchidan**, kelgusi besh yilda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar asosida arzon va qulay uy-joylar qurish dasturiga ko‘ra, 2017-yilda to‘rt xil yangi namunadagi 15 mingta zamonaviy uy-joy barpo etish mo‘ljallanmoqda. Bu uylar ehtiyojmand oilalar uchun boshlang‘ich to‘lov hajmi ikki barobar kamaytirilgan holda quriladi. Surxondaryo viloyatida yangi yilda, Xudo xohlasa, 400 ta ana shunday uy-joy bunyod etiladi.

Bundan tashqari, shahar aholisini arzon uy-joy bilan ta‘minlash dasturiga muvofiq, 2017-yilda Termiz shahrida 5 ta 7 qavatli uy qurish ko‘zda tutilgan. Rahmatli Yurtboshimizning tashabbuslari bilan boshlangan 700 o‘rinli San‘at saroyi foydalanishga topshiriladi, bir qator sport va sog‘lomlashtirish majmualari quriladi. Angor, Denov, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sherobod va Sho‘rchi tumanlaridagi madaniyat va aholi dam olish markazlari kapital ta‘mirlanadi. Termizni «afg‘on shamoli»dan himoya qilish uchun Amudaryodan SUV tortib kelinib, shahar atrofida daraxtzorlar barpo etiladi.

**Uchinchidan**, Hududiy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy taraqqiyotni magistral va ichki yo'llar, ko'priklar, shu soha bilan bog'liq infratuzilma tarmoqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yangi dasturda Surxondaryo viloyati bo'yicha kelgusi besh yilda mahalliy ahamiyatga molik 120 kilometr avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash, umumiy foydalanishdagi 150 kilometr avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, Termiz shahri hududida 30 kilometrlik halqa yo'lini barpo etish ko'zda tutilmoqda.

**To'rtinchidan**, Shahar va qishloqlarda transport ta'minotini yanada rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda.

Bu masalada Surxondaryo viloyatida oxirgi besh yilda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatadigan 96 ta korxona tashkil etildi. Keyingi ikki yilda Termiz shahrining o'ziga 50 ta avtobus olib kelindi. Bu ishlarni izchil davom ettirish maqsadida viloyatdagi barcha aholi punktlarida transport xizmatlarini yo'lga qo'yish, transport parkini bosqichma-bosqich yangilash nazarda tutilmoqda. Kelgusi besh yilda lizing asosida yana 136 ta avtobus olinib, qo'shimcha 90 ta yo'nalish tashkil etish mo'ljallanmoqda.

**Beshinchidan**, Qishloqlarda ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.

O'tgan besh yilda Surxondaryo viloyatida budget mablag'lari hisobidan 1 ming 570 kilometr SUV tarmog'i va 210 ta quduq barpo etildi, 91 ta quduq rekonstruksiya qilindi. Buning natijasida 620 mingdan

ziyod aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash yaxshilanib, viloyatda bu boradagi ko'rsatkich 67 foizga yetkazildi.

Tayyorlanayotgan yangi dasturda bu ishlarni izchil davom ettirish nazarda tutilmoqda. Masalan, kelgusi besh yilda viloyatda 2 ming 250 kilometr ichimlik suvi tarmog'i va 321 ta quduq barpo etish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoxda. Xalqaro moliya tashkilotlarining 48 million dollar krediti hisobidan To'palang – Termiz magistral suv quvuri va suv tozalash inshootining birinchi navbati quriladi.

Natijada markazlashgan tarmoqlar orqali aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 2021-yilda 77 foizga yetadi, 680 mingdan ortiq aholining ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanadi.

**Oltinchidan**, Ko'mir tannarxini va aholiga xarid qiyamatini pasaytirish, shuningdek, qish mavsumida uning narxlari oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturida kuz-qish mavsumida tumanlar va qishloq joylarda ko'mirga bo'lgan talabni qondirish, aholini ko'mir bilan uzliksiz ta'minlash, ko'mirning tannarxi va iste'molchilarga yetkazish narxini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Viloyatda mavjud bo'lgan ko'mir konlarining imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ham alohida ko'rib chiqiladi. Aholiga qulaylik yaratish maqsadida «Surxon ko'mir yetkazuvchi» unitar korxonasi tomonidan ko'mirni mahallalarda aholiga tarqatish yo'lga qo'yiladi. Hozirgi vaqtida 1 tonna ko'mirning narxi 126 ming so'm qilib belgilangan va bu borada chayqovchilikka yo'l qo'ymaslik qat'iy nazoratga

olinadi. Shuningdek, Muzrabot tumanida kuniga 20 tonna briketlangan ko'mir ishlab chiqaradigan korxona tashkil etiladi.

**Yettinchidan**, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash dasturi ishlab chiqilmoqda.

Bu masala bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Joylarda, ayniqsa, qishloqlarda elektr quvvatining tez-tez o'chib qolishi, bu sohadagi uzilishlar aholi tomonidan haqli e'tiroz uyg'otmoqda.

Bunday holatning asosiy sababi shuki, mamlakatimizdagi aksariyat elektr energiya ishlab chiqaradigan korxona va uzatish tarmoqlari modernizatsiyaga muhtoj bo'lib qolgan. Shularning barchasini hisobga olgan holda, Surxondaryo viloyatida o'tgan besh yilda 358 kilometr elektr tarmoqlari va 344 ta transformator punkti qurildi va rekonstruksiya qilindi. Buning natijasida qariyb 400 mingta xonadonga elektr energiyasi yetkazib berish yaxshilandi.

Ishlab chiqilayotgan dasturda viloyatda kelgusi besh yilda 775 kilometr elektr uzatish tarmoqlarini va 224 ta transformator punktini qurish va rekonstruksiya qilish ko'zda tutilmoqda.

**Sakkizinchidan**, Maktabgacha ta'lif muassasalarini rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash dasturi tayyorlanmoqda.

Hech kimga sir emas, ta'lif-tarbiyaning asosi oila va maktabda, avvalo bolalar bog'chasida qo'yiladi. Shuning uchun biz bu masalaga katta e'tibor qaratmoqdamiz. Mazkur dasturda maktabgacha ta'lif muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning tarmog'ini kengaytirish, yuqori

malakali pedagog kadrlar tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar belgilanadi.

Bu haqda gapirganda, Surxondaryo viloyatida kelgusi besh yilda 322 ta bolalar bog'chasi rekonstruksiya qilinishi va kapital ta'mirdan chiqarilishini ta'kidlash o'rinnlidir. Ayni vaqtida bu yo'nalishda xususiy bog'chalar tarmog'ini kengaytirish uchun ham yangi imkoniyatlar ochib beriladi.

**To'qqizinchidan**, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Bozor – bu qut-baraka, farovonlik mezonidir. Bozorda tartib bo'lsa, shu shahar yoki qishloqda tartib bo'ladi. Bozor obod bo'lsa, yurt obod, xalq badavlat bo'ladi. Shuning uchun bozorlarimizdagi narx-navo, shart-sharoit va xizmat madaniyati doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Mazkur dasturda kelgusi besh yilda bozorlarimizni zamonaviy talablar asosida bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ko'zda tutilmoqda. Jumladan, Termiz shahri, Denov, Muzrabot, Sho'rchi va Oltinsoy tumanlari markazlarida joylashgan dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha katta ishlar amalga oshiriladi.

**O'ninchidan**, Pensionerlarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash dasturi ishlab chiqilmoqda.

Hammamiz uchun g'animat bo'lgan tabarruk keksalarimizning ko'nglini, duosini olish, imkon qadar ularning umrini uzaytirish – biz uchun ham qarz, ham farzdir. Tayyorlanayotgan dasturda ayni shu maqsadda kelgusi besh yilda pensioner, nogiron,

yolg'iz qariyalar va aholining kam ta'minlangan qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda.

Surxondaryo viloyatida ham har yili 2 ming 120 nafar ana shunday toifaga mansub yurtdoshlarimiz uchun, shuningdek, 520 nafar urush va mehnat fronti faxriylari uchun sanatoriylarga imtiyozli yo'llanmalar berish rejalashtirilmoqda.

Lekin ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli ana shu yo'llanmalardan foydalana olmayotganliklarini ham bilamiz. Yo'llanmaning o'rtacha narxi hozirgi kunda 800 ming so'mni tashkil etmoqda va ana shu mablag'ni sanatoriyga borolmagan nuroniylarimizga berish mo'ljallanmoqda. O'yaymanki, bu adolatli qaror bo'ladi.

Bundan tashqari, «Nuroniy» jamg'armasi, «Mahalla» jamoat fondi, Kasaba uyushmalari va boshqa nodavlat tashkilotlar hamkorligida yolg'iz qariyalarni qish mavsumida kiyim-bosh va oziq-ovqat zaxirasi bilan ta'minlash ishlari bundan keyin ham izchil davom ettiriladi.

Kelgusi to'rt yilda yurtimizdagi barcha «Muruvvat» va «Saxovat» uylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularda zamonaviy sharoitlar yaratish belgilangan.

Shuningdek, «Nuroniy» jamg'armasining maqomi va mavqeyini ko'tarish, uning viloyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko'paytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Birinchi navbatda shahar va tumanlarda jamg'armaning davlat budgetidan mablag' bilan ta'min-

lanadigan bo‘limlari tashkil qilinadi. Shu bilan birga, har bitta mahallada raisning faxriylar bo‘yicha maslahatchisi lavozimi joriy etilmoqda.

**Yana bir muhim hujjat – onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturidir.**

Xalqimizda «**Ona bilan bola – gul bilan lola**» degan chiroyli maqol bor. Haqiqatan ham, ona va bola sog‘lom bo‘lsa, oila tinch, hayotimizda fayz-baraka, ishimizda unum bo‘ladi.

Ana shu maqsadda dasturda yangi tug‘ilgan chaqaloqlar, qiz bolalar, homilador va tug‘ish yoshidagi ayollarni to‘liq patronaj xizmati bilan qamrab olish, bu boradagi mavjud ko‘rsatkichni 70 foizdan 100 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoqda.

Markazlashgan tartibda kasalxonalarga beriladigan dori vositalari, tibbiy buyum va uskunalar ro‘yxati kengaytiriladi. Kelgusi to‘rt yilda 110 ta tuman va shahar tibbiy birlashmasi, 126 ta oilaviy poliklinikada qurilish-ta’mirlash ishlari bajariladi.

Surxondaryo viloyatida yaqin besh yilda 27 ta tibbiyot muassasasida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta’mirlash ishlari amalga oshiriladi. Tuman va shahar tibbiyot birlashmalari, oilaviy poliklinikalar, viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, onkologiya dispanseri, bolalar shifoxonasi zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanadi. Tez tibbiy yordam xizmati uchun 25 ta «Damas» avtomashinasi va 5 ta reanimatsiya avtomobili ajratiladi.

**Aziz do‘sstar!**

Bugungi murakkab va shiddatli XXI asrda har birimiz, butun xalqimiz yosh avlod tarbiyasiga

har qachongidan ham jiddiy e'tibor qaratishimizni hayotning o'zi barchamizdan talab etmoqda.

Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, sog'lom hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi.

Xabaringiz bo'lsa, men ko'p yillar mobaynida oliv o'quv yurtida domla, prorektor bo'lib ishlaganman. Yoshlar bilan ishlashning qanday murakkab ekanini, buning uchun, avvalo, katta bilim va tajriba, sabr-toqat, talabchanlik bilan birga mehribonlik ham zarur ekanini o'z shaxsiy tajribamdan yaxshi bilaman.

Keyingi davrdagi ish faoliyatimda ham yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ularning tashvish va muammolari bilan bevosita shug'ullanib kelaman. Shuning uchun ham atoqli ma'rifatparvar insonlarning dono o'gitlari, mashhur pedagoglarning bu masala bo'yicha qarashlari bilan muntazam ravishda tanishib boraman.

Shu ma'noda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim.

Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar:

«Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik libosini kiyib, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq».

Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar!

Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosи va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi.

Shu sababli yoshlarimizni tarbiyalash, ayniqsa, qiz bolalarni ilm-fan, kasb-hunar sirlarini puxta egallashga o‘rgatish, ularning manfaatlarini himoya qilish, hayotda munosib o‘rin topishiga ko‘maklashish, shu bilan birga, uyushmagan yoshlar bilan ishslash, bunda davlat va jamoat tashkilotlari, birinchi navbatda, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ishtirokini yanada kengaytirish kabi masalalarga nihoyatda jiddiy e’tibor qaratishimiz zarur.

Bunday muhim vazifalarni amalga oshirishda yaqinda qabul qilingan **«Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»**gi qonun barchamiz uchun asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Aziz yurtdoshlar!

Sizlarning e’tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiman. Bu xalqimizning tinchligi, kafolatlangan xavfsizligini ta’minlash masalasidir.

Biz bu maqsadga erishish uchun hozirgi vaqtda Ichki ishlar vazirligi tizimini tubdan o‘zgartirish chora-tadbirlarini ko‘ryapmiz.

O‘z paytida Muhtaram Yurtboshimiz ichki ishlarining eng quyi tizimida profilaktika inspektorlarini tashkil qilgan edilar.

Ammo bugun bu inspektorlar profilaktika, ya’ni jinoyatlarning oldini olish bilan shug‘ullanmayapti, aksincha, sodir bo‘lgan jinoyatlarni ro‘yxatga olish, yuqori idoralarga hisobot yozish bilan band.

Shu sababli bu masalaga qarashimizni tubdan o'zgartirib, mahalladagi uchastka nozirlariga samarali faoliyat ko'rsatishi uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz. Ularga xizmat uylari va avtomashinalar beriladi. Uchastka nozirlari endi kechasi bilan uxmlamay mahalla osoyishtaligini qo'riqlab yuradigan bo'ladi.

Shuningdek, har bir tuman hokimi va tuman ichki ishlar bo'limlari rahbarlarining yoshlar bilan ishslash bo'yicha o'rinnbosari lavozimi joriy etiladi.

Bu rahbarlarning asosiy vazifasi mahallada uchastka inspektorlari bilan ishslashni tashkil etadi. Ularning kechasi mahallada yurganini aholi ko'rsa, o'z xavfsizligiga qanoat hosil qiladi. Shundagina odamlar uyida tinch-xotirjam uxmlaydi.

**Yana ikkita muhim dastur** – Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish va aholini dori vositalari bilan ta'minlash darajasini oshirish va dori-darmon narxlari shakllanishini takomillashtirish dasturlari ham ishlab chiqilgani va qabul qilinganidan xabaringiz bor, albatta.

Tan olish kerak, bizda nima ko'p – dorixona ko'p, nima ko'p – dori turi ko'p. Afsuski, dorixonalardagi narx-navo har qanday odamni ham chayonday chaqadi. Oylik ish haqining katta qismi dori-darmonga sarf bo'lmoqda va ochiq aytishimiz kerak, ko'pchilik bundan norozi. Bunday holat bizni mutlaqo qoniqtirmaydi.

Shu boisdan ham dasturda mamlakatimizda dori-darmon ishlab chiqarishni rivojlantirish, kasalxonalardagi aptekalarda dori-darmon tayyorlashni ken-gaytirish, dori narxlarini shakllantirishning belgilangan tartibini qat'iy nazorat qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar nazarda tutilmoxda.

Ushbu dasturlarga muvofiq 2016–2020-yillarda mamlakatimizda 67 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Jumladan, Surxondaryo viloyatida 29 ta korxonada mahalliy dorivor o'simliklardan import o'rnini bosadigan 150 dan ortiq dori va tibbiy vositalarni ishlab chiqarish tashkil etiladi. «Nova farm» qo'shma korxonasi tomonidan 16 turdag'i dori vositalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Viloyatdagi shahar va tumanlar tibbiyot birlashmalarida ijtimoiy dorixonalar tashkil etish ishlari yakuniga yetkaziladi.

**Va nihoyat, so'nggi dastur** – Qattiq maishiy chiqindilarni sanitariya yo'li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish dasturiga binoan kelgusi besh yilda bu borada kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi. Jumladan, Surxondaryo viloyatida 65 ta noqonuniy joyda to'planib qolgan 2 million tonna chiqindini joriy yilning oxirigacha tugatish vazifasi qo'yilmoqda.

Kelgusi ikki yilda jami 9 milliard 100 million so'mdan ortiq mablag' sarflanib, viloyatdagi maishiy chiqindi poligonlari tartibga solinadi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilar!

Mustaqillik yillarida biz erishgan eng katta va bebafo boylik – ko'pmillatli xalqimizning yakdilligi, jamiyatimizdagi o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir.

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kela-yotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo'lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash – xavfsizlik va

barqarorlikni, xalqimizning osoyishta hayotini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolatidir.

Yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman – biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga tahdid solishga urinadigan yovuz kuchlarning har qanday harakatlariga keskin zarba berishga qodirmiz.

Tashqi siyosat sohasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to'liq amal qilish saylovoldi dasturimizning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bu siyosatning asosiy ma'no-mazmuni – tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qaramaqshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaydi, O'zbekiston hududida boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari joylashtirilishiغا, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning yurtimiz hududidan tashqarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, biz yaqin qo'shni-miz bo'lgan Afg'onistonda tezroq tinchlik va osoyishtalik qaror topishidan eng ko'p manfaatdor ekanimizni ta'kidlab aytmoqchiman. Tarixdan ma'lumki, biz azaldan afg'on xalqi bilan bir daryordan suv ichib, do'st-birodar, quda-anda bo'lib, bir-birimizga

doimo hurmat va e'tibor ko'rsatib yashaganmiz va bunday do'stlik, hamkorlik munosabatlarini bundan buyon ham davom ettirish tarafdomiz.

Muhtaram Yurtboshimizning vafoti munosabati bilan boshimizga musibat tushgan og'ir kunlarda Afg'oniston davlatining Prezidenti, muhtaram Ashraf G'ani janobi oliylarining mamlakatimizga kelib, dafn marosimida shaxsan ishtirok etganlarini biz avvalo afg'on xalqining O'zbekiston xalqiga samimiyl hurmat va ehtiromining ifodasi sifatida yuksak baholaymiz.

O'zbekiston Afg'oniston bilan ikki tomonlama o'zaro hamkorlik prinsipiiga rioya etgan holda, Termiz – Mozori Sharif temiryo'l tarmog'ini qurishga, Afg'onistonga, xususan, Kobul shahriga elektr energiyasi yetkazib berishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Kelgusida ham bu davlat bilan mamlakatimiz, jumladan, Surxondaryo viloyati o'rtasida samarali hamkorlikni izchil davom ettirish uchun biz barcha zarur choralarни ko'rishga tayyormiz. Nega deganda, biz hamkorlikni va do'stlikni tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi deb bilamiz. Qo'shnilarimiz bilan o'zaro hurmat va o'zaro ishonchga asoslangan aloqalarini qancha rivojlantirsak, yurtimiz ham, butun mintaqamiz ham yanada ravnaq topadi.

Muhtaram va qadrli vatandoshlar!

Vatanimiz taraqqiyoti uchun o'ta mas'uliyatli bo'lган hozirgi murakkab davrda biz o'z oldimizga ulkan vazifalarni qo'yamoqdamiz.

Ularni to'laqonli amalga oshirish, tabiiyki, barchamizdan, avvalambor, birdamlik va hamjihatlikni, yanada fidokorona mehnat qilishni talab etmoqda.

Biz saylovoldi dasturimizda belgilab olgan maqsad va vazifalarni hayotga to‘liq tatbiq etish uchun mamlakatimizni rivojlantirish bo‘yicha kelgusi besh yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha Harakat strategiyamizni ishlab chiqamiz.

Biz bu borada avvalo ko‘pni ko‘rgan xalqimiz qatorida siz, mard va olijanob, mehnatkash Surxon-daryo ahliga tayanamiz.

Shaxsan men Surxon vohasida yashaydigan odamlarni har qanday sinov va muammolardan cho‘-chimaydigan, o‘ziga, o‘z kuch-qudratiga ishongan, aytgan so‘zida turadigan, mard odamlar deb bilaman. Bunday olijanob, bag‘rikeng xalq, hech shubhasiz, o‘z taqdiri, o‘z baxtini o‘z qo‘li bilan yaratishga albatta qodir. Bu haqiqatni sizlar o‘zingizning yaqin va olis tarixingiz davomida hamisha isbotlab kelgansiz va bugun ham isbotlamoqdasiz.

Bugun men Surxon zamini, Surxon ahliga yana bir bor yuksak hurmat-ehtiromimni izhor etib, el-yurtimiz ishonchini oqlashni, sizlarga, mehnatkash, qalbi daryo xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilishni o‘zim uchun ulkan sharaf deb bilaman.

So‘zimning oxirida butun Surxon eliga tinchlik-omonlik, baxt-u saodat, xonadonlariningizga fayz-u baraka tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Qumqo‘rg‘on tumani,  
2016-yil 15-noyabr**

**HAR QANDAY SINOVLARNI  
YENGISHGA QODIR XALQ  
(QASHQADARYO VILOYATI  
SAYLOVCHILAR VAKILLARI BILAN  
UCHRASHUVDAGI  
NUTQ)**

menlikatimizni tivojanitish bo'yicha kelyasi eesh  
yilga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha  
ishlao shioamiz.

Biz bu dasturda qurilishini qo'shish uchun  
mazsalasini qo'shish uchun qurilishni qo'shish  
qurilishni qo'shish uchun qurilishni qo'shish

aytaygagan  
inday olijanot, bag'rikeng xalq, hech shubhasiz, o z  
ari, o'z albatta  
dir. Haqiqatni sizlar o'zingizning yaqin va onis  
ningiz davomida isbotlab keiganeuz va

Bugun men Suxxon zatim, Suxxon ahliga yuna bir  
etib, el-yurtimiz

xizmat o'zini uchun

apotilik, baxi-u xonadorlartagi fayz-u  
bazaka tilaynam.

uchun rahmat.

---

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar!

Qadrli do'stlar!

Barchamiz uchun g'oyat aziz va qadrli bo'lgan Birinchi Prezidentimiz, hurmatli Islom Abdu-g'aniyevich Karimov bizni Vatanni sevishga, shu yo'lida butun borlig'imizni berib, kerak bo'lganda, hatto jonimizni ham ayamasdan xizmat qilishga o'rgatdilar.

Bu borada o'zлari hammamizga o'mnak va namuna bo'lib keldilar. U kishi Vatanga muhabbat faqat so'zda emas, avvalo, amaliy ishlarda namoyon bo'lishi kerakligini o'z hayoti, faoliyati misolida yaqqol ko'rsatib ketdilar.

Shu kunlarda yurtimizning turli hududlarida saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazar ekanmiz, ulug' Yurtboshimiz Vatanimizning har bir viloyati, har bir shahar va hududini qanday katta mehr bilan sevganini yana bir bor eslaymiz.

Mustaqillik yillarida markazda va joylarda amalga oshirilgan ulkan o'zgarishlar aynan ona yurtga bo'lgan ana shunday mehr-muhabbat ifodasi ekani – bu ayni haqiqat.

O'z navbatida xalqimiz, Vatanimiz ham o'zining mard va fidoyi o'g'loni, Birinchi Prezidentini naqadar yaxshi ko'rganiga mana shu uchrashuvlarda takror va takror ishonch hosil qilmoqdamiz.

Islom Abdug‘aniyevichning go‘zal va saxovatli Qashqa vohasini, uning mard va oljanob xalqini qanday yaxshi ko‘rishi va ulug‘lashi haqida va o‘z navbatida viloyat ahlining u kishiga bo‘lgan yuksak hurmat-ehtiromi haqida gapirib o‘tirishning o‘zi ortiqcha deb hisoblayman.

Chunki bu ulug‘ zot siyosiy faoliyatining eng og‘ir va murakkab davrlari aynan shu voha bilan bog‘langanini, o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib, «paxta ishi», «desantchilar» degan balo-qazolardan, qashshoqlik va zulm changalidan begunoh odamlarni qutqarish uchun qanday mislsiz jasorat ko‘rsatganini hammamiz yaxshi bilamiz.

Mehnatkash va oljanob Qashqadaryo eli o‘ta tahlikali yillarda Islom akani xuddi o‘z farzandidek qabul qilib, unga tuz-nasiba bergani, adolat va ozodlik yo‘lidagi kurashda unga kamarbasta bo‘lganini xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Ko‘pchilik qatori men ham, Islom aka Qashqadaryoga kelsa, xuddi o‘z uyiga kelgandek, bu yerdagi odamlarni ko‘rganda, eng yaqin qadrdonlarini ko‘rgandek yayrab ketishiga ko‘p bor guvoh bo‘lganman.

U kishi bu vohani behisob boyliklar koni bo‘lgan O‘zbekiston xazinasi deb ta’riflar, Qashqadaryo ahlini esa har qanday sharoitda ham ishonsa bo‘ladigan, mehr-oqibat, odamiylikni joyiga qo‘yadigan, bag‘rikeng va jasoratli el sifatida o‘zining haqiqiy maslakdoshlari deb bilardi. Bunday fazilatlaringiz uchun sizlardan doim minnatdor bo‘lib yashaganlari – bu ham haqiqat.

Davlatimiz asoschisining ulug‘ orzularidan biri Qashqadaryoni O‘zbekistonning rivojlangan minta-

qasiga aylantirish edi. Shu yo‘lda buyuk Yo‘lbosh-chimiz qanday ulkan ishlarni amalga oshirgani sizlarga yaxshi ma’lum.

Muhtaram Yurtboshimiz Qarshi va Shahrisabzni yanada go‘zal va obod qilish maqsadida u yerlarda qilinadigan ulkan ishlarning loyihasini shaxsan o‘zlar chizib bergen edilar. U kishi Yangi yil bayramidan keyin Shahrisabzga borib, bajarilgan ishlarni o‘z ko‘zim bilan ko‘raman, deb niyat qilgan edilar. Afsuski, shu kunlar barchamizga armon bo‘lib qoldi.

Yurtboshimiz Toshkent – Qarshi tezyurar poyezdi harakatini yo‘lga qo‘ygan edilar. Biz shu loyihaning davomi sifatida bu yo‘lni Qarshidan Shahrisabzga olib bormoqchimiz. Bu ishni sizlar bilan birgalikda amalga oshirsak, inshoollo, Islom akaning ruhlari shod bo‘ladi deb ishonaman.

Ma’lumki, Birinchi Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan xalqimizning Qashqadaryo ahliga yuksak hurmat-ehtiromining ifodasi o‘laroq viloyat markazida «El-yurt tayanchi» monumenti barpo etilgan edi. O‘z navbatida, Qashqadaryo elining bu ulug‘ siymoga cheksiz ehtiromining ramzi sifatida Qarshi shahri markazida Islom Abdug‘aniyevich Karimovning muazzam haykalini o‘rnatsak, nima deysizlar?

Albatta, hozirgi kunda davlat komissiyasi tomonidan mamlakatimiz rahbarining xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha xalqimiz, jamoatchiligidan kelayotgan takliflar o‘rganilib, tegishli qaror loyihasi tayyorlanmoqda. Bu qarorda hozir bildirgan taklifimiz ham inobatga olinadi deb ishonaman.

Hurmatli Islom Abdug‘aniyevich doimo xalq bilan birga bo‘lish, uning dard-u tashvishlari bilan yashashni o‘z rahbarlik faoliyatining oliv mezoni deb bilar edilar. Ulug‘ ustozimizning barcha o‘git va vasiyatlarini qalbimga, yuragimga joylab, u kishi boshlagan ishlarni davom ettirish, shu yo‘lda bor kuch va salohiyatim, butun borlig‘imni safarbar etishni men o‘zimning muqaddas burchim deb bilaman.

Mamlakatimizda shu yil 4-dekabr kuni bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi barchamiz, butun el-yurtimiz uchun katta sinov ekanini hammamiz, albatta, yaxshi tushunamiz. Men bu saylovni kelgusida O‘zbekistonni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqish uchun eng oliv mandat – xalq ishonchini beradigan ulkan sinov deb bilaman.

Ko‘pni ko‘rgan, siyosiy yetuklik darajasi, huquqiy madaniyati tobora yuksalib borayotgan xalqimizning bu sinovga har tomonlama tayyor ekani hudud va mintaqalarimizda bo‘lib o‘tayotgan uchrashuvlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Siz, muhtaram saylovchilar bilan videokonferensiya shaklida o‘tayotgan bu uchrashuvlardan, to‘g‘risi, men o‘zim ham ko‘p narsa olyapman. Chunki odamlar hamma narsani o‘z nomi bilan – yutuqni yutuq deb, muammoni muammo deb, ochiq gapiryapti. Ular nafaqat o‘z shahri yoki qishlog‘i, eng muhimi, butun O‘zbekiston hayotiga bevosita daxldor bo‘lgan taklif va tashabbuslarni o‘rtaga tashlayapti.

Biz saylov – bu demokratiya ko‘zgusi, deymiz. Lekin saylov qachon demokratianing haqiqiy ko‘zgusi bo‘ladi? Qachonki xalq bilan mana shunday ochiq va oshkora muloqotlar bo‘lgandagina.

Aziz do'stlar!

2700 yildan ziyod tarixga, qadimiy madaniyat va sivilizatsiya durdonalariga ega bo'lgan Qashqadaryo zamini bizga Yaratganning marhamati bilan ato etilgan bebaho va buyuk zamindir.

Bu o'lkada yo'q narsaning o'zi yo'q, desam, o'ylaymanki, yanglishmagan bo'laman. Yer osti boyliklari desangiz, eng muhim qazilma resurslari – neft, gaz, kaliy tuzlari, marmar va boshqa tabiiy zaxiralar shu yerda.

Yer usti boyliklari desangiz, unumdor tuproq, tog' va daryolar, obod shahar va qishloqlar, noyob zavod va korxonalar ham shu yerda. Intellektual-ma'naviy boylik desangiz, bu borada ham Qashqadaryo beqiyos salohiyatga ega.

Bu vohada qadimda Naxshab, Nasaf, Kesh degan buyuk shaharlar bo'lgani, shunday taxalluslar bilan diniy va dunyoviy ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalarimiz, aziz avliyolarimiz haqida soatlab gapirish mumkin.

Xususan, Abu Turob Naxshabiy, Najmiddin Nasafiy, Sayido Nasafiy, Aziziddin Nasafiy, Abu Muhammad Keshiy kabi allomalar ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin.

Qashqadaryoning shonli tarixi haqida gap ketganda, hech shubhasiz, avvalo, buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizni yodga olamiz.

Milliy davlatchiligimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli bo'lgan bu ulug' zotning xalqimiz, Vatanimiz oldidagi tarixiy xizmatlarini baholashning o'zi qiyin. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodimizning xotirasini

tiklash borasida qanday katta ishlar amalga oshirilganini barchangiz, albatta, yaxshi bilasiz.

Biz bu ezgu ishlarni so'zsiz davom ettiramiz. Sohibqiron bobomizning «**El dardiga darmon bo'lmoq – buyuk va savobli vazifadir**» degan g'oyasini amalga oshirishga mening saylovoldi dasturimda alohida e'tibor qaratilgani sizlarga ma'lum deb o'layman.

Qashqadaryo vohasida ko'p yillik halol mehnati, ezgu fazilatlari bilan el-yurtimiz o'rtasida katta obro'-e'tibor topgan insonlar ko'p. Bu haqda gapirganda, muhtaram Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov bilan o'ta og'ir va murakkab davrda birga ishlab, u kishining mehrini, ishonchini qozongan Soib Usmonov, Farmon Omonov, Raim Rahmonov, Nuriddin Zayniyev singari marhum insonlar, shuningdek, bugungi kunda ham viloyat hayotida faol ishtirok etib kelayotgan Musulmon Boyxonov, Yanvar Inoyatov, Qurban Egamberdiyev, Esonboy Rajabov kabi faxriylar nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

O'zbekiston Qahramonlari – mirishkor fermer Abdumurod Bozorov, temiryo'ichi Bahodir Ilyosov, mohir pedagog Muhabbat Sharopova, neft-gaz sohasi zahmatkashlari Bo'ron Ro'ziyev va Qobil Mo'minov, «El-yurt hurmati» ordeni sohiblari Abduvohid Begaliyev, Isoq To'rayev, O'zbekiston xalq o'qituvchisi Turdiali Berdiyevning nomlari butun mamlakatimizda ma'lum-u mashhurdir.

O'zining butun ijodi va faoliyati, mehri va salohiyatini ona Vatanimiz ravnaqi uchun bag'ishlagan yana bir qahramon yurtdoshimiz, barchamizning

faxrimiz, g‘ururimiz, ulkan so‘z san’atkorি, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi muallifi Abdulla Oripov edilar. Afsuski, bugun bu nodir iste’dod egasi oramizda yo‘q.

Abdulla akaning vafoti butun el-yurtimiz, shaxsan men uchun ham og‘ir judolik bo‘ldi. Men u kishini ko‘p yillardan buyon bilardim, she’rlarini, kitoblarini katta hayajon bilan, ta’sirlanib o‘qirdim. Bunday samimiyl va dilbar shaxs, xalqimizning qalbini, yuragini o‘lmas asarlari bilan yuksak pardalarda tarannum etib kelgan noyob va betakror iste’dod egasi kamdan kam topiladi.

Ishonchim komil, Qashqadaryo ahli, butun xalqimiz o‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan bu ulug‘ farzandini hech qachon unutmaydi, uning xotirasini qalbida saqlaydi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining Jumaniyoz Jabborov, Normurod Narzullayev kabi zabardast vakillari ham – joylari jannatda bo‘lsin – ayni shu zamin farzandlaridir. Shuningdek, Ikrom Otamurodov, Sirojiddin Raupov, Rustam Musurmon kabi bugungi adabiyotimizning ko‘plab yorqin namoyandalari dastlabki ijodiy qadamlarini aynan shu yerdan boshlagan.

Hozirgi vaqtida Qashqa vohasida yashab, samarali ijod qilayotgan Poyon Ravshanov, Abdurahim Erkayev, Nafas Shodmonov, Anvar Choriyev, Shoniyoz Qurbonov, Sharofat Ashurova, Ne’mat Arslonov singari fidoyi olim va adiblarning faoliyati mamlakatimizda ko‘pchilikka yaxshi ma’lum.

Qashqadaryo qanday buyuk san’atkorlar vatani ekan ni barchamizga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi. O‘zbekiston xalq artistlari Farog‘at Rahmatova, Ikroma Boltayeva,

O‘lmas Saidjonov, Rustam Ma’diyev kabi marhum san’atkorlar xalqimiz xotirasida doimo yashaydi.

Ayni vaqtida el-yurtimiz xalq hofizlari Beknazар Do’stmurodov, O’ktam Ahmedov, O’zbekiston xalq artistlari Zamira Suyunova, Maryam Sattorova, xizmat ko’rsatgan artistlar Nasiba Sattorova, Oygul Xalilova, Dilfuza Rahimova kabi san’atkorlarni yaxshi biladi va ularning ijodini yuksak baholaydi.

Qashqadaryoda savob ishlari bilan voha ahli o’rtasida hurmat qozongan insonlar oddiy odamlar orasida ham ko’plab topiladi.

Men yaqinda «Prezidentga maktublar» kitobining yangi nashrida ana shunday odamlardan biri haqida o‘qib, ochig‘ini aytsam, juda ta’sirlandim. Gap Kasbi tumanining Qatag‘on qishlog‘ida yashab o’tgan rahmatli Xolboy ota Xonqulov haqida bormoqda.

Butun hayotini yoshlar ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlab, qirq yildan ziyod o‘qituvchilik qilgan bu inson pensiyaga chiqqanidan keyin qishlog‘ida o‘z hisobidan kutubxona barpo qilib, «Yoshlar markazi»ni tashkil etgan ekan. Hozirgi kunda kutubxonada jamlangan adabiyotlarning soni 20 mingdan oshib ketibdi.

Bu ma’rifat maskani yil davomida kitobxonlar, ayniqsa, qishloq yoshlari bilan gavjum bo‘lar ekan.

Jamiyatimizning kitobxonlik darajasini oshirish, o‘g‘il-qizlarimizni kitobga oshno etish masalasi g‘oyat dolzarb vazifa bo‘lib turgan bugungi kunda muhtaram otaxonimizning bunday xayrli ishlarni amalga oshirgani, albatta, tahsinga sazovordir. Axir, u kishi ham oshib-toshib ketgan odam bo‘limgandir, pensiyasini, yiqqan-tergan mablag‘ini tinchgina yeb yotsa bo‘lardi-ku?

Mana shunday fidoyi insonlar oldida har qancha ta'zim qilsak arziydi.

Lekin shu o'rinda o'zimizga bir savol beraylik: bu jonkuyar otaxonning ana shunday savobli tashabbusini qo'llab-quvvatlash uchun biz nima ish qildik? Birinchi navbatda tuman hokimligi, viloyat hokimligi, shular qatorida Madaniyat va sport ishlari vazirligi bu ajoyib odamga qanday amaliy yordam berdi va qanday yordam bermoqchi?!

Ma'lumki, Qashqadaryo azaldan kuragi yerga tegmagan mard pahlavonlar yurti bo'lib kelmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha yaratilayotgan qulay sharoitlar tufayli viloyatda ana shunday yoshlarning safi tobora kengayib bormoqda.

So'nggi 5 yilda viloyatning sportchi yoshlari jahon, Osiyo va mamlakatimiz miqyosidagi nufuzli musobaqalarda jami 1 ming 72 ta oltin, 945 ta kumush va 1 ming 71 ta bronza medalni qo'lga kiritgani bu fikrning tasdig'idir. Ayniqsa, shu yil Braziliyada bo'lib o'tgan 15-paralimpiya o'yinlarida Fotima Amilovaning suzish bo'yicha bir yo'la oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritgani barchamizni xursand qildi.

Kelinglar, ana shu matonatli qizimizni, uning ottonasi, ustoz va murabbiylarini yana bir bor samimiyl qutlab, ularga baxt va omadlar tilaylik.

Qadrli do'stlar!

Barchamizga yaxshi ma'lum, Qashqadaryo viloyati yuksak iqtisodiy salohiyati, rivojlangan sanoati va qishloq xo'jaligi bilan O'zbekiston taraqqiyotida muhim o'rin egallab kelmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 70 foizi, neftning qariyb 78 foizi, gaz kondensatining 80 foizi, g'allaning 13 foizdan ortig'i, paxtaning 14 foizdan ziyodi viloyat hissasiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi besh yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 2 barobar oshdi.

Biz bu gaplarni shunchaki takrorlashga o'rganib qolganmiz. Lekin bu raqamlarning zamirida qanday ma'no-mazmun borligiga, ularning negizida mingminglab odamlarning aql-zakovati, kuch-g'ayrati, mashaqqatli mehnati mujassam ekaniga, afsuski, doim ham yetarlicha e'tibor bermaymiz. Men hurmatli olimlarimiz, ommaviy axborot vositalari xodimlaridan shu masalani hisobga olib, shu mavzuda tahliliy maqolalar yozib, bu raqamlarning mag'zini ochib berishlarini iltimos qilgan bo'lardim.

**Sanoat sohasida** Qashqadaryo mamlakatimizning yetakchi viloyatlaridan sanaladi. Yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi 38 foizni tashkil etayotgani ham shundan dalolat beradi. Hozirgi kunda O'zbekiston tonda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 9,5 foizi aynan shu viloyatga to'g'ri kelmoqda.

Bu yerdagi «Sho'rtan neft-gaz», «Muborak neft-gaz» korxonalari, «Sho'rtan» gaz-kimyo majmuasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasi, «Hisor neft-gaz» kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlari mamlakatimiz sanoatining lokomotivlari hisoblanadi.

Viloyatda so'nggi besh yilda barcha manbalar hisobidan 18 trillion 100 milliard so'mlik kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi. Shuning 27 foizi yoki

## **4 trillion 900 milliard so‘mi xorijiy investitsiyalar ekani, ayniqsa, e’tiborlidir.**

Keyingi besh yilda hududiy eksport hajmi 100 million dollarga yetdi va 2011-yilga nisbatan 2,5 barobar ko‘paydi.

Bu yerda faoliyat ko‘rsatayotgan 49 ta qo‘shma korxonaning 21 tasi so‘nggi besh yilda tashkil etilgan bo‘lib, ular yuqori texnologiyalar asosida mahsulot chiqarmoqda va biz bu ishlarni izchil davom ettiramiz.

Shu o‘rinda sizlar bilan bir taklifni o‘rtoqlashmoqchiman. Ma’lumki, bugungi kunda zamonaviy taraqqiyotni eng ilg‘or texnik va texnologik tafakkursiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Bunda, ayniqsa, yuqori malakali injenerlar, ya’ni muhandis kadrlar muhim o‘rin tutmoqda. Sanoat yoki qurilish sohasini olamizmi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini olamizmi, barchasiga muhandislik tafakkuri kerak.

Hammangiz yaxshi bilasiz – Qashqadaryo ulkan sanoat mintaqasi hisoblanadi. Ayniqsa, yoqilg‘i-energetika industriyasi bo‘yicha uning imkoniyatlari beqiyos. Kelgusida bu imkoniyatlardan to‘liq va samarali foydalanish uchun, avvalo, zamonaviy fikrlaydigan muhandis kadrlar kerak.

Shuni hisobga olgan holda, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida zamonaviy injener kadrlar tayyorlash bo‘yicha mutaxassislik va yo‘nalishlar tizimini takomillashtirish, uning moddiy-texnik bazasi va professor-o‘qituvchilar salohiyatini oshirishga doir aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqib, amalga oshirishimiz zarur.

**Qashqadaryoda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi** ham jadal rivojlanmoqda.

Bugungi kunda yalpi hududiy mahsulotning 51,6 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ishlab chiqarilmoqda. Eng muhimi, mehnat bilan band aholining qariyb 80 foizi shu tarmoqda mehnat qilmoqda.

E'tiborga molik yana bir tomoni shundaki, viloyatda shu davrda 443 mingdan ziyod yangi ish o'rni tashkil etilgan bo'lsa, buning 85 foizi qishloq joylarda va asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisobidan tashkil etilgan.

Viloyat iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i bo'lган qishloq xo'jaligi sohasida ham islohotlar samarali davom ettirilmoqda.

Oxirgi uch yilda 4 ming 900 ta fermer xo'jaligi yoki barcha fermer xo'jaliklarining 22 foizdan ziyodi ko'ptarmoqli xo'jalikka aylantirildi. So'nggi besh yilda 3 ming 200 hektar paxta maydoni qisqartirilib, ko'proq daromad beradigan kartoshka, meva-sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish yo'lga qo'yildi.

Bu yil ob-havoning noqulay kelganiga qaramasdan, Qashqadaryoning mirishkor dehqon va fermerlari g'alla va paxtadan mo'l hosil yetishtirib, shartnoma majburiyatlarini ortig'i bilan ado etdilar.

Bugungi imkoniyatdan foydalaniб, fidokorona mehnati bilan mo'l hosil yetishtirib, xalqimiz farovonligiga munosib hissa qo'shayotgan mirishkor dehqon va fermerlarni, barcha dala mehnatkashlarini, butun viloyat ahlini chin qalbimdan samimiy tabriklab, chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Muhtaram yurtdoshlar!

**Qashqadaryo viloyatida shahar va qishloqlar qiyofasini tubdan o'zgartirish**, odamlarning tur mush sharoitini yaxshilash, ayniqsa qishloq aholisi uchun shahardan qolishmaydigan qulay sharoitlar yaratish bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda.

Birinchi Prezidentimiz rahbarligida Qarshi va Shahrисabz shahrida amalga oshirilgan ulkan buniyodkorlik ishlari bu ikki qadimiy shahar qiyofasini mutlaqo o'zgartirib yuborgani sizlarga yaxshi ma'lum.

Ayniqsa, Qarshi shahrining hududi 9 ming gektardan 17 ming gektarga, Shahrисabz shahrining hududi 3 ming 300 gektardan 4 ming 900 gektarga kengaytirilgani muhim tarixiy qadam bo'ldi.

Qashqadaryo ustidagi qadimiy Amir Temur ko'prigi tubdan rekonstruksiya qilinib, daryoning ikki qirg'og'ida Qarshi ahli va mehmonlar dam oladigan go'zal sayilgoh va so'lim maskanlar barpo etilgani ham katta voqeа bo'ldi. Mana shu ishlarda sizlar bilan, butun xalqimiz bilan birga mening ham hissam borligidan hamisha g'ururlanib yuraman.

Qashqa vohasida o'tgan davrda **transport infrazilmasini, muhandislik va axborot kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga** qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bu haqda gapirganda, Toshguzar – Boysun – Qumqо'rg'on temir yo'lining barpo etilishi nafaqat Qashqadaryo, balki butun mamlakatimiz hayotida yangi sahifa ochganini ta'kidlash lozim. Shuningdek, Toshkent – Qarshi yo'nalishi bo'yicha «Afrosiyob» tezyurar elektr poyezdi qatnovi yo'lga qo'yilgани va

buning natijasida Toshkent shahriga borib-kelish vaqtin  
ikki barobar qisqarganini alohida qayd etish lozim.

Muxtasar aytganda, Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar, odamlarning kundalik hayotida, ularning ro‘zg‘ori va dasturxonida o‘z ifodasini topmoqda va biz buni eng muhim natija deb qabul qilamiz.

Buning tasdig‘ini keyingi besh yilda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar 2,5 barobar oshgani, 2011-yilga nisbatan har yuz xonadonga to‘g‘ri keladigan avtomobillar soni 2,3 marta, pilesoslar – 6,8 karra, kir yuvish mashinalari – 1,5 marta, televizor va muzlatkichlar – 1,3 barobar ko‘paygani misolida ko‘rish mumkin. Bu, albatta, odamlarning turmush darajasi va sifati izchil o‘sib borayotganini ko‘rsatadi va bizni boshlagan islohotlarimizni yanada izchil davom ettirishga undaydi.

Qadrli vatandoshlar!

Mening saylovoldi dasturimda barcha hududlarimiz qatori Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ham aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Ruxsatingiz bilan, shu haqda qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Avvalo, **sanoat sohasida** viloyatda yaqin besh yilda barcha manbalar hisobidan 36 trillion 6 milliard so‘mdan ziyod investitsiya o‘zlashtirish belgilanmoqda. Buning qariyb 80 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga yo‘naltiriladi. Jumladan, qariyb 4 milliard dollar investitsiya hisobidan 863 ming tonna dizel yoqilg‘isi, 304 ming tonna kerosin, 11 ming 200 tonna

suyultirilgan gaz ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish bo'yicha loyihalar amalga oshiriladi.

Yana bir yirik loyiha asosida «Sho'rtan gaz-kimyo» majmuasida 400 million dollar sarmoya hisobidan polietilen ishlab chiqarish quvvatini 75 ming tonnaga yetkazish mo'ljallanmoqda.

Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasini kengaytirish bo'yicha uchinchi va to'rtinchi bosqich ishlarini bajarish ham istiqbol rejalarimizdan o'rin olgan.

Viloyat sanoatida yoqilg'i-energetika sohasi 66 foizni tashkil etishini inobatga olib va boshqa tarmoqlarni ham jadal rivojlantirish maqsadida kelgusi besh yilda 760 ta hududiy sanoat loyihasini amalga oshirish va shu asosda minglab yangi ish o'rinalarini yaratish ko'zda tutilmoqda.

**Qishloq xo'jaligi sohasida** kelgusi besh yilda go'sht yetishtirishni kamida 1,3 marta, sutni – 1,5 karra, tuxumni – 1,8 barobar, kartoshkani – 1,6 marta, meva va uzumni – 1,4 karra, sabzavotni – 2 marta, baliqni – 2 barobardan ziyod ko'paytirish, shuningdek, ularni qayta ishlash ko'lамини kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar olib borilmoqda.

Buning uchun yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida viloyatda 837 kilometr kollektor-drenaj tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish, 5 ming 320 kilometr kollektoriarni ta'mirlash va tiklash rejalashtirilmoqda.

Irrigatsiya tizimini takomillashtirish borasida yaqin 5 yilda jami 173 ta obyektda 341 milliard so'mlik ish bajarish ko'zda tutilmoqda. Xususan, 2017-yilda xalqaro moliya tashkilotlari bilan birgalikda

«Do'stlik-1-2-3» nasos stansiyasini qurish loyihasi amalga oshiriladi. Shu tariqa Qarshi va G'uzor tumanlaridagi 22 ming hektar sug'oriladigan ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash yaxshilanadi.

Yana bir muhim soha – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ishlar ham davom ettiriladi. Xususan, kelgusi 5 yilda 197 kilometr optik tolali aloqa tarmog'ini va 147 ta mobil aloqa tayanch stansiyasini qurish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, 63 ta raqamli teleuzatgich o'rnatish orqali viloyatda raqamli televideniyega o'tish darajasini bugungi 60 foizdan 2021-yilda 100 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Hurmatli yurtdoshlar!

Sizlarga yaxshi ma'lum, mamlakatimizda mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab «**Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun**» degan asosiy tamoyil faoliyatimiz mezoni bo'lib kelmoqda.

Shu maqsadda biz tuman va shaharlarimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirishga bevosita ta'sir etadigan dolzarb yo'nalishlar bo'yicha 15 ta maxsus dastur ishlab chiqmoqdamiz. Aytish kerakki, bu dasturlarning ayrimlari tasdiqlanib, ularni amalga oshirish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi.

Ruxsatingiz bilan, ana shu dasturlar asosida Qashqadaryo viloyatida amalga oshiriladigan ishlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

**Birinchidan**, Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan

yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi yaqinda qabul qilingan Farmon bilan tasdiqlandi.

Joylardagi uchrashuvlar, ommaviy axborot vositalarida bu mavzu keng yoritilmoqda va sizlar bu haqda yetarlicha ma'lumotga egasiz deb o'layman.

Men faqat mazkur dasturda tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha 42 ta aniq chora-tadbir belgilanganini aytib o'tmoqchiman. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida yaqin 5 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun ajratiladigan kreditlar miqdori kamida 3–3,5 barobar ko'paytiriladi.

Qarshi shahri, Shahrisabz, Nishon tumanlaridagi 6,8 hektar maydonda kichik biznes uchun tashkil qilingan uchta maxsus sanoat zonasini kengaytirilib, boshqa tumanlarda ham shunday hududlar tashkil etiladi. Buning uchun 5 milliard 800 million so'mdan ortiq investitsiya jalb etiladi.

Ana shunday aniq chora-tadbirlar natijasida kelgusi 5 yilda 5 mingga yaqin yangi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, ularning umumiy soni 20 mingtaga yetkaziladi.

**Ikkinchidan**, yaqinda qabul qilingan qarorga asosan 2017–2021-yillarda qishloq joylardagi kam ta'minlangan oilalar uchun arzon va qulay uy-joylar qurish dasturi tasdiqlandi.

Hammamiz ko'ryapmiz, xalqimizning hayot darajasi oshib, aholimiz ko'paygani sayin odamlarning talab va ehtiyojlari, jumladan, uy-joy masalasida ham o'smoqda. Bu holatni Qashqadaryo viloyatida ham ko'rish mumkin.

Mazkur dasturda bularning barchasi hisobga olingan. Xususan, qishloq joylardagi kam ta'minlangan oilalarni, yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, qulay va arzon uylar qurish yo'li bilan ularning bu boradagi ehtiyojini qondirish, turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Viloyatda yaqin 5 yilda namunaviy loyihalar asosida 8 ming 32 ta uy-joy qurish ko'zda tutilmoqda. Xususan, 2017-yilda 36 ta massivda 1 ming 526 ta ana shunday uy-joy qurish bo'yicha tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Kam ta'minlangan aholini va yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida shu davrda shahar va tumanlarda zamonaviy loyihalar asosida 230 ta ikki qavatli uy va 13 ta ko'pqavatli «Kamolot» uylari barpo etish mo'ljallanmoqda.

Ayni vaqtda shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan yaxshilash, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar davom ettiriladi.

Hozirgi kunda Qarshi temir yo'l vokzali rekonstruksiya qilinib, uning oldidagi maydonni tubdan yangilash ishlari yakunlanmoqda. Shu bilan birga, «Nasaf» stadionida suzish kompleksini barpo etish, «Markaziy» stadionini rekonstruksiya qilish va unga tutash ko'chalarni ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi.

**Uchinchidan**, Hududiy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Ma'lumki, viloyatda oxirgi 5 yil mobaynida 175 kilometr xalqaro, milliy va mahalliy ahamiyatga

molik avtomobil yo‘llari, 23 ta ko‘prik rekonstruksiya qilindi, 150 kilometr yo‘llar joriy ta‘mirlandi.

Dasturda Qashqadaryoda umumiy uzunligi 875 kilometr bo‘lgan xo‘jaliklararo ichki yo‘llar, shaharlar, tumanlar markazlari va shaharchalardagi yo‘llarni kapital va joriy ta‘mirlash ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, Qarshi shahrining 4 qatnovli halqa yo‘li qurib bitkaziladi.

**To‘rtinchidan**, Shahar va qishloqlarda transport ta‘minotini yanada rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda.

Viloyatda aholiga transport xizmati ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida keyingi 5 yil davomida 236 ta, Qarshi shahri uchun 150 taga yaqin avtobus, 151 ta mikroavtobus sotib olinib, shahar va shahar atrofidagi 37 ta yo‘nalishga qo‘ylganini qayd etish lozim.

Dasturda barcha aholi punktlarida transport xizmatlarini talab darajasida yo‘lga qo‘yish va transport parkini bosqichma-bosqich yangilash choralar ni nazar da tutilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida bu borada kelgusi 5 yilda 265 ta zamонави avtobuslar sotib olinib, yo‘lov-chilarga xizmat ko‘rsatish yaxshilanadi. Bundan tashqari, 8 ta avtovokzal va avtostansiya yangitdan qurilib, ishga tushiriladi, 4 ta avtovokzal va avtostansiya qayta‘mirlanadi.

Qarshi shahrini rivojlantirish bosh rejasiga asosan aylanma yo‘lda Qarshi–Buxoro, Qarshi–Toshkent, Qarshi–Termiz yo‘nalishlari bo‘yicha yangi avtostansiyalar qurilishi nihoyasiga yetkazilmoqda.

Aytish joizki, bu boradagi ishlarni nafaqat Qarshi shahrida, balki viloyatning boshqa hududlarida ham davom ettiramiz.

**Beshinchidan**, Qishloqlarda ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Oxirgi besh yilda Qashqadaryo viloyatida bu masala bo'yicha ko'p ish qilindi. Jumladan, budget mablag'lari hisobidan 822 kilometr suv tarmoqlari yangitdan qurildi va rekonstruksiya qilindi. Buning natijasida 200 mingdan ziyod aholining markazlashgan tarmoqlar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlanishi yaxshilandi.

Qarshi shahrining «Yo'ldosh» va «Yangibog'» nasos stansiyalari, Ayrum va Chap tarmoq kanallari rekonstruksiya qilindi. Ushbu kanaldan suv oladigan Eski Beshkent kanali qayta tiklandi.

Natijada Qarshi shahrining 25 ta mahallasidagi 2 ming gektardan ortiq maydonda aholi tomorqa yerlari va shaharning markaziy xiyobonlari oqar suv bilan ta'minlandi.

Ana shu ishlarimizning uzviy davomi sifatida kelgusi 5 yilda Qashqadaryo viloyatining 13 ta tumanida davlat budgeti hisobidan 98 milliard so'mlik ichimlik suvi tarmoqlarini qurish mo'ljallanmoqda.

Xorijiy moliya institutlari ishtirokida 30 million AQSH dollari evaziga Kitob-Shahrisabz suv inshooti rekonstruksiya qilinadi. Koson va Muborak tumanlari aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash yaxshilanadi.

Shuningdek, Qamashi va G'uzor tumanlaridagi ichimlik suvi tarmoqlari rekonstruksiya qilinadi. Buning uchun 10 million AQSH dollari ajratish ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, 18 million dollar sarmoya hisobidan Qarshi shahridagi mavjud kanalizatsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilinadi.

Ana shu tadbirlarni amalga oshirish natijasida bir millionga yaqin aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi sezilarli ravishda yaxshilanadi.

**Oltinchidan**, Ko'mir tannarxini va aholi uchun xarid qiymatini pasaytirish, shuningdek, qish mavsุมida bu borada chayqovchilik qilishni va narxlarning oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmoqda.

Endilikda ko'mirning narxi respublikaning barcha hududlarida 126 ming so'm qilib belgilab qo'yildi. Uni hududlarga tashish tannarxini kamaytirish uchun bu masala «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyatiga yuklatildi.

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyatiga oldingi yillarga nisbatan 8–10 ming tonna ko'mir yoqilg'isi olib kelinmoqda, iste'molchilar uni uch-to'rt kun tezroq olish imkoniga ega bo'lmoqda. «Qashqadaryo hududiy ko'mir yetkazuvchi» korxonasining 6 ta ombori to'lov terminallari va kassa apparatlari, aloqa vositalari bilan ta'minlangani aholi uchun qulaylik tug'dirmoqda.

Bugungi kunda viloyatdagi 6 ta korxonada ko'mir briketi ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda bir smenada 344 tonna mahsulot tayyorlanmoqda.

Qashqadaryo viloyatida kelgusi 5 yilda ko‘mir briketini ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun Qarshi shahrida zamonaviy korxona barpo etish ko‘zda tutilmoqda.

**Yettinchidan**, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash dasturi ishlab chiqilmoqda.

Aholining haqli e’tirozlariga sabab bo‘layotgan bu muhim muammoni hal qilish maqsadida dasturda aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Shular qatorida eskirgan quvvatlarni yangilash, elektr energiyasini taqsimlash jarayonidagi yo‘qotishlarni kamaytirish, mavjud uskunalarning xavfsiz va ishonchli ishlashini ta’minlash, uzilishlarni tubdan qisqartirish chora-tadbirlari nazarda tutiladi.

Qashqadaryo viloyatida kelgusi 5 yilda umumiy uzunligi 2 ming 279 kilometr bo‘lgan past kuchlanishli tarmoqlarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, 364 ta transformator punktini ishga tushirish mo‘ljallanmoqda.

Shu bilan birga, «Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki» mablag‘lari hisobidan Qashqadaryo viloyatida taqsimlash tarmoqlari va elektr ta’moti obyektlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

**Sakkizinchidan**, Maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturi tayyorlanmoqda.

Ma’lumki, tarbiyaning asosi, avvalo, oilada va bolalar bog‘chasida qo‘yiladi. Demak, farzandlari-mizning kelajakda qanday insonlar bo‘lib voyaga

yetishi, ularning ong-u tafakkuri, ma’naviyati qanday bo‘lishi ularning ilk tarbiya jarayoni qanday yo‘lga qo‘yilganiga, u yerda ishlayotgan murabbiy va tarbiyachilarning bilim saviyasi, o‘z ishiga fidoyiligiga bog‘liq.

Tayyorlanayotgan dasturda ana shu masalalarning barchasini e’tiborga olish bosh vazifa qilib qo‘yilgan.

Qashqadaryo viloyatida kelgusi 5 yilda 8 ta maktabgacha ta’lim muassasasini qaytadan to‘liq barpo etish, 76 ta bolalar bog‘chasini rekonstruksiya qilish, 50 tasini kapital ta’mirlash, xususiy bog‘chalarni ham ko‘paytirish rejalarhtirilmoqda.

**To‘qqizinchidan**, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida kelgusi ikki yilda jami 16 ta, jumladan, Qarshi shahrida to‘rtta, Mirishkor tumanida uchta, Dehqonobod, Qamashi, Kasbi, Muborak, Nishon, Chiroqchi va Yakkabog‘ tumanlarida bittadan dehqon bozorini rekonstruksiya qilish mo‘ljallanmoqda.

**O‘ninchidan**, Pensionerlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilash dasturini ishlab chiqish yakunlanmoqda.

Barchamizni tarbiyalab voyaga yetkazgan, hayot yo‘llarida bizga tayanch va suyanch bo‘lgan tabarruk keksalarimiz oldida biz doimo qarzdormiz. Ularga qo‘limizdan kelgan barcha qulay sharoitlarni yaratish, mehr va e’tibor qaratish maqsadida dasturda pensioner, nogiron, yolg‘iz qariyalar va aholining kam ta’minlangan qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yor-

dam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Bu borada, avvalo, «Nuroniy» jamg‘armasining maqomi va mavqeyini oshirish, uning viloyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko‘paytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi.

Keksalarning tashvish va muammolari bilan bevosita har bir shahar va tumanning o‘zida shug‘ullanish va ularni hal etish uchun jamg‘armaning shahar va tu man bo‘limlarini tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. Ular ning samarali ish olib borishi uchun alohida xonalar ajratish, xodimlarini budget hisobidan ish haqi bilan ta’minlash tartibi joriy etiladi.

Yana bir yangilikni sizlar bilan maslahatlash moqchiman. Ya’ni, har bir mahallada raisning nuro niylar masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimini tashkil etsak, nima deysizlar?

Ma’lumki, Birinchi Prezidentimizning qarorlariga muvofiq, Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va front ortida mehnat qilgan keksalarimizni har yili mamlakatimiz sanatoriylarida bepul davolash tizimi joriy etilgan edi.

Ammo ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli bu imtiyozdan foydalana olmayapti. Biz shuni e’tiborga olib, shunday faxriylarimizga yo‘llanmalarning pulini berishga qaror qildik. Bugungi kunda sanatoriyo yo‘llanmasining o‘rtacha narxi 800 ming so‘mni tashkil etmoqda. Demak, ana shu mablag‘ sanatoriylarga borib davolanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan keksalarimizga beriladi.

Shuningdek, nuroniylarga tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish va ularning turlarini kengaytirish, doimiy tibbiy ko'rik va sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish, zamonaviy davolash usullarini kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

«Nuroniy» jamg'armasi boshchiligidagi «Mahalla» jamoat fondi, Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari tomonidan yolg'iz qariyalarni har yili qishki kiyim-bosh va belgilangan turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash ishlari izchil davom ettirildi.

Kelgusi to'rt yilda mamlakatimizdagi barcha «Muruvvat» va «Saxovat» uylari rekonstruksiya qilinadi va kapital ta'mirlanadi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamonaviy sharoitlar yaratiladi.

**O'n birinchidan**, Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Barchamiz yaxshi bilamiz, har bir oiladagi tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka, mehr-oqibat muhiti, avvalo, shu oilarning tayanchi, baxti va quvonchi bo'lgan onalar va bolalarning salomatligi bilan bog'liq.

Dasturda ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, jumladan, ularga xizmat ko'rsatadigan davolash-profilaktika tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash, ularga yuqori texnologiyalar asosida maxsus tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Xususan, yangi tug'ilgan chaqaloqlar, o'smir qizlar, homilador va tug'ish yoshidagi ayollar uchun patronaj

kuzatish tizimini hozirgi 70 foizdan 100 foizga oshirish joriy etiladi. Natijada kasallanish holatlarining oldi olinib, onalar va bolalarda kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratiladi.

Shu bilan birga, markazlashgan tartibda kasalxonalarlarga beriladigan dori vositalari, tibbiy buyum va uskunalar ro'yxati kengaytiriladi.

Qashqadaryo viloyatida kelgusi 5 yilda uchta tibbiyot muassasasida qurilish, 33 ta shifoxonada rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari bajarildi. Shular qatorida Akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy markazining Qarshi filiali, viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Qamashi, Qarshi, Kasbi, Shahrisabz, Kitob, Muborak tumanlaridagi tibbiyot maskanlarini rekonstruksiya qilish va jihozlash rejalahtirilmoqda.

Aziz do'star!

Bugungi kunda barchamiz uchun eng muhim vazifaga aylanayotgan bir masala borki, biz amalga oshirayotgan barcha islohotlarning natijasi aynan shu masalani qanday hal etishimizga bog'liq. U ham bo'lsa, hayotimiz mazmuni, ertangi kunimiz egasi bo'lgan yosh avlod, farzandlarimiz tarbiyasidir. Bu masalaning dolzarbliji va muhimligini hisobga olib, bu mavzuga yana to'xtalishni o'rinali deb bilaman.

Haqiqatan ham, har bir bola – bamisoli o'sib, kuchga to'layotgan, parvarishga muhtoj nozik bir nihol. Binobarin, uni hech qachon mehr va e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bunday munosabat qanday og'ir oqibatlarga olib kelishi haqida o'tmishdan ham, bu-

gungi kundan ham ko‘p-ko‘p achchiq misollarni keltirish mumkin.

Shuning uchun ham bizning har birimiz qayerda, qaysi lavozimda ishlashimizdan qat’i nazar, avvalo, tarbiyachi ekanimizni, bolalarimiz taqdiri uchun shaxsan mas’ul ekanimizni, bu zamonning o’tkir tababiga aylanayotganini hech qachon unutmasligimiz shart.

Ayniqsa, uyushmagan yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor berishimiz, davlat va jamoat tashkilotlarining, avvalo, «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakatining bu boradagi kuch va imkoniyatlarini birlashtirib, tizimli ish olib borishimiz lozim.

Pedagoglarimiz yaxshi biladi, tarbiya, odob-axloq sohasida «amaliy namuna» hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Farzandlarimizga, avvalo, o‘zimiz hamma sohada – Vatanga, xalqqa sadoqatli bo‘lishda, ilmga, kasb-u hunarga mehr qo‘yishda, ota-onasiga, jamiyat oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishda amaliy namuna ko‘rsatishimiz kerak.

Ayniqsa, qiz bolalarni ilm-fan, kasb-hunar sirlarini puxta egallashga o‘rgatish, hayotda munosib o‘rnini topishiga erishish – eng muhim vazifamizdir. Bu borada yaqinda qabul qilingan **«Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»**gi qonun yangi imkoniyatlar ochib beradi.

Hurmatli saylovchilar!

Mamlakatimizdagi har bir inson, har bir oila halyotiga bevosita daxldor bo‘lgan, kuni kecha qabul qilingan qaror bilan tasdiqlangan yana bir dasatur – **farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirish**, hech shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. Bu dasturna muvofiq, kelgusi to‘rt yilda umumiy qiymati

224 million dollar bo‘lgan 67 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Shuningdek, dasturda aholi va tibbiy tashkilotlarni arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minalash darajasini oshirish, ularga narx belgilashning samarali mexanizmini joriy etish yuzasidan zarur choralar belgilangan.

Qashqadaryoda dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 11 ta korxona tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, 470 gektarga yaqin yer maydonlarida dorivor o’simliklar yetishtirish bo‘yicha loyihami amalga oshiriladi. Viloyatdagi shahar va tumankar tibbiyot birlashmalarida ijtimoiy dorixonalar tashkil etish ishlari yakunlanadi.

Aziz yurtdoshlar!

Sizlarning e’tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiman. Bu xalqimizning tinchligi, kafolatlangan xavfsizligini ta’minalash masalasıdir.

Biz bu maqsadga erishish uchun hozirgi vaqtida Ichki ishlar vazirligi tizimini tubdan o’zgartirish chora-tadbirlarini ko‘ryapmiz.

O‘z paytida Muhtaram Yurtboshimiz ichki ishlar idoralarining eng quyi tizimida profilaktika inspektorlarini tashkil qilgan edilar.

Ammo bugun bu inspektorlar profilaktika, ya’ni jinoyatlarning oldini olish bilan shug‘ullanmayapti, aksincha, sodir bo‘lgan jinoyatlarni ro‘yxatga olish, yuqori idoralarga hisobot yozish bilan band.

Shu sababli bu masalaga qarashimizni tubdan o’zgartirib, mahalladagi uchastka nozirlariga samara-

li faoliyat ko‘rsatishi uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz. Ularga xizmat uylari va avtomashinalar beriladi. Uchastka nozirlari endi kechasi bilan uxlamay mahalla osoyishtaligini qo‘riqlab yuradigan bo‘ladi.

Shuningdek, har bir tuman hokimi va tuman ichki ishlar bo‘limlari rahbarlarining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy etiladi.

Bu rahbarlarning asosiy vazifasi mahallada uchastka inspektorlari bilan ishlashni tashkil etadi. Ularning kechasi mahallada yurganini aholi ko‘rsa, o‘z xavfsizligiga qanoat hosil qiladi. Shundagina odamlar uyida tinch-xotirjam uxbaydi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Hozirgina bayon qilingan dastur va rejalarimizni amalga oshirish uchun, avvalo, tinchlik va osoyishtalik zarurligini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Shu munosabat bilan yurtimizdagи tinch-osoyishta hayot, millatlararo totuvlik, Vatanimiz xavfsizligi, chegaralarimiz daxlsizligi, tashqi siyosat borasidagi asosiy tamoyillarimiz haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Biz «O‘zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak» degan da‘vatni xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi faoliyatimizning asosiy tamoyili va o‘zak g‘oyasi deb bilamiz.

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kela-yotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo‘lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash – xavfsizlik va

barqarorlikni hamda xalqimizning osoyishta hayotini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolatidir.

Biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga tahdid solishga urinadigan yovuz kuchlarning har qanday harakatlariga keskin zarba berishga qodir ekanimizni bugun yana bir bor ta'kidlab aytaman.

**Tashqi siyosat** sohasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to'liq amal qilish saylovoldi dasturimizning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bu siyosatning asosiy ma'no-mazmuni – tinchlik-parvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O'zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlari va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Qo'shnilarimiz bilan o'zaro hurmat va manfaatli hamkorlikni qancha rivojlantirsak, nafaqat yurtimiz, balki butun mintaqamiz ravnaq topadi.

Mana shu yo‘lda yangi qadamlar qo‘yayotganimiz, jumladan, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston davlatlarining rahbarlari bilan olib borayotgan muzokaralarimiz va hamkorlik aloqalari-miz buning amaliy tasdig‘idir va bu ishlarni biz izchil davom ettiramiz.

Qadrli va aziz vatandoshlar!

Men barcha uchrashuvlarda bir fikrni ta’kidlab aytayapman: muhtaram Prezidentimiz mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab amalga oshirgan buyuk ishlar hammamiz uchun ibrat va namunadir.

Men yorug‘ yuz bilan aytmoqchimanki, 27 yil davomida u kishining rahbarligida ishlab, bu insondan Vatanga fidoyilikni, Vatanni sevishni, doimo xalq bilan birga bo‘lishni o‘rgandim.

Albatta, mana shunday buyuk davlat arbobidan keyin O‘zbekistonga boshchilik qilish – qanday katta mas’uliyat va javobgarlik ekanini men chuqur anglab turibman.

Bugun dunyodagi shiddatli globallashuv sharoitida, keskin tortishuvlar davrida O‘zbekistonni tinch va omon saqlash, odamlarimizni rozi qilish – bu oson masala emas, albatta.

Lekin men bugun sizlarning oldingizda, xalqimiz oldida turib, va’da beraman: barcha ishlarni sizlar bilan, el-yurtimiz bilan bamaslahat olib borishga harakat qilaman.

Muhtaram Islom Abdug‘aniyevich O‘zbekiston degan ulkan, muhtasham imoratning poydevorini yaratib berdilar. Biz, endi shoshilmasdan, u yoqqa-bu

yoqqa tashlamasdan, xalq bilan bamaslahat bo‘lib, oldimizda turgan vazifalarni qat’iyat bilan amalga oshirsak, albatta, o‘z maqsadimizga yetamiz.

Men Qashqadaryo zaminiga, siz, azizlarga hurmat-ehtiromimni yana bir bor izhor etar ekanman, viloyat ahlining tinch, erkin va obod hayotini mustahkamlash, uning ezgu orzu-rejalarini amalga oshirish yo‘lida bor bilim va tajribamni, butun borlig‘imni ayamasdan xizmat qilishni o‘zim uchun yuksak sharaf deb bila-man.

So‘zimning yakunida sizlarga va sizlar orqali butun Qashqadaryo ahliga tinchlik-omonlik, baxt-u saodat, xonardonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Shahrisabz tumani,  
2016-yil 16-noyabr**

## **«SHUNDAY O'LKA DOIM BOR BO'LSIN!»**

**(JIZZAX VILOYATI SAYLOVCHILAR  
VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI  
NUTQ)**



---

Assalomu alaykum, hurmatli yurtdoshlar!  
Qadrli do'stlar!

Avvalambor, siz, azizlarga – men uchun g'oyat qadrli bo'lgan Jizzax ahli vakillariga meni mana shunday samimi kutib olganingiz, shunday yuksak hurmat-e'tibor ko'rsatganingiz uchun barchangizga o'zimning chuqur minnatdorligimni bildirishga ijozat bergaysiz.

Hammangizga yaxshi ma'lum, biz bugun sizlar bilan mamlakatimizda shu yil 4-dekabr kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi arafasida uchrashib turibmiz. Vatanimiz tarixida, uning taraqqiyoti, bugungi va ertangi kuni uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu saylov barchamiz, butun xalqimiz uchun katta sinov ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Shuning uchun ham bu muhim siyosiy jarayonda har birimiz o'z xohish-irodamizni emin-erkin ifoda etib, o'zimiz, oilamiz, farzandlarimiz, el-yurtimizning hayoti va taqdiriga katta mas'uliyat bilan yondashib, siyosiy saviyamiz va huquqiy madaniyatimizni, grajdanilik pozitsiyamizni namoyish etgan holda ovoz berishimiz har tomonlama maqsadga muvofiqliр.

Aziz do'stlar!

Mana, hozirgina hammamiz birgalikda Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug'aniyevichning

porloq xotirasini hurmat bilan yodga oldik. Butun ongli hayotini O‘zbekistonimiz uchun, uning mustaqilligi va ozodligi, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasdan ravnaq topishi uchun bag‘ishlagan buyuk Yurtboshimizni milliy tariximizning eng keskin va tahlikali, tub burilishlar davrida xalqimizning dardiga darmon bo‘lsin, deb Yaratganning o‘zi maydonga chiqardi.

Ishonaman, oradan yillar, asrlar o‘tadi, lekin bu betakror, ulug‘ insonning nomi, amalga oshirgan ishlari Vatanimizning shonli tarixida o‘chmas bir sahifa bo‘lib, bugungi va kelgusi avlodlar uchun yuksak ibrat namunasi bo‘lib mangu qoladi.

Shu ma’noda, aziz Islom Abdug‘aniyevich bilan 27 yil birga ishlagan shaxs sifatida men buyuk ustozimizning siyosiy merosiga tayanib, u kishi belgilab bergen strategik yo‘lni davom ettirish va uni yangi bosqichga ko‘tarishni o‘zimning nafaqat rahbarlik, balki insoniy burchim deb bilaman. Mening saylovoldi dasturimning asosiy mazmunini ham ana shunday maqsad tashkil etadi.

Ayni vaqtida men dunyoda «o‘zbek modeli», «Islom Karimov modeli» deb tan olingan taraqqiyot yo‘lini, buyuk Yurtboshimiz rahbarligida amalga oshirilgan barcha-barcha ezgu ishlarni munosib davom ettirish, u kishidan keyin 32 millionli ulkan bir xalqqa rahbarlik qilishdek mas’uliyatning zalvorli yuki va salmog‘ini ham juda yaxshi his qilib turibman.

Rahmatli Islom akaning nihoyatda ibratli bir gaplari bo‘ldi: «Agar odamlar, xalq qo‘llab-quvvatlamasa, bitta rahbar, bitta shaxs qanday dono, qanday bilimdon, qanday kuchli bo‘lmasin,

**hech narsaga erisha olmaydi», deb ko‘p takrorlar edilar.**

Bugun dunyodagi shiddatli globallashuv sharoitida, xalqaro maydonda turli manfaatlar to‘qnashuvi kuchayib borayotgan, jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozi davom etayotgan keskin bir vaziyatda O‘zbekistoniga boshchilik qilishdek ulkan mas’uliyatni bo‘ynimga olishga qaror qilgan ekanman, men avvalo jonajon xalqimizning, siz, aziz Jizzax ahlining ishonchiga, yordam va madadiga tayanaman.

Men shu qadimiy zaminda tug‘ilib o‘sgan, uning nonini yeb, suvini ichib, unga farzandlik mehri bilan bog‘langan bir inson sifatida tarix sinovlarida toblangan, mustahkam irodali Jizzax elining qanday ulkan ishlarga qodir ekanini yaxshi bilaman.

Bu haqiqatga men Jizzax viloyatida hokim bo‘lib, sizlar bilan birga ishlagan yillarimda yana bir bor churqur ishonch hosil qilganman.

Barchangiz yaxshi bilasiz, o‘sha vaqtida Vatanimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganiga endigina besh yil bo‘lgan, har sohada «o‘tish davri»ning og‘ir va murakkab sharoiti hukm surar, iqtisodiy imkoniyatlarimiz cheklangan, sodda qilib aytganda, qo‘limiz qisqa paytlar edi. Lekin, barchamizning yuragimizda mana shu go‘zal va betakror Jizzax zaminiga, ona yurtimiz O‘zbekistonimizga bo‘lgan mehr-muhabbat, sadoqatimiz cheksiz edi.

Mana shu farzandlik tuyg‘usi bizni qancha-qancha sinov va mashaqatlarni yengib, qat’iyat bilan mehnat qilishda, ichki imkoniyatlarni ishga solib, Jizzaxni har tomonlama obod etishda, xalqimizning,

Yurtboshimizning ishonchini oqlashda beqiyos kuch-quvvat bergen edi. Bugun bu yo'lida qanday bahs va tortishuvlar, muhokamalar bo'lganini, lekin doimo hamjihat bo'lib harakat qilganimizni eslar ekanman, agar xalq birlashsa, tog'ni ham tolqon qilishi mumkin ekaniga yana bir bor amin bo'laman.

Keyinchalik Bosh vazir lavozimidagi faoliyatim davomida ham siz, azizlarim bilan birga shu zaminning ravnaqi va farovonligiga ozmi-ko'pmi hissa qo'shganimdan hamisha faxrlanib yuraman.

Muhtaram Islom Abdug'aniyevich Jizzax ahliining o'z qadr-qimmatini yuksak tutishi, o'z oldiga bir maqsad qo'ysa, uni albatta oxiriga yetkazishi, mehnatkashlik va kamtarinlik kabi oljanob fazilatlarini yuqori baholar edilar. Viloyatni zamon bilan hamohang ravishda rivojlantirish, aholining muammo va tashvishlarini hal qilish, turmush darajasini oshirish masalalari hamisha u kishining e'tiborida bo'lib keldi.

Sobiq sovetlar davrida Jizzax viloyatiga asosan arzon paxta xomashyosi yetishtirib beradigan hudud sifatida qaralgani va shu tufayli viloyat har jihatdan orqada qolib kelganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Faqat mustaqillikka erishganimizdan keyingina bu boradagiadolatsizlikka barham berish yo'lida katta amaliy qadamlar qo'yildi. Bu haqda gapirganda, birgina misolni keltirib o'tmoqchiman.

Ma'lumki, Birinchi Prezidentimizning tashabbusi bilan 2013-yilda «Jizzax» erkin iqtisodiy zonasasi tashkil etildi. Keyingi ikki yilda mazkur zonada 76 million dollar qiymatidagi 14 ta loyiha amalga oshirildi. Natijada avtomobillar uchun tormoz kolodkasi, plaz-

mali televizor, xolodilnik, elektr pechi, kir yuvish va tikuv mashinalari, gilam, polipropilen ip kabi yuqori texnologiyalarga asoslangan, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Birgina joriy yilning o‘zida bu yerda 25 turdagি 146 milliard so‘mlik mahsulot tayyorlandi. Hozirgi kunda yana 7 ta loyiha ustida ish olib borilmoqda. Keyingi besh yilda viloyatda 28 ta qo‘shma korxona tashkil etildi va ularning soni 74 taga yetdi.

O‘zingiz o‘ylang, aziz do‘srlar, Jizzax viloyati ha-yotida, uning taraqqiyotida g‘oyat muhim rol o‘ynaydigan mana shunday raqamlarni ilgari tasavvur qila olarmidik?

Jizzax xalqi sovetlar davrida sobiq Markaz tomonidan o‘ylab chiqarilgan «paxta ishi», «o‘zbeklar ishi», «rashidovchilik» degan tuhmat va malomatlarga duch kelganini va bularning barchasi oddiy, begunoh odamlar yelkasiga og‘ir yuk bo‘lib tushganini bugun ham iztirob bilan eslaymiz.

Ayniqsa, O‘zbekistonni juda murakkab va og‘ir yillarda boshqargan, yurtimiz sha’niga ham, o‘z nomiga ham gard yuqtirmasdan o‘tgan kamtarin va donishmand davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidovning shaxsiga nisbatan turli bo‘htonlar uyushtirilganida ham bunday nohaqlikdan yurak-bag‘ri ezilgan, lekin unga bosh egmagan Jizzax elining sabr-bardoshi va matonati oldida ta’zim qilsak, arziydi.

Ma’lumki, Sharof Rashidov respublikaga qariyb chorak asr yetakchilik qildi. O‘tmishni yashirishning hojati yo‘q. Sharof Rashidov o‘z davrining farzandi edi, u mavjud tuzumga sadoqat bilan xizmat qildi.

Ammo bedodlikni qarangki, shunday odam dunyodan ko‘z yumganida o‘zi umr bo‘yi himoya qilgan, sodiq bo‘lib xizmat qilgan tuzum unga xiyonat qildi. Misli ko‘rilmagan shakkoklik bilan uning xotirasini tahqirlab, jasadini ko‘chirdilar, oila a’zolari va qarindoshurug‘larini ta’qib etdilar. «Rashidovchilik» degan soxta iborani o‘ylab topib, uning xotirasini yomonotliq qildilar.

O‘ylab qolasan kishi, dunyoda shunaqayam adolatsizlik bo‘ladimi?! Inson tirik paytida uni ko‘klarga ko‘tarib, vafotidan keyin yer bilan yakson etsa, qadrini beobro‘ qilsa, bu o‘zi qanday davlat, qanday jamiyat bo‘ldi?

Lekin, tarix guvoh, hayotda shunday adolatsizliklar ham bo‘lar ekan. **Agar har bir xalq, har bir davlat mustaqil bo‘lmasa, boshqalar uning nafaqat dehqonini, nafaqat ishchisini, hattoki shoir-u olimini ham, davlat arbobini ham istagancha tahqirlashi, insoniy sha’nini tuproqqa qorishi mumkin ekan.** Biz yaqin tariximizda kechgan ana shunday ayanchli voqealar misolida mustaqilligimizning ahamiyati va mohiyatini, qadr-qimmatini yanada teran anglab yetishimiz, uni har qanday yovuz kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz shart. Sobiq sovet hududining ba’zi o‘lkalarida eski tuzumni yana qaytarishga urinishlar bo‘layotgan hozirgi paytda bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmasligimiz zarur.

Barchangiz yaxshi eslaysiz, muhtaram Yurtboshimizning tashabbuslari bilan istiqlolga erishganimizning ikkinchi yili Sharof Rashidovning nomi to‘la-to‘kis oqlandi. O‘sha yili u kishining 75 yilligi yurtimizda keng nishonlandi.

Hech shubha yo'qki, Sharof Rashidov nomini o'zbek xalqining tarixidan, hayotidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Sharof Rashidov o'z xalqiga va Vatani-ga fidoyi farzand edi.

Kelgusi yili ayni shu paytlarda xalqimizning otashqalb farzandi, atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludiga 100 yil to'ladi. Shu qutlug' sanani butun mamlakatimiz miqyosida keng nishonlab, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazsak, u kishi tug'ilib voyaga yetgan tabarruk Jizzax zaminda muhtasham yodgorlik majmuasi barpo etsak, nima deysizlar?

Muhtaram anjuman ishtirokchilari!

Jizzax deganda, avvalo Zarafshon vohasida joylashgan, o'zining go'zal va betakror tabiat, qadimiy tarixi, serviqor tog'lari, bepoyon dasht-u dala-lari, eng muhimmi, oqko'ngil, oriyatli va mehnatkash insonlari bilan odamni o'ziga maftun etadigan bir diyor ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Bu zamindagi Zomin milliy bog'i, Baxmal, Jizzax va Forish tog'laridagi yam-yashil archazorlar, soy va buloqlar, Arnasoy, Aydarko'l, Tuzkon ko'llari atrofidagi tabiat mo'jizalarini tasvirlash uchun odam albatta yo zo'r shoir, yo zo'r rassom bo'lishi kerak.

Atoqli shoirimiz: «**Bitilmagan dostondir bori**», deya ta'kidlaganidek, bu vohada hali to'liq o'r-ganilmagan qancha-qancha tarixiy yodgorliklar, osori atiqalar mavjud.

Bu hududdagi Ustrushona, Peshag'or kabi tarixiy joylar, Takalisoy qoyatoshlariga ishlangan rasmlar, Baxmal, G'allaorol va Jizzax tumanlaridagi ko'plab

yerosti yo‘llari, ko‘hna Budda ibodatxonasi, Novqa, Sa’d ibn Vaqqos, Sayfin ota kabi ziiyoratgohlar, Quyosh taqvimi, Qoratosh, Qo‘ng‘irtepa singari arxeologik yodgorliklar, Sohibqiron bobomiz nomi bilan atalgan «Amir Temur darvozasi» – bularning hammasi Jizzax vohasining qadimiy sivilizatsiya va madaniyat beshiklaridan biri bo‘lib kelganini ko‘rsatadi.

Ana shu tarixiy maskanlarni kelgusida turizm yo‘nalishlari ro‘yxatiga kiritish va buning uchun tegishli infratuzilmalar yaratish bizning dolzarb vazifamizdir.

Jizzax qadimdan Dizakiy, Zominiy, Navqadiy, Usmandiy nomlari bilan shuhrat qozongan ko‘plab allomalar, aziz avliyolar vatani bo‘lib kelgan. Bu diyordan 70 dan ziyod hadisshunos, 30 dan ortiq islom huquqshunoslari yetishib chiqqani tarixiy manbalar dan yaxshi ma’lum.

Bu go‘zal vohada tug‘ilib kamolga yetgan ulkan madaniyat namoyandalari haqida so‘z yuritganda, eng avvalo, XX asr o‘zbek she’riyatining atoqli valili, nodir iste’dod sohibi bo‘lgan shoir, dramaturg, tarjimon, olim va jamoat arbobi Hamid Olimjonning o‘lmas nomi beixtiyor hammamizning yodimizga keladi.

Ona yurtimiz haqida, O‘zbekiston haqida Hamid Olimjondek «**Chappar urib gullagan bog‘in, O‘par edim Vatan tuprog‘in**», deya yonib kuylash kamdan kam shoirga nasib etgan.

Bu yorug‘ dunyoda bor-yo‘g‘i o‘ttiz besh yilgina yashagan bu ulug‘ shoirning o‘n besh yil davom etgan g‘oyat qisqa davrda o‘zbek adabiyotida o‘zining

ijodiy maktabini yaratishga erisha olgani har qanday odamni hayratga soladi.

Hamid Olimjonning O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya bilan birga kechgan ahil hayoti, bu ikki ulkan ijodkorning bir-birlariga bo'lgan sevgi va sadoqati bugungi kunda ham yoshlarimiz uchun har jihatdan ibratlidir.

Shuning uchun ham Jizzax viloyatida xalqimizning atoqli farzandlari – Hamid Olimjon va Zulfiya xotirasiga bag'ishlab, zamonaviy ijod markazi va uning tarkibida go'zal, muhtasham bir bog' tashkil etsak, iste'dodli yoshlarimizning bu yerga kelib, ababiyot va san'at, musiqa sirlarini chuqur o'rganishini yo'lga qo'ysak, nur ustiga nur bo'lar edi.

Bu tabarruk zamin Nazir Safarov, Shukur Sa'dulla, To'ra Sulaymon, Oqiljon Husanov, Keldi Qodirov, Sattor Qoraboyev, Sharofat Botirova kabi marhum adiblarni, bugungi kunda faol ijod qilib kelayotgan Sa'dulla Hakim, Asror Mo'min, Farog'at Kamolova singari taniqli ijodkorlarni tarbiyalab yetishtirganini alohida ta'kidlash lozim.

Men shu o'rinda fidoyi olim va pedagog, buyuk adib Chingiz Aytmatov asarlarini o'zbek tiliga yusak mahorat bilan o'girgan taniqli tarjimon, kamtarin inson Asil Rashidov nomini alohida hurmat bilan aytib o'tishni istardim.

O'zbekiston ilm-fani Sarvar Azimov, O'ktam Oripov, Rahmatilla Qo'ng'irov, Orifjon Ikromov, Bozorboy O'rionboyev, Inoyatulla Suvonqulov singari fidoyi olimlar bilan – Olloh ularni rahmat qilsin – faxrlanadi.

Hozirgi kunda Hotam Umurov, Xolboy Eshboyev, Olimjon Jo‘rayev, Fanya Ahmedshina, Muhammadjon Xolbekov, Zulfiya Pardayeva kabi olimlar o‘z ilmiy-pedagogik faoliyati bilan ko‘pchilikka o‘rnak bo‘lib kelmoqdalar.

Jizzax viloyati milliy san’atimiz va madaniyatimiz rivojiga ham munosib hissa qo‘shmoqda. Bu haqda gapirganda, O‘zbekiston xalq hofizi Orifxon Hotamov, O‘zbekiston xalq artisti Eson Lutfullayev singari marhum san’atkorlarimizni, O‘zbekiston san’at arbobi Bahrullo Lutfullayev, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artistlar Baxtiyor Xolxo‘jayev, Oliya Eshto‘xtarova, Jo‘ra Isroilov, Abduraim Lapasov, Abdusoli Normatov singari ijodkorlarning nomlarini tilga olishimiz tabiiydir.

Xalqimizda «**Oqqan daryo oqaveradi**» degan gap bejiz aytilmagan. Jizzax viloyatining chekka Arnasoy tumanida tug‘ilib voyaga yetgan O‘zbekiston xalq artisti Ramiz Usmonov yosh bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kunda mohir opera xonandasini sifatida dunyoning yetakchi sahnalarida ham o‘zining noyob iste’dodini namoyon etib kelmoqda. Nafaqat yurtimizda o‘tkaziladigan yirik bayram tantanalarida, balki turli nufuzli xalqaro tanlovlarda Ramizni g‘olib sifatida ko‘rishga barchamiz odatlanib ham qoldik. Betakror ovoz sohibi bo‘lgan bu yigit dunyo san’at ahlini qoyil qoldiryapti.

Bularning barchasi yurtimizda yoshlarning iste’dodini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan islohotlarning samarasi, albatta. Bu haqda gapirganda, keyingi besh yilda mamlakatimizda 301 ta, jumladan, Jizzax viloyatida

14 ta musiqa va san'at mактабида кatta hajmda qurilish va rekonstruksiya ishlari olib borilganini, ularning barchasi zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanganini qayd etish o'rinnlidir.

Jizzax yoshlарining sport sohasida erishayotgan yutuqlari ham tаhsingа sazovordir. Oxirgi besh yilda viloyat sportchilari jahon va Osiyo championatlarida, xalqaro musobaqalarda 59 ta oltin, 51 ta kumush, 67 ta bronza medalni qo'lga kiritishga erishdilar. Nufuzli xalqaro musobaqalarda ana shunday yuksak natija-larga erishib, ona O'zbekistonimiz shuhratini dunyo-ga tarannum etib kelayotgan Xurshid Tojiboyev, Marina Xmelevskaya, Zufar Qodirov, Yoqutxon Xolbekova kabi shijoatli yoshlарimizga, ularning ustoz-murabbiylariga yana bir bor chuqur hurmatimiz va tashakkurimizni bildirsak, ayni muddao bo'lur edi.

Albatta, Jizzax viloyatining faxriga, g'ururiga aylangan insonlar har bir sohada topiladi. Ayniqsa, O'zbekiston Qahramонlari – mirishkor fermerlar Par-da Ziyotov, Anorboy Eshmatov, mohir pedagog Marat Zokirov, tajribali temiryo'lchi Erkin Ummatovning el-yurtimiz oldidagi xizmatlarini hammamiz yaxshi bila-miz va yuksak qadrlaymiz.

Hurmatli domlamiz Marat aka rahbarlik qilgan akademik litseyning olti nafar iste'dodli o'quvchisi Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangani barchamizni quvontiradi.

Respublikamizda xizmat ko'rsatgan paxtakor va qishloq xo'jaligi xodimlari – Murtazoqul Bo'tayev, Omonulla Ravshanov, Abdurashid Safarov, O'ng'ar O'rинboyev, xizmat ko'rsatgan jurnalist Akrom

Inomov, jonkuyar o‘qituvchi va shifokorlar Abdumannon Baratov, Dilbar Abdullayeva, sanoat va transport sohasi xodimlari Zoir Zokirov, Xoldor Xolmatov, Bozorgul To‘rayeva, mehnat faxriylari Norqul Nusharov, O‘rol Oqqulov singari insonlarning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Muhtaram anjuman ishtirokchilari!

Jizzax viloyati o‘zining iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati bilan mamlakatimiz hayotida muhim o‘rin tutadi. Bu salohiyatni yanada oshirish yo‘lida keyingi yillarda amalga oshirilgan ishlardan barchamiz yaxshi xabardormiz.

Viloyatda 2010-yildan buyon yalpi hududiy mahsulot 1,7 barobar o‘sgani, keyingi besh yilda sanoat mahsulotlari hajmi 1,9 marta ko‘payib, yalpi hududiy mahsulotda uning ulushi 17 foizdan 21 foizga yetgani ana shunday amaliy ishlar natijasidir.

Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Oxirgi besh yilda 4 mingdan ortiq kichik biznes subyekti tashkil etilib, ularning soni 8 ming 500 taga yetdi. Bugungi kunda ushbu sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 80 foizni, eksportdagi hissasi 87 foizni, mehnat bilan band aholini qamrab olishdagi ulushi 82 foizni tashkil etmoqda.

Qishloq xo‘jaligi sohasi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, so‘nggi besh yilda 73 ming hektar yerning meliorativ holati, 41 ming hektar yerning suv ta’mi-noti yaxshilandi.

Viloyatning mirishkor dehqon va fermerlari bu yil ham barcha qishloq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha mo‘l

hosil yetishtirib, mavsumni yorug‘ yuz bilan yakunlayotgani barchamizni xursand qiladi.

Fursatdan foydalanib, el-yurtimiz farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qilib kelayotgan dehqon va fermerlarga, barcha dala mehnatkashlariga, butun viloyat ahliga chuqur minnatdorlik bildirib, ezgu tilaklarimni izhor etaman.

**Qadrli yurtdoshlar!**

Mening saylovoldi dasturimda mamlakatimizdagি barcha hududlar qatori Jizzax viloyatini ham kelgusi besh yilda yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarish bo‘yicha aniq rejalar belgilangan.

Ruxsatingiz bilan bu haqda qisqacha to‘xtalib o‘tmochiman.

Avvalo, kelgusi ikki yilda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, korxonalarни modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha 1 trillion 600 million so‘m qiymatidagi 700 tadan ortiq investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Xususan, oziq-ovqat sanoatida 230 ta, yengil sanoat, charm-poyabzal tarmoqlarida 134 ta loyiha hayotga tatbiq etiladi. Jumladan, Jizzax shahri, G‘allaorol, Jizzax, Arnasoy, Mirzacho‘l, Do‘stlik tumانlarida yuqori texnologiyalarga asoslangan tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar tashkil qilish hisobidan viloyatda paxta tolasini qayta ishlash darajasi bugungi 38 foizdan 2021-yilda 87 foizga yetkaziladi.

**To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari dasturiga muvofiq viloyatda umumiy qiymati 72 million dollardan ziyod**

bo‘lgan 9 ta investitsiya loyihasi joriy etiladi. Jumladan, Jizzax shahridagi «Jizzax plasteks» korxonasida 9 million dollarlik 2 ta loyiha amalga oshiriladi. Natijada yiliga 7 ming 300 tonna bo‘yalgan ip-kalava, 5 ming tonna gazlama va 3 million 500 ming dona tikuvchilik mahsuloti ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

**Qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha** 255 ta loyiha amalga oshiriladi. Masalan, 2017-yilda «Jizzax» erkin iqtisodiy zonasida «Mingyuan silu industriy» chet el korxonasi tomonidan 110 million dollarlik loyihaning birinchi bosqichini yakunlash va yiliga 24 million kvadrat metr oyna ishlab chiqarish ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, yaqin ikki yilda viloyatda 14 ta g‘isht zavodida qurilish va modernizatsiya ishlari olib borilib, hududda unga bo‘lgan talab to‘liq qondiriladi.

**Kimyo, elektr texnikasi va boshqa tarmoqlarda** 117 ta loyiha joriy etiladi.

**Mahalliyashtirish dasturi** bo‘yicha ishlar davom ettiriladi. Joriy yilda bu borada 7 ta yangi loyiha amalga oshirilayotgan bo‘lsa, 2021-yilga borib ularning soni 17 taga yetkaziladi. Jumladan, bu masalada chetda qolayotgan Forish, Paxtakor, G‘allaorol, Mirzacho‘l tumanlarida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Kelgusi besh yilda hududiy eksport hajmini kamida 2 barobar, eksportchi korxonalar sonini 2,7 marta ko‘paytirish, eksportda ulushi past bo‘lgan tumanlarning bu boradagi natijalarini yaxshilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

**Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va modernizatsiya qilish** biz uchun eng muhim va ustuvor masaladir.

Viloyatda ko‘ptarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, tumanlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bog‘dorchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, muqobil yoqilg‘i asosidagi issiqxonalar tashkil etish bo‘yicha 2 ming 44 ta loyiha amalga oshiriladi.

Kelgusi besh yilda viloyatda 828 kilometr ochiq kollektor, yopiq drenaj tarmoqlari va 21 ta suv inshooti quriladi, qariyb 5 ming kilometr kollektor tozalanadi, yopiq drenaj tarmoqlari ta’mirlanadi. Shuningdek, 690 kilometr kanallar, 8 kilometr suv quvurlari, 423 kilometr lotok tarmoqlari, xalqaro moliya institutlari ishtirokida 7 ta nasos stansiyasi rekonstruksiya qilinadi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida 148 ming hektar yerning meliorativ holati yaxshilanadi, suv ta’mnoti og‘ir bo‘lgan 38 ming hektar maydon kafolatli suv bilan ta’mirlanadi.

Yaqin besh yilda go‘sht, sut va tuxum ishlab chiqarishni kamida 1,2 marta, kartoshkani – 4 barobar, sabzavotni – 2 karra, meva va uzum yetishtirishni – 1,6 barobarga ko‘paytirish, shuningdek, ularni qayta ishlashni kengaytirish rejalashtirilmoqda.

**Viloyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, ulardan keng foydalanish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi.**

Aholiga ko‘rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari sifatini oshirish maqsadida 290 kilometr optik tolali aloqa tarmoqlari va 178 ta mobil aloqa tayanch

stansiyasi quriladi, eskirgan telefon stansiyalari yangilanadi.

Jizzax shahri, Baxmal, G‘allaorol, Jizzax va Forish tumanlarida 48 ta raqamli teleuzatgich o‘rnatish natijasida viloyat hududini raqamli televide niye bilan qamrab olish darajasi 47 foizdan 100 foizga yetkaziladi. Shular qatorida viloyat teleradiokompaniyasining moddiy-texnik bazasini va kadrlar salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ko‘riladi.

Qadrli do‘sstar!

Biz uchun har doim dolzarb bo‘lib kelgan yana bir o‘ta muhim masala borki, unga alohida to‘xtalib o‘tishni zarur deb bilaman. U ham bo‘lsa, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liqdir.

Hammamiz ko‘rib, kuzatib turibmiz – bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi ufq va imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor etmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og‘ir kulfat va ko‘rgiliklar olib kelmoqda. Bunga barchamiz guvoh bo‘lmoqdamiz. G‘arazli kuchlar hali ongi to‘la shakllanib ulgurmagan bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z vataniga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda.

Shuning uchun biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohligimizni yanada oshirishimiz kerak. Yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga qulqoq

solist, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz, ayniqsa, qiz bolalarni ilm-fan, kasb-hunar sirlarini puxta egallahsha o'rgatish, ularning manfaatlarini himoya qilish, hayotda munosib o'rinn topishiga yordamlashish kerak.

Bu vazifalarни amalgа оshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz. Yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini kamol toptirish, ularni sog'lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashha qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytiramiz. Bu boradagi siyosatimiz yangi qabul qilingan «**Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida**»gi Qonun asosida qat'iy davom ettililadi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida 530 mingdan ortiq yoshlar istiqomat qilmoqda. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining bu yerdagи 807 ta boshlang'ich tashkiloti 200 mingdan ziyod yigit va qizlarni o'z safida birlashtirgan. Lekin, bu tashkilotlar o'z faoliyatida asosan ta'lim maskanlarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalar bilan chegaralanib qolmoqda. Turli sohalarda mehnat bilan band bo'lgan, ayniqsa, uyushmagan ko'p sonli yoshlar, afsuski, ularning e'tiboridan chetda qolmoqda.

Biz «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati baracha yoshlarimiz intiladigan, ularning qobiliyat va iqtidorini ro'yobga chiqaradigan va manfaatlarini haqiqiy himoya qiladigan tashkilotga aylanishi uchun baracha choralarни ko'ramiz.

Mamlakatimizdagi har bir mahallada voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya

tashkil etish belgilab qo‘yilgan. Bu komissiyalar farzandlarimizni, avvalambor, uyushmagan yoshlarni qiy nab kelayotgan masalalarini o‘z vaqtida aniqlab, ularni hal qilish uchun ish olib borishi lozim.

Albatta, mahallalarda bu yo‘nalishda muayyan ishlar qilinmoqda. Masalan, Baxmal tumanidagi «Qatortol», G‘allaorol tumanidagi «Marjonbuloq», Jizzax tumanidagi «Uchtepa», Forish tumanidagi «Egizbuloq», Pax takor tumanidagi «Bog‘ishamol», Yangiobod tumanidagi «Balandchaqir», Jizzax shahridagi «Zilol» mahallalarida bunday komissiyalar samarali faoliyat olib borayotganini e’tirof etish kerak.

Biroq bu kabi ijobiy misollar barmoq bilan sanarli bo‘lib, aksariyat komissiyalarning faoliyati bugungi kun talablariga javob bermaydi. Shuning uchun ularning ishini tubdan qayta ko‘rib chiqishimiz zarur.

Hurmatli yurtdoshlar!

Biz mustaqillik yillarda **«Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun»** degan ezgu g‘oya asosida olib borilgan, xalqimizning hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlarni izchil davom ettiramiz.

Ana shu siyosatning amaldagi samarasini yanada kuchaytirish maqsadida **15 ta maxsus dastur** ishlab chiqmoqdamiz. Aytish kerakki, bu dasturlarning ayrimlari tasdiqlanib, ularning ijrosi bo‘yicha ishlar boshlab yuborildi.

Ruxsatingiz bilan ana shu dasturlarning mazmun-mohiyatiga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

**Birinchidan**, Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlash, xususiy mulkni har tomonlama

himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, farmon bilan tasdiqlandi.

Bu masala bo'yicha qanday yangilik va o'zgarishlar bo'lishi, tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha qanday imtiyoz va preferensiyalar berilishi, ularning manfaatlarini himoya qilish yuzasidan belgilangan amaliy choralar sizlarga yaxshi ma'lum deb o'layman. Shular qatorida tadbirkorlik sohasidagi qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Oliy Majlis huzurida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil institutini tashkil etish mo'ljallanmoqda.

Shu o'rinda bir fikrni ta'kidlab aytishni joiz deb bilaman.

Tadbirkorlarga, biznes egalariga bugun davlat tomonidan mana shunday katta imkoniyatlar yaratib berilayotgan ekan, ular ham o'z navbatida nafaqat o'z huquqlarini yaxshi bilishlari, balki o'z majburiyatlarini, qonun oldidagi mas'uliyatini unutmasliklari g'oyat muhimdir.

Jizzax viloyatida kelgusi besh yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar miqdori kamida 3–3,5 barobar ko'paytiriladi. 2 mingdan ortiq yangi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektini tashkil etishga har tomonlama ko'mak berilib, ularning soni 10 mingtaga yetkaziladi. Shuningdek, viloyat bo'yicha 78 hektar maydonda kichik biznes uchun tashkil etilgan 12 ta maxsus sanoat zonasida 100 ta loyiha amalga oshiriladi.

**Ikkinchidan**, Qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar asosida arzon va qulay uy-joylar qurish dasturi ishlab chiqilib, 2016-yil 21-oktabrdagi qaror bilan tasdiqlandi.

Ma'lumki, har bir ota-onada sog'lom, el-yurtga naf yetkazadigan yetuk farzandlar o'stirishni orzu qiladi. Ayni vaqtida ularni voyaga yetkazib, uy-joyli qilishni ham o'zining ota-onalik burchi deb biladi.

Ushbu dasturda qishloq joylardagi kam ta'minlangan va yosh oilalarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish, turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. Shunga ko'ra, 2017-yilda mamlakatimizda 15 mingta, jumladan, Jizzax viloyatida 428 ta ana shunday uy-joy qurish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Jizzax shahrida zamonaviy loyihalar asosida 210 ta oila uchun arzon narxdagi ko'pqavatli uy-joy qurish, Jizzax shahri va Arnasoy tumanida 80 ta oilaga mo'ljallangan «Kamolot» uylarini barpo etish va ularni ijtimoiy hayotimizda faol ishtirok etayotgan yoshlariimizga topshirish mo'ljallanmoqda.

Ayni paytda shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan yaxshilash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib boriladi. Misol uchun, kelgusi yilda viloyat musiqali drama teatri va «Vatan» kinoteatri rekonstruksiya qilinadi.

**Uchinchidan**, Hududiy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimizdagi eng faol tranzit hududda joylashgan Jizzax ahli zamonaviy yo'llar, kommunikatsiya tarmoqlarining ahamiyatini yaxshi tushunadi.

Dasturga binoan kelgusi besh yilda 570 kilometr avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash, 2 ta ko'prik qurish, 15 ta ko'prikni rekonstruksiya qilish mo'l-jallanmoqda.

Shular qatorida Jizzax shahridagi O'zbekiston, Alisher Navoiy, Toshkent, Forish va Temiryo'chilar ko'chalari rekonstruksiya qilinadi, halqa yo'li tashkil etiladi.

Bundan tashqari, ming kilometrlik ichki yo'llar ta'mirlanadi. Kelgusi ikki yilda birinchi navbatda tibbiyot, ta'lim-tarbiya muassasalari, bozorlarga olib boruvchi ichki yo'llarni to'liq ta'mirdan chiqarishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

**To'rtinchidan**, Shahar va qishloqlarda transport ta'minotini yanada rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda.

Jizzax viloyatida aholiga transport xizmati ko'r-satish sifatini oshirish maqsadida keyingi besh yilda 114 ta avtobus sotib olinib, tegishli yo'naliishlarga qo'yildi.

Bu ishlarning davomi sifatida viloyatdagi barcha aholi punktlarida transport xizmatlarini yo'lga qo'yish, transport parkini bosqichma-bosqich yangilash nazarda tutilmoqda. Jumladan, Arnasoy, Zafarobod, Forish va Yangiobod tumanlari markazlarida yangi avtostansiyalar quriladi. G'allaorol, Zomin va Paxtakor tumanlaridagi avtostansiyalar rekonstruksiya qilinadi. Aholiga, ayniqsa, yoshlarga qulaylik yaratish

maqsadida viloyatdagi barcha kasb-hunar kollejlari avtobus yo‘nalishlari bilan qamrab olinadi.

**Beshinchidan**, Qishloqlarda ichimlik suvi ta’minoti tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda inson salomatligining eng muhim shartlaridan biri – bu toza suv iste’mol qilish bilan bog‘liqdir. Dunyoning ko‘pgina mintaqalarida ichimlik suvi masalasi juda o‘tkir muammoga aylanmoqda.

Tayyorlanayotgan dasturda avvalo ana shu boylikni qadrlab, undan tejab-tergab foydalanish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Shu asosda yaqin besh yilda viloyatda 87 kilometr magistral suv tarmog‘i, 609 kilometr mahalliy suv tarmog‘i, 132 ta quduq, 41 ta suv bosimi minorasi, 16 ta hovuz, 47 ta nasos stansiyasi, 25 ta suvni zararsizlantirish inshooti quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Shu bilan birga, 2020–2024-yillarda 170 million dollardan ortiq mablag‘ hisobidan Zarafshon daryosidan olinadigan suv bilan Jizzax viloyatini ta’minlashni yaxshilash bo‘yicha loyiha amalgga oshiriladi.

**Oltinchidan**, Ko‘mir tannarxini va aholiga xarid qiymatini pasaytirish, shuningdek, qish mavsumida bu borada chayqovchilik qilishni va narxlarning oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo‘srimcha choratadbirlar dasturida kuz-qish mavsumida ko‘mirga bo‘lgan talabni qondirish, aholini ko‘mir bilan uzlucksiz ta’minlash, uning tannarxini va iste’molchilarga

yetkazib beriladigan narxni kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Jumladan, Jizzax viloyati aholisiga 2017–2021- yillarda 107 ming tonna ko‘mir yetkazib beriladi. 2017-yilda Jizzax shahridagi «Asl global briket» korxonasida yiliga 7 ming tonna ko‘mir briketi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

**Ettinchidan**, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash dasturi ishlab chiqilib, qabul qilinadi.

Elektr energiyasi – bu insoniyatning buyuk kashfiyoti. U – bugungi hayot, bugungi sivilizatsiyaning barcha yutuqlari uchun asos bo‘layotgan beba ho boylik. Hozirgi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarish va yetkazib berish bo‘yicha texnik qurilma va vositalarning aksariyati eskirgan, aholi soni ko‘payishi tufayli elektr iste’mol qilish ham kuchayib bormoqda. Shu sababli bu borada joylarda, ayniqsa, qishloqlarda uzilishlar bo‘lib turgani sir emas. Biz bu holatni bartaraf etish haqida mutaxassislar bilan birgalikda bosh qotiryapmiz. Mazkur dastur ham aynan shu maqsadga qaratilgan.

Jumladan, dasturda past kuchlanishli elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, elektr tarmoqlari uskunalaridan foydalanishning normativ muddatlarini uzaytirish, elektr uzatish tarmoqlarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish choralari belgilanmoqda. Masalan, Jizzax viloyatida 2017–2021- yillarda 90 kilometr elektr uzatish tarmog‘i va 77 ta yangi transformator punkti quriladi. 5 ming 731 kilometr

elektr uzatish tarmog‘i va 1 ming 301 ta transformator punkti rekonstruksiya qilinadi va kapital ta’mirlanadi.

**Sakkizinchidan**, Maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturi tayyorlanmoqda.

Ushbu dasturda maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar bilan ta’minlanish darajasi ni yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy qilish kabi keng ko‘lamli vazifalar belgilanmoqda. Jizzax viloyatida ham kelgusi besh yilda 95 ta bog‘chada qurilish, rekonstruksiya va kapital ta’mirlash ishlari bajariladi.

Ayni vaqtida bu sohada xususiy bolalar bog‘chalari faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ham keng imkoniyat ochib beriladi.

**To‘qqizinchidan**, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Mustaqillik yillarda bozorlarimizning qiyofasi ham, ulardagi mahsulotlar tarkibi, bozor rastalarining manzarasi, savdo madaniyati ham tubdan o‘zgardi.

Lekin shu bilan birga, bu borada hali ko‘p ish qilishimiz kerak. Avvalo, yangi loyihalar asosida, zamonaviy bozorlar qurishimiz lozim. Ulardagi sharoitlar supermarketlardagi sharoitdan aslo kam bo‘imasligi kerak.

Ayni shu maqsadda kelgusi besh yilda Jizzax viloyatida Baxmal, G‘allaorol, Do‘slik, Zarbdor, Mirzacho‘l, Paxtakor va Forish tumanlaridagi markaziy dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda.

**Yana bir muhim dastur** – pensionerlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilash masalalari bilan bog‘liq.

Bugungi yorug‘ kunlarga yetib kelishimizda yoshi ulug‘ otaxon va onaxonlarimiz, nuroniyalarimizning xizmatlari juda katta va biz ularning oldida doimo qarzdormiz. Umri g‘animat bo‘lgan bu mo‘tabar insonlardan biz mehr va e’tiborimizni, amaliy yordamimizni hech qachon ayamasligimiz kerak. Tay-yorlanayotgan dasturda pensioner, nogiron, yolg‘iz qariyalar va aholining kam ta’minlangan qatlamlari ga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Jizzax viloyatida ana shunday toifaga mansub fuqarolarning sog‘lig‘ini mustahkamlash maqsadida har yili ularning 6 ming 800 nafarini, shuningdek, 350 nafar urush va mehnat fronti faxriysini sanatoriylarga imtiyozli yo‘llanmalar bilan ta’minalash rejalashtirilgan.

Hozirgi paytda ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli bu yo‘llanmalardan foydalana olmayapti. Biz buni e’tiborga olib, davolanishga borolmaydigan faxriyalarimizga yo‘llanmalarning pulini berishga qaror qildik. Bugungi kunda sanatori y yo‘llanmasining o‘rtacha narxi 800 ming so‘mni tashkil etmoqda. Demak, ana shu mablag‘ sanatoriylarga borib davolanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan keksalarimizga beriladi.

Bundan tashqari, «Nuroniy» jamg‘armasi, «Mahlalla» jamoat fondi, Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari hamkorligida yolg‘iz qariyalarni har yili qish mavsumi uchun kiyim-bosh va oziq-ovqat

zaxirasi bilan ta'minlash ishlari bundan buyon ham davom ettiriladi.

Shular qatorida kelgusi to'rt yilda mamlakati-mizdag'i barcha «Muruvvat» va «Saxovat» uylari rekonstruksiya qilinadi va kapital ta'mirlanadi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamonaviy sharoitlar yaratiladi.

Shuningdek, «Nuroniy» jamg'armasining maqomi va mavqeyini oshirish, uning viloyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko'paytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi.

Keksalarning tashvish va muammolarini vaqtida hal etish uchun «Nuroniy» jamg'armasi bo'limlarini shahar va tumanlarda tashkil etib, ularga alohida xona ajratish, ularning xodimlarini budget hisobidan oylik maosh bilan ta'minlashni yo'lga qo'yamiz.

**Yana bir muhim hujjat** – Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi.

Har qaysi oilaning yukini o'zining nozik yelkasida ko'tarib kelayotgan, oila qo'rg'onining fayz-u farishtasi bo'lган ayol zotini e'zozlash, opa-singillarimizning og'irini yengil qilish – bizning ezgu vazifamizdir.

Ayni shu maqsadga qaratilgan dasturda kelgusi ikki yilda ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, jumladan, tegishli davolash-profilaktika tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash, maxsus va yuqori texnologiyalar asosida tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Dasturga muvofiq barcha yangi tug‘ilgan chalqaloqlar, o‘smir qizlar, homilador va tug‘ish yoshidagi ayollar uchun patronaj kuzatish darajasi hozirgi 70 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Shu bilan birga, shifo maskanlariga markazlashgan tartibda yetkazib beriladigan dori vositalari, tibbiy buyum va uskunalar ro‘yxati kengaytiriladi.

Jizzax viloyatida ham kelgusi besh yilda 175 ta tibbiyot muassasasida rekonstruksiya va kapital ta’mirlash ishlarini bajarish, ularning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash bo‘yicha muhim choratadbirlar amalga oshiriladi.

**Navbatdagi dasturlar** – farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish hamda aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlashni yanada yaxshilash, ularning narxlari shakllanishini takomillashtirish bilan bog‘liq.

Keyingi besh yilda mamlakatimizda umumiy qiymati 224 million dollarga teng bo‘lgan 67 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish hisobidan mazkur tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2,5 barobar ko‘paytiriladi. Xususan, Jizzax viloyatida 2019–2020-yillarda 2 million 300 ming dollar sarmoya evaziga yiliga 6 million 600 ming shisha idishda suyuq dori vositalari ishlab chiqarish tashkil etiladi.

Shu o‘rinda viloyatning tog‘li hududlarida kiyik o‘ti, moychechak, kovul, shirinmiya kabi 13 turdagি noyob dorivor giyohlar o‘sishini aytib o‘tish lozim. Kelgusi besh yilda viloyatda ana shunday dorivor o‘simliklar yetishtiriladigan maxsus maydonlar hajmi hozirgi 480 gektardan 670 gektarga yetkaziladi va ular-

dan sanoat yo‘li bilan tibbiyotda keng qo‘llaniladigan dori-darmonlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi.

**Qattiq maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturida bu boradagi muhim chora-tadbirlar belgilangan.** Jumladan, Jizzax viloyatida sanitar-tozalash va obodonlashtirish tashkilotlari qo‘srimcha ravishda 44 ta maxsus mashina va texnika bilan ta’minlanadi, chiqindi poligonlarini zamonaviy talablar asosida tartibga keltirish ishlari bajariladi. 2018-yilda Jizzax shahrida qariyb 1 milliard 500 million so‘m sarmoya hisobidan maishiy chiqindilarni qayta ishlash korxonasi barpo etiladi.

Hammamiz yaxshi tushunamizki, kun tartibiga qo‘yilayotgan bunday ulkan masalalarini hal qilish uchun, avvalo, mablag‘ kerak, daromad kerak. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda **mahalliy budgetlarning subvensiyaga qaramlik darajasini keskin kamaytirish** dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

Bugungi kunda viloyat budgetining 40 foizdan zi-yod xarajatlari subvensiya hisobidan qoplanmoqda. Shuningdek, 11 ta shahar va tumanning mahalliy budgetida subvensiya ulushi 52–75 foizni tashkil etmoqda.

Subvensiyaga qaramlikdan qutulishning yo‘li bitta. U ham bo‘lsa, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarini jadal rivojlantirib, budget daromadlarining asosi hisoblangan soliq tushumlarini ko‘paytirishdan iboratdir.

Viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha yuqorida aytib o‘tilgan chora-tadbirlar natijasida 2017-yilda

Jizzax shahri va Zarbdor tumanini, 2020-yilda Arnasoy, 2021-yilda Paxtakor tumanlarini subvensiyadan to‘liq chiqarish kutilmoqda.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Mustaqillik yillarda biz erishgan eng katta va bebahoh boylik – ko‘pmillatli xalqimizning dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligining yuksalib borayotgani, jamiyatimizdagi o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir.

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kela-yotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo‘lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash – xavfsizlik va bar-qarorlikni, xalqimizning osoyishta hayotini ta’milashning eng muhim sharti va kafolatidir.

Shu borada sizlarning e’tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiman. O‘z paytida muhtarram Yurtboshimiz ichki ishlar idoralarining eng quyi bo‘g‘inida profilaktika inspektorlari tizimini tashkil qilgan edilar.

Ammo bugun bu inspektorlar profilaktika, ya’ni jinoyatlarning oldini olish bilan shug‘ullanmayapti, aksincha, sodir bo‘lgan jinoyatlarni ro‘yxatga olish, yuqori idoralarga hisobot yozish bilan band.

Shu sababli biz hozirgi vaqtda Ichki ishlar vazirligi tizimini tubdan o‘zgartirish chora-tadbirlarini ko‘ryapmiz. Ularga muvofiq mahalladagi uchastka nozirlariga samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun barcha sharoitlar yaratib beriladi, jumladan, ular

xizmat uylari va avtomashinalar bilan ta'minlanadi. Uchastka nozirlari endi kechasi bilan uxmlamay mahalla osoyishtaligini qo'riqlab yuradigan bo'ladi.

Shuningdek, har bir tuman hokimi va tuman ichki ishlar bo'limlari rahbarlarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinnbosari lavozimi joriy etiladi. Bu rahbarlarning asosiy vazifasi mahallada uchastka inspektorlari bilan ishlashdan iborat bo'ladi. Ularning kunduzi va kechasi mahallada yurganini aholi ko'rsa, o'z xavfsizligiga qanoat hosil qiladi. Shundagina odamlar tinch-xotirjam yashaydi.

Bu haqda gapirganda, bir narsani unutmasligimiz kerak: el-yurtimizning tinchligi va osoyishtaligini saqlash – bu faqat huquq-tartibot organlari va hokimliklarning vazifasi emas. Bu – har birimizning muqaddas burchimiz. Shu bois mahalla raisi va faollarining mazkur yo'nalishdagi ishini yanada faol-lashtirish, bu ishga keng jamoatchilikni jalb etish – eng dolzarb masaladir.

Bu sohada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar, «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid barcha huquqiy asoslar mavjud. Lekin, afsuski, joylarda xavfsizlikni, jamoat tartibini ta'minlashda biz mahallaning imkoniyatlari-dan to'liq va samarali foydalana olmayapmiz.

Shu o'rinda Mirzacho'l tumanidagi «Yangidala», Paxtakor tumanidagi «Olmazor», Arnasoy tumanidagi «Bobur», Forish tumanidagi «Oqtom», Baxmal tumanidagi «G'allakon», Zafarobod tumanidagi «Samarqand», Jizzax shahridagi «Olmazor» kabi ma-

halla fuqarolar yig‘inlarining tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash borasida o‘rnak bo‘lib kelayotganini alohida ta’kidlamoqchiman. Maqsadimiz – kelgusida bunday mahallalar safini yanada kengaytirishdan iborat.

Muhtaram yurtdoshlar!

**Tashqi siyosat** sohasida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to‘liq amal qilish saylovoldi dasturimizning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bu siyosatning asosiy ma’no-mazmuni – tinchlik-parvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo‘l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘silmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O‘zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shti mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlari va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Qadrli vatandoshlar!

Bugun siz, azizlar bilan uchrashib, sizlarning yuzingizga, samimiyligi chehrangizga boqib, ko‘nglimdagi bir fikrni ochiq aytmoqchiman: men bu hayotda

nimaga, qanday yutuqlarga erishgan bo‘lsam, avvalo ota-onam, ustoz-murabbiylarim va siz, hurmatli ham-yurtlarimning qo‘llab-quvvatlashingiz, og‘ir damlarda tog‘dek tayanch bo‘lib, kuch va madad bergeningiz tufayli erishganman. Bu haqiqatni, sizlarning menga ko‘rsatgan yaxshiliklaringizni hech qachon unutmayman.

Bundan keyin ham bor kuch va salohiyatimni, butun borlig‘imni sizlarning ishonchingizni oqlash uchun safarbar etishni, shunday mehridaryo, bag‘rikeng insonlar uchun xizmat qilishni o‘zim uchun yusak sharaf va katta baxt deb bilaman.

So‘zimning yakunida ulug‘ shoirimiz Hamid Olimjonning «**Shunday o‘lka doim bor bo‘lsin, Shunday o‘lka baxtga yor bo‘lsin!**» degan so‘zlarini takrorlab, sizlarga va sizlar orqali butun Jizzax ahliga yana bir bor sihat-salomatlik, baxt va omad, xonardonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Arnasoy tumani,  
2016-yil 18-noyabr**

**SAHRO BAG'RIDA MO'JIZALAR  
YARATAYOTGAN EL  
(SIRDARYO VILOYATI SAYLOVCHILAR  
VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI  
NUTQ)**

the first time, and the first time I have seen it. It is a very large tree, and has a very large trunk.

It is a very tall tree, and has a very large trunk.

## THE OAKS OF THE ANCESTRAL FOREST

The oaks of the ancestral forest

Are the oaks of the ancestral forest?  
The oaks of the ancestral forest  
Are the oaks of the ancestral forest?  
The oaks of the ancestral forest  
Are the oaks of the ancestral forest?

The oaks of the ancestral forest

Are the oaks of the ancestral forest?  
The oaks of the ancestral forest  
Are the oaks of the ancestral forest?  
The oaks of the ancestral forest  
Are the oaks of the ancestral forest?

The oaks of the ancestral forest

Are the oaks of the ancestral forest?  
The oaks of the ancestral forest  
Are the oaks of the ancestral forest?  
The oaks of the ancestral forest  
Are the oaks of the ancestral forest?

The oaks of the ancestral forest

Are the oaks of the ancestral forest?  
The oaks of the ancestral forest  
Are the oaks of the ancestral forest?  
The oaks of the ancestral forest  
Are the oaks of the ancestral forest?

The oaks of the ancestral forest

Are the oaks of the ancestral forest?  
The oaks of the ancestral forest  
Are the oaks of the ancestral forest?  
The oaks of the ancestral forest  
Are the oaks of the ancestral forest?

The oaks of the ancestral forest

---

Assalomu alaykum, muhtaram yurtdoshlar!  
Qadrli do'stlar!

Mana, hozirgina sizlar bilan Birinchi Prezidentimiz, muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimovni esga olib, u kishining so'nmas xotirasiga hurmat bajo keltirdik.

Xalqimiz o'ta mas'uliyatli sinov – shu yil 4-dekabrdagi bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi arafasida turgan shu kunlarda biz, tabiiyki, ulug' Yurtboshimizni yanada ko'proq yodga olamiz. U kishining davlat va jamiyatni boshqarish, keng ko'lamli demokratik islohotlarni amalga oshirish, bugungi hayotning o'tkir va dolzarb masalalari mu-jassam bo'lgan boy merosiga qayta-qayta murojaat qilamiz. Davlatimiz rahbari asoslab bergen, dunyo-da taraqqiyotning «o'zbek modeli», «Islom Karimov modeli» deb tan olingan strategik yo'lning mohiyati va ahamiyatini, uning vaqt o'tgan sari yuzaga chiqayotgan potensial imkoniyatlarini har qachongidan ham chuqr his etamiz.

Men mamlakatimizning barcha hudud va mintaqalarida saylovchilar vakillari bilan bo'layotgan uchrashuvlarda Birinchi Prezidentimiz 25 yil davomida amalga oshirgan ezgu ishlarni davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarish dasturimning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etishi haqida gapirganimda ming-minglab vatandoshlarimizning yuzida,

ko‘zida qoniqish, rozilik va xotirjamlik alomatlarini ko‘ryapman.

Ular hayot sinovidan o‘tgan ana shu siyosatni, bizni mana shunday erkin va farovon kunlarga olib kelgan yo‘lni ma’qul deb topmoqda. Bu esa mustaqillik yillarda xalqimizning dunyoqarashi qanchalik o‘sganini ko‘rsatadi.

Hammamiz yaxshi anglab turibmizki, bu saylov barchamiz uchun jiddiy imtihon bo‘lib, shu asosda xalqimiz o‘zining ertangi kunini, davlatimizning kelgusi rivojlanish yo‘lini o‘z xohish-irodasi bilan yana bir bor aniqlab, tasdiqlab oladi. Ushbu saylovda el-yurtimizning huquqiy madaniyati va grajdaniq pozitsiyasi amalda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Eng muhimi, bu siyosiy tadbirni qanday o‘tkazishimizga qarab, jahon hamjamiyati bizga, bizning siyosiy, demokratik saviyamizga baho beradi, yurtimizni, xalqimizni yaxshiroq taniydi. Dunyo ahlining mamlakatimiz bilan o‘zaro manfaatli aloqalarini kuchaytirishga bo‘lgan qiziqishi yanada ortadi.

Shu ma’noda, bo‘lg‘usi saylovlarni Konstitutsiyamiz va milliy qonunchilik normalariga, xalqaro andozalarga to‘liq rioya qilgan holda o‘tkazishimiz qanday katta ahamiyatga ega ekanini bugun siz, azizlarning oldingizda yana bir bor ta’kidlab aytmoqchiman.

Joylarda bo‘lib o‘tayotgan uchrashuv va suhbatlarda odamlar, saylovchilarimiz nafaqat o‘zları yashayotgan shahar va qishloq, balki butun O‘zbekiston hayoti va kelajagi bilan bog‘liq g‘oyat muhim masalalarni o‘rtaga qo‘yayotgani, ularning daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotgani, ayniqsa, e’tiborlidir.

Men bugun siz, aziz Sirdaryo viloyati saylovchilarini  
vakillari bilan uchrashib, bu haqiqatga yana bir bor  
ishonch hosil qilmoqdaman.

Qadrli do'stlar!

Sirdaryo deganda, sirdaryolik deganda, azim  
Sayxun daryosi sohillaridagi so'lim bir voha, qadi-  
miy Mirzacho'l bag'rida bog'-u bo'stonlar, shahar va  
qishloqlar buniyod etib kelayotgan mard va matonatli  
insonlar ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Sirdaryo viloyati garchi O'zbekiston tarkibidagi  
ma'muriy hudud sifatida ancha yosh bo'lsa-da, bu za-  
minning necha ming yillik tarixi, madaniyati bor.

Qadimda Buyuk ipak yo'lining muhim bir tarmog'i  
aynan mana shu Mirzacho'l orqali o'tib, Farg'ona  
vodiysi va Toshkent shahrini Zarafshon vohasidagi  
shaharlar bilan bog'lagan. Cho'l bag'ridagi ko'hna  
sardobalar ana shu karvon yo'llarining guvohi sifatida  
hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz bu yerkarni  
Toshkent vohasi bilan birga suyukli nabirasi Mirzo  
Ulug'bekka mulk qilib bergani tarixiy manbalardan  
yaxshi ma'lum. XV asrda Mirzacho'lga kanal tortib,  
suv chiqargan Shohrux va Ulug'bek Mirzolarning  
nomlarini Sirdaryo ahli doimo minnatdorlik bilan til-  
ga oladi.

Hech shubhasiz, o'tgan asrda qush uchsa –  
qanoti, odam yursa – oyog'i kuyadigan bu yerkarni  
o'zlashtirib, Guliston, Yangiyer, Baxt, Shirin kabi sha-  
harlar buniyod etgan, bu o'lkaga zamonaviy taraqqiyot  
olib kelgan fidoyi ota-bobolarimizning qahramonona  
mehnatini xalqimiz aslo unutmaydi. Mustabid tuzum  
davrida niyati pok, azm-u shijoatli bu insonlar, afsuski,

mehnatlariga yarasha qadr-qimmat topmadi. Ularning mashaqqatli mehnati bilan yetishtirilgan mahsulotlar suvtekining sobiq Markazga olib ketilar edi. Og‘ir sharoitda ter to‘kib, bebahohosil yetishtirgan zahmat-kash insonlar esa rahmat o‘rniga tuhmat va malomat eshitganlarini, «paxta ishi», «o‘zbeklar ishi» degan qatag‘onlarga duchor bo‘lganini yaxshi bilamiz.

Faqat mustaqillik tufayli bu zamin, uning odamlari erkinlik havosidan, halol mehnati samarasidan to‘la bahramand bo‘ldi. Qiyinchiliklarda toblangan, irodasi mustahkam, bag‘rikeng Sirdaryo ahli bu haqiqatni chuqur anglab, uning qadriga yetib, o‘z yurtini yanada obod qilish, ravnaq toptirish yo‘lida fidokorona mehnat qilmoqda.

Hammangiz yaxshi bilasizki, men Jizzax viloyatida tug‘ilib o‘sganman. Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining tabiiy iqlimi ham, tuproq sharoiti ham, bu yerda yashayotgan mehnatkash, mard va tanti odamlarning xarakteri, urf-odatlari, shevasi ham bir-biriga nihoyatda yaqin. Demoqchimanki, men Sirdaryo viloyatini tashqaridan emas, balki ich-ichidan bilaman, sizlarning ko‘phililingizni yaxshi taniyman. Qayerda bo‘lmasin, sirdaryoliklarning istarasi doimo ko‘zimga issiq ko‘rinadi. Sirdaryoning keng dalalari, musaffo cho‘l havosi, ko‘ngli ochiq, mehnatdan qo‘li qadoq bo‘lgan oddiy va sodda odamlariga hamisha hurmat va e’tibor bilan qarab kelaman.

Men qaysi vazifada ishlashimdan qat’i nazar, Sirdaryodan qadamim ham, ko‘nglim ham hech qachon uzilgan emas. Viloyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojiga, mavjud muammolarni yechishga ozmi-ko‘pmi hissam

qo‘shilayotgan bo‘lsa, men buni o‘zim uchun katta baxt deb bilaman.

Bu viloyatda o‘zining halol mehnati bilan elda obro‘ topgan insonlar ko‘plab uchraydi. Ularning munosib vakillari sifatida O‘zbekiston Qahramonlari – mohir quruvchi Anvar Qurbonov, Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi bosh direktori Mirzaahmad Shoyimov, xizmat ko‘rsatgan paxtakor va qishloq xo‘jaligi xodimlari Abdukarim Pardaboyev, Berdimurod Alimqulov, Asatilla Berdiqulov, Ikrom Qoratoyev kabi fidoyi insonlarning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Sirdaryo viloyatida 30 dan ortiq millat va elat va-killari qo‘lni qo‘lga berib, bir tan-u bir jon bo‘lib, fidokorona mehnat qilmoqda.

Mohir shifokor, «Sog‘lom avlod uchun» ordenlari sohibi, koreys Aleksandr Yugay, fidoyi o‘qituvchi, «Do‘stlik» ordeni sohibi, qirg‘iz Abdusalom Jonibekov, oliy toifali shifokor, rus Tatyana Ryuxina, Sirdaryo tumani «Malik» qishloq fuqarolar yig‘ini mas’ul kotibi, tatar Tamara Faxriyeva, o‘zbek va ozarbayjon tillari-dagi she‘rlari bilan Vatanimizni madh etib kelayotgan, ozarbayjon Ali Nosirli va yana boshqa o‘nlab muhtaram yurtdoshlarimiz ana shu ajoyib do‘stlikning timsoli bo‘lib kelmoqda.

Atoqli shoirimiz Erkin aka Vohidov aytganlaridek, haqiqatan ham, «**Do‘st bilan obod uying, Gar bo‘lsa ul vayrona ham, Do‘st qadam qo‘ymas ekan, Vayronadir koshona ham**».

Biz mana shunday bebaho boyligimizni doimo ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashimiz kerak.

Ko‘p yillik mehnat va hayot tajribasi bilan bar-chaga o‘rnak bo‘lib kelayotgan Sirdaryo farzandla-

ri haqida gapirganda, mirishkor dehqon Xudoyqul Mahkamov haqida alohida to‘xtalishimiz o‘rinlidir. Sirdaryoning iqlim sharoitiga mos keladigan, qishloq xo‘jaligida yaxshi samara berayotgan «An-Boyovut» paxta urug‘ini yaratishga hissa qo‘sghan seleksioner Xudoyqul Mahkamovning xizmatlarini hurmatli Islom Abdug‘aniyevich yuksak baholab, uni «Mehnat shuh-rati» ordeni bilan taqdirlagan edilar.

Ana shunday insonlar qatorida O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi Xolmo‘min Shukurov, «El-yurt hurmati» ordeni sovrindorlari Ne’mat Rahmatullayev, Jumaboy Suyunov, «Do‘stlik» ordeni sohibasi Buval-ma Soatova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan mada-niyat xodimi, ko‘p yillar davomida viloyat xotin-qizlar qo‘mitasiga boshchilik qilib kelgan Hojarxon opa Mirjalilova, «Nuroniy» jamg‘armasi Sirdaryo viloyat bo‘limi kengashi raisi O‘tbosar Abdiyev, Guliston tu-mani ma’naviyat targ‘ibot markazi rahbari Yoqubjon Madaminov kabi muhtaram faxriylar, mahalla faollari barchaga o‘rnak bo‘lmoqdalar.

Sirdaryo viloyatidan yetishib chiqqan ilm-fan, mada-niyat va san’at namoyandalari haqida so‘z borgan-da, Akrom Kattabekov, To‘lqin Mavlonov, G‘ofirjon Hamroqulov, Umrzoq O‘ljaboyev, Zuhra Umarova, Farhod Nazirov, Nikolay Ignatev, Sa’dulla Abdullayev singari taniqli olimlarning nomlarini hurmat bilan til-ga olamiz.

Shu o‘rinda Sirdaryoning faxri, g‘ururiga aylangan O‘zbekiston xalq shoiri, marhum To‘ra Sulaymon, atoqli ijodkor, O‘zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning yetuk asarlari adabiyotimizning

go‘zal sahifalarini tashkil etishini ta’kidlashni o‘rinli deb bilaman.

Bugungi kunda ularning izidan borib faol ijod qilayotgan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Hayotxon Ortiqboyeva, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Nodira Pirmatova, Sharif Jumayev, Asatilla Xoliqov, Adham Abdullayev singari san’atkorlarimizning ijodiy yutuqlari hammamizni quvontiradi.

Sirdaryo vohasi o‘zining mashhur sportchilari bilan butun yurtimizda tanilgan. Viloyat yoshlari keyingi besh yilda jahon va Osiyo championatlarida, xalqaro turnirlarda 50 ta oltin, 67 ta kumush va 81 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga katta hissa qo‘shdilar. Ana shunday mahoratli sportchilarimizdan 15-Paralimpiya o‘yinlarining bronza medali sohibi Server Ibragimovni, qit’amiz va mamlakatimiz miqyosidagi nufuzli musobaqalar g‘olibi va sovrindorlari Rustambek Jo‘rayev, Javohir Mirahmedov, Sevara Mirzabekova, taekvondo bo‘yicha ikki karra jahon championi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Dilbarxon Xoljigitovani va ularning ustoz-murabbiylarini yana bir bor qutlab, barchasiga baxt va omadlar tilaymiz.

Hurmatli do‘sstar!

Sirdaryo viloyati o‘zining yuqori iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati, geografik joylashuvi bilan mamlakatimiz taraqqiyotida o‘ziga xos muhim o‘rin tutadi.

Keyingi yillarda viloyatda ana shu salohiyatni yanada oshirish yo‘lida katta yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Buning tasdig‘ini quyidagi ba’zi misol va raqamlarda yaqqol ko‘rish mumkin.

Avvalo, viloyatda yalpi hududiy mahsulot 2010-yil-dan buyon 1,6 barobar oshgani, keyingi besh yilda uning tarkibida sanoat mahsulotlari 1,6 marta o'sganini ta'kidlash lozim.

Sizlarga yaxshi ma'lum, ilgari bu vohada bit-ta issiqlik elektr stansiyasi va paxta tozalash zavodidan boshqa sanoat korxonasi deyarli yo'q edi. Mustaqillik yillaridagi ulkan e'tibor tufayli Sirdaryo viloyatida **sanoatning ilg'or, zamonaviy tarmoqlari** shakllanmoqda va rivojlanmoqda. Sanoatning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi oxirgi besh yilda 21 foizdan 28 foizga o'sgani ana shunday e'tiborning amaldagi natijasi, desam, xato bo'lmaydi.

Bu borada, ayniqsa, Birinchi Prezidentimizning ta-shabbusi bilan tashkil etilgan «Jizzax» erkin iqtisodiy zonasining Sirdaryo filiali katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Viloyatdagi mavjud 66 ta qo'shma korxonanining 38 tasi yoki 57 foizi oxirgi besh yilda tashkil etilgani, shuning 8 tasi ilgari bunday korxonalar bo'lмаган тумларга тоғ'ри келайотгани е'tiborlidir.

Viloyatda jami 1 ming 400 dan ziyod yangi **kichik biznes subyekti** tashkil etilib, ularning umumiyl soni 8 ming 150 taga yetgani ham shu davrda erishilgan muhim yutuqlar qatoriga kiradi. Bugungi kunda ushbu tarmoqning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 74 foizni, hududiy eksportdagi ulushi 90 foizni tashkil etmoqda. Mehnat bilan band aholining 79 foizi ayni shu sohada faoliyat ko'rsatmoqda.

Hammamiz yaxshi bilamiz, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida Sirdaryo viloyati o'ziga xos muhim o'rinnegallaydi. Yurtimizda yetishtirilayotgan paxtaning

7 foizi, g‘allaning qariyb 7 foizi, meva-sabzavot va poliz mahsulotlarining 5 foizga yaqini aynan shu viloyat hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yoz chillasidagi jazirama issiqda, ko‘zni ochir-maydigan garmsel shamollar va izg‘irin sovuqda, sizot suvlari ko‘tarilib, yerlarning katta qismi sho‘rlangan bir sharoitda Sirdaryoda dehqonchilik qilib, mo‘l hosil yetishtirish – haqiqiy qahramonlik namunasidir. Menga qolsa, sirdaryolik mirishkorlar nafaqat dehqonchilik mактабини, balki dehqonchilikning akademiyasini yaratgan insonlar deb aytgan bo‘lardim.

Viloyatning usta dehqon va fermerlari bu yil ham qishloq xo‘jalik ekinlaridan mo‘l hosil yetishtirib, el-yurtimiz rizqini butun qilishga munosib hissa qo‘shdilar.

Fursatdan foydalanib, Sirdaryoning fidokor fermer va dehqonlariga, barcha dala mehnatkashlariga, butun viloyat ahliga chuqur minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Sirdaryo viloyatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar natijasida keyingi besh yilda 200 mingta yangi ish o‘rni tashkil etildi.

Bu esa, o‘z navbatida, **aholining daromadlari, hayot darajasi va sifatini oshirishga** xizmat qilmoqda. 2010-yilga taqqoslaydigan bo‘lsak, har yuzta xonadonga to‘g‘ri keladigan avtomobillar soni 2 barobar, pilesoslар 7,5 marta, kir yuvish mashinalari 1,4 karra, televizor va xolodilniklar 1,2 barobar ko‘payganini qayd etish lozim.

**Ma’lumki, bugungi kunda shahar va qishloqlar qiyofasini tubdan o‘zgartirish,** ularni obodonlashtirish,

odamlarning yashash sharoitini yaxshilash, ayniqsa, qishloq aholisi uchun shahardan kam bo‘lmagan sharoitlar yaratish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu haqda gapirganda, 2015-yilda Birinchi Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan muhim bir dasturni tilga olishimiz tabiiydir. Bu dastur Guliston shahrining meliorativ holatini yaxshilash va yerosti suvlari sathini kamaytirish, viloyat markazining me’moriy qiyofasini tubdan o‘zgartirish, ijtimoiy, transport va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgani sizlarga ma’lum, albatta. Hozirgi kunda bu yerda ana shu dastur asosida boshlangan keng ko‘lamli ishlar davom ettirilmoqda.

Jumladan, «Do’stlik» kanalining shahardan o’tadigan 3 yarim kilometr qismini to‘liq betonlashtirish, 3 kilometrdan ortiq yopiq kollektorlar qurish, 260 kilometrdan ziyod ochiq kollektorlarni tozalash bo‘yicha va boshqa muhim ishlar amalga oshirildi. Natijada Guliston shahri va uning atrofida sizot suvlar sathi 1–1,5 metrga pasaytirildi.

Guliston shahrining yangi madaniy markazini barpo etish maqsadida markaziy istirohat bog‘i, so‘lim xiyobon, 550 tomoshabinga mo‘ljallangan yangi amfiteatr qurish va boshqa obodonlashtirish ishlari bajarilmoqda. Viloyat teatri, «Yoshlar markazi», Guliston davlat universitetining binosi va boshqa bir qator ijtimoiy obyektlar rekonstruksiya qilinmoqda.

Ana shunday ulkan ishlarni mantiqiy yakuniga yetkazish maqsadida viloyatda bir qator yangi reja va loyihalarini amalga oshirish belgilanmoqda. Xususan, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud-

larini modernizatsiya qilish bo'yicha yaqin besh yilda 590 dan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Buning natijasida jahon bozorida raqobatdosh bo'lgan yangi-yangi turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarilishi alohida e'tiborga loyiq.

Shu o'rinda biz uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ma'lumki, biz shu paytgacha paxta tolasini asosan ip-kalava sifatida qayta ishlab, uni eksport qilib kelamiz. Lekin hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, ip-kalava eksport qilinsa, u tolaga nisbatan bor-yo'g'i 1,4 marta qimmatga sotiladi. Agar xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirsak – biz endi shunday qilamiz – eksport hajmi 6 barobar ko'payadi. Ya'ni, olti marta ko'p foyda olamiz. Bu faqat valuta emas, balki yangi ish o'rirlari va pirovard natijada aholi farovonligi demakdir.

Yaqin besh yilda ana shu maqsadni amalga oshirish uchun **to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatiga** 2 milliard 200 million dollar investitsiya jalb etiladi. Shuning hisobidan 120 ta yangi korxona tashkil etib, 20 ta korxonani modernizatsiya qilamiz. Buning natijasida mamlakatimizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 barobardan ziyyod ko'payadi.

Sirdaryo misolida aytadigan bo'lsak, viloyatda umumiyligi qiymati qariyb 59 million dollar bo'lgan beshta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Misol uchun, kelgusi ikki yilda Sayxunobod tumanida to'qimachilik sohasida katta bir loyihami joriy etish hisobidan ip-kalava tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

**Qurilish materiallari ishlab chiqarish** sohasida 147 ta loyiha amalga oshiriladi. Jumladan, kelgusi yili Sirdaryo tumanidagi «Fayz» qo'shma korxonasida g'ozapoyadan yog'och-qipiqli plitalar ishlab chiqarish tashkil etiladi.

Shu bilan birga, **mahalliylashtirish** dasturi doirasidagi ishlar davom ettiriladi. 2017-yilda shu borada 8 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni 12 taga yetkaziladi. Xususan, Guliston, Yangiyer shaharlari va Boyovut tumanida birinchi marta mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Viloyatda kelgusi besh yilda hududiy eksport hajmini kamida 1,2 barobar oshirish, eksport faoliyatiga yana kamida 30 ta korxonani jalb etish mo'ljallanmoqda. Buning uchun eksportdagagi ishtiroki past tumanlarning eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, izchil amalga oshiriladi.

**Bizning dasturimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va modernizatsiya qilish** borasidagi ishlarni yangi, zamon talab qilayotgan darajaga ko'tarishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kelgusi besh yilda yer maydonlarini optimallashtirish hisobidan go'sht, sut, tuxum kabi mahsulotlar yetishtirishni qariyb ikki barobar ko'paytirish, shuningdek, ularni qayta ishlashni kengaytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ko'zda tutilmoxda.

Lekin, hammamiz yaxshi tushunamizki, buning uchun birinchi navbatda bizni boqadigan yerni boqishimiz, tuproq unumdorligini oshirishimiz kerak.

Shu maqsadda viloyatda 225 kilometr kollektor, yopiq drenaj tarmoqlari va ikkita suv inshooti quriladi, 1 ming 664 kilometr kollektorlar tozalanadi va yopiq drenaj tarmoqlari ta'mirlanadi. Shu bilan birga, 224 kilometr uzunlikdagi kanal, 15 kilometr uzunlikdagi yuqori bosimli quvurlar, 2 ta nasos stansiyasi va bitta suv ombori rekonstruksiya qilinadi.

Shuningdek, 2017-yilda Sardoba suv omborini qurish bo'yicha ikkinchi bosqichdagi ishlar yakunlanadi. Buning natijasida Sirdaryo va qo'shni Jizzax viloyatidagi ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash yaxshilanadi.

Bugungi davr talabi bo'lgan **axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini** rivojlantirish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar rejalashtirilmoqda.

Kelgusi besh yilda viloyatda 65 kilometr optik tolali aloqa tarmoqlarini va 161 ta mobil aloqa tayanch stansiyasini qurish, ma'naviy jihatdan eskirgan telefon stansiyalarini yangilash rejalashtirilmoqda. Shuningdek, Guliston tumanida ikkita raqamli teleuzatgich o'rnatish orqali viloyat hududida raqamli televide niyega o'tish darajasini 80 foizdan 100 foizga yetkazishga erishamiz.

Ko'p yillardan buyon o'z binosiga ega bo'lmasdan kelayotgan viloyat teleradiokompaniyasi uchun zamonaviy bino qurish va jihozlash ishlari ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Aziz Sirdaryo ahli!

Barchamizning ertangi kunimiz, baxtimiz bo'lgan yosh avlodimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, o'z yurtiga sadoqatli

insonlar etib tarbiyalash doimo e'tiborimiz markazi-da turadigan masaladir. Haqiqatan ham, ko'zimizning nuri, qalbimizning qo'ri bo'lgan farzandlarimizni hayotning har qanday sinov va mashaqqatlariga bardosh bera oladigan, jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalashdan ham muhimroq vazifa bo'lishi mumkinmi o'zi?

Ayniqsa, kasb-hunar kollejlarini, oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan, katta umid bilan hayotga kirib kelayotgan yoshlarni ish bilan ta'minlash, o'z bilim va qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratib berish nafaqat vazifamiz, balki burchimizdir.

Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu muammoning naqadar o'tkir va keskin bo'lib turganini anglash qiyin emas.

Shu sababli o'g'il-qizlarimiz, ayniqsa, uyushma-gan yoshlar bilan ishlash, bunda jamoat tashkilotlari, birinchi navbatda, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining hissasi va ishtirokini yanada kengaytirishga, yaqinda qabul qilingan **«Yoshlarga oid davlat si-yosati to'g'risida»**gi qonun talablarining ijrosini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Kelgusidagi dastur va rejalarimiz haqida gapirganda, inson manfaatlari, el-yurtimiz manfaatlari doimo e'tiborimiz markazida bo'lishini yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman.

Bu borada, ayniqsa, hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan 15 ta dastur alohida ahamiyatga egadir.

Aytish kerakki, bu dasturlarning ba’zilari tasdiqlanib, ular bo‘yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Ruxsatingiz bilan ana shu dasturlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmooqchiman.

**Birinchidan**, Tadbirkorlik faoliyatining jalal rivojlanishini ta’minlash, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, farmon bilan tasdiqlandi.

Keyingi paytda kichik bo‘lsa ham o‘z ishini, o‘z biznesini ochib, o‘ziga, oilasiga va shu asosda davlatga ham daromad keltirishga intilayotgan odamlar yurtimizda ko‘payib bormoqda.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan nomzod sifatida men bunday insonlarga yordam berish, ularni qo‘llab-quvvatlashni o‘zimning burchim deb bilaman. Ushbu dasturga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha 42 ta aniq chora-tadbir belgilangan va biz ularni, albatta, amalga oshiramiz.

Sirdaryo viloyati haqida gapiradigan bo‘lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar miqdori yaqin besh yilda kamida to‘rt barobar ko‘paytiriladi. Ma’lumki, Yangiyer shahrida va viloyatning beshta tumanida kichik biznes subyektlari uchun 76 hektar maydonda yettita maxsus sanoat zonasi tashkil etilgan. Ana shu zonada 130 milliard so‘mdan ortiq

investitsiya hisobidan 224 ta loyihani amalga oshirish va jahon bozorida raqobatdosh bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish mo‘ljallanmoqda.

**Ikkinchidan,** Qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar asosida arzon va qulay uy-joylar qurish dasturi tasdiqlanganidan barchangiz xabardorsiz.

Ma’lumki, iqtisodiyotimizning barqaror o‘sish sur’atlari kuchayishi, hayotimizning farovon bo‘lib, aholimiz soni ko‘payib borishi bilan yangi uy-joylarga ehtiyoj ham ortib bormoqda.

Dasturda shularning barchasini hisobga olib, qishloq joylardagi daromadi kam bo‘lgan oilalar, ayniqsa, yosh oilalarmi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun qulay va arzon uy-joylar qurish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. Ularga muvofiq Sirdaryo viloyatida 2017-yilda 904 ta ana shunday uy-joy quriladi.

Barcha hududlarimiz kabi Sirdaryo viloyatida ham shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan yaxshilash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar davom ettiriladi.

Shuningdek, Guliston shahri va tuman markazlarida zamонавиј loyihalar asosida 120 ta xonadonga mo‘ljallangan 15 ta ko‘pqavatli «Kamolot» uylarini barpo etish va ularni ijtimoiy hayotimizda faol ishtirok etayotgan yoshlarga topshirish mo‘ljallanmoqda.

**Uchinchidan,** Hududiy avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi ishlab chiqildi.

Tranzit hududi bo‘lgan Sirdaryo viloyatida yashaydigan aholi bu dasturning ahamiyatini yaxshi tushundadi deb o‘yayman.

Dasturda Sirdaryo viloyatida kelgusi besh yilda 67 kilometr avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash, bitta yirik ko'prik barpo etish, to'rtta ko'prikni rekonstruksiya qilish belgilangan.

Bundan tashqari, qariyb 33 milliard so'm hisobidan 267 kilometrlik ichki yo'llar ta'mirlanadi. Kelgusi ikki yilda birinchi navbatda tibbiyot, ta'lim-tarbiya muassasalari, bozorlarga olib boruvchi ichki yo'llarni to'liq ta'mirdan chiqarishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

**To'rtinchidan**, Shahar va qishloqlarda yo'lovchi transportini yanada rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda.

Dasturda barcha aholi punktlarida transport xizmatini talab darajasida yo'lga qo'yish, transport parkini bosqichma-bosqich yangilash choralar ni nazarda tutilmoqda.

Sirdaryoda yo'lovchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida 75 ta yangi bekat quriladi va 161 ta bekat rekonstruksiya qilinadi, 23 ta yangi yo'nalish tashkil etiladi.

**Beshinchidan**, kelgusi besh yilda ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlarini kompleks rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi tayyorlanmoqda.

Dasturga muvofiq aholi punktlariga markazlashtirilgan holda ichimlik suvi yetkazib berishni kengaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Ularни moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida «Toza suv» fondi tashkil etilib, uni respublika va mahalliy budgetlar mablag'lar, xalqaro-moliya institutlarining imtiyozli kreditlari,

xalqaro donorlarning grantlari hisobidan shakllantirish belgilangan.

Kelgusi besh yilda Sirdaryo viloyatida 94 kilometr magistral suv tarmog‘i, 680 kilometr mahalliy suv tarmog‘i va ko‘plab suv inshootlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi. Xususan, kelgusi uch yilda Sardoba tumanida 60 kilometr suv tarmog‘i barpo etiladi, Sirdaryo, Guliston va Sayxunobod tumanlarida ichimlik suvi ta’minoti yaxshilanadi.

**Oltinchidan**, Ko‘mir tannarxini va aholiga xarid qiymatini pasaytirish, shuningdek, bu borada chayqovchilik qilishni va narxlarning oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Dasturga asosan, viloyatda kelgusi besh yilda aholiga 71 ming tonna ko‘mir yetkazib beriladi. Shuningdek, 2017-yilda Mirzaobod tumanidagi «Fayz gaz» korxonasida yiliga 5 ming tonna ko‘mir briketi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

**Yettinchidan**, Shahar va qishloq aholisining elektr energiyasidan foydalanishini yanada yaxshilash maqsadida ishlab chiqilayotgan dastur doirasida past kuchlanishli elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, elektr uskunalaridan foydalanish muddatlarini uzaytirish, elektr tarmoqlarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish rejalashtirilmoqda.

Bu masalada Sirdaryo viloyatida kelgusi besh yilda 65 kilometr elektr uzatish tarmoqlari va 116 ta yangi transformator punkti quriladi, 564 kilometr elektr tarmoqlari modernizatsiya qilinadi.

**Sakkizinchidan,** Maktabgacha ta’lim muassasalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturi tayyorlanmoqda.

Ma’lumki, ta’lim va tarbiyaning poydevori oila bilan birga bolalar bog‘chasida qo‘yiladi. Bu – juda muhim masala.

Shu sababli ishlab chiqilayotgan dasturda maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik baza-sini mustahkamlash, ularni yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta’mirlash, o‘quv-tarbiya jarayonlariga zamонавиј usullarni joriy etishga alohida e’tibor qaratiladi.

Sirdaryo viloyatida kelgusi besh yilda 3 ta maktabgacha ta’lim obyekti yangitdan quriladi, 43 ta obyekt rekonstruksiya qilinadi va 36 ta inshoot kapital ta’mirlanadi. Ayni vaqtida bu sohada xususiy bolalar bog‘chalari faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ham keng imkoniyat yaratiladi.

**To‘qqizinchidan,** Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Bozorlar azal-azaldan yurtimizda tinchlik, to‘kinlik va farovonlik belgisi bo‘lib kelgan. Ayni vaqtida bozorlar milliy madaniyatimizning ajralmas bir qismi hamdir.

Hozirgi kunda Guliston shahri va Sardoba tumanida yangi dehqon va buyum bozorlari barpo etilmoqda. Yaqin besh yilda esa Shirin va Yangiyer shaharlari, Boyovut, Guliston, Oqoltin, Sardoba, Sayxunobod, Sirdaryo va Xovos tumanlaridagi dehqon bozorlarini tubdan rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda. Bu sohada endi yangi tizim joriy etiladi.

**Yana bir muhim dastur** pensionerlarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash masalalari bilan bog'liq.

Ushbu dasturda muhtaram otaxon va onaxonlarimiz oldidagi farzandlik burchimizni ado etish, ularning umrini mazmunli qilish maqsadida kelgusi besh yilda pensioner, nogiron, yolg'iz qariyalar va aholining kam ta'minlangan qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Sirdaryo viloyatida ana shunday toifaga mansub fuqarolarning sog'lig'ini mustahkamlash uchun har yili ularning 1 ming 470 nafarini, shuningdek, 180 nafar urush va mehnat fronti faxriysini turli sanatoriylarga imtiyozli yo'llanmalar bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Hozirgi paytda ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli ana shu imkoniyatlardan foydalana olmayapti. Bu hech kimga sir emas. Ana shu yo'llanmalar «kuyib» ketmasligi uchun biz ularning pulini berishga qaror qildik. Ushbu yo'llanmalarning o'rtacha narxi hozirgi kunda 800 ming so'mni tashkil etmoqda. O'laymanki, bu – adolatli yechim.

Kelgusi to'rt yilda yurtimizdagi barcha «Muruvvat» va «Saxovat» uylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularda har jihatdan zamonaviy sharoitlar yaratish belgilangan.

«Nuroniy» jamg'armasining maqomi va mavqeyini ko'tarish, uning shtat birliklarini ko'paytirish, moddiytexnik bazasini mustahkamlashga, shahar va tumanlarda jamg'arma bo'limlarini davlat budgetidan mablag' bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratamiz.

**Yana bir muhim hujjat** – onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi.

Ma'lumki, bu masala, avvalo, muhtarama ayollarimiz, opa-singillarimizning hayotiy manfaatlari bilan chambarchas bog'liq. Sobiq tuzum davrida bu haqda ko'p gapirilsa-da, amalda ular, ayniqsa, yurtimiz ayollari qanday og'ir mehnat va mashaqqatli turmushga duchor etilgani hech kimga sir emas.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning hayotdagagi o'rni va nufuzini oshirish, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, bir so'z bilan aytganda, ayollarimizni jamiyatimizning teng huquqli va faol a'zosiga aylantirishga qaratilgan ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Bu haqda gapirganda, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevichning bu borada ham barchamizga bu-yuk ibrat ko'rsatganlarini alohida ta'kidlashimiz joiz.

**Yurtboshimiz «Ayol go'zal bo'lsa – olam go'zal, ayol baxtli bo'lsa – oila, butun jamiyat baxtli bo'ladi»** degan ezgu g'oyani har birimizning yuragimizga singdirdilar.

Ayni paytda xotin-qizlarimizning siyosiy va huquqiy saviyasi, ijtimoiy faolligi tobora yuksalib borayotganini davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida, hayotimizning turli soha va tarmoqlarida yaqqol kuzatish mumkin.

Birgina Sirdaryo viloyati misolida olib qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda Oliy Majlisimiz tarkibida, xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman kengashlarida,

shuningdek, partiya tashkilotlarida yuzlab opasingillarimiz faol ish olib bormoqda. Ayni paytda, viloyat xotin-qizlarining 18 mingga yaqini ta'lim, 10 mingdan ziyodi tibbiyot va yana 10 ming nafardan ortig'i hayotimizda tobora katta o'rinn olayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida mehnat qilayotganini alohida ta'kidlash o'rinnlidir.

Viloyatda yashab mehnat qilayotgan Pokiza Ahmadjonova, Dilfuza Abdusattorova, Nazokat Ermatova, Inobat Obidova singari mahalliy kengashlar deputatlari, Noriniso Qosimova, Zulfiya Eshmurodova kabi iste'dodli ijodkorlarimiz, Muhtaram Hasanova, Saodat Fayziyeva singari ta'lim jonkuyarlari va yana ko'plab fidoyi opa-singillarimizning nomlarini butun Sirdaryo ahli yaxshi biladi.

Turli viloyatlarda saylovoldi uchrashuvlarini o'tkazayotganimizda bu jarayonlarda ham xotin-qizlarimiz o'zlarining faol va tashkilotchiligi bilan alohida ajralib turganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Biz kelgusida ham ayollarimizga munosib turmush sharoiti yaratib berish, ularning hayotdan rozi bo'lib yashashi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishni eng asosiy vazifamiz deb bilamiz.

Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, men yuqorida tilga olgan dasturlarning barchasi, jumladan, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi dasturimiz ham ayni shunday ezgu maqsadlarni ko'zda tutadi.

Biz bu dastur asosida ayollar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, jumladan, davolash va profilaktika tashkilotlarining moddiy-texnik baza-

si va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash, ularga maxsus va yuqori texnologiyalar asosida tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshiramiz.

Ularga muvofiq barcha yangi tug'ilgan chaqaloqlar, o'smir qizlar, homilador va tug'ish yoshidagi ayollar uchun patronaj xizmati darajasi hozirgi 70 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Sirdaryo viloyatida kelgusi besh yilda 11 ta tibbiyot maskanini kapital ta'mirlash va ularni 43 ta tomograf, 326 ta rentgen va 320 ta UZI apparati va boshqa eng zamonaviy tibbiy uskunalar bilan qo'shimcha jihozlash ko'zda tutilgan.

**Yana ikkita dastur** – Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish hamda Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, ularning narxlari shakllanishini takomillashtirish dasturlari ishlab chiqildi.

Dori vositalari ishlab chiqarish va dori-darmonlarining narxi masalasida hozirgi paytda muammolar borligini ochiq tan olishimiz kerak. Bu masalalar aholini qiyinayotgani, ularning haqli e'tiroziga sabab bo'layotgani sir emas. Dastur doirasida hukumatning tibbiyot sohasini tubdan isloh etishga qaratilgan to'rtta qarorini qabul qilish belgilangan. Jumladan, 2016–2020-yillarda mamlakatimizda 67 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Natijada farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ikki yarim barobar ko'payadi, 22 ta yo'nalish bo'yicha keng turdag'i yangi dori vositalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Sirdaryo viloyatida kelgusi besh yilda «Greys farma» korxonasida yiliga 6 million dona tabletka va su-

yuq dori vositalari ishlab chiqaradigan korxona tashkil etiladi. 4 million 500 dollar investitsiya hisobidan 25 million ampula dori vositalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Viloyatdagi shahar va tuman tibbiyot birlashmalarida ijtimoiy dorixonalar tashkil qilinadi va ularda dori vositalari arzon, maqbul narxlarda sotilishi ta’milanadi.

**Navbatdagi dastur** – qattiq maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi doirasida kelgusi besh yilda viloyatda maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish uchun davlat budgetidan 10 milliard 800 million so‘m va tijorat banklarining imtiyozli kreditlari hisobidan 800 million so‘m ajratiladi. Jumladan, 2017-yilda sanitariya yo‘li bilan tozalash bo‘yicha maxsus xizmat ko‘rsatadigan korxonalar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari qoshidagi shunday guruhlarni yangi texnika va garajlar bilan to‘liq jihozlash rejalashtirilmoqda.

Kun tartibiga qo‘yilayotgan bunday muhim vazifalarni hal qilish uchun birinchi navbatda mablag‘ kerakligini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda mahalliy budgetlarning subvensiyaga qaramlik darajasini keskin kamaytirish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

Bugungi kunda Sirdaryo viloyati mahalliy budgeti xarajatlarining 28 foizi respublikadan olinadigan subvensiya hisobidan qoplanmoqda. Yangiyer shahri, Boyovut, Guliston, Mirzaobod, Oqoltin, Sardoba, Sayxunobod va Xovos tumanlari mahalliy budgetida

subvensiya ulushi juda yuqori – 30 – 58 foizni tashkil etmoqda.

Subvensiyaga qaramlikdan qutulishning asosiy yo‘li – ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirib, budjet daromadlarining asosi hisoblangan soliq tushumlarini ko‘paytirishdan iborat ekanini, o‘ylaymanki, ortiqcha tushuntirib o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak.

Albatta, yuqorida aytib o‘tilgan chora-tadbirlar viloyat iqtisodiyotining soliq bazasini kengaytirishni ta’minlaydi. 2017-yilda Yangiyer shahri, Mirzaobod va Sayxunobod tumanlari, 2021-yilda Guliston, Boyovut, Sardoba, Xovos va Oqoltin tumanlarini va shu asosda viloyatni subvensiyaga qaramlikdan chiqarish ko‘zda tutilgan.

Misol uchun, Guliston tumanida yaqin besh yilda qo‘sishimcha 282 ta yangi obyekt ishga tushirilishi va mahalliy budjetga soliq to‘lovlari 27 milliard so‘mga ko‘payishi hisobidan mahalliy budjet xarajatlarining to‘la qoplanishi kutilmoqda. Jumladan, 2018-yilda tumanligi «Mili Guliston» korxonasi tomonidan 20 million dollarlik loyiha amalga oshirilib, yiliga 10 ming tonna ip-kalava, 15 million kvadrat metr ip-gazlama, 2 ming tonna trikotaj ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, - Guliston tumanidagi «Baraka tekstil» korxonasi tomonidan 4 ming 500 tonna ip-kalava ishlab chiqarish va uni bo‘yash, 10 million kvadrat metr paxmoq mato ishlab chiqarishga erishamiz.

Aziz yurtdoshlar!

Sizlarning e’tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiman.

O‘z vaqtida Birinchi Prezidentimiz, muhtaram Islom Abdug‘aniyevich Karimovning tashabbusi bilan ichki ishlar idoralarining eng quyi bo‘g‘inida profilaktika inspektorlari tizimi tashkil qilinganidan xabaringiz bor. Lekin, afsuski, bugun bu inspektorlar profilaktika, ya’ni jinoyatlarning oldini olish o‘rniga aksariyat hollarda sodir bo‘lgan jinoyatlarni qayd etish va yuqori idoralarga hisobot yozish bilan band bo‘lib qolmoqda.

Biz hozirgi paytda Ichki ishlar vazirligi tizi-mini tubdan o‘zgartirish chora-tadbirlarini ishlab chiqmoqdamiz. Unga ko‘ra, mahalladagi uchastka nozirlariga samarali faoliyat olib borishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratib beramiz. Ular xizmat uylari, avtomashina va boshqa zarur zamonaviy uskunalar bilan ta’minlanadi. Uchastka nozirlari endi o‘z faoliyatini samarali amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Ayni paytda har bir tuman hokimi va tuman ichki ishlar bo‘limlari rahbarlarining yoshlari bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy etiladi. Bu rahbarlarning zimmasiga asosan mahallada uchastka inspektorlari bilan ishslash vazifasi yuklatiladi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz «O‘zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak» degan da’vatni bu borada har birimiz mas’ul ekanimizni chuqur anglab, tinchlik uchun kurashish, doimo hushyor va ogoh bo‘lib yashash deb tushunamiz.

Dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kelayotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning

salohiyatini har tomonlama mustahkamlash – xavfsizlik va barqarorlikni hamda xalqimizning osoyishta hayotini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolatidir.

**Tashqi siyosat** sohasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to'liq amal qilish saylovoldi dasturimizning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bu siyosatning asosiy ma'no-mazmuni – tinchlik-parvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qaramaqarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O'zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlар va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Bu borada ilgari ham aytgan bir fikrimni takrorlashni istardim. Biz qo'shnilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo'lini izchil davom ettramiz. Hamkorlikni tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi deb bilamiz. Qo'shnilarimiz bilan o'zaro hurmat va manfaatli hamkorlikni qancha rivojlantirsak, bundan yurtimiz ham, butun mintaqamiz ham shuncha ko'p naf ko'radi.

Bugun ana shu ezgu yo‘lda yangi amaliy qadamlar qo‘ya boshlaganimiz, jumladan, Sirdaryo viloyatiga yaqin qo‘shni bo‘lgan qardosh Qozog‘iston davlati Prezidenti hurmatli Nursulton Nazarboyev bilan o‘tkazgan muzokaralarimiz, o‘zaro hamkorlik aloqalarimiz rivojlanib borayotgani buning yana bir tasdig‘idir.

Aziz yurtdoshlar!

Bugun el-yurtimiz, mamlakatimiz yangi va ulkan marralar, yuksak dovonlar oldida turibdi. O‘z tarixi va taraqqiyoti davomida ko‘pni ko‘rgan, har qanday og‘ir va murakkab sinovlardan yorug‘ yuz bilan o‘tib kelayotgan Sirdaryo ahliga, oljanob xalqimizga tayanib, biz ezgu maqsadlarimizga albatta yetamiz.

So‘zimning yakunida sizlarga va sizlar orqali butun Sirdaryo eliga yana bir bor mustahkam sog‘liq, ishlar ringizga rivoj, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Sardoba tumani,  
2016-yil 19-noyabr**

**YUKSAK TA'RIFLARGA MUNOSIB  
ZAMIN**  
**(TOSHKENT VILOYATI SAYLOVCHILAR  
VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI  
NUTQ)**

2000-2001

BRUNSWICK COLLEGE

COLLEGE OF BRUNSWICK  
COLLEGE OF BRUNSWICK  
COLLEGE OF BRUNSWICK

BRUNSWICK COLLEGE

COLLEGE

COLLEGE OF BRUNSWICK

---

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!  
Hurmatli saylovchilar!

Bugun siz, azizlar bilan mana shunday samiyyi bir vaziyatda uchrashib, barchangizni sog'-salomat, ko'tarinki kayfiyatda ko'rish nasib etganidan baxtiyorman.

Fursatdan foydalanib, barchangizga, sizlarning timsolingizda butun viloyat ahliga o'zimning chuqur hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni bildirishga ruxsat etgaysiz.

Mamlakatimiz hayotidagi muhim voqeа – shu yil 4-dekabrda bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga ham sanoqli kunlar qoldi. Saylovoldi jarayonlari qizg'in pallaga, hal qiluvchi bosqichga ko'tarilmoqda. Butun xalqimiz qatori siz, hurmatli Toshkent viloyati saylovchilari ham har bir nomzodning saylovoldi dasturini, ularning chiqishlarini albatta diqqat bilan kuzatib boryapsiz. Jumladan, mening saylovoldi dasturim, uning asosiy ma'nomazmuni ham sizlarga yaxshi ma'lum deb o'ylayman.

Bu haqda gapirganda, Birinchi Prezidentimiz, muhtararam Islom Abdug'aniyevich tomonidan ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilgan, butun dunyoda taraqqiyotning «o'zbek modeli» deb tan olingan strategik yo'lni davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarish bu dasturning tub mohiyatini tashkil etishini yana bir

bor eslatmoqchiman. Vatanimiz, xalqimizning hayotiy manfaatlariga, uning ezgu orzu-intilishlariga to‘la javob beradigan ana shu taraqqiyot yo‘lini amalga oshirish uchun men o‘zimning bor bilim va tajribamni, butun borlig‘imni bag‘ishlashga tayyorman.

Saylovoldi uchrashuvlarida mamlakatimizni mustamlaka kishanlardan xalos etib, erkin va ozod, farovon hayot qurish yo‘lini ochib bergen ana shunday siyosatni qat’iyat bilan davom ettirish haqida so‘z borganda, ming-minglab yurtdoshlarimiz meni chin dildan qo‘llab-quvvatlayotgani ana shu yo‘lning naqadar to‘g‘ri va haqqoniy ekanidan dalolat beradi.

Haqiqatan ham, ulug‘ Yurtboshimiz O‘zbekistonni har tomonlama taraqqiy toptirish uchun mustahkam poydevor yaratib ketdilar. Buni nafaqat o‘z xalqimiz, balki dunyodagi ko‘plab atoqli davlat va siyosat arboblari ham hurmat bilan tan olmoqda.

Xabaringiz bor, men keyingi vaqtida bir qancha xorijiy mamlakatlarning rahbarlari bilan uchrashdim. Ularning barchasi mana shu haqiqatni yakdillik bilan e’tirof etib, Islom Karimov boshlagan demokratik islohotlarning istiqboliga katta ishonch bildirmoqdalar.

Men chorak asrdan ko‘proq vaqt mana shu ulug‘ insonga safdosh bo‘lib, u kishi bilan birga ishlaganidan faxrlanaman.

Bugun barchamiz aziz Yurtboshimizni cheksiz mehr va sog‘inch bilan eslar ekanmiz, yo‘limizda paydo bo‘layotgan turli sinov va muammolarga javob izlar ekanmiz, eng avvalo, Birinchi Prezidentimizning bizga qoldirgan bebaho siyosiy merosiga qayta-qay-

ta murojaat etishimiz, undan o'zimizga kuch-qudrat topishimiz tabiiyidir.

Hammamiz yaxshi bilamiz, u kishi buyuk istiqlo-limizning ma'no-mohiyati va ahamiyati, qadr-qimmati haqida gapirganlarida «**Biz kecha kim edig-u bugun kim bo'lpidik?**» degan iborani ko'p ishlatar edilar.

Darhaqiqat, juda topib aytilgan mana shu xalqona, o'zbekona ta'bilda bizning 25 yillik mustaqil taraqqi-yotimizning butun mazmun-mundarijasi, biz qanday og'ir va mashaqqatli yo'lni bosib o'tganimiz o'zining yaqqol ifodasini topgan.

Aziz do'stlar, men mana shu ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish jarayonida ayni shu masalaga aloqador qiziq bir hujjatga duch keldim. Ruxsatingiz bilan, bugun uni sizlarning e'tiboringizga havola etmoqchiman. Mana, eshititing, bu hujjatda nima deb yozilgan:

**«250 gramm makaron mahsuloti, yarim litr o'simlik moyi, 800 gramm guruch, 5 dona tuxum, 100 gramm quruq choy, 100 gramm mol yog'i».**

Mana, hozir zalga qarab turib, men ko'pchilikning, ayniqsa, yoshlarimizning hayron bo'lib turganini ku-zatyapman. Faqatgina yoshi ulug' odamlar nimanidir tushungandek bo'lyapti, bu g'alati ro'yxat ularga ni-manidir eslatyapti.

Bu – 90-yillarning boshida aholi jon boshiga maxsus talon bilan oyda bir marta beriladigan eng zaur oziq-ovqat mahsulotlarining ro'yxati. Ya'ni, bir oyda bir odam faqat shuncha oziq-ovqat olish huquqiga ega edi!

Men o'sha yillari Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumani hokimi bo'lib ish boshlagan edim.

Mana shu mahsulotlarni undirib topib kelish, uni aholiga talon bilan tarqatib berish qanday katta muammo bo‘lganini bugun ham juda yaxshi eslayman.

Farzandlarimiz, yoshlarimiz uchun bu voqealar go‘yo ertak bo‘lib tuyulishi mumkin. Mayli, u kunlar ertak bo‘lib qolsin, lekin sobiq tuzumdan bizga qanday ayanchli meros qolganini, qanday qiyinchiliklarni boshimizdan kechirib, bugungi tinch va osoyishta, to‘kin-sochin kunlarga yetib kelganimizni goh-goh eslab tursak, o‘ylaymanki, foydadan xoli bo‘lmaydi.

Bugungi kunda hayotimiz ham, odamlarimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi ham 90-yillardan yer bilan osmoncha farq qilishini mana shu saylov jaryonlari yana bir bor yaqqol tasdiqlab bermoqda.

Albatta, hammamiz yaxshi tushunamiz, bu saylov barchamiz, butun el-yurtimiz uchun g‘oyat muhim siyosiy tadbir, yana bir ulkan sinovdir. Dunyo hamjamiyatni bu saylovga katta qiziqish bilan qarayapti. Chunki O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan yirik mamlakatdir. Bu saylovni qanday o‘tkazishimizga qarab, jahon ahli bizning siyosiy, demokratik saviyamizga baho beradi. Eng muhimi, shu yurtning fuqarosi sifatida hammamizni o‘ylantiradigan, O‘zbekistonning bundan keyingi siyosiy yo‘li qanday bo‘ladi, mamlakatimiz kelajagini qanday barpo etamiz, degan savollarga eng aniq va to‘g‘ri javobni biz shu saylov orqali topamiz.

Shuning uchun bo‘lg‘usi saylovga juda katta mas’uliyat bilan qarashimiz lozim. Hech qachon unutmaylik, go‘zal va betakror O‘zbekiston barchamizniki ekan, uning taqdiri va kelajagi uchun ham barchamiz mas’ulmiz.

Hurmatli yurtdoshlar!

So‘lim va betakror Chirchiq vohasi, Olmaliq va Ohangaron kengliklarida joylashgan Toshkent viloyati, bu ko‘hna diyor har qanday yuksak ta’rifga munosibdir.

Bu zaminning unumdor tuprog‘i, qut-baraka yog‘iladigan dala va bog‘lari, oltin, kumush, mis, marmar, ko‘mir kabi zaxiralarga boy konlari, eng muhim, mehnatkash, bag‘rikeng, ko‘p millatli xalqi Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Hammamiz bir haqiqatni yaxshi tushunamiz va yuksak qadrlaymiz. Ushbu viloyat nafaqat o‘z aholisining, balki azim poytaxtimiz Toshkent shahrida yashayotgan ikki yarim million aholining hayotiy talab va ehtiyojlarini ta’minlashda beqiyos o‘rin tutadi.

Yaratganning mehri, nazari tushgan bu zamin dan Shayx Umar Bog‘istoniy, Xo‘ja Ahror Valiy, Abu Bakr Shoshiy, Abu Sulaymon Banokatiy kabi aziz avliyo va allomalar yetishib chiqqanini tarixdan yaxshi bilamiz. Ayniqsa, buyuk alloma Oyxo‘ja ibn Toshxo‘ja – Zangi otaning nomi, bu muborak zotning Toshkent viloyatidagi ziyoratgohi musulmon olamida ma’lum-u mashhurdir. Bu yerdagi tarixiy maqbara qurilishi Sohibqiron Amir Temur bobomiz tomonidan boshlanib, keyinchalik Mirzo Ulug‘bek tarafidan yakuniga yetkazilgan. Mustaqillik yillarda bu qutlug‘ qadamjo Birinchi Prezidentimiz rahbarligida har tomonlama obod qilingani sizlarga yaxshi ma’lum, al-batta.

Qadimiy Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan bu o‘lkada savdo-sotiq, hunarmandlik, me’morlik bi-

lan birga, madaniyat, adabiyot va san'at ham keng rivojlangan. Ayniqsa, Toshkent adabiy muhitida kamolga yetgan Badriddin Chochiy, Zayniddin Vosify, Dilkash, Gulshan, Almaiyl, Kamiy, Xislat, Miskin, Sidqiy Xondayliqiy, Elbek kabi shoir va olimlarning tarixiy va badiiy asarlari xalqimizga yaxshi ma'lum.

Bugungi kunda adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo'shib kelayotgan Barot Isroil, Abdulla Sher, Mahmud Toir, Asad Asilov, Sharifa Salimova, Temur Ubaydulla, Ashurali Boymurod, Zarifa Eraliyeva kabi shoir va yozuvchilarining nomlarini nafaqat Toshkent viloyati, balki butun yurtimiz kitobxonlari yaxshi biladi.

Mamlakatimizning ilm-fani va madaniyati rivojini Toshkent viloyatida tug'ilib voyaga yetgan, o'z hayotini xalqimizning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish uchun bag'ishlagan zahmatkash olimlar, fidoyi madaniyat va san'at namoyandalarisiz tasavvur etolmaymiz.

Bu haqda gapirganda, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarixida, xususan, bog'dorchilik sohasida o'chmas iz qoldirgan mashhur xalq seleksionerlari Rizamat Musamuhammedov, Zayniddin Faxriddinov, akademiklar Mahmud Mirzayev, Shavkat Akmalxonov, Narzulla Mannopov, shuningdek, turli ilm-fan sohalarida ilmiy maktab yaratgan Alibek Rustamov, Jo'ra Musayev, To'xtamurod Jo'rayev, Tojiboy Bo'riyevning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Ana shunday marhum olimlarimizning – ularning barchasini Olloh rahmat qilsin – an'analarini davom

ettirayotgan akademiklar Abdusattor Abdukarimov, Ramizulla Mo'minov, Temurjon Nosirov kabi muhtaram domlalarimiz, Ma'bud Shermatov, O'ktam Piratov, Turdiali Ortiqov, Akmal Saidov, Abduhakim Hojiboyev, Sa'dulla Lutfullayev, Ilhom Otaboyev, Zahro Ahmedova kabi taniqli professorlarimiz o'zlarining ilmiy izlanishlari bilan keng tanilgan.

O'zbekiston xalq artistlari Dilbar Abdulazizova, Zuhra Ashurova, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar Mahbuba Hasanova, Toshpo'lat Matkarimov, Dilnoza Ismiyaminova, Abdurashid Yo'ldoshev, Ulug'bek Rahmatullayev kabi san'atkorlarimiz ham ushbu viloyat farzandlaridir.

O'zining fidokorona mehnati bilan xalqimiz o'rtasida obro'-e'tibor topgan O'zbekiston Qahramonlari – Saydali Rahmonov, To'lqin Ibragimov, Alim To'ychiyev, Jonsait Turdiyev, Aleksandr Farmonov, shuningdek, mirishkor dehqon va fermerlar – Habibulla Yo'ldoshev, Malik Karimov, Muqim Erxo'jayev, Rustam Husanov, O'zbekiston xalq o'qituvchilari – Ra'no Fozilova, Huri Solyeva, Maxburat Turdiyeva, O'rish Safarov, faol mahalla oqsoqollarimiz Ummat Mirzaqulov, Rahmon Saidov, Soliddin Salohiddinov kabi ko'plab zahmatkash insonlarning nomlarini ehtirom bilan tilga olishimiz tabiiydir.

Ma'lumki, Toshkent vohasida yuzdan ziyod millat va elat vakillari viloyat ravnaqi va farovonligi yo'lida sidqidildan mehnat qilmoqdalar. Ular orasida o'zining samarali faoliyati bilan tanilgan qozoq Nurmaxambet Nurbayev, rus Olga Dolgova, Aleksandr Zverev, Oleg Staroverov, Raisa Petrova, Aleksey Galyant, ukrain

Dmitriy Timoshuk, koreys Leonid Kim, tatar Marat Valiyev kabi yuzlab jonkuyar insonlar borligini mam-nuniyat bilan qayd etmoqchiman.

Mustaqillik yillarda sport sohasini, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirishga berilayotgan ulkan e'tibor tu-fayli viloyat yoshlari oxirgi besh yilda jahon va Osiyo championatlarida, xalqaro turnirlarda 371 ta oltin, 413 ta kumush va 654 ta bronza medalini qo'lga kiritdilar.

Ayniqsa, shu yil Braziliyada o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarida viloyatning ikki nafar vakili yuksak shohsupalarga ko'tarilgani – bu butun O'zbekistonimizning ulkan yutug'i bo'ldi.

Bekobodlik mohir bokschimiz Fazliddin G'oipnazarov final jangida asli kubalik bo'lgan Ozarbayjon vakili, gavdasi o'ziga ikkita keladigan Sotomayorni tengsiz bellashuvda mag'lub etib, oltin medalni qo'lga kiritganida o'zbek o'g'loniga butun dunyo tan berdi. Bunga barchamiz guvoh bo'ldik va o'sha hayajonli damlarni hozirgacha unutolmaymiz.

Bo'stonliq farzandi, erkin kurashchimiz Elmurod Tasmuradov ham Olimpiadaning bronza medaliga erishib, quvonchimizga quvonch qo'shdi.

Barchamizga g'urur bag'ishlaydigan yana bir voqeа shuki, 15-Paralimpiada o'yinlarida Toshkent viloyati vakillari, dzyudochilarimiz – Odil Tulendiboyev oltin medal, Shuhrat Boboyev va Feruz Saidov bronza medali sohibi bo'ldilar. Ana shunday tarixiy g'alabalar bilan bu mard va matonatli sportchilarimizni, ularning ustoz-murabbiylarini, kelinglar, hammamiz birgalikda yana bir bor qutlab, ularga yangi-yangi yutuq va omadlar tilaylik.

Muhtaram anjuman qatnashchilari!

Ma'lumki, Toshkent viloyati yuksak iqtisodiy salohiyatga, ulkan tabiiy va insoniy resurslarga ega hudud sifatida mamlakatimiz taraqqiyotida yetakchi o'rin tutadi.

Mustaqillik yillarda ana shu salohiyat va imkoniyatlarni voha ahli, butun xalqimiz manfaatlarri yo'lida ishlatish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda gapirganda, oxirgi besh yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 1,4 barobar, unda sanoatning ulushi 33 foizdan oshganini alohida ta'kidlash lozim.

Jumladan, shu davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1,5 barobar, iste'mol tovarlari 2,4 marta o'sdi.

**Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi** ham jadal rivojlanmoqda. Keyingi besh yilda 12 ming 700 dan ortiq yangi kichik biznes subyekti tashkil etilib, ularning umumiy soni 23 ming 800 tadan oshdi. Bugungi kunda ushbu sohaning ulushi yalpi hududiy mahsulotda 61 foizga, hududiy eksport tarkibida esa qariyb 94 foizga yetdi. Ish bilan band aholining 76 foizdan ziyodi aynan shu sohada mehnat qilmoqda.

Albatta, bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Ammo biz uchun bunday yutuq va natijalar xalqimizning kundalik hayotida, dasturxonida, uning kayfiyatida qanday aks etishi, ayniqsa, muhimdir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, viloyatda keyingi yillarda aholi daromadlari jon boshiga 1,9 barobar o'sgani hammamizni quvontiradi. Bu, o'z navbatida, odamlarimizning turmush darajasi va sifati o'sishiga

xizmat qilmoqda. Masalan, so‘nggi besh yilda har yuzta xonadonga to‘g‘ri keladigan avtomobillar soni – 2,2 barobar, kir yuvish mashinalari – 1,2 marta, pilesollar – qariyb 3 karra, televizor va xolodilniklar – 1,1 marta ko‘paygan.

Hammamizga yaxshi ayonki, Toshkent viloyati zamonaviy transport kommunikatsiya tarmoqlari rivojlangan hududlarimizdan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda Angren logistika markazi, Angren – Pop temir yo‘li ishga tushirilgani, ko‘plab avtomobil yo‘llari, ko‘priklar qurilgani va rekonstruksiya qilingani viloyatning bu boradagi imkoniyatlarini keskin oshirib yubordi. Endigi vazifamiz – ana shu salohiyatdan to‘liq va samarali foydalanishdan iborat va biz bunga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Toshkent vohasi azaldan o‘zining qadimiy dehqonchilik an’analari, usta va mirishkor paxtakorlari, bog‘bon-u sohibkorlari bilan shuhrat qozonib keladi. Keyingi yillarda viloyatda fermerlik rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari tashkil etish, ularning yer maydonlarini optimallashtirish bo‘yicha ko‘p ishlar qilindi.

Tabiiyki, bu ishlarning amaliy samarasi qishloq xo‘jaligida erishilayotgan jiddiy natijalarda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, viloyat dehqonlari joriy yilda ham barcha qishloq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha mo‘l hosil yetishtirib, mavsumni yorug‘ yuz bilan yakunlamoqdalar.

Fursatdan foydalanib, el-yurtimizning rizqini butun, dasturxonini to‘kin qilishga ulkan hissa qo‘sib kelayotgan mirishkor dehqon va fermerlarga, bar-

cha dala mehnatkashlari, butun viloyat ahliga chuqur minnatdorlik bildirib, ezgu tilaklarimni izhor etishga ruxsat bergaysiz.

Hurmatli do'stlar!

Mening saylovoldi dasturimda mamlakatimizning barcha hududlari qatori Toshkent viloyatini rivojlantirish bo'yicha ham aniq rejalar ishlab chiqilgan. Ruxsatingiz bilan ular haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Biz viloyatning sanoat sohasidagi istiqbolini, birinchi navbatda, bu yerdagi yirik shaharlarning salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda ko'ramiz. Aynan ana shu shaharlar nafaqat viloyat, balki butun mamlakatimizda sanoat rivojining markazlari va lokomotivlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Shuning uchun ham viloyat bo'yicha yaqin besh yilda **sanoat sohasida** amalga oshiriladigan 747 ta investitsiya loyihasining asosiy qismi asosan sanoat shaharlariga to'g'ri keladi.

Barchamizga yaxshi ma'lum, Toshkent viloyatida kimyo sanoati, neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya, elektrotexnika, mashinasozlik va metallni qayta ishlash kabi zamonaviy sanoat tarmoqlari rivojlangan. Ayni shu sohalardagi ulkan imkoniyatlarni to'liq ishga solish maqsadida biz mazkur tarmoqlarda 67 ta loyihami amalga oshirishni rejalashtirganimiz.

Bu sohadagi eng yirik loyihalardan biri – «Angren» erkin iqtisodiy zonasida 214 million dollar investitsiya hisobidan yiliga 100 ming kvadrat metr konveyer lentasi va 3 million 200 ming dona avtomobil shinasasi ishlab chiqarish loyihasidir. Loyihaning birinchi

bosqichi 2018-yilning oxirida bitkazilib, ishga tushiriladi.

Men yaqinda ana shu iqtisodiy zonada bo‘lib, bu yerda olib borilayotgan ishlar bilan tanishganimdan xabaringiz bo‘lsa kerak, albatta. Haqiqatan ham, eng zamонавиу texnologiyalar asosida mahsulot chiqaradigan bu korxona mahsulotlarining xorijiy bozori hozirdan ma’lum. Eng muhim, bu yerda yuzlab yoshlarimiz zamонавиу texnologiyalarni egallab, malakali kadr bo‘lib shakllanadi, barqaror daromad manbayiga ega bo‘ladi.

Viloyatning yana bir sanoat markazi – Olmaliq shahridagi tog‘-kon kombinatida yangi konlarni o‘zlashtirish natijasida mis va boshqa metallarni ishlab chiqarish hajmini ikki barobar ko‘paytirishga qaratilgan 1 milliard dollarlik yirik loyiha amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qo‘rg‘oshin zavodi, rux bilan qoplangan metall va mis listlari, profnastil va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxona faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Bunday yirik istiqbolli loyihalar haqida gapirganda, 2020-yilda Bekoboddagi O‘zbekiston metallurgiya kombinatida yiliga 100 ming tonna choksiz po‘lat quvurlar ishlab chiqaradigan zavod ishga tushirilishini ta’kidlash lozim.

Shu borada bir masalani alohida aytib o‘tmоqchiman. Hozirgi vaqtda Angrenda ham, Bekobod, Olmaliq, Chirchiq shaharlarida ham sanoat infratuzilmalari kengayib bormoqda. Bularning hammasini ishlatish, yurgizish uchun yuqori malakali mutaxassislar kerak. Bugungi kunda Olmaliq shahrida Navoiy konchilik

institutining kon-metallurgiya fakulteti faoliyat ko'rsatmoqda. Bu oliy o'quv yurtini kengaytirish, uning moddiy-texnik bazasi, o'qituvchilar tarkibini yaxshilash, yuqori malakali injener-texnik kadrlar tayyorlash masalasiga biz alohida e'tibor qaratamiz.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Toshkent viloyatida zamонавиy саноат тармоqlarining rivoji nafaqat yirik shaharlarda, balki tuman markazlari va qishloq joylarda ham amalga oshiriladi. Asosiy maqsad mahalliy mineral xomashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini imkon qadar chuqur qayta ishlashdan iborat.

Toshkent viloyati **qishloq xo'jaligi** sohasida ham katta salohiyat va keng imkoniyatlarga ega. Lekin hozirgi kunda ana shu imkoniyatlardan to'liq foydalanimayapti. Shuning uchun viloyatda mevasabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini keskin ko'paytirish va ularni eksport qilishni yanada oshirish, chorvachilikni rivojlantirish borasida har bir tuman bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqiladi. Bu yo'nalishdagi loyihalarни moliyalashtirish uchun tumanlarga tijorat banklari biriktiriladi.

Xususan, Parkent tumanida 7 ming гектар lalmi maydonlar fermer xo'jaliklari va aholiga bo'lib berilib, bu maydonlarda yangi uzumzorlar tashkil etiladi. Natijada **15 mingdan** ortiq ish о'rnlari yaratiladi. Ushbu tumanni uzumchilik sohasida **namunaviy tumanga** aylantirish bo'yicha Hukumat qarorini qabul qilish ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, tumanda Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik va uzumchilik instituti

bo‘limi, «O‘zvinosanoat-xolding» kompaniyasining filiali tashkil etiladi.

**Qibray tumani** meva-sabzavotchilik bilan shug‘ullanadigan tumanga aylantiriladi. Sabzavotchilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish hisobidan yana **10 mingdan** ortiq yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Tumanda «O‘zbekoziqovqatxolding» kompaniyasi bilan hamkorlikda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishslash, saqlash va eksportga tayyorlash bo‘yicha logistika markazi tashkil etiladi.

**Zangiota va Yangiyo‘l tumanlarida** ham meva-sabzavotchilikni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshiriladi. Zangiota tumanida 1 ming 900 hektar, Yangiyo‘l tumanida 2 ming 500 hektar eski, iqtisodiy samara bermayotgan bog‘ va tokzorlar o‘rnida intensiv bog‘ va tokzorlar barpo etiladi.

Zangiota tumanidagi «Yevro fud treyd» korxonasida **2,5 million dollarlik** investitsiya hisobidan yillik quvвати 3 ming tonna bo‘lgan meva-sabzavot konservalari va qadoqlash buyumlari ishlab chiqish yo‘lga qo‘yiladi.

Yangiyo‘l tumanida **25 million dollar** hisobidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishslash, qadoqlash bo‘yicha logistika markazi tashkil etiladi.

**Bo‘stonliq tumani** ekologik toza qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, ayniqsa, dorivor o‘simgulkarni yetishtirish bo‘yicha beqiyos imkoniyatlarga ega. Shuning uchun tumanda **5 ming hektar** tog‘ oldi maydonlarda yong‘oqzorlar tashkil etiladi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida tumanda farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha **erkin iqtisodiy zona** tashkil etiladi.

Bundan tashqari, «Aloqa bank» tomonidan **8 ming-dan** ortiq xonadonga **35–40 ming** asalari oilasi yetkazib beriladi va asal eksport qilish yo‘lga qo‘yiladi.

Umuman olganda, viloyatda farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish va import o‘rnini bosadigan dori vositalarini ishlab chiqarish bo‘yicha umumiyligi qiyamati **129 million dollar bo‘lgan 29 ta** loyiha amalga oshiriladi.

**Ohangaron tumanining** o‘ziga xos tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqib, bu tuman chorvachilik bo‘yicha **namunaviy tumanga** aylantiriladi.

«O‘zbekoziqovqatxolding» kompaniyasi tizimida-gi «Mega vinks» korxonasi tomonidan loyiha qiyamati **2 million dollarlik** go‘shtni qayta ishlash korxonasi tashkil etiladi.

Shuningdek, **10 million dollarlik** investitsiya hisobidan eksportbop sharbat, qiyom, yogurt kabi yangi turdagiligi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

**Yuqori Chirchiq tumanida** paxta maydonlari qisqartirilib, bo‘shagan yerlarda yangi bog‘lar yaratiladi, sabzavotchilik rivojlantiriladi. Shuningdek, paxtadan bo‘shagan maydonlarning **200 hektarida** issiqxonalar barpo etiladi. Buning hisobidan **5 mingdan** ortiq aholi doimiy ish bilan ta’minlanadi. Bu yerda Olmaliq tog‘-kon metallurgiya kombinati tomonidan yillik quvvati **20–30 ming tonna** bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonasi tashkil etiladi.

**O‘rta Chirchiq tumanida** meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hisobidan eksport salohiyatini oshirishga e’tibor qaratiladi. Shu maqsadda yillik quvvati **20–25 ming tonna** bo‘lgan meva-sabzavot

mahsulotlarini qayta ishlovchi korxona ishga tushiriladi. «Baliqchi» korxonasi

**Quyi Chirchiq tumanidagi «Baliqchi» korxonasi** tomonidan baliq yetishtirish hajmi 10 ming tonnaga yetkaziladi va bu yerda baliqni qayta ishlash korxonasi quriladi.

Bekobod tumanida 2017-yildan boshlab past ren-tabelli maydonlarning **3 ming hektarida** paxta ekish-dan voz kechilib, ularning o‘rnida sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari tashkil qilinadi. Bu **6 mingdan** ortiq yangi ish o‘rnini yaratish imkonini beradi. Tumanda Bekobod metallurgiya kombinati-tomonidan **100 ming boshga** mo‘ljallangan parran-dachilik kompleksi tashkil etiladi.

Piskent tumani qir-adirlarda kamida 500 gektar intensiv bog' barpo qilinadi. Meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, qayta ishslash va eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika markazi tashkil etiladi. Ushbu logistika markazida **10 ming tonna** sig'imga ega bo'lgan sovutkichli omborxona, qayta ishslash korxonalari barpo qilinib, **3 mingdan ortiq yangi ish o'rinnari yaratiladi.** 2 hektar, Oqqa'rg'on

**Bo'ka tumanida** 2 ming 500 hektar, **Oqqo'rg'on tumanida** ming hektar past rentabelli paxta maydonlari qisqartirilib, ularning o'rniда sabzavotchilik fermer xo'jaliklari tashkil qilinadi.

Oqqo'rg'on tumanida Angren daryosi bo'yida 100 hektar maydonda sun'iy suv havzalari tashkil etilib, baliq yetishtirish yo'lga qo'yiladi. Yilda 2 ming hektar

**Chinoz tumanida** kelgusi ikki yilda 2 ming hektar paxta maydoni qisqartirilib, ushbu maydonlarda ham

mahsulotlarini qayta ishlovchi korxona ishga tushiriladi.

**Quyi Chirchiq tumanidagi** «Baliqchi» korxonasi tomonidan baliq yetishtirish hajmi **10 ming tonnaga** yetkaziladi va bu yerda baliqni qayta ishlash korxonasi quriladi.

**Bekobod tumanida** 2017-yildan boshlab past rentabelli maydonlarning **3 ming hektarida** paxta ekishdan voz kechilib, ularning o‘rnida sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari tashkil qilinadi. Bu **6 mingdan** ortiq yangi ish o‘rmini yaratish imkonini beradi. Tumanda Bekobod metallurgiya kombinati tomonidan **100 ming boshga** mo‘ljallangan parrandachilik kompleksi tashkil etiladi.

**Piskent tumanidagi** qir-adirlarda kamida 500 hektar intensiv bog‘ barpo qilinadi. Meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo‘yicha zamonaviy logistika markazi tashkil etiladi. Ushbu logistika markazida **10 ming tonna** sig‘imga ega bo‘lgan sovutkichli omborxona, qayta ishlash korxonalari barpo qilinib, **3 mingdan** ortiq yangi ish o‘rnlari yaratiladi.

**Bo‘ka tumanida** 2 ming 500 hektar, **Oqqo‘rg‘on tumanida** ming hektar past rentabelli paxta maydonlari qisqartirilib, ularning o‘rnida sabzavotchilik fermer xo‘jaliklari tashkil qilinadi.

**Oqqo‘rg‘on tumanida** Angren daryosi bo‘yida 100 hektar maydonda sun’iy suv havzalari tashkil etilib, baliq yetishtirish yo‘lga qo‘yiladi.

**Chinoz tumanida** kelgusi ikki yilda 2 ming hektar paxta maydoni qisqartirilib, ushbu maydonlarda ham

sabzavotchilik fermer xo‘jaliklari tashkil etiladi. Shuningdek, 1 ming 500 gektardan ortiq adir yerlarida chorvachilik fermer xo‘jaliklari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Viloyatda yengil sanoat sohasini rivojlantirish bo‘yicha ham tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, paxta tolasini 3–4 bosqichda chuqur qayta ishlash, **tayyor trikotaj** va **gazlamalar** ishlab chiqarish bo‘yicha kelgusi uch yilda **133 million dollarlik 79 ta loyiha** amalga oshiriladi.

Xususan, Yangiyo‘l, Oqqo‘rg‘on, O‘rta Chirchiq, Chinoz, Zangiota, Bo‘ka, Quyi Chirchiq tumanlarida ana shunday korxonalar ishga tushiriladi.

Viloyatda charm-poyabzal sohasini rivojlantirish dolzarb vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bu sohani moliyalashtirish uchun **250 million dollarlik** kredit liniyasi ochiladi. Shuning hisobidan, keyingi uch yilda Zangiota, Bekobod, Yangiyo‘l, Ohangaron tumanlari, Bekobod va Angren shaharlarida erkaklar va ayollar poyabzallari ishlab chiqarish, terini qayta ishlash bo‘yicha loyihalar amalga oshiriladi.

**Toshkent viloyatida qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish** borasida hali ishga solinmagan katta salohiyat mavjud. Viloyatda bu borada 180 dan yirik konlar mavjud. Shuning uchun, umumiyligi qiymati **207 million dollar bo‘lgan 188 ta loyihani** amalga oshirish mo‘ljallanmoqda. Jumladan, **Ohangaron tumanida** yiliga 500 ming tonna sement, **Piskent tumanida** sopol·buyumlar, **Angren shahrida** santexnika

ashyolari ishlab chiqarish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, **Qibray, O'rta Chirchiq, Chinoz** va **Quyi Chirchiq** tumanlarida keng turdag'i qurilish materiallari ishlab chiqaradigan **20** dan ortiq korxonalar tashkil qilinadi. Ohangaron tumanida qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonasini tashkil qilish rejalashtirilmoqda.

Toshkent viloyatida yana bir muhim yo'naliш – turizm sohasida katta salohiyat mavjud. Bu imkoniyatlarni kelgusida to'liq ishga solish ham bizning asosiy maqsadimizdir. Ayniqsa, ichki turizmni rivojlantirish, buning uchun viloyatdagi madaniy meros ob'yeqtalarini restavratsiya qilish, barcha tumanlar, xusan, Bo'stonliq, Parkent tumanlaridagi dam olish zonalari infratuzilmasini kapital ta'mirlash, ekoturizm yo'naliшlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Mahalliy sayyoхlar uchun 40 ta mehmonxona, 20 dan ortiq dam olish majmuasi barpo etish, qisqacha aytganda, kelgusi besh yilda turizm sohasida xizmatlar hajmini kamida 2,4 barobar oshirishga qaratilgan rejalarimiz ham, albatta, samara beradi deb o'layman.

Bugungi zamон talabi bo'lgan **axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish** bo'yicha keng ko'lamli ishlar davom ettiriladi. Jumladan, 800 kilometrdan ziyod optik tolali aloqa tarmoqlari va 425 ta mobil aloqa tayanch stansiyasi qurish, eskirigan telefon stansiyalarini yangilash ko'zda tutilmoqda.

Angren, Oqqo'rg'on, Bo'ka, Bo'stonliq tumanlarda to'rtta raqamli teleuzatgich o'rnatilib, viloyatda

raqamli televideniyega o'tish darajasi 79 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Muhtaram do'stlar!

Bugungi kunda Toshkent viloyati aholisining 56 foizini yoshlар tashkil etadi. Bu 1 million 580 ming o'g'il-qizlarimiz demakdir. Biz ana shu farzandlarimizning hayotiy manfaatlarini hisobga olgan holda, viloyatda bir qator ishlarni amalga oshirishni rejalashtirganmiz. Jumladan, Bo'ka, Zangiota va Quyi Chirchiq tumanlarida yoshlар madaniyat va istirohat bog'lari tashkil etiladi. Angren shahrida esa 33 hektar maydonda Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i barpo etilib, bu yerda turli madaniyma'rifiy tadbirlar, badiiy kecha va festivallar o'tkazish uchun zamonaviy infratuzilma tarmoqlari shakllantiriladi.

Yana bir loyiha haqida alohida to'xtalmoqchiman. Chirchiq daryosining Toshkent viloyatiga tutash 60 hektarlik hududida mintaqamizdagи eng katta «Disneylend bog'i» bunyod etiladi. Bu yerda dunyodagi eng yaxshi shunday bog'lar tajribasidan foydalangan holda, yoshlарimiz, Toshkent shahri va viloyati aholisi hamda mehmonlar uchun ko'ngilli dam olish bo'yicha zarur infratuzilma tarmoqlari tashkil etiladi.

Yoshlарimiz uchun atalgan bunday sharoitlar haqidada gapirganda, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 23 ta bolalar va o'smirlar sport mакtabida 4 ta universal sport zali, 3 ta yopiq basseyn barpo etilishi ni ta'kidlash o'rinnlidir. Shuningdek, 6 ta ana shunday maktabda rekonstruksiya va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy inventar va uskunalar bilan jihozlash ishlari amalga oshiriladi.

Bugungi uchrashuvimiz bergan imkoniyatdan foydalanib, men Toshkent viloyati yoshlariga, ularning timsolida butun O‘zbekiston yoshlariga qalbimda bo‘lgan muhim bir fikrni aytmoqchiman.

Aziz yoshlar, muhtaram Yurtboshimiz sizlarning barchangizni qanday yaxshi ko‘rganlarini, sizlarning kelajagingiz, baxtli hayot kechirishingiz uchun qancha-qancha ulkan ishlarni amalga oshirganlarini ham-mangiz, albatta, yaxshi bilasiz.

Hurmatli Islom Abdug‘aniyevichning: «**Butun O‘zbekiston bolalari – mening bolalarim, o‘zimning farzandlarim!**» deb aytgan mehr to‘la so‘zlari har birimizning yuragimizdan chuqur joy olgan.

Buyuk Yo‘lboshchimiz vafot etib, boshimizga og‘ir musibat tushgan shu kunlarda butun xalqimiz qatori mamlakatimiz yoshlari ham cheksiz qayg‘uga tushganlarini, o‘z kelajagi haqida o‘ylab qolganlarini men juda chuqur his qilib turibman.

Shuning uchun ham aziz Islom Abdug‘aniyevichning so‘nmas xotirasi, ruhi poklari oldida sizlarni, butun O‘zbekiston xalqini ishontirib aytmoqchiman: u kishi boshlagan barcha-barcha ezgu ishlarni, birinchi navbatda, yoshlarga doir davlat siyosatini biz hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun davr talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Sizlarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallab, hayotda o‘z mustahkam o‘rningizni topishingiz, baxtli bo‘lishingiz uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Siz, jondan aziz o‘g‘il-qizlarimizdan faqat bitta iltimosimiz, bitta tilagimiz bor: Birinchi Prezidentimizning sizlarga bildirgan yuksak ishonchiga doimo munosib bo‘ling. Ota-onalaringiz, ustoz-murabbiylaringiz, xalqimizning sizlardan kutayotgan orzu-umidlarini amaliy ishlar bilan ro‘yobga chiqaring.

Yon-atrofda tobora avj olib borayotgan diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» degan balo-qazolar sizlarning beg‘ubor qalbingizga, hayotingiz va kelajagingizga qanday katta xavf solayotgанини hech qachon unutmang. Hayotga ochiq ko‘z bilan, sog‘lom tafakkur bilan qarab, hamisha hushyor, hamisha ogoh bo‘lib yashasangiz, ota-onalaringiz, mahalla-ko‘y, el-yurtimiz sizdan, albatta, rozi bo‘ladi.

O‘qish-o‘rganish, doimiy izlanish, yangilikka, taraqqiyot cho‘qqilarini egallahsga intilib yashash bir umr hamrohingiz bo‘lsin.

Nega deganda, buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib aytganlaridek, «Dunyoda ikki turli inson haqiqiy inson sanaladi: biri – o‘rgatuvchi, biri – o‘rganuvchi».

Men sizlarning har biringizga ana shunday haqiqiy inson bo‘lish baxti nasib etishini tilayman.

Qadrli anjuman ishtirokchilari!

Hammamiz yaxshi tushunamiz, hayot bor ekan, yutuq bilan birga, tashvish va muammo ham bo‘ladi. Albatta, bizning bugungi hayotimiz ham bundan xoli emas. Ana shu muammolarni hal etish bevosita viloyatlar, tuman va shaharlarimizni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish bilan uzviy bog'liq bo'lib, biz bu borada bir qator muhim dasturlar ishlab chiqmoqdamiz. Bu dasturlarning ayrimlari keyingi paytda qabul qilingan farmon va qarorlar bilan tasdiqlanib, ularning ijrosi bo'yicha ishlar boshlab yuborilganidan, o'ylaymanki, sizlar xabardorsiz. Ijozatingiz bilan ana shu dasturlar haqida to'xtalib o'tsam.

**Birinchidan,** Tadbirkorlik faoliyatining jalal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, farmon bilan tasdiqlandi.

Shu munosabat bilan ommaviy axborot vositalarida bu masala ancha keng yoritildi. Men faqat bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi rivoji uchun yangi-yangi huquq va imkoniyatlar beryapmiz. Al-batta, bu juda muhim. Ayni vaqtida ana shu huquq va imkoniyatlardan samarali, qonunga qat'iy rioya qilgan holda foydalanish uchun tadbirkorlarimizning huquqiy madaniyati va mas'uliyatini oshirish haqida ham o'ylashimiz kerak. Huquqlar ko'paydi, tekshirishlar kamaydi, degani – bu tartib-intizom kamaydi, degani emas. Aksincha, qonunning mantig'i shundayki, qancha ko'p huquq berilsa, shuncha ko'p mas'uliyat tabab qilinadi. Mas'uliyat, mas'uliyat va yana bir bor mas'uliyat. Mana shunday qat'iy qoidani his etgan va shunga amal qilgan tadbirkor hech qachon kam bo'lmaydi.

Bu haqda gapirganda, Toshkent viloyatida tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ajratiladigan kreditlar

miqdorini kelgusi besh yilda kamida 2,5 barobar ko‘paytirish belgilanganini ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Bundan tashqari, viloyatda kichik biznesni rivojlantirish uchun 65 hektar maydonda tashkil etilgan 8 ta maxsus sanoat zonasini kengaytiriladi. Shu maqsadda 142 milliard so‘mdan ortiq investitsiya kiritilib, 113 ta loyiha amalga oshiriladi.

Dasturga ko‘ra, kelgusi besh yilda 13 mingdan ortiq yangi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyekti tashkil etiladi va ularning soni 30 mingtaga yetkaziladi.

**Ikkinchidan**, Qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish dasturi tasdiqlanganidan barchangiz xabardorsiz.

Ma’lumki, iqtisodiyotimizning o‘sish sur’atlari kuchayib, aholi farovonligi oshgani sayin yangi-yangi oilalar paydo bo‘lmoqda. Ularning uy-joyga bo‘lgan talab va ehtiyoji ham ortib bormoqda.

Dasturda shularning barchasini hisobga olib, qishloq joylardagi daromadi kam bo‘lgan oilalar, ayniqsa, yosh oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun qulay va arzon uy-joylar qurish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Dastur bo‘yicha kelgusi yilda 15 mingta, jumladan, Toshkent viloyatida 932 ta ana shunday uy-joy quriladi.

Shuningdek, Angren shahrida konservatsiyadagi bo‘sh turgan 30 ta ko‘p qavatli uy-joyni qayta rekonstruksiya qilish hisobidan ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta’minalash rejalashtirilmoqda.

**Uchinchidan**, Hududiy avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturiga binoan viloyat,

mahalliy va shahar avtomobil yo'llari, aholi punktlari ichidan o'tadigan yo'llar tarmog'ini rivojlantirish, ularning mustahkamligini oshirish, ta'mirlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko'zda tutilmoqda. Shundan kelib chiqib, Toshkent viloyatida kelgusi besh yilda 134 kilometr ichki yo'llar kapital, 654 kilometr yo'llar joriy ta'mirlanadi.

**To'rtinchidan**, Shahar va qishloqlarda transport ta'minotini yanada rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda.

Toshkent viloyatida aholiga transport xizmati ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida oxirgi besh yilda 310 ta zamонави «Isuzu» va boshqa rusumdagи avtobuslar xarid qilinib, viloyatning shahar va tumanlar markazlarini chekka qishloqlar bilan bog'laydigan 185 ta yo'nalish bo'yicha qatnov yangidan yo'lga qo'yildi. Ana shu ishlarning davomi sifatida viloyatda kelgusi besh yilda yana 100 dan ortiq avtobus xarid qilinib, yangi yo'nalishlar tashkil etish mo'ljallanmoqda.

Bundan tashqari, biz Toshkent viloyatining asosiy aholi punktlarini va Toshkent shahrini o'zaro bog'laydigan tezyurar temiryo'l tarmoqlarini qurish loyihasini ishlab chiqmoqdamiz. Shu munosabat bilan ikkita logistika xabini, ya'ni markazini tashkil etish masalasi ko'rib chiqilmoqda. Ulardan biri Toshkent viloyatini Toshkent shahri metrostansiyasi bilan bog'laydi va keyinchalik sharqiy yo'nalishda Farg'ona viloyatlari tomonga rivojlantiriladi. Ikkinchi logistika markazi esa viloyatni poytaxtimiz bilan bog'lagan holda g'arbiy yo'nalishdagi viloyatlarimiz sari yo'naltiriladi.

**Beshinchidan**, Qishloqlarda ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi tayyorlandi. Dasturda aholi punktlarini markazlashgan ichimlik suvi tarmoqlariga ulash, ichimlik suvini uzlusiz yetkazib berish bo'yicha keng ko'lamdag'i chora-tadbirlar belgilandi.

Toshkent viloyatida 78 kilometr magistral suv tarmog'i, 412 kilometr mahalliy suv tarmog'i, 100 ga yaqin quduq, 74 ta suv bosimi minorasi va boshqa inshootlar quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Misol uchun, kelgusi ikki yilda Angren va Ohangaron shaharlarida ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari bo'yicha 7 ta obyekt qurilib, 12 kilometr yangi tarmoq tortiladi. Kelgusi to'rt yilda Chimyon – Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 25 kilometr suv tarmog'i barpo etiladi.

Bundan tashqari, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida kelgusi besh yilda 287 million dollar investitsiya hisobidan Toshkent viloyatining shahar va tumanlari-da ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihasining birinchi bosqichi amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, 2019–2023-yillarda xalqaro moliya institutlari ishtirokida 73 million dollar sarmoya hisobidan Bekobod shahrida ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanadi.

**Oltinchidan**, Ko'mir tannarxini va aholiga xarid qiymatini pasaytirish, shuningdek, bu borada chayqovchilik qilish va narxlarning oshib ketishini bartaraf etish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Shu asosda Angren shahri, Yangiyo'l, O'rta Chirchiq, Bo'stonliq, Yuqori Chirchiq, Bekobod va Parkent tumanlarida «Toshkent ko'mir yetkazuvchi» korxonasining 6 ta ombori tashkil etildi. Kelgusi yilda esa Ohangaron, Chinoz, Quyi Chirchiq, Zangiota, Piskent, Oqqo'rg'on, Qibray va Bo'ka tumanlari-da ham ko'mir sotish shoxobchalari tashkil etish rejalashtirilmoqda.

2017-yilda «Angren ko'mir invest» qo'shma korxonasida ko'mir briketi ishlab chiqarish quvvati hozirgi 17 ming tonnadan 40 ming tonnaga yetkaziladi.

**Yettinchidan**, Shahar va qishloq aholisiga elektr energiyasi yetkazib berishni yanada yaxshilash maqsadida ishlab chiqilayotgan dastur doirasida kelgusi besh yilda viloyatda 1 ming 107 kilometr elektr tarmoqlari, 336 ta transformator punkti va 5 ta podstansiya qurish mo'ljallanmoqda.

Sir emas, qishloq joylarda ba'zan elektr energiyasi ta'minotida uzelishlar bo'lib, bu o'z navbatida aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Tabiyiki, bunday holatlar, avvalo, obyektiv sabablar bilan bog'liq. Ya'ni energiya yetkazib beradigan quvvatlar-ning eskirib ketgani bunga sabab bo'lmoqda.

Albatta, mazkur muammolarni bartaraf etish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani elektr bilan ta'minlashni yaxshilash bo'yicha hukumatimiz tomonidan tegishli chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Masalan, o'tgan besh yilda viloyatning shahar va tumanlarida 161 kilometr elektr tarmoqlari, 146 ta transformator punkti yangitdan barpo etildi. 4 ming 718 kilometr elektr tarmoqlari va 1 ming

959 ta transformator punkti rekonstruksiya qilinib, kapital va joriy ta'mirlandi. Buning natijasida 125 ming xonadonga elektr energiyasi yetkazib berish yaxshilandi.

Ishlab chiqilgan dasturda bu boradagi ishlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarish nazarda tutiladi.

Toshkent viloyatida kelgusi besh yilda 1 ming 730 kilometr elektr tarmog'i va 423 ta transformator punktini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, viloyatda umumiy quvvati 784 megalavatt bo'lgan 7 ta yangi gidro elektr stansiyasi barpo etiladi, 4 ta gidro elektr stansiyasi modernizatsiya qilinib, ularning quvvati 725 megavattga yetkaziladi.

**Sakkizinchidan**, Maktabgacha ta'lif muassasalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturi tayyorlanmoqda. Bola ongingin shakllanishi, avvalo, oila va bolalar bog'chasidagi sharoit va tarbiya ishlariiga bog'liq ekanini yaxshi bilamiz. Shuning uchun bu borada biz mablag' va imkoniyatni ayamasligimiz kerak.

Dasturda yangi bolalar bog'chalari qurish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash, ta'lif-tarbiya jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'zda tutiladi.

Toshkent viloyatida kelgusi besh yilda 14 ta yangi bolalar bog'chasi barpo etiladi. 47 ta bolalar bog'chasi esa rekonstruksiya, modernizatsiya va qayta jihozlash ishlari amalga oshiriladi. 106 ta mak-

tabgacha ta’lim muassasasida kapital ta’mirlash ishlari olib boriladi.

Ana shunday ishlarga qo’shimcha ravishda 9 ta yangi mактаб barpo etiladi. 126 ta mактab esa kapital rekonstruksiya qilinadi va ta’mirlanadi. 12 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji rekonstruksiya qilinib, qayta jihozlanadi.

**To’qqizinchidan**, Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi kunda bozorlar ozod va obod yurtimiz manzarasining ajralmas bir qismiga, tinch va farovon hayotimiz ko’zgusiga aylanib bormoqda. Ayni paytda bu borada ko’p ish qilishimiz kerakligini ham barchamiz yaxshi bilamiz. Avvalo, bozorlarimizni zamon talablarasi asosida qurish bilan birga ularda xizmat va savdo madaniyatini oshirish – eng dolzarb masaladir. Bunda, ayniqsa, rivojlangan davlatlar tajribasini hisobga olib, zamonaviy gipermarketlar tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim.

Toshkent viloyatida o’tgan besh yilda Olmaliq, Bekobod, Chirchiq, Angren shaharlari, Zangiota, Chinoz, Bo’ka, Oqqa’rg’on, Yangiyo’l, Ohangaron tumanidagi 11 ta dehqon va buyum bozori rekonstruksiya qilindi.

Tayyorlanayotgan dasturda kelgusi besh yilda bu ishlarni davom ettirish, bozorlarni zamon talablarasi asosida rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari belgilandi. Xususan, Quyi Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Bekobod, Piskent, Parkent, O’rta Chirchiq tumanlari markazlaridagi dehqon bozorlarini rekonstruksiya qi-

lish bu dasturdan alohida o‘rin olgan. Nasib etsa, katta shaharlarimizda paydo bo‘layotgan gipermarketlar, ulardagи shart-sharoit va madaniyat darajasi tumanlarimizga ham, albatta, kirib boradi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Buyuk Alisher Navoiy bobomiz: «**Ota-onaga jis-mingni, joningni fido qilgin, ularning birini quyosh deb bilsang, birini oy deb bilgin**», deb yoshi ulug‘ insonlarga, xususan, ota-onalarimizga izzat-hurmat ko‘rsatishga barchamizni da’vat etganlar. Chindan ham, hayotimizga fayz bag‘ishlab kelayotgan muhtaram keksa avlod vakillarini e’zozlash, ularning hayotini mazmunli qilish, umrlarini imkon qadar uzaytirish – barchamizning muqaddas burchimizdir.

Shu maqsadda kelgusi besh yilga mo‘ljallangan **yana bir muhim dastur** – pensionerlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilash dasturini ishlab chiqyapmiz. Dasturda pensioner, nogiron, yolg‘iz qariyalar va aholining kam ta’minlangan qatlamlariiga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish nazarda tutilmoqda. Jumladan, Toshkent viloyatida nogironlar, keksalar va kam ta’minlangan fuqarolar sog‘lig‘ini qayta tiklash maqsadida har yili ularning 2 ming 200 nafarini, shuningdek, 500 nafar urush va mehnat fronti faxriysini turli sanatoriylarga imtiyozli yo‘llanmalar bilan ta’minlash rejalashtirilmoqda.

Hozirgi paytda ayrim keksalarimiz salomatligi yoki boshqa sabablar tufayli ana shu yo‘llanmalardan foydalana olmayapti. Ushbu yo‘llanmaning o‘rtacha narxi bugungi kunda 800 ming so‘nni tashkil etmoqda.

Biz bunday nuroniylarimizga yo'llanmalarning pulini berishga qaror qildik. O'ylaymanki, bu – adolatli yechim.

Kelgusi to'rt yilda yurtimizdagi barcha Muruvvat va Saxovat uylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularda har jihatdan zamonaviy sharoitlar yaratish belgilangan.

«Nuroniy» jamg‘armasining maqomi va mavqeyini ko'tarish, uning viloyat va respublika tuzilmalarining shtat birliklarini ko'paytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga biz alohida e'tibor qaratamiz. Birinchi navbatda shahar va tumanlarda jamg‘armaning davlat budgetidan mablag‘ bilan ta'minlanadigan bo'limlari tashkil etiladi.

**Yana bir muhim hujjat** – onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi.

Ma'lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda bu borada ko‘p ishlar qilindi. Ana shu ishlarning davomi sifatida dasturda ayollar va bolalarga maxsus va yuqori texnologiyalar asosida tibbiy yordam ko'rsatish, jumladan, shu yo'naliishdagi davolash va profilaktika tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini va kadrlar tarkibini yanada mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda.

Dasturda yangi tug'ilgan chaqaloqlar, qiz bolalar, homilador va tug'ish yoshidagi ayollarni to'liq patronaj xizmati bilan qamrab olish, bu boradagi mavjud ko'rsatkichni 70 foizdan 100 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Markazlashgan tartibda kasalxonalarga beriladigan dori vositalari, tibbiy buyum va uskunalar ro'yxati

kengaytiriladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar, ayollar va bolalar uchun imkon qadar tig‘ ishlatilmaydigan jarrohlikni, shuningdek, bolalar kardioxirurgiyasini yanada rivojlantirish choralari ko‘riladi.

Kelgusi to‘rt yilda respublika bo‘yicha 110 ta tu-man va shahar tibbiyat birlashmasi, 126 ta oilaviy poliklinikada qurilish-ta’mirlash ishlari bajariladi. Toshkent viloyatida ham 20 ta ana shunday tibbiyat maskani rekonstruksiya qilinib, kapital ta’mirlanadi, eng zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlanadi. Jumladan, 43 ta tomografiya, 326 ta rentgen, 321 ta UZI apparati va boshqa uskunalar o‘rnatilib, ular aholi salomatligi uchun xizmat qiladi.

**Yana ikkita muhim hujjat** – Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish hamda Aholini dori vositalari bilan ta’mirlash darajasini oshirish va dori-darmon narxlari shakllanishini takomillashtirish das-turlari ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda dori vositalari ishlab chiqarish va dori-darmonlarning narxi masalasida muammolar borligini ochiq tan olishimiz kerak. Bu masalalar aholini qiyayotgani, ularning haqli e’tiroziga sabab bo‘layotgani hech kimga sir emas. Dastur doirasida tibbiyat sohasini tubdan isloh qilishga qaratilgan 4 ta hukumat qarorini qabul qilish belgilangan. Jumladan, farmatsevtika sohasida 2016–2020-yillarda 67 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

Ta’kidlash zarurki, Toshkent viloyatida shu borada 24 ta loyiha amalga oshiriladi. Bu – dasturda ko‘zda tutilgan barcha loyihalarning 36 foizi demakdir. Bir-gina ana shu raqamning o‘zi mazkur dasturni amalga

oshirishda sizlarning hissangiz qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi.

**Va nihoyat, so'nggi dastur** – Qattiq maishiy chiqindilarni sanitariya yo'li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish dasturi tayyorlanmoqda.

Dasturda kelgusi besh yilda maishiy chiqindilarni sanitariya yo'li bilan tozalash va zararsizlantirish bo'yicha muhim tadbirlar belgilanadi.

Toshkent viloyatidagi sanitariya va tozalash, obodonlashtirish tashkilotlari qo'shimcha ravishda 2 ta maxsus transport vositasi bilan ta'minlanadi.

Viloyatdagi maishiy chiqindi poligonlari 5 milliard 500 million so'mdan ortiq mablag' hisobidan tartibga solinadi. 2017-yilda Angren shahrida 1 milliard 500 million so'm sarmoya hisobidan maishiy chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasi joriy etiladi.

Hammamiz yaxshi tushunamiz, kun tartibiga qo'yilayotgan bunday ulkan masalalarni hal qilish uchun avvalo mablag' kerak, daromad kerak.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda mahalliy budgetlarning **subvensiyaga qaramlik darajasini keskin kamaytirish** dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Biz uchun yana bir muhim vazifa – bu mahalliy budget daromadlari bazasini kengaytirish hisobidan viloyatdagi 7 ta tumanni subvensiyadan chiqarishdan iborat. Bugungi kunda mahalliy budget xarajatlari Bo'stonliq va Piskent tumanlarida 11–17 foiz, Bekobod, Oqqo'rg'on, Bo'ka, Quyi Chirchiq, Parkent tumanlarida 30–35 foiz yuqori budgetdan olinadigan subvensiya hisobidan qoplanmoqda.

Bunday holatdan chiqish uchun korxona va tashkilotlar, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, fermer xo'jaliklarida faoliyat samaradorligini oshirish orqali mahalliy budgetlarga soliq tushumlarini ko'paytirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rildi.

Aziz yurtdoshlar!

Sizlarning e'tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiman. Bu – xalqimizning tinchligi, kafolatlangan xavfsizligini ta'minlash masalasidir. Biz bu maqsadga erishish uchun hozirgi vaqtida Ichki ishlar vazirligi tizimini tubdan o'zgartirish chora-tadbirlarini ko'ryapmiz.

O'z vaqtida muhtaram Yurtboshimiz ichki ishlar idoralarining eng quyi tizimida profilaktika inspektorlarini tashkil qilgan edilar. Ammo bugun bu inspektorlar profilaktika, ya'ni jinoyatlarning oldini olish bilan shug'ullanmayapti, aksincha, sodir bo'lgan jinoyatlarni ro'yxatga olish, yuqori idoralarga hisobot yozish bilan band.

Shu sababli bu masalaga qarashimizni tubdan o'zgartirib, mahalladagi uchastka nozirlariga barcha zarur sharoitlarni yaratib beramiz. Ularga xizmat uylari va avtomashinalar beriladi. Uchastka nozirlari endi har jihatdan samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ayni paytda har bir tuman hokimi va tuman ichki ishlar bo'limlari rahbarlarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rribosari lavozimi joriy etiladi. Bu rahbarlarning zimmasiga asosan mahallada uchastka inspektorlari bilan ishlash vazifasi yuklatiladi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kela-yotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlashni biz xavfsizlik va barqarorlikni hamda xalqimizning osoyishta hayotini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolati deb bilamiz.

Takror aytmoqchiman – biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga tahdid solishga urinadigan yovuz kuchlarning har qanday harakatlariga keskin zarba berishga qodirmiz.

Muhtaram do'stlar!

**Tashqi siyosat** sohasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to'liq amal qilish saylovoldi dasturimizning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bu siyosatning asosiy ma'no-mazmuni – tinchlik-parvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O'zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlар va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Bu borada avval ham aytgan fikrimni takrorlash o'rinli deb bilaman. Biz qo'shnilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo'lini izchil davom ettiramiz. Qo'shnimizning yutug'i – bu bizning ham yutug'imiz. Ularning tinch va farovon hayoti – butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi deb bilamiz.

Mana shu yo'lida yangi qadamlar qo'ymoqdamiz. Jumladan, Toshkent viloyatiga yaqin qo'shni bo'lgan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Nursulton Nazarboyev bilan, Tojikiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Imomali Rahmon bilan olib borayotgan muzokaralarimiz buning amaliy tasdig'idir va bu ishlarni izchil davom ettiramiz.

Aziz va qadrli vatandoshlar!

Hozirgi kunda mamlakatimiz oldida turgan o'ta mas'uliyatli maqsad va vazifalar barchamizdan yanada ko'proq faollik va safarbarlikni talab etayotganini siz, katta mehnat va hayot tajribasiga ega bo'lgan Toshkent viloyati ahli, albatta, yaxshi tushunasiz. Va bu borada sizlar Vatanimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlash yo'lida barcha o'zgarish va islohotlarimizning oldingi safida bo'lasiz deb ishonaman.

Shu yo'lida sizlarga, butun el-yurtimizga kamrabasta bo'lishni, bor bilim va tajribam, butun borlig'imni

ayamasdan xizmat qilishni men o‘zim uchun ulkan baxt, yuksak sharaf deb bilaman.

So‘zimning yakunida sizlarga, sizlar orqali butun Toshkent viloyati ahliga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, xonardonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

**Oqqa‘rg‘on tumani,  
2016-yil 22-noyabr**

**TOSHKENT – BARCHAMIZ  
UCHUN ONADEK ULUG‘ VA  
MO‘TABARDIR**

**(TOSHKENT SHAHRI SAYLOVCHILAR  
VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI  
NUTQ)**



---

Assalomu alaykum, muhtaram yurtdoshlar!  
Hurmatli hamshaharlar!

Avvalambor, siz, azizlar bilan bugungi samimiy vaziyatda uchrashib, diydor ko‘rishib turganimdan xursand ekanimni bildirmoqchiman.

Fursatdan foydalaniб, sizlarga, sizlar orqali butun poytaxtimiz ahliga o‘zimning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Hozirgina hammamiz uchun aziz va qadrli bo‘lgan Birinchi Prezidentimiz, muhtaram Islom Abdug‘aniyevich Karimovni eslab, u kishining xotirasiga hurmat bajo keltirdik. Albatta, dunyo miqyosida tan olingan buyuk davlat va siyosat arbobi, ulug‘ Yurtboshimizning vafoti butun xalqimiz uchun o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan og‘ir judolik bo‘ldi. Bu achchiq musibatni butun xalqimiz, jumladan, aziz ustozimiz ulkan mehr qo‘ygan Toshkent shahri aholisi qanday katta dard va iztirob bilan qalbidan, yuragidan o‘tkazganini so‘z bilan ifoda etishning o‘zi qiyin.

Birinchi Prezidentimizning xotirasini Toshkent shahri boshqa joylardan ko‘ra ko‘proq esga soladi. Chunki bu ulug‘ inson o‘z hayotining eng faol, eng jo‘shqin davrini, talabalikdan boshlab, to davlat rahbari lavozimigacha bo‘lgan davrini ayni shu azim shaharda o‘tkazdi. O‘zining mislsiz kuch-g‘ayrati, noyob bilim va tafakkurini butun O‘zbekistonimiz hududlari qatori poytaxtimizga va uning rivojiga bag‘ishladi.

Hurmatli Islom Abdug‘aniyevich Toshkentni Vatanimizning yuragi va oltin ostonasi deb ta’riflagan edilar. U kishining: «**Toshkent timsolida O‘zbekistonni, O‘zbekiston timsolida Toshkentni ko‘ramiz**», degan so‘zлari hammamizning qalbimizga singib ketgan. Yurtboshimiz rahbarligida amalga oshirilgan ishlarni sanaydigan bo‘lsak, ro‘yxatning oxiri bo‘lmaydi. Bitta emas, o‘nta «Toshkentnoma» yozishga to‘g‘ri keladi.

«Toshkent – Sharq darvozasi», «Toshkent – tinchlik va do‘slik shahri», degan ta’riflar yoniga keyingi yillarda «Toshkent – Islom madaniyati poytaxti», «Toshkent – yashash uchun eng qulay shahar» degan e’tiroflar qo‘sildi. Buni nainki xalqimiz, ayni vaqtida, dunyo ahli ham tan olmoqda.

Birinchi Prezidentimizning Vatanimiz va xalqimiz oldidagi ana shunday tarixiy xizmatlarini doimo yodimizda saqlash **bizning barchamiz uchun ham qarz, ham farz**. Bu ulug‘ zotning xotirasini abadiylashtirish, jumladan, poytaxtimiz Toshkent shahri markazida ulkan maydon barpo etib, muhtaram Islom Abdug‘aniyevichning ulug‘vor haykalini o‘rnatish haqidagi bugungi kunda minglab vatandoshlarimiz, keng jamoatchilik tomonidan ko‘plab murojaat va takliflar kelib tushmoqda. Ishonchim komil, bu takliflarni sizlar ham, albatta, qo‘llab-quvvatlaysizlar.

Aziz do‘sstar!

Dunyoda taraqqiyotning «o‘zbek modeli» deb tan olingan strategik taraqqiyot yo‘lini og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettirish va yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarish mening saylovoldi dasturimning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mamlakatimizning barcha hudud va mintaqalarida saylovchilar vakillari bilan bo‘layotgan uchrashuvlarda men bir haqiqatga yana va yana bir bor ishonch hosil qilyapman.

O‘zbekistonda olib borilayotgan, hayot sinovidan o‘tgan siyosatni, bizni mana shunday erkin va farovon kunlarga olib kelgan yo‘lni el-yurtimiz milliy manfaatlarimizga to‘la javob beradigan, har tomonlama ma’qul yo‘l deb topmoqda.

Oldimizda turgan bo‘lg‘usi saylovlarda xalqimiz erkin ovoz berish, o‘z xohish-irodasini erkin bildirish orqali o‘zining ertangi kuni, mamlakatimizning kelgusi rivojlanish yo‘lini yana bir bor aniqlab, tasdiqlab oladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, saylovnı Konstitutsiyamız va milliy qonun normalariga, xalqaro andozalarga to‘liq rioya qilgan holda o‘tkazishimiz qanday katta ahamiyatga ega ekani haqida ortiqcha gapirishning hojati bo‘lmasa kerak.

O‘ta muhim bu siyosiy jarayonda ko‘pmillatli poytaxt ahli xalqimizning siyosiy ongi, huquqiy madaniyati, grajdanilik pozitsiyasi tobora yuksalib borayotganini dunyo hamjamiyatiga namoyon etishda boshqalarga o‘rnak va namuna bo‘ladi, deb ishonaman.

Qadrli vatandoshlar!

Toshkent shahri 2200 yildan ziyod ko‘hna tarixga ega bo‘lgan ulug‘ va azim shahardir. Bu muqaddas zamin Shayx Xovandi Tohur, Shayx Zayniddin bobo, Qaffol Shoshiy, Ibrohim ota, Qo‘yliq ota kabi ko‘plab aziz-avliyolarga beshik bo‘lgan. Badriddin Chochiy, Zayniddin Vosifiy, Sharofiddin ibn Yusuf Iloqiy, Isoq Shoshiy, Muhammad Haydar kabi alloma va shoirlar shu yurtda tavallud topganlar.

O'tgan asr boshlarida butun Turkiston o'lkasini qamrab olgan jadidchilik harakatining markazi ham aynan Toshkent shahri edi. Bu harakatning ko'zga ko'ringan namoyandalari Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Tavallo, Ubaydulla Xo'jayev, G'ozi Yunus, G'ulom Zafary, Xurshid kabi ziyolilar o'zlarining ezgu g'oyalari, ma'rifiy asarlari bilan tariximizda o'chmas iz qoldirdilalar. Ayniqsa, buyuk adibimiz, o'zbek romançilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy badiiy dahosi bilan yaratilgan yetuk asarlar milliy o'zligimizni anglashda bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Barchamizning ma'naviy kamol topishimizda Oybek, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Zulfiya, Said Ahmad, Mirkarim Osim, Shuhrat, Hamid G'ulom, Ozod Sharafiddinov, O'lmas Umarbekov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov kabi o'nlab shoir va adiblarimizning – Olloh ularni rahmat qilsin – ulug' xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan eslaymiz. Bugungi kunda Shukrullo, Ibrohim G'afurov, Tohir Malik, Xurshid Do'stmuhammad, Umida Abduazimova, Erkin Usmonov, Shuhrat Rizayev kabi ustoz ijodkorlar safiga yangi-yangi iste'dod egalari kelib qo'shilmoqda.

**Zamonaviy o'zbek ilm-fani tarixi va taraqqiyotini albatta Toshkent shahrisiz tasavvur etib bo'lmaydi.** Bu haqda gapirganda, O'zbekiston ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Obid Sodiqov, G'ani Mavlonov, Sobir Yunusov, Obid Akromxo'jayev, Sodiq Azimov, Shokir Alimov, Yahyo G'ulomov, Malik Nabiiev, Ergash Fozilov, Tursun Azlarov, Ulug' G'ulomov, To'rabek Dolimov, O'tkir

Islomov, To‘xtapo‘lat Risqiyev kabi ko‘plab marhum akademiklarimizning nomlarini – barchasining oxirati obod bo‘lsin – chuqur hurmat bilan esga olamiz.

**Bugungi kunda Toshkent yirik ilmiy va mada-niy markaz, tom ma’noda ma’rifat va ma’naviyat, yoshlar va talabalar shahri hisoblanadi.** Bu yerda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi va 47 ta ilmiy-tadqiqot instituti, ilmiy markazlar, 39 ta oliy o‘quv yurti mavjud.

Shu bilan birga, xorijiy davlatlardagi yuqori nufuzga ega bo‘lgan universitet va institutlarning 7 ta filiali borligini alohida ta’kidlash lozim. V.Uspenskiy, R.Glier nomidagi mashhur musiqa maktablari, O‘zbekiston davlat konservatoriysi, Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona faoliyat ko‘rsatmoqda.

Toshkent shahrining necha yuzlab fan doktorlari, professorlari ilm-fan va ta’lim dargohlarida faoliyat ko‘rsatayotganini alohida ta’kidlash lozim.

Ana shunday ilm-fan fidoyilari – O‘zbekiston Fanlar akademiyasining prezidenti Shavkat Solihov, akademiklar Oqil Salimov, Nusrat Parpiyev, Aziz Qayumov, Turg‘unpo‘lat Daminov, Shavkat Karimov, Sayyora Rashidova, Ra’no Ubaydullayeva, Abdumavlton Abdullayev, Mashhura Mavlonyi, Shavkat Ayupov, Shomansur Sa’dullayev, Shavkat Alimov hamda taniqli professorlar Shuhrat Egamberdiyev, G‘afurjon Muhamedov, Naim Karimov, Abbosxon To‘rayev kabi o‘nlab, yuzlab olimlarimiz o‘zlarining ilmiy izlanishlari, davlat va jamoat ishlaridagi fidoyiliklari bilan katta obro‘-e’tibor qozonganlar.

Aynan mana shunday atoqli olimlarimiz va ularning yuzlab izdoshlari yaratgan muhit tufay-

li poytaxtimizning ilmiy salohiyati tobora yuksalib bormoqda.

O‘zim ham shu sohaga daxldor inson sifatida olim zotining noni qanchalik qattiq, ularning mehnati igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli ekanini yaxshi bilaman. Shuning uchun ilm yo‘lida zahmat chekayotgan barcha insonlarni men o‘zimga yaqin olaman, ularni jamiyatni olg‘a yetaklaydigan fidoyi insonlar deb hisoblayman.

Shu sababli mening dasturimda intellektual soha ahlining mehnatini qadrlash, ularning izlanishlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur sharoit yaratib berish masalasi yetakchi o‘rin egallaydi.

Toshkent shahrida o‘zining halol mehnati, betakror iste’dod va mahorati bilan el-yurtimiz o‘rtasida yusakkur mat topgan yurtdoshlarimiz haqida gapirganda, avvalo, O‘zbekiston Qahramonlari, mohir shifokorlar Malika Abdullaxo‘jayeva, Xolidjon Komilov, Zaynidin Nizomxo‘jayev, Ravshanbek Qurbonov, zahmatkash pedagoglar Turg‘un Azlarov, Mavluda Ismatova, mashhur navoiyshunos olima Suyima G‘aniyeva, mahalla jonkuyari Xolxo‘ja Umarov, chilangar usta Erkin Alimuhamedov, quruvchi Toir Dadaxonovning nomlarini ehtirom bilan tilga olamiz.

Go‘zal shahrimizning obod va ko‘rkam bo‘lishida, uning iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalari rivoj topishida o‘zining katta hissasini qo‘sghan aziz va mo‘tabar otaxon-u onaxonlarimiz hamisha bizlarga ishonchli tayanch, kuch-quvvat, madadkor va maslahatgo‘y bo‘lib kelmoqdalar.

Bu haqda gapirganda, Shuhrat Usmonov, Muhammadjon Zufarov, Madamin Hasanov, Shuhrat Jali-

lov, Ismoil Jo'rabekov, Aziz To'rayev, Abdurakim Usmonxo'jayev, Botir Toshxo'jayev, Xatima Shayxova, Galina Melnikova, Xosiyat Yoqubjonova, Muborak Yunusxo'jayeva, Dilbar G'ulomova kabi insonlarning nomlarini tilga olib, ularga, barcha nuroniyalarimizga cheksiz rahmatlar aytamiz.

Toshkent milliy madaniyatimiz va san'atimizning qadimiylari va zamonaviy beshiklaridan biri sifatida ham barchamiz uchun aziz va qadrlidir. Buyuk san'atkolar – Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Yunus Rajabiy, Mannon Uyg'ur, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Karim Zokirov, Qudrat Xo'jayev, G'ani A'zamov, Zikir Muhammadjonov, Botir Zokirov, Ergash Karimov kabi o'nlab, yuzlab iste'dod sohiblari madaniyatimiz tarixida yorqin iz qoldirganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Hozirgi kunda O'zbekiston xalq artistlari – Po'lat Saidqosimov, Rixsixon Ibrohimova, Yayra Abdullayeva, Elyor Nosirov, Afzal Rafiqov, Gulchehra Jamilova, Farrux Zokirov, G'ulomjon Yoqubov, Malika Ibrohimova, Xayrulla va Yodgor Sa'diyevlar, Lutfulla Sa'dullayev, Ismoil Jalilov, Dilbar Ikromova, Gavhar Zokirova, O'zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiy, taniqli kinorejissor Zulfiqor Musoqov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar – Mahmud Ismoilov, Hojiakbar Komilov, Gulchehra Sa'dullayeva, Fatxulla Ma'sudov, Abduraim Abduvahobov, Abdulla Shomag'rupov, Rashid Xoliqov, Tohir Sodiqov kabi iste'dod sohiblari faol ijod qilib kelmoqda.

O'zbek zamonaviy tasviriy san'ati rivojiga O'zbekiston xalq rassomlari Chingiz Ahmarov, Malik Nabihev, O'rol Tansiqboyev, Rahim Ahmedov, Jalo-

liddin Mirtojiyev kabi marhum san'at ustalari buyuk hissa qo'shdilar. Atoqli rassom va haykaltaroshlarimiz Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Vladimir Burmakin, Ilhom Jabborov, Akmal Ikromjonov, mashhur xalq ustasi Ortiq Fayzullayevlarning ijodi haqida har qancha faxrlanib gapirsak, arziydi.

Toshkent o'zbek sportining eng yorqin namoyandalari uchun tajriba va mahorat maktabi, parvoz maydoni bo'lib kelayotganini hamisha minnatdorlik bilan e'tirof etamiz.

Katta sport olamiga ilk qadamini aynan shu zamin-dan boshlagan Birodar Abduraimov, To'lagan Is'hoqov, Mirjalol Qosimov, Rustam Qosimjonov, Ravshan Ermatov, Armen Bagdasarov, Oksana Chusovitina, Iroda To'laganova kabi yurtdoshlarimizning nomlarini barcha sport muxlislari yaxshi biladilar.

Bugungi kunda yirik xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sharafini munosib himoya qilib kelayotgan Yekaterina Xilko, Anton Fokin, Svetlana Radzivil, Aleksey Mochalov, Samira Amirova, Nigora Tursunkulova kabi sportchilarimizning nomlarini alohida hurmat bilan tilga olamiz.

Shu yil Braziliyada o'tkazilgan Olimpiada va 15-Paralimpiya o'yinlarida Rustam To'laganov, Aleksandr Svechnikov, Doniyor Soliyev, Dmitriy Xorlin medallarni qo'lga kiritib, haqiqiy jasorat va matonat ko'rsatdilar.

Imkoniyatdan foydalanib, bugungi uchrashuvimizning barcha qatnashchilariga va poytaxtimiz aholisiga fidokorona mehnatingiz, poytaxtimiz qiyofasini o'zgartirishga qo'shayotgan ulkan hissangiz uchun samimiy minnatdorlik bildiraman. Barchangizga mus-

tahkam sog‘liq, farovonlik va oilaviy baxt-saodat tilayman!

Hurmatli anjuman qatnashchilar!

Toshkent xalqi o‘zining bag‘rikengligi va mehmondo‘stligi bilan butun dunyoda nom qozongan. O‘z davrida bu haqda «Toshkent – non shahri» degan kitob va film yaratilgani ham buning tasdig‘idir. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushida front mintaqalaridan ko‘chirib keltirilgan turli millatga mansub ming-minglab yetim bolalar, ayollar va keksalarni o‘z bag‘riga olib, bir burda nonini ham ular bilan baham ko‘rgan toshkentliklar insoniylikning yuksak namunasini butun olamga namoyon etdilar.

Bugungi kunda poytaxtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv hayot kechirmoqda. Toshkent millati, tili va dinidan qat‘i nazar, ularning barchasi uchun haqiqiy Vatanga aylanganini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

El-yurtimiz o‘zining samarali mehnati bilan hurmat topgan Respublika Baynalmilal markazi direktorining o‘rnbosari Sergey Mironov, Senat a’zosi Agrepina Shin, Qozoq milliy madaniyat markazi raisi o‘rnbosari Hamza Xolmuratov, Toshkent davlat jismoniy tarbiya institutining prorekitori Rishod Nabiullin, Ozarbayjon milliy madaniyat markazi raisi Mobil Yakub o‘g‘li Mamedov, Arman milliy madaniyat markazi raisi Martin Setyan, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti kafedra mudiri Jumali Shabanov, Toshkent shahar polyak madaniy markazining raisi Yelena Kondratenko kabi ajoyib insonlarning ijtimoiy faoliyatini yuksak baholaydi.

Aziz vatandoshlar!

Mana, qirq yildirki, mening hayotim va faoliyatim jonajon Toshkent shahri bilan bog'liq holda kechmoqda.

Ayni shu azim shaharda oliv ta'lim oldim, tuz-nasiba topib, oilali bo'ldim, farzandlar, nabiralar ko'rdim, ming-minglab do'st-u birodarlar, maslakdoshlar orttirdim.

Qancha-qancha ulug' insonlar bilan muloqotda bo'lish, birgalikda ishlash baxti nasib etdi. Qayerda, qaysi vazifada ishlamayin, poytaxt ahlining samimiyy munosabati, mehr-oqibatini, qo'llab-quvvatlashini doimo his qilib kelaman va buning uchun yana bir bor barchangizga minnatdorchilik bildiraman.

Go'zal poytaxtimizda mustaqillik yillarda amalga oshirilgan ulkan ishlarda mening ham kamtarin hissam borligidan hamisha faxrlanib yuraman.

Qadrli do'stlar!

Toshkent shahrining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi beqiyos o'rni va ahamiyatini hammamiz yaxshi bilamiz. Poytaxtimiz barcha sohalarda bo'lgani kabi zamonaviy korxonalar tashkil qilish, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni, ilg'or usullarni joriy etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ham o'rnak va namuna bo'lib kelmoqda.

Yuqorida aytib o'tganimdek, bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 16 foizdan ortig'i, investitsiyalarning 18 foizdan, sanoat mahsulotlarining 20 foizdan ziyodi Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda.

Oxirgi besh yilda bu yerda yalpi hududiy mahsulot 1,7 barobar, jumladan, sanoat mahsulotlari 2 mar-

ta, qurilish ishlari hajmi 2 karradan ziyod o'sgani poytaxtimizning barqaror sur'atlar bilan rivojlanib borayotganini ko'rsatadi.

Bugun biz erishilgan ana shunday yutuqlarni e'tirof yetgan holda, eng avvalo, Toshkent shahri iqtisodiyoti va aholisi oldida turgan muammolar va ularning yechimlari haqida batafsil to'xtalib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman.

Toshkent shahrini kelgusi besh yilda rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan iqtisodiy dasturda, birinchi galda, rivojlangan megapolislarga xos bo'lgan, yuqori texnologiyaga asoslangan, dunyo bozorida raqobatdosh sanoat mahsulotlarining yangi turlarini ishlab chiqarish, zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish va axborot infratuzilmasini rivojlantirish hisobidan iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish nazarda tutilgan.

Bu borada **yangi ish o'rirlarini** yaratish eng ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, Toshkent shahrida kollejlar, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari va ishga muhtoj aholi uchun munosib ish haqi to'lanadigan qariyb 80 ming yangi ish o'rirlari tashkil etishimiz lozim. Ushbu vazifani bajarish uchun quyidagi muhim chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz zarur.

**Birinchidan**, biz elektrotexnika, mashinasozlik, qurilish-pudrat tashkilotlari, meditsina xizmatlarini ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritayotgan **kichik biznes korxonalari** uchun yangi rag'batlantiruvchi asoslar yaratamiz.

Shu borada bunday korxonalarda mavjud imtiyozlardan foydalanish uchun xodimlarning yillik sonini

120 tadan 240 kishigacha oshirishga imkon beradigan Hukumat qarori loyihasi ishlab chiqiladi. Buning nati-jasida ushbu tarmoqlarda jami 15 mingga yaqin yangi ish o‘rinlari tashkil qilinadi, yillik 1 trillion 600 milliard so‘mdan ortiq qo‘srimcha mahsulotlar ishlab chiqariladi va xizmatlar ko‘rsatiladi.

**Ikkinchidan**, ma’lumki, Toshkent shahrida bank va moliya institutlarining markaziy idoralari faoliyat yuritadi. Binobarin, bu yerda **bank xizmatlarining turlari va sifati bo‘yicha hali ishga solinmagan kat-ta imkoniyatlar mavjud**.

Shu sababdan **tijorat banklari tomonidan tad-birkorlarga arzon foizli kreditlar berish** orqali ularning loyihamini moliyalashtirish hajmini ko‘paytirish hisobidan qancha-qancha yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin. Misol uchun, Toshkent shahrida 22 ta tijorat banki va ularning 123 ta filiallari faoliyat yuritmoqda. Ularda 38 mingdan ortiq mijozlarga xizmat ko‘rsatilmoqda.

Agar tijorat banklarining har bir mijoji tomonidan qo‘srimcha ravishda kamida 3 tadan ish joyi yaratilsa, Toshkent shahri bo‘yicha qo‘srimcha tarzda 114 mingta ish o‘rinlari yaratiladi.

Shu bois tijorat banklari tomonidan 2017-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlar uchun qariyb 1 trillion 208 milliard so‘mlik, yillik 9–10 foizli imtiyozli stavkada mikrokreditlar berish dasturi ishlab chiqiladi.

**Uchinchidan**, tadbirkorlik faoliyatini yana-da erkinlashtirish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar, o‘ylaymanki, barchangizga yaxshi ma’lum.

Mamlakatimiz tadbirkorlari rejadan tashqari va muqobil tekshirishlarning bekor qilinishini, biznes yuritish uchun dadil, qo‘rmasdan shaxsiy mablag‘lari ni ishlatish yoki mulkini garovga qo‘yish, ish o‘rinlari tashkil etish, o‘z oilalari va ishchilarini daromad bilan ta’minalash imkonini beradigan yangi qonuniy normalarni katta xursandchilik bilan qabul qilishdi.

Biroq, qabul qilingan bu normalarning amaliyatga to‘liq tatbiq etilishi bizning asosiy vazifamiz bo‘lishi zarur. Davlat va nazorat qiluvchi organlarning har bir rahbari o‘z idorasi hamda xodimlari tomonidan tadbirkorlarning qonuniy huquqlari buzilishi uchun shaxsan javobgar bo‘lishi lozim. Tadbirkorlarning ishonchini suiiste’mol qilishga bizning hech qanday haqqimiz yo‘q.

**Bizning bosh vazifamiz – tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishni ta’minalashdir.** Biznes bilan shug‘ullanayotgan har bir kishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga qat’iy ishonch bo‘lishi shart. Odamlar biznes bilan shug‘ullanishdan manfaatdor bo‘lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo‘lsa – mamlakat ham boy bo‘ladi.

**To‘rtinchidan**, o‘tgan yili elektron tizimlardan foydalangan holda biznes uchun 16 turdag‘i davlat xizmatlarini «yagona oyna» tizimi orqali amalga oshirish tashkil qilingan edi. Bu biznes uchun sezilarli yengilliklar tug‘dirib, tadbirkorlarni ma’lumotnomalar va ruxsat beruvchi hujjatlar olish uchun **amaldorlar kabinetlariga oylab qatnab, xonama-xona yurishlardan ozod qildi**.

Shu sababdan, 2017-yilda soddalashtirilgan «yagona oyna» tizimi orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari turlari 30 tagacha ko'paytiriladi. Bunda, ushbu jarayonlarni amalda tatbiq etilishi bo'yicha nazoratni kuchaytirib, ularni bajarmaganlik uchun ma'muriy jazolash normalarini kiritamiz.

**Beshinchidan**, Toshkent shahrining eski shahar qismidagi Zarqaynar mahallasi ko'chalarida dunyoning boshqa ko'plab mamlakatlaridagi kabi, xususiy tadbirkorlarning faoliyati va milliy me'morchilik namunalari asosida «Eski Toshkent» nomli tarixiy-madaniy va dam olish markazini tashkil etamiz.

Bu, bir tomondan, shu hududda yashaydigan aholi uchun o'z biznesini tashkil qilishga va yangi ish o'rinalarini yaratishga imkon beradi. Ikkinchi tomondan, chet ellik mehmonlar orasida bizning an'ana va urfatdarlarimizni targ'ib etishga xizmat qiladi.

Ushbu markazdagi obyektlarning qurilishi xususiy tadbirkorlar tomonidan Milliy bankning imtiyozli kreditlarini jalb qilgan holda moliyalashtiriladi.

**Oltinchidan**, 2017-yilda biz tadbirkorlar va tijorat banklarining jami 1 milliard dollargacha bo'lgan mablag'lari hisobiga «O'qchi Olmazor» massivida umumiyl maydoni 70 hektar bo'lgan «Toshkent Siti» ishbilarmonlik hududini bosqichma-bosqich qurilishi ni boshlaymiz.

**Yettinchidan**, barchamizga ma'lumki, Toshkent shahri yuqori ilmiy salohiyatga ega. Biroq, har yili o'tkaziladigan innovatsiya yarmarkalari tufayli ilmiy tadqiqotlar natijalari ma'lum bir darajada yirik sanoat korxonalari tomonidan foydalanilsa-da, kichik biznes korxonalari tomonidan deyarli tatbiq etilmaydi.

Biz, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni tadbirkorlik faoliyatini bilan birlashtirish imkoniyatini beruvchi amaliy mexanizmni tashkil etishimiz lozim. Bu esa, bir tomonidan, innovatsion biznesni rivojlantirishga imkoniyat yaratса, ikkinchi tomonidan, ilmiy tadqiqotlarning samarasini oshirish uchun investitsiyalar oqimini ko‘paytirishni ta’minlaydi.

Shu munosabat bilan Yashnobod va Olmazor tumanlarida kichik biznesning innovatsion texnoparklari tashkil etiladi va qiymati 102 milliard so‘m bo‘lgan 285 ta innovatsion loyiha amalga oshiriladi. Natijada tashqi va ichki bozorda xaridorgir bo‘lgan 38 turda-gi mutlaqo yangi mahsulot o‘zlashtiriladi va 6 ming 500 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Yuqorida qayd etilgan takliflar va tashabbuslar bilan birgalikda Toshkent shahrida kelgusi besh yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida qiymati 2 trillion so‘mdan oshiq va 156 million dollarlik jami 281 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Jumladan:

- Bektemir tumanida Universal bank va «O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyatini tomonidan **qiymati 20 million dollar bo‘lgan**, yiliga 1500 ta yuk tashish vagonlarini qayta ta’mirlash loyihasi amalga oshiriladi;

- Sirg‘ali tumanida «Asakabank» va «O‘zbekoziq-ovqatxolding» kompaniyasi tomonidan «Green World» qo‘shma korxonasida yiliga 25 million dona qadoqlangan meva sharbatlari ishlab chiqarish loyihasi yo‘lga qo‘yiladi;

– Mirobod tumanida Milliy bank va «O‘zfarm-sanoat» konserni tomonidan «Nano Medik» korxonasida yiliga 450 ming dona 9 turdag'i dori vositalarini ishlab chiqarish tashkil etiladi;

– Shayxontohur tumanida «Kapitalbank» va «O‘zeltexsanoat» kompaniyasi tomonidan «Nur invest texnologiya» korxonasida yiliga 2 million dona energiya tejaydigan lampalar ishlab chiqarish loyihasi ishga tushiriladi.

Shular qatorida boshqa tumanlarda ham jami qiymati 4,8 trillion so‘mlik 1650 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish nazarda tutilmoqda. Buning natijasida 48 mingta yangi ish o‘rni tashkil etiladi. Ushbu loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari, tarmoq korxonalar rahbarlari va tuman hokimlaridan tashabbuskorlik va tashkilotchilik talab qilinadi.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Bugungi shiddatli globallashuv zamonida barcha turdag'i infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish va ularni jahon talablari darajasiga yaqinlashtirish kelgusi yillarda iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, bizning eng muhim vazifamiz – odamlarning bunyodkorona mehnati, hayot ta'minoti va dam olishi uchun qulay va munosib shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu munosabat bilan sizlarni joriy va istiqboldagi rejalrimizdan xabardor qilmoqchiman.

Birinchi – ko‘p qavatli yangi va shinam uyjylarni barpo etish masalalari.

Shaharning bosh rejasiga asosan, aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida, 290 ming odam yoki 86 ming oila uchun umumiy hajmi 8 million kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan yangi ko‘p qavatli uylar barpo etiladi.

Bu jarayon nafaqat moddiy jihatdan yetarlicha ta’minlangan odamlar, balki aholining o‘rtta toifasi uchun ham mo‘ljallanishi zarur.

Yana bir masala – bu eskirgan uy-joylar muammosi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, poytaxtimizda 76 mingga yaqin xonadon 60 yil avval qurilgan va yashash uchun xatarli bo‘lgan eski uylarda hayot kechirmoqda.

Aynan shu bois biz bu borada mutlaqo yangi dasturni amalga oshirish bo‘yicha, ya’ni 7 va 9 qavatlari, ko‘p xonadonli arzon uy-joylar qurish to‘g‘risida qaror qabul qildik.

Daromadi yuqori bo‘lmagan, shuningdek, eski uylarda yashayotgan oilalar imtiyozli ipoteka kreditlari va soliq imtiyozlari asosida bunday uylardan kvartira xarid qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xususan, dastlabki bosqichda ushbu maqsad-larga kelgusi 5 yilda jami 2,5 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi. Jumladan, 1,8 trillion so‘m banklarning imtiyozli kreditlari va 615 milliard so‘m aholining boshlang‘ich badallari hisobiga shakllantiriladi. Buning evaziga 32 ming xonadondan iborat bo‘lgan 500 ta ko‘p qavatli uy barpo etiladi.

Bundan tashqari, yaqin 5 yil ichida shaharning har bir tumanida 20 tadan, **jami 200 ta ko‘p qavatli uy barpo etiladi.**

Turar-joy mavzelerini qurishda ularning barcha ijtimoiy infratuzilma obyektlari hamda muhandislik

tarmoqlari bilan ta'minlanishi, uylarning atrofini obod qilish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga yangi quriladigan aholi mavzelariga yaqin joylarda xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinalarini yaratish rejalashtirilgan.

Masalan, Bektemir tumanida yaqin 5 yil ichida 20 ta ko'p qavatli uy yangidan qurilib, jami 4 ming-dan ortiq aholi zamonaviy uy-joy bilan ta'minlanadi. Ushbu ko'p qavatli uylar Husayn Boyqaro ko'chasi hamda «Binokor» va «Suvsoz» dahalari bo'ylab barpo etilishi mo'ljallanmoqda.

Yashnobod tumanidagi Taraqqiyot ko'chasida 70 dan ortiq ko'p qavatli uylar, savdo-ko'ngilochar markazlari, sport-sog'lomlashtirish majmualari qurilishi yaqin kunlarda boshlanadi.

Mirzo Ulug'bek tumanida 60 dan ortiq ko'p qavatli uylar qurilmoqda. Bu yerda 20 ming 600 dan ortiq aholi zamonaviy uy-joy bilan ta'minlanadi.

**Keyingi masala – uy-joy fondidan samarali foydalanish.**

Shaharda uy-joy fondi yanada kengayishini e'tiborga olsak, uy-joy fondini kuz-qish mavsumiga tayyorlash, ta'mirlash va foydalanish ishlarining tizimli ravishda olib borilishini ta'minlash yuzasidan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatini muvofiqlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Afsuski, mahalliy hokimliklarning bu masaladagi o'rni va mas'uliyati zamon talabiga javob bermaydi. Ana shu muammolarni yechish uchun shirkatlar tomonidan foydalanish yig'imlari va tijorat banklari kreditlari hisobidan jami 338 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Ko‘p qavatli uylarni ta’mirlash va ular hududi ni obodonlashtirish ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish uchun 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan reja ishlab chiqish zarur. Mazkur dasturda belgilangan vazifalar ni amalga oshirish uchun Markaziy bank, respublika tijorat banklari tomonidan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga yiliga 200 milliard so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratish ko‘zda tutilmoxda.

Aytish joizki, 2016-yilning o‘zida ushbu maqsadlar uchun shirkatlarga **155 milliard so‘m** miqdorida kredit ajratilgan.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda moliyaviy holatini sog‘-lomlashtirish maqsadida faoliyat yuritayotgan 2 ming 375 ta uy-joy mulkdorlari shirkatini kelgusi 5 yilda barcha soliq va majburiy to‘lovlardan ozod qilish mo‘ljallanmoqda.

Iqtisod qilingan mablag‘lar ko‘p qavatli uy-joylarning umumiy foydalanishda bo‘lgan maydonlari ni ta’mirlashga yo‘naltirilishi lozim.

Bundan tashqari, 1 ming 435 ta uyning 678 tasida liftlarni almashtirish, 2 ming 300 tasida tom qismlari va 5 ming 100 tasida podvallar kapital ta’mirlanadi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, 2021-yilga borib uy-joy shirkatlari zarur texnika va mexanizmlar bilan jihozlangan, malakali mutaxassislarga ega, aholiga tezkor sifatli xizmat ko‘rsatadigan hamda moliyaviy o‘zini o‘zi ta’minlaydigan zamonaviy servis korxonalariga aylanadi.

**Ikkinchı** – muhandislik-kommunal infratuzilmasi bilan bog‘liq dolzarb masalalar. Kommunal xizmatlar ko‘rsatishning rivojlangan tizimi – bu jamiyatni rivojlantirish ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, aholining kayfiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan sohadir.

Shahar aholisini toza ichimlik suvi va suv oqova xizmatlari bilan ta’minalash darajasini oshirish maqsadida kelgusi 5 yilda 400 dan ziyod mavze va mahallalarda 318 kilometr uzunlikda ichimlik suvi hamda 450 kilometr oqova suvi tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, 172 ta suv nasosini almashtirish lozim.

Issiqlik ta’mintoni sohasidagi muammolarni yechish uchun har bir tuman, mavze va uylar kesimida lokal qozonxonalarini ishga tushirish, eskirgan tarmoqlarini yangilash yuzasidan, moliyalashtirish manbalarini aniq ko‘rsatgan holda, 5 yilga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda elektr tarmoqlari va transformator punktlarining bir maromda ishlashi, ya’ni uzilishlar va avariyalarning oldini olish, ayniqsa, dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu borada kelgusi 5 yilda past kuchlanishdagi elektr tarmoqlarini va transformator punktlarini rekonstruksiya qilish uchun 480 milliard so‘m miqdoridagi 33 ta loyihani amalga oshirish mo‘ljallanmoqda.

Foydalilanilgan elektr energiyasi uchun hisobkitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida zamonaviy elektron hisoblagichlarni o‘rnatish, elektr tarmoqlarini ta’mirlash ishlarini bajarish uchun kelgusi besh yilda 345 milliard 800 million so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi rejalashtirilgan.

Gaz tarmoqlari va inshootlari – bu kommunal sohadagi yana bir muhim yo‘nalish sifatida e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Bu borada 2017–2021-yillarda tabiiy gaz tarmoqlari va inshootlarini kengaytirish hamda rekonstruksiya qilish uchun «O‘ztransgaz» kompaniyasining 350 milliard so‘m miqdoridagi mablag‘i hisobidan 183 ta loyihani amalga oshirish mo‘ljallanmoqda.

Foydalanimizning tabiiy gaz uchun hisob-kitobni bungi talablar darajasida olib borish uchun zamonaviy elektron gaz hisoblagichlarni yangilash, gaz tarmoqlari punktlarini barpo etish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun kelgusi besh yilda 41,3 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirish rejalashtirilgan.

Poytaxtimizning **ekologik va sanitariya muhitini** yaxshilash uchun chiqindilarni yig‘ish va ularni zararsizlantirish bilan bog‘liq masalalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada shahar miqyosida yaqin 5 yil ichida jami 117,3 milliard so‘m davlat va mahalliy budget hamda xorijiy moliyaviy institutlar hisobidan mablag‘ ajratgan holda, 92 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilmoxda.

Eng avvalo, 2018-yilda Osiyo taraqqiyot bankining 17,8 million dollar hamda «Maxsustrans» korxonasi mablag‘lari hisobidan Toshkent viloyati, Ohangaron hududida zamonaviy talablarga javob beradigan 30 hektar yangi sanitariya poligoni qurilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, tumanlarda chiqindi yig‘ish va tashish uchun 332 ta maxsus transportni hamda chiqindi qutि-

larini xarid qilish, maydonchalarni rekonstruksiya qilish va qurish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan.

Shu kunlarda Hukumat tomonidan mamlakatimizda sanitariya holatini yaxshilashga doir ishlarni tashkil etish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda.

**Uchinchi yo'naliш – mahalliy yo'llarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish masalalari.** Hovli-joylarni, xonadon ostonasini ozoda va obod saqlash milliy urf-odatlarimizning ajralmas qismi bo'lib, biz uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu aholimizning barchasi amal qiladigan kundalik jaryondir.

Shahar miqyosida yaqin 5 yil ichida mavzelar va mahallalarni obodonlashtirish yuzasidan 395 milliard so'm mablag' hisobidan 284 kilometr ichki yo'llar yangilanadi, aholi madaniy dam oladigan bog' va xiyobonlar tashkil etiladi, irrigatsiya tizimlari rekonstruksiya qilinadi. Shu bilan birga, keng miqyosda ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

**To'rtinchi – jamoat transportini rivojlantirish masalalari.** Poytaxtimizda jamoat transportidan foydalanish masalasi bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bu borada avtobus, metro va boshqa turdag'i jamoat transportlarining faoliyatini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda, kelgusi 5 yilda umumiy qiymati qariyb 390 milliard so'm bo'lган 4 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Shaharda serqatnov, tirband hududlar bo'yicha 80 ta yangi avtobus yo'naliши tashkil etiladi. Har yili katta

va o‘rta sig‘imdagи 100 ta avtobus xarid qilinadi. Bu maqsadlarga mahalliy budget hisobidan 335 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi.

Yengil avtomobil haydovchilariga qulaylik yaratish maqsadida shaharning Mirzo Ulug‘bek, Sirg‘ali va Yashnobod tumanlarida 4 ta ko‘p qavatli avtogarajlarni qurish ishlari boshlab yuborildi. Shunday garajlarni barpo etish maqsadida kelgusi 5 yilda yana 84 ta loyiha amalga oshiriladi.

Misol uchun, Sirg‘ali tumanining «Sirg‘ali-6» mavzesida joylashgan 400 ta avtomobilga mo‘ljallangan ko‘p qavatli avtogaraj qurilishiga jami 7,5 milliard so‘m mablag‘ sarflanib, u 2017-yilda ishga tushiriladi.

Toshkent metrosi qurilishini davom ettirish yuzasidan 2017–2020-yillarda umumiy qiymati 295 million dollar davlat budgeti, O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan uzunligi 10 kilometrdan iborat 8 ta stansiyani o‘z ichiga olgan 2 ta loyihani ishlab chiqish ta’minlanadi.

Shaharning halqa yo‘li bo‘ylab uzunligi 66,3 kilometr bo‘lgan temiryo‘l transport vositasini – ya’ni elektrichkani yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq loyiha amalga oshiriladi. Bu loyihani 2017–2030-yillarda amalga oshirish uchun davlat budgeti va mahalliy budgetlar hisobidan 189 million dollar mablag‘ yo‘naltiriladi.

Toshkent shahri aeroportida 2019–2020-yillarda yangi xalqaro terminal qurilishi amalga oshiriladi. Buning uchun davlat budgeti, O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan 336 million dollar mablag‘ yo‘naltiriladi.

**Beshinchи – yo‘l va yo‘l o‘tkazgich tarmoqlarini rivojlantirish masalalari.**

So‘nggi vaqtida yangi keng avtomobil yo‘llari va ko‘priklar, chorrahalar barpo etilgani poytaxtimiz yo‘llarida qatnovni bir maromda ta’minlash imkonini bermoqda.

Birinchi Prezidentimizning bu masalaga hamisha katta e’tibor qaratib kelganliklarining boisini bugun yanada chuqur tushunib yetyapmiz. Ayni vaqtida, bu borada vaziyat murakkabligicha saqlanib kelayotganiga hammamiz guvoh bo‘lyapmiz.

Istiqbolda transport kommunikatsiya tarmoqlari, chorrahalarни takomillashtirish, yo‘llarni qurish va rekonstruksiya qilishning puxta o‘ylangan strategiyasini belgilash bilan bog‘liq maxsus Hukumat qarori tayyorlanishi kerak, deb hisoblayman.

Ushbu hujjatda shahar aholisi uchun qulay sharoitlar yaratish, tobora ko‘payib borayotgan transport oqimini oqilona boshqarish, aholiga transport xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish yuzasidan kelgusi 5 yilda umumiy qiymati 1 trillion so‘m, uzunligi 529 kilometr bo‘lgan loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha tashkiliy va moliyalashtirish bilan bog‘liq masalalar albatta o‘z yechimini topishi kerak.

Jumladan, shaharda 2017–2018-yillarda respublika yo‘l jamg‘armasi hisobidan umumiy qiymati 84 milliard so‘m, uzunligi 32,2 kilometrdan ziyod bo‘lgan «Kichik halqa yo‘li» barpo etilishi, rekonstruksiya qilinishi va ta’mirlanishi belgilangan.

Yaqin besh yilda davlat budgeti va respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan umumiy qiymati 916 milliard so‘m bo‘lgan 12 ta yangi ko‘prik quriladi, umumiy foydalanishdagi 68 kilometrdan ortiq yo‘l quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Hozirgi vaqtida respublika yo‘l jamg‘armasi hisobidan Yunusobod va Mirzo Ulug‘bek tumanlarida Bo‘zsuv kanali orqali 400 metr uzunlikdagi va 6 ta polosali, umumiy qiymati 38 milliard so‘m bo‘lgan ko‘prik qurilishi boshlab yuborildi va u kelgusi yili foydalananishga topshiriladi.

Chilonzor tumanida Bunyodkor va Muqimiy ko‘chalari kesishgan joyda umumiy qiymati 42 milliard so‘m bo‘lgan transport bog‘lamasini davlat budgeti hisobidan barpo etish boshlanadi. Bu inshoot ko‘prik, piyodalar o‘tish joyi va olti polosali zamonaviy avtomagistralni o‘z ichiga oladi.

Sirg‘ali tumanida 2017-yilda respublika yo‘l jamg‘armasi hisobidan umumiy qiymati 79 milliard so‘m, uzunligi 10 kilometr bo‘lgan 6 polosali Qipchoq ko‘chasi rekonstruksiya qilinadi. Bu ko‘cha bo‘ylab temiryo‘l ustidan yangi ko‘prik barpo etilishi ham ko‘zda tutilmoqda. Bundan tashqari, 2017-yilda respublika yo‘l jamg‘armasi hisobidan umumiy qiymati 42 milliard so‘m, uzunligi 5 kilometr bo‘lgan 6 polosali loyihaviy yangi ko‘cha barpo etiladi.

### **Oltinchi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish masalalari.**

Internet tarmoqlari hayotimizning barcha yo‘nalishlarida, xususan, zamonaviy shaharlarda doimiy xizmat ko‘rsatadigan ajralmas va zaruriy vosita sifatida borgan sari keng o‘rin egallamoqda. Shaharda keng formatga ega optik tolali tarmoqlar va axborot-kommunikatsiya inshootlari mavjud bo‘lib, ular 772 mingta abonentga xizmat ko‘rsatmoqda.

Ana shu ishlarning davomi sifatida so‘nggi texnologiyalar asosida ma’lumotlarni elektron tar-

moqlar orqali yuqori tezlikda uzatish, dasturiy mahsulotlar shakllantirilishi bilan bog‘liq vazifalarimiz quyidagilardan iboratdir.

Shahar miqyosida 2017–2021-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish yuzasidan 383 milliard 700 million so‘m miqdoridagi 30 ta loyiha amalga oshirilishi zarur.

Hozirgi vaqtda kelgusi yildan boshlab shahardagi barcha ko‘p qavatli uylardagi xonadonlarda Internetga ulanish, jumladan, televizor orqali bosqichma-bosqich keng polosali formatda ulanishga o‘tishni ta’minlash haqida qaror loyihasini tayyorlash bo‘yicha ish olib boryapmiz. Yangi quriladigan uylar esa bundan buyon har bir xonadonga keng polosali Internet tarmoqlari o‘tkazilgan holda foydalanishga topshirilishi shart.

Misol uchun, birgina Shayxontohur tumani-da 2017–2018-yillarda sohaning o‘z mablag‘lari hisobidan 168 milliard so‘m miqdoridagi 4 ta loyiha joriy etiladi.

Xususan, poytaxtimizning Eski shahar mavzesida barpo etilayotgan 25 ta ko‘p qavatli uy uchun 1300 ta tarmoq quriladi va aholi yuqori sifatli «AYPI» telefoniya texnologiyasi asosida Internet va aloqa tarmoqlariga ulanadi.

«Elektron hukumat»ni tashkil etish dasturi doira-sida biznes va aholiga elektron tizimlar, shuning-dek, «yagona darcha» tizimi orqali barcha davlat xizmatlarini ko‘rsatish yo‘lga qo‘yiladi.

Bundan asosiy maqsad – davlat organlari hamda tashkilotlari bilan simsiz hamkorlik qilish, kommunal xizmatlar uchun hisob-kitoblar olib borish, tovarlar va xizmatlardan axborot texnologiyalari orqali foydalanishdan iboratdir. Shu borada kelgusi 5 yilda

«Elektron hukumat» tizimi uchun axborotlarni saqlash va qayta ishlash markazi tashkil etiladi.

Hurmatli do'stlar!

Yurtimizga kelayotgan sayyoohlар, ilm-fan, mаданият va biznes vakillari poytaxtimizda o'zlarini xavf-xatarsiz his etishlarini, ko'chalarimizda kecha-yu kunduz bemalol yurish mumkinligini alohida ta'kidlaydilar. Biroq bugun dunyoning ko'plab min-taqalarida yuzaga kelgan tahlikali vaziyat shahrimiz aholisi va mehmonlarining xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Shu sababli biz, **birinchidan**, profilaktika inspektorlari institutini mustahkamlashga e'tibor qaratib, quyi bo'g'in va uchastkalarda ularning sonini ko'paytirish maqsadida Ichki ishlar vazirligi va shahar ichki ishlar boshqarmasi tizimida tegishli tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshiramiz.

**Ikkinchidan**, profilaktika inspektorlarini uchastkalar, ya'ni mahallalar hududida xizmat kvartiralari bilan ta'minlaymiz. Bu esa inspektorlarni o'zlariga biriktrilgan uchastkalarga yaqinlashtirish, ularning faoliyati va mas'uliyatini oshirish imkonini beradi.

**Uchinchidan**, profilaktika inspektorlarining tezkor harakat qilishini ta'minlash maqsadida ularga avtomashinalar xarid qilish uchun 20 yil muddatga imtiyozli iste'mol kreditlari berish mexanizmi joriy etiladi.

Poytaxt aholisining tinch-osuda hayotini ta'minlash, birinchi navbatda, **yoshlarimizning ta'limtarbiyasiga**, dunyoqarashiga va azaliy urf-odatlarimizni asrab-avaylashga bog'liq ekani barchamizga yaxshi ma'lum.

Bu haqda gapirganda, keyingi paytda voyaga yetmagan yoshlар o'rtasida jinoyatchilik pasaymasdan, ayrim hollarda ko'payib borayotgani barchamizni jiddiy tashvishga solmoqda. Misol uchun, joriy yilning 10 oyida Toshkent shahrida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni oshganini, xususan, qasddan odam o'ldirish 3 foizga, zo'ravonlik 4 foizga, boshqa toifadagi jinoyatlar esa 9 foizga ko'payganini qanday baholash mumkin?

Bunday salbiy holatlarning ortib borishi yoshlар bilan ishslash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratishni taqozo etmoqda. Shunga ko'ra, hokimliklarda yoshlар bilan ishslashga mas'ul bo'lган hokim o'rribbosari lavozimini joriy etamiz.

Tuman ichki ishlar bo'limlarida esa yoshlар bilan ishslash bo'yicha maxsus o'rribbosar lavozimi kiritiladi va ular «Kamolot» yoshlар ijtimoiy harakati faollari bilan hamkorlikda ishslash, bolalar va o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish uchun javob beradilar.

Shu bilan birga, «Kamolot» yoshlар ijtimoiy harakatining ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish borasidagi ishlarini yanada kuchaytirish zarur.

Buning uchun «Kamolot» yoshlар ijtimoiy harakatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yuzasidan Hukumatning tegishli qarorini tayyorlash ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, xalqaro tajribadan kelib chiqib, Tablabalar shaharchasi va oliv o'quv yurtlari turar-joylarida barcha qulayliklarga ega bo'lган madaniy dam olish markazlarini tashkil etish va ulardan bepul foydalanishni yo'lga qo'yish bo'yicha aniq choratadbirlar ishlab chiqish lozim.

Yoshlarning ta’lim-tarbiyasi haqida gapirganda, ularning kitobga mehri pasayib, bolalarimiz ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotganini alohida ta’kidlamoqchiman. Meni to‘g‘ri tushunishlarining istayman, men Internetga qarshi emasman. Bugungi kunda axborot tarqatish, axborot almashishning tezligi va mukammalligi bo‘yicha Internetning o‘rnini bosadigan boshqa vosita yo‘qligini albatta yaxshi bilaman.

Ammo farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o‘tgan, yusakk ma’naviyat manbayi bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki biz uchun yot bo‘lgan g‘oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirayotgan zararli axborotlar asosida shakllanishiga men mutlaqo qarshiman.

Bolalar bog‘chalari, maktablar, kollej va litseylar, oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayoni, ta’lim va tarbiya usullarini qayta ko‘rib chiqishimiz zarur.

Eng muhimi, farzandlarimizda yoshlik chog‘idan boshlab kitobga mehr qo‘yish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri javob topish ko‘nikmasini shakllantirishimiz, buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor.

Yoshlarni tarbiyalashda ta’lim muassasalari, kutubxonalar, axborot-resurs markazlari rolini oshirish, bu borada badiiy va ilmiy adabiyotlardan keng foydalanish maqsadida poytaxtimizdagi barcha kutubxonalar ta’mirlanadi. Kitob fondini kengaytirish va keyinchalik elektron manbalarga o‘tkazish bo‘yicha budgetdan maqsadli moliyalashtirish hajmi oshiriladi.

Shuningdek, shahardagi 27 ta madaniyat uyini to‘liq ta’mirlaymiz va ularning har birida boy kutubxona fondiga ega bo‘lgan shinam o‘quv zallarini tashkil etamiz. Bundan tashqari, har bir tumanda bittadan barcha qulayliklarga ega bo‘lgan zamonaviy yangi kitob do‘konlari barpo etiladi. Shular qatorida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida mamlakatimiz kutubxona fondining yagona elektron tarmog‘ini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu tarmoqda milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalari keng taqdim etilishi, barcha ta’lim muassasalari va aholi o‘z shaxsiy kompyuteri orqali tarmoqdan uyida turib foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Aziz do‘sstar!

Biz ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan ishlarimizni yanada kuchaytirish uchun bir qator chora-tadbirlarni rejlashtirmoqdamiz.

Farzandlarimizni har tomonlama bilimli, ona yurtimizga sadoqatli insonlar etib tarbiyalash bolalar bog‘chasidan boshlanishini e’tiborga olib, joriy yilning yakuniga qadar 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan, maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha maxsus dastur qabul qilamiz.

Jumladan, kelgusi besh yilda Toshkent shahrida 45 ta yangi bolalar bog‘chasi barpo etiladi, 225 ta maktabgacha ta’lim muassasasi rekonstruksiya qilinadi, ta’mirlanadi va qayta jihozlanadi.

Bugungi kunda shahar maktablaridagi ahvol haqida gapiradigan bo‘lsak, poytaxtimizning ayrim hududlarda maktablar o‘quvchilar uyidan uzoqligi, bir qator maktablarda esa, sinfdagi o‘quvchilar soni haddan

tashqari ko‘pligi, hatto qirqdan ziyodni tashkil etishi, tabiiyki, ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bunday holatni bartaraf etish uchun kelgusi yili Bektemir tumanida 1 ta va Olmazor tumanida 2 ta yangi maktab barpo etiladi. O‘quvchilar soni ko‘p bo‘lgan 5 ta maktabga qo‘srimcha yangi o‘quv binolari qurib beramiz. Shuningdek, 21 ta maktab to‘liq ta’mirlanadi.

Ushbu maqsadlarga 2017-yilda Davlat budgetidan 56 milliard so‘m ajratiladi. Toshkent shahrida maktablarni qurish va ta’mirlash ishlariga budjet mablag‘lari ni kelgusi yillarda ham yetarli miqdorda ajratish haqidagi Moliya vazirligiga qat’iy topshiriq berildi.

Shu o‘rinda muhim bir masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Men ilmiy-texnik taraqqiyot bo‘yicha kelajagimizni belgilab beradigan fizika, matematika, kimyo, biologiya, informatika va kompyuter texnologiyasi kabi fanlar bo‘yicha **ixtisoslashtirilgan maktablarni ko‘paytirishni taklif etaman.**

Bu maktablarda, ayniqsa, kam ta’minlangan oilalarning iqtidorli farzandlari uchun zarur sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak.

Yoshlarning kasb-hunar egallash va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 14 ta kasb-hunar kolleji kapital ta’mirlanib, qayta jihozlanadi va ushbu maqsadlar uchun Davlat budgetidan 18 milliard so‘m ajratiladi.

Akademik litseylar faoliyatini yanada takomillashtirish oldimizda muhim vazifa bo‘lib turibdi. Menimcha, har bir litsey tegishli oliy o‘quv yurtiga biriktirilishi va ularga faqat iqtidorli bolalar qabul qilinishi lozim.

Akademik litseylarda darslar imkonini boricha oliy o‘quv yurtlari domlalari tomonidan o‘tilishi nur ustiga nur bo‘lardi.

Bu mashg‘ulotlar iste’dodli yoshlarning keyinchalik oliy o‘quv yurtlarida, so‘ngra doktoranturada o‘qishni davom ettirishiga yordam berishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim sifati va yana bir bor ta’lim sifati akademik litseylar faoliyatining asosiy mezoni bo‘lishi darkor.

Sizlarga ma’lumki, Toshkentda xalqaro miqyosda e’tirof etilgan nufuzli xorijiy oliy o‘quv yurtlarining filiallari, shuningdek, deyarli barcha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yirik oliy o‘quv yurtlari joylashgan.

Afsuski, aksariyat oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifati xalqaro mezonlarga va real iqtisodiyot talablari ga javob bermaydi. Ishlab chiqarishda ish boshlagan ko‘pgina bitiruvchilarni aksariyat hollarda qayta o‘qitishga to‘g‘ri kelmoqda.

Yuzaga kelgan vaziyatni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmoyishi qabul qilindi va oliy ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish bo‘yicha maxsus dastur yakuniga yetkazilmoqda.

Dasturga binoan ta’lim standartlarini xalqaro andozalarga moslashtirish, o‘quv dasturlari va rejalarini takomillashtirish, darsliklarning yangi avlodini yaratish, jumladan, dunyoning yetakchi universitetlarida qo‘llanilayotgan darsliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilish va eng asosiysi, professor-o‘qituvchilarni qayta tayyorlash yuzasidan aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarining bino va inshootlarini qayta qurish va ularni laboratoriya us-

kunalari bilan jihozlashga har yili Davlat budgetidan 400 milliard so‘m mablag‘ ajratiladi.

Ma’lumki, Toshkent shahri mamlakatimiz ilmiy-texnikaviy salohiyatining ulkan qismini o‘zida mujassam etgan Markaziy Osiyodagi eng yirik ilmiy markazdir.

Shu sababli ham bugungi uchrashuvimizda **ilm-fan** va ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tish o‘rinli, deb o‘layman.

Avvalambor, O‘zbekistonda ilm-fan rivojini zamonaviy asosda tashkil etish uchun Fanlar akademiyasi ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan boshqarish va muvofiqlashtirish bo‘yicha yetakchi markaz bo‘lib qolishi kerak deb hisoblayman.

**Birinchi navbatda**, Fanlar akademiyasiga yosh olimlarni keng jalb etish, ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish kerak. Ayni vaqtda, talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish uchun ilmiy muassasalar bilan oliv o‘quv yurtlari o‘rtasida yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatish lozim.

Mazkur jarayonlarni tezlashtirish hamda ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy jihozlash uchun har yili 10 million dollarga yaqin mablag‘ ajratish ko‘zda tutilmoqda. Buning uchun ustav fondi erkin konvertatsiya qilinadigan valutada shakllantiriladigan maxsus jamg‘arma tuzish maqsadga muvofiqdir. Ilmiy tadqiqot laboratoriylariga tanlov asosida zamonaviy asbob-uskunalar sotib olish uchun ushbu jamg‘armadan tegishli grantlar ajratish tartibi ishlab chiqilishi lozim.

**Ikkinchidan**, ilmiy tadqiqot natijalarini hayotga tatbiq etish katta muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu masalada jiddiy siljishga erishish uchun xalqaro tajribadan kelib chiqib, poytaxtimizning Akademiklar shaharchasida «erkin iqtisodiy hudud» maqomiga ega bo‘lgan, ya’ni barcha soliq va majburiy to‘lovlardan ozod etilgan hamda maxsus valuta va bojxona tartibi asosida ish yuritadigan **innovatsiya markazini tashkil etish** maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun zarur bo‘lgan barcha xarajatlar, ya’ni 27 milliard so‘m va 5,5 million dollar mablag‘ Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi jamg‘arma mablag‘lari va investitsiyalar hisobidan qoplanadi.

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilar!

Bugungi uchrashuvga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida men **shahar aholisi har kuni murojaat qiladigan** kasalxonalar, tug‘uruqxonalar, bolalar shifoxonalari va oilaviy poliklinikalarga yanada ko‘proq e’tibor qaratish lozim ekaniga amin bo‘ldim.

Shu maqsadda shahar aholisiga xizmat ko‘rsatadigan tibbiyot muassasalarini qayta qurish va ta’mirlashga Davlat budgetidan keyingi 5 yilda 300 milliard so‘m ajratildi.

Jumladan, 2017-yilda Uchtepa tumanidagi Besh-qayrag‘och mahallasi, sobiq «Shtab» mahallasidagi 9-sonli, Qorasaroy mahallasidagi 2-sonli, Sirg‘ali tumanı «Sputnik» mavzesidagi 1-sonli tug‘uruqxona majmualari ta’mirlanadi va zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalari bilan qayta jihozlanadi.

O‘z navbatida, Ibn Sino nomidagi 1-sonli klinik shifoxonada qayta qurish va ta’mirlash ishlari kelgusi yili to‘liq yakunlanadi. Bundan tashqari, yangi yilda

Yunusoboddagi 1-sonli shahar bolalar shifoxonasi hamda Chilonzor tumanidagi 5-sonli yuqumli kasalliklar shifoxonasi ham kapital ta'mirlanadi va jihozlanadi.

Xulosa qilib aytganda, kelgusi besh yilda shahardagi 18 ta bolalar shifoxonasi va ko'p tarmoqli poliklinikalar, 22 ta oilaviy poliklinika kapital ta'mirlanadi. Shuningdek, Yakkasaroy, Yunusobod, Uchtepa, Shayxontohur va Olmazor tumanlarida 25 ta oilaviy poliklinika yangitdan quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Yuqorida bayon etilgan loyihalarga qo'shimcha ravishda dori-darmonlar narxini shakllantirish masalasiiga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Bu masalaning qanday dolzarb bo'lib turgani hech kimga sir emas. Shu bois biz dori-darmonlarga narx belgilashni davlat tomonidan tartibga solish tizimini tubdan o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qildik. Qariyb 300 nomdag'i dori-darmonlar uchun qat'iy narx belgilandi, qolgan dori vositalari uchun esa ustama narx belgilash cheklandi.

Natijada 2017-yilning yanvar oyidan boshlab dorixonalarda amaldagi narxlardan ancha past bo'lgan yangi narxlarni ko'rish mumkin bo'ladi, deb o'yayman.

Barchamizga ayonki, **jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish** aholi salomatligini ta'minlashning muhim omili bo'lib, avvalo, yoshlarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan shahrimiz yoshlari sport bilan ommaviy ravishda shug'ullanishlari uchun

yanada keng imkoniyat yaratish maqsadida kelgusi 3 yil davomida bolalar va o'smirlar sport maktablariga olimpiya talablariga javob beradigan 10 ta yopiq basseyn va 10 ta universal sport zallari qurib beriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Jumladan, kelgusi yilda shaharning aholi zinch joylashgan va sport komplekslari mavjud bo'lmagan Chilonzor, Mirzo Ulug'bek, Mirobod, Uchtepa tumanlaridagi sport maktablarida yopiq suzish havzalari va sport zallari quriladi va rekonstruksiya qilinadi. Ushbu maqsadlar uchun Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasidan 23 milliard so'm mablag' ajratiladi.

Endi **katta sport** haqida gapiradigan bo'lsak, yangi yilda Toshkentda sportning o'yin turlari ga ixtisoslashgan va xalqaro sport musobaqalarini o'tkazishga mo'ljallangan eng zamonaviy, universal sport kompleksini barpo etish uchun Davlat budgetidan 45 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Shuningdek, Shayxontohur tumanidagi O'qchi mahallasida sportning muz ustida uchish turi bilan shug'ullanish hamda shahar aholisining dam olishi uchun mo'ljallangan Muz saroyi quriladi. Mazkur majmualarni loyihalashtirish uchun jahonning yetakchi arxitektor va dizaynerlari jalb etiladi.

Aziz do'stlar!

Azim poytaxtimizda **madaniyat** va **san'atni rivojlantirish**, aholining madaniy hordiq chiqarishi uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratish yana bir muhim vazifamizdir.

Biz mamlakatimizda ma'naviy muhitni yuksaltirish maqsadida madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini

yanada taraqqiy toptirishga alohida e'tibor qararamiz.

Birinchi navbatda, yozuvchilar, bastakor va ras-somlar, teatr arboblari, kinoijodkorlar, jurnalistlar va boshqa ijodiy uyushmalarning ijtimoiy hayotimizdagi o'mni va nufuzini oshirishga alohida ahamiyat qararamiz.

Men shoир va adiblar, rassomlar, aktyor va rejissorlar, kompozitorlar, ommaviy axborot vositalarining vakillari bilan doimiy muloqotda bo'laman. Shu bois to'la ishonch bilan ayta olamanki, ular o'z kasbiga, ona Vatanimiz, xalqimizga juda sodiq insonlardir. Ular ish sharoiti yoki moddiy ahvoli haqida hech qachon shikoyat qilmaydilar. Eng muhimi, ular el-yurtimiz rivoji uchun chin dildan xizmat qilishni istaydilar. Men ularning ishi qanchalik og'irligini yaxshi bilaman va ijod ahlining mehnatini rag'batlantirishga yetarlicha e'tibor bermaganimizni ham tan olaman.

Shu sababli 2017-yilda yozuvchi va jurnalistlarining qalam haqini, teatr va muzeylar xodimlarining, shuningdek, boshqa san'at va ijod sohasi vakillarining maoshlari miqdorini sezilarli ravishda oshirish haqida maxsus qaror qabul qilamiz.

Poytaxt aholisi tomonidan shaharda madaniyat va istirohat bog'lari yetarli emasligi haqida ko'plab e'tirozlar bildirilmoqda. Ochiq tan olishimiz kerakki, biz bu masalada poytaxtimiz aholisi va mehmonlari, ayniqsa, yoshlarimiz oldida qarzdormiz.

Bu boradagi ishlarni yaxshilash maqsadida **maxsus dastur ishlab chiqildi**. Unga ko'ra, 2017-yilda Toshkent shahrida 8 ta yangi madaniyat va istirohat

bog‘i barpo etiladi. Ularni joylashtirish uchun Mirzo Ulug‘bek, Mirobod, Uchtepa, Sirg‘ali, Chilonzor, Shayxontohur va Yashnobod tumanlarida tegishli yer maydonlari ajratib qo‘yildi.

Bundan tashqari, Bektemir tumanida, Chirchiq dar-yosi qirg‘og‘ida 70 hektar maydonda umumiyligi qiyamati 80 million dollar bo‘lgan, dunyodagi eng mashhur «Disneyland» parklaridan qolishmaydigan Markaziy Osiyodagi eng katta zamona viy attraksionlar bog‘i quriladi. Hozirgi paytda mazkur loyihani amalga oshirish yuzasidan Yevropaning yetakchi park operatorlari bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Hurmatli do‘sstar!

**Keksalarimizni asrab-avaylash, ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash masalasi ham bizning doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ladi.**

Avvalambor, 2017-yildan boshlab «Nuroniy» jamg‘armasining tuman, shahar, viloyat va respublika darajasidagi vakillari Davlat budgetidan maosh oladilar va bunda ularning pensiyalari to‘liq miqdorda saqlab qolinadi. Ushbu maqsadlarga Davlat budgetidan har yili 4 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratiladi. Shuningdek, Toshkent shahrida yashaydigan barcha pensionerlarga Toshkent metropoliteni xizmatlaridan har kuni ertalab soat 10 dan kechqurun 16 gacha bepul foydalanish huquqi beriladi.

Bundan tashqari, Toshkent shahridagi pensionerlarning 20 foiziga, ayniqsa, boshqalarning yordamiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz qariyalarga yilda bir marta «Nuroniy» jamg‘armasi mablag‘lari

hisobidan **dori vositalari sotib olish uchun moddiy yordam ko'rsatiladi**. Shu bilan birga, yolg'iz keksalar va imkoniyati cheklangan insonlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, Muruvvat va Saxovat uylarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash tadbirlarini amalgaloshiramiz. Ayni paytda, Muruvvat va Saxovat uylarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashi ko'magida shahardagi barcha Mehribonlik uylari to'liq ta'mirlandi.

Muhtaram poytaxt ahli!

**Mustaqillik yillarda biz erishgan eng katta yutuq – bu jamiyatimizdagi o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir va biz bu beba ho boylikni asrab-avaylash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.**

Butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kela-yotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo'lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlashni biz xavfsizlik va barqarorlikni, xalqimizning osoyishta hayotini ta'milashning eng muhim sharti va kafolati, deb bilamiz.

Yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman – biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga tahdid solishga urinadigan yovuz kuchlarning har qanday harakatlari ga keskin zarba berishga qodirmiz.

**Tashqi siyosat** sohasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan prinsip va yondashuvlarga to'liq amal qilish

saylovoldi dasturimizning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bu siyosatning asosiy ma’no-mazmuni – tinchlik-parvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo‘l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat.

Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘silmaydi, boshqa davlatlarning harbiy baza va obyektlari O‘zbekiston hududida joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo‘sni mamlakatlar bilan do’stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Bu borada ilgari ham aytgan bir fikrimni takrorlashni istardim. Biz qo‘snilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo‘lini izchil davom ettiramiz. Hamkorlikni tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi deb bilamiz. Qo‘snilarimiz bilan o‘zaro hurmat va manfaatli hamkorlikni qancha rivojlantirsak, bundan yurtimiz ham, butun mintaqamiz ham shuncha ko‘p naf ko‘radi.

Aziz do‘stlar!

Shahrimiz hayotining iqtisodiy, ijtimoiy va gu-manitar-madaniy sohalardagi ko‘p qirrali vazifalarni

muvaffaqiyatli bajarish avvalo tartib va intizom, shahar va tumanlar rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

**Odamlar orasida yashash, ularning dardiga qulq solish, aholining ehtiyojlari va qonuniy tabablarini amalga oshirish uchun tezkor choralar ko'rish – har bir rahbarning asosiy vazifasi, deb hisoblayman.**

Bu muhim sohada, afsuski, hali ko'pgina kamchiliklarimiz bor. Faqat keyingi 2 oy mobaynida Bosh vazirning virtual qabulxonasiga shahar fuqarolaridan 60 mingdan ortiq murojaat kelib tushdi. Bu mamlakatimiz bo'yicha barcha murojaatlarning 32 foizini tashkil qiladi. Ularning asosiy qismi uy-joy sharoitlarini, bank tizimi faoliyatini yaxshilash, bandlik va suv ta'minoti masalalari bo'yicha Olmazor, Mirzo Ulug'bek, Yunusobod, Shayxontohur va Chilonzor tumanlariga to'g'ri keladi. Aksariyat hollarda, shahar aholisi huquqni muhofaza qilish tizimi ishlaridan norozi bo'lmoqda.

Kadrlar bilan ishlashda yo'l qo'yilayotgan nuqsonlar ushbu kamchiliklarning asosiy sabablaridan biridir. Ayni vaqtida, qo'yilgan vazifalarni mas'uliyat bilan va professional darajada amalga oshirishga qodir bo'lgan kadrlarning amaliy zaxirasi yaratilmaganini afsus bilan qayd etish kerak.

Shularni hisobga olib, bir oy mobaynida har bir tumandagi vaziyatni puxta o'rganib chiqish, tuman hokimliklari va shahar hokimligi boshqarmalarini ishchan va zamonaviy fikrlaydigan kadrlar bilan mustah-

kamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chi-qish zarur va shart deb o‘layman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Aziz hamshaharlar!

Vatanimiz poytaxti, uning oltin ostonasi bo‘lgan azim Toshkentimiz barchamiz uchun onadek ulug‘ va mo‘tabardir. Biz bu buyuk shahar timsolida O‘zbekistonimizni, uning bugungi ozod va obod qiyofasini, nurafshon kelajagini ko‘ramiz.

Toshkentni yanada go‘zal va obod shaharga aylantirish – barchamizning muqaddas farzandlik burchimizdir. Mening saylovoldi dasturimdan o‘rin olgan barcha reja va tadbirlar ayni shu ezgu maqsadga qaratilgandir. Hech shubhasiz, bu boradagi amaliy sa'y-harakatlarimiz nafaqat Toshkent shahri, balki butun mamlakatimiz rivojiga beqiyos hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Yangi, demokratik O‘zbekiston davlatini qurish va uni dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqishda doimo oldingi safda bo‘lib kelayotgan siz, azizlar ana shu ulkan marralarga erishishda barchaga o‘rnak va namuna bo‘lasiz deb ishonaman.

Hamisha ulug‘ maqsadlar bilan yashaydigan mard va olijanob xalqimizga, siz, hurmatli poytaxt ahliga farzandlik mehri va sadoqati bilan xizmat qilish, sizlarning yuksak ishonchingizni oqlash – men uchun chinakam saodatdir.

Aziz vatandoshlar!

**Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz**

**bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz  
bor. Va men ishonaman, Xudo xohlasa, havas qil-  
sa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo'-  
ladi.**

So‘zimning oxirida sizlarga, sizlar orqali ko‘pni  
ko‘rgan, mehri daryo Toshkent ahliga sihat-salomatlik,  
baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilay-  
man.

E’tiboringiz uchun rahmat.

### **Simpoziumlar saroyi, 2016-yil 24-noyabr**

## MUNDARIJA

Zamon bilan hamnafas diyor (Andijon viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq).....	3
Oltin vodiy durdonasi (Farg‘ona viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) .....	39
Go‘zal va betakror o‘lka (Namangan viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) .....	71
Mamlakatimizning javohir xazinasi (Navoiy viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) .....	107
Ilm-u ma’rifat, din-u diyonat, buniyodkorlik bilan nom qozongan xalq (Buxoro viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq).....	141
Samarqand – Yer yuzining sayqali (Samarqand viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq).....	171
Yuragimga, qalbimga yaqin insonlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) 201	
Oqqan daryo aslo to‘xtamas (Xorazm viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) .....	237
Oqko‘ngil, oriyatli va mehnatkash insonlar yurti (Surxondaryo viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq).....	273
Har qanday sinovlarni yengishga qodir xalq (Qashqadaryo viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq).....	303
«Shunday o‘lka doim bor bo‘lsin!» (Jizzax viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) .....	337
Sahro bag‘rida mo‘jizalar yaratayotgan el (Sirdaryo viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq).....	371

Yuksak ta'riflarga munosib zamin (Toshkent viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq).....	401
Toshkent – barchamiz uchun onadek ulug' va mo'tabardir (Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq).....	439

*Rasmiy nashr*

*Shavkat Miromonovich Mirziyoyev*

**BUYUK KELAJAGIMIZNI  
MARD VA OLIJANOB  
XALQIMIZ BILAN  
BIRGA QURAMIZ**

Muharrir *I. Ahmedov*  
Badiiy muharrir *Sh. Xodjayev*  
Texnik muharrir *T. Xaritonova*  
Kichik muharrir *D. Xolmatova*  
Musahhih *M. Ishonxonova*  
Kompyuterda sahifalovchi *N. Ahmedova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158.14.08.2009.  
Bosishga 2017-yil 5-yanvarda ruxsat etildi. Bichimi 60x90<sup>1/16\*</sup>  
Offset qog‘izi. «Times New Roman» garniturasida.

Offset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 30,5 . Nashr tabog‘i 22,58.

Adadi 15000 nusxa. Buyurtma № 16-883.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10

e-mail: [iptd.uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:iptd.uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

**Mirziyoyev, Shavkat**

M 54 Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga  
quramiz. –Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 488 b.

ISBN 978-9943-28-939-0

UO'K 323(575.1)  
KBK 66.3(50')

